ISSN 3030-3672

HCSD

Human capital and social development.

2025 – volume 14, issue 2

Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali.

2025 – 14-jild, 2-son

www.hcsd.samdu.uz

Samarqand_2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali
Journal Human capital and social development
Журнал Человеческий капитал и социальноеразвитие
Jurnali

14-jild, 2-son (aprel) 2025.
Jurnal 2021-yilda tashkil topgan.
Davriyligi: har ikki oyda

Davriy nashirning rasmiy nomi: “Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish”-“Human capital and social development”-“Человеческий капитал и социальное развития” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 19.05.2021 sanada berilgan №1179 guvohnomasi bilan ro‘yhatdan o‘tgan.

Junal: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023 yil 30 noyabrdagi 342/3-son qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) Ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yhatiga kiritilgan.

Jurnal asoschilari: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla tarqqiyotini boshqarish instituti.
Nashr etuvchi: SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi.
Xalqaro indeksi: ISSN 3030-3672
Tahririyat telefoni: +998 (94) 283 56 78, +998 (90) 502 13 03
Pochta manzili: 140104, Samarqand shahar., Universitet xiyoboni, 4
Web-sayt: www.hcsd.samdu.uz.
E-mail: muhriddinrabbimov@gmail.com

«INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANISH»
«HUMAN CAPITAL AND SOCIAL DEVELOPMENT»
«ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ»
JURNALI

Bosh muharrir: t.f.d., prof. Xalmuradov Rustam Ibragimovich
Bosh muharrir o‘rinbosari: i.f.d., prof. Arabov Nurali Uralovich
Kotib: PhD, dots. Nasimov Ikrom Xusanovich
Texnik muharrir: assistent., Rabbimov Muxriddin Musoqul o‘g‘li

TAHRIRIYAT KENGASHI
O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. Abdurahmonov Qalandar Xodjayivech
O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. G‘ulomov Saidaxror Saidaxmedovich
DSc, professor Daler Mirpochoyev (Iqtisodiyot va savdo instituti, Tojikiston)
PhD, professor Arindam Banik (Xalqaro menejment instituti, Hindiston)
PhD, professor Jiye Li (Sian Jiatong universiteti, Xitoy Xalq Respublikasi)
PhD, professor Bayong Van Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)
PhD, professor Vonyong Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)
PhD, professor Yan Patterson (Kvinslend universiteti, Avstraliya)
PhD, dots. Djurakulov Shoxrux Davronovich (SamDU)
i.f.n., dots. Yuldashev Shamsiddin Qiyomiddinovich (SamDU)
i.f.n., dots. Nizamov Axtam Numonovich (SamDU)
i.f.n., dots. Bozorov Berdimurod Ulug’murodovich (SamDU)
i.f.n., dots. Boboqulov Bahromqul Mamatkulovich (SamDU)
i.f.n., dots. Usmonova Dilafruz Karshiyevna (SamDU)
i.f.n., dots. Alibekova Saodat Lapasovna (SamDU)
PhD, dots. Ulug‘murodova Nodira Berdimuradovna (SamDU)
PhD, dots. Sharifov Shuhrat Saidahmadovich (SamDU)
PhD, dots. Bakayev Ziyovuddin Toshbolta o‘g‘li (SamDU)
PhD, dots. Karjavova Xurshida Abdumalikovna (SamDU)
PhD, dots. Mansurova Nargiza Shamsiddinovna (“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti)
PhD, dots. Djalilov Faxriddin Azimovich (SamDU)
PhD, dots. Boltayev Burxon Sadinovich (SamDU)
PhD, dots. Maxmudova Mohinur Ravshanbekovna (SamDU)

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN STRATEGIYALAR VA USULLAR.

N.B.Ulug‘muradova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna
Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti
Email: *nodi_79.79@mail.ru*
Tel: *+998915307979*

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot, inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar va usullarni tahlil qilib, ularning samaradorligi va iqtisodiy natijalarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda ta’lim, mehnat bozori, innovatsion texnologiyalar va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar orqali inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘rsatilgan. 2015-2023-yillar davomida amalga oshirilgan investitsiyalar va islohotlar natijasida, mamlakatda yoshlar ish bilan ta’minlanish darajasi oshgan, iqtisodiy o‘sish sur’ati va ta’lim sohasiga qaratilgan investitsiyalarning qaytimi ham sezilarli darajada yuksalgan.*

Kalit so‘zlar*: inson kapitali, strategiyalar, ta’lim, mehnat bozoridagi islohotlar, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar, sog‘liqni saqlash, yoshlar ishsizligi, samaradorlik.*

СТРАТЕГИИ И МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Аннотация: *Целью данного исследования является анализ стратегий и методов, направленных на развитие человеческого капитала, а также изучение их эффективности и экономических результатов. Исследование показывает влияние развития человеческого капитала на экономический рост посредством реформ в образовании, рынке труда, инновационных технологиях и здравоохранении. В результате инвестиций и реформ, реализованных в 2015–2023 годах, в стране повысился уровень занятости молодежи, увеличились темпы экономического роста, а также существенно возросла отдача от инвестиций в образование.*

Ключевые слова: *человеческий капитал, стратегии, образование, реформы рынка труда, инновационные технологии, экономический рост, инвестиции, здравоохранение, безработица среди молодежи, производительность.*

STRATEGIES AND METHODS FOR HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Abstract: *This study aims to analyze strategies and methods for human capital development, and to study their effectiveness and economic results. The study shows the impact of human capital development on economic growth through reforms in the education, labor market, innovative technologies, and healthcare sectors. As a result of investments and reforms implemented during 2015-2023, the country’s youth employment rate has increased, and the rate of economic growth and return on investments in education have also increased significantly.*

Keywords: *human capital, strategies, education, labor market reforms, innovative technologies, economic growth, investments, healthcare, youth unemployment, efficiency.*

Kirish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali o‘z rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga intilmoqda. Innovatsiyalar va texnologik yutuqlarni amalga oshirishda yuqori malakali ishchilar va bilimli kadrlarning roli juda katta. Inson kapitalining rivojlanishi, shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va raqobatbardoshlikni mustahkamlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jahon miqyosida inson kapitalining rivojlanishi bir qancha mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga olib kelgan.

Dunyo bo‘yicha ilg‘or mamlakatlar inson kapitaliga sarmoya kiritishning muhimligini chuqur anglashgan va bu jarayonlarni milliy rivojlanish strategiyalarining markaziga qo‘ygan. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya va Finlyandiya kabi mamlakatlar inson kapitalini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini kuzatishmoqda. Bu mamlakatlar, o‘zlarining ta’lim tizimlarini, sog‘liqni saqlash, ilm-fan va texnologiyalarga oid strategiyalarini ilgari surish orqali global raqobatdoshligini oshirishgan.

AQSh va Kanada kabi rivojlangan mamlakatlar esa ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga katta mablag‘lar ajratib, yangi texnologiyalarni yaratish va ishlatish jarayonlarini tezlashtirmoqda. Jahonning eng yirik iqtisodiy kuchlari, ayniqsa, “aqlli iqtisodiyot” yoki “raqamli iqtisodiyot”ga asoslangan strategiyalarni rivojlantirish orqali inson kapitalini kengaytirishni maqsad qilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga qaratilgan strategiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, malakali kadrlar tayyorlash va mavjud ishchi kuchini samarali foydalanishga asoslanadi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona kabi viloyatlarda ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlar inson kapitalining sifatini oshirishga yordam bermoqda.

Shuningdek, “2021-2025 yillarga mo‘ljallangan Inson kapitalini rivojlantirish milliy strategiyasi” doirasida, ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat bozorini optimallashtirishga qaratilgan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hamda raqobatbardoshligini oshirishga katta turtki bo‘lmoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Islomov A. Samarqand viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratgan tadqiqotida, mintaqaviy rivojlanish strategiyalari, resurslarni boshqarish va ijtimoiy barqarorlik haqida keng qamrovli ma’lumot bergan. U inson kapitalini rivojlantirishda mintaqaviy ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Islomov A. mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish orqali inson kapitalini shakllantirishning muhimligini ko‘rsatadi. U inson kapitalining rivojlanishiga yo‘naltirilgan strategiyalarni samarali amalga oshirish uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan sarmoyalar, innovatsion

yondashuvlar va ijtimoiy investitsiyalarni muhim omil sifatida ko‘radi.

Qodirov B. inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni haqida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. U inson kapitali va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganib, inson kapitaliga sarmoya kiritish mamlakatni raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishini ta’kidlaydi. Qodirov B. ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim, kasb-hunar malakasini oshirish va ilmiy tadqiqotlar inson kapitalining sifatini oshirishi va bu o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga olib kelishi mumkin. U inson kapitalini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib, hukumat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligini bildiradi.

Azimov T. innovatsiyalar va ins kapitali rivojlanishi o‘rtasidagi aloqani o‘rganib, yangi texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarning ta’lim tizimiga integratsiyasini muhim strategiya sifatida ko‘rsatadi. U innovatsion texnologiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakalarga ega mutaxassislar tayyorlashni nazarda tutadi. Azimov T. o‘z tadqiqotida innovatsion yondashuvlar va ilmiy-tadqiqot ishlari orqali inson kapitalini rivojlantirishning yangi yo‘llarini keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar va usullarni tahlil qilishda ekspertlar va amaliyotchilar bilan intervyular o‘tkazish orqali ularning fikrlarini yig‘ish va tahlil qilish, inson kapitalining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun so‘rovlar va anketalar o‘tkazish, g‘ilgan statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, ular asosida inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar.

Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalarni amalga oshirishning samaradorligini o‘lchashda, asosan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bozoridagi islohotlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash omillari ko‘rib chiqiladi.

1-jadval

Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalarni amalga oshirish samaradorligi (2015-2023 yillar)

Yil	Ta’lim soha investitsi ya-lari (mln. so‘m)	Mehnat bozori islohotlari	Innovatsion texnologiyala rni joriy etish (%)	Sog‘liqni saqlash soha investitsiyalar i (mln so‘m)	Inson kapitali rivojlanishi natijasi (yoshlar ishsizlik darajasi, %)
2015	5000	Qisman amalga oshirilgan	10	4000	18%
2016	6000	Yangi dasturlar boshlangan	15	4500	17%
2017	7000	Takomillashtiril -gan	18	5000	16%
2018	8500	Yaxshilangan bo‘lgan	22	6000	14%

2019	10000	Modernizatsiya	25	7000	13%
2020	12000	Innovatsion yo‘nalishlar	30	9000	12%
2021	15000	Joriy etilgan	35	12000	10%
2022	18000	Yangi model yaratilgan	40	15000	8%
2023	20000	To‘liq amalga oshirilgan	45	18000	6%

1-jadvalda ko‘rsatilgan investitsiyalarning o‘sishi, ta’lim sohasida resurslar va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishni ko‘rsatadi. 2023-yilga kelib, investitsiyalar 20,000 mln so‘mga yetgan va bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Mehnat bozoridagi islohotlarning samaradorligi ham sezilarli darajada oshgan. 2015-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda yangi ish joylari yaratilgan, ish bilan ta’minlash tizimi yaxshilangan va yoshlar o‘rtasida ish bilan ta’minlanganlik darajasi oshgan. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim, sanoat va sog‘liqni saqlash tizimlariga joriy etishning o‘sishi, inson kapitalining rivojlanishiga turtki bo‘lgan. 2020-yildan boshlab texnologiyalarni qo‘llashning yuksalishi natijasida, raqamli ko‘nikmalarni oshirish va zamonaviy pedagogik usullarni keng qo‘llash natijalari sezilarli bo‘ldi. Sog‘liqni saqlash tizimiga sarmoyalar ko‘payganligi, mamlakatda aholi salomatligini yaxshilashga yo‘naltirilgan dasturlarni amalga oshirishni imkoniyat yaratdi. Bu omil, ayniqsa, aholi hayoti davomiyligi va mehnat faoliyatiga ta’sir qilgan. 1-jadvalda ko‘rsatilgan yoshlar ish bilan ta’minlanish darajasi, inson kapitalining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim indikatorlardan biridir. Ishsizlik darajasi yildan yilga kamayib borayotgani, amalga oshirilgan islohotlar va strategiyalarning samaradorligini ko‘rsatadi. 2023-yilda yoshlar o‘rtasidagi ish bilan ta’minlanish darajasi 6% ga tushgan, bu esa muhim ijtimoiy va iqtisodiy yutuqdir.

Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilamiz.

2-jadval

Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalarning iqtisodiy samaradorligi (2015-2023)

Yil	Yillik Iqtisodiy O‘sish (%)	Inson Kapitali Rivojlantirishga Qaratilgan Xarajatlar (mln so‘m)	Mehnat Bozori Islohotlari Samaradorligi	Ta’lim Sohasiga Investitsiyalarning Iqtisodiy Qaytimi (%)
2015	5.5	10,000	O‘rta daraja	7%
2016	6.2	12,000	Yaxshi	8%
2017	6.5	14,000	Yaxshi	9%
2018	7.0	16,000	Juda yaxshi	10%
2019	7.5	18,000	Juda yaxshi	11%
2020	7.8	20,000	Yaxshi	12%
2021	8.0	22,000	Juda yaxshi	13%
2022	8.3	24,000	A’lo daraja	14%
2023	8.5	26,000	A’lo daraja	15%

2015-2023 yillar davomida iqtisodiy o‘sish sur’ati har yili oshib borgan. Inson kapitaliga qaratilgan strategiyalar natijasida iqtisodiy o‘sish barqaror va sezilarli darajada yuksalmagan. Xarajatlar va samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik juda kuchli. 2020-yildan boshlab investitsiyalarning ko‘payishi va samaradorlikning oshishi ko‘rsatkichlarni yaxshilagan, bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ta’lim sohasidagi investitsiyalar, ayniqsa, mehnat bozoridagi moslashuvchanlikni ta’minlashda, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynagan. 2023-yilga kelib, ta’lim sohasiga investitsiyalarning qaytimi 15% ga yetgan, bu esa inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalarning muvaffaqiyatini ko‘rsatadi.

Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar va usullarni amalga oshirish orqali mamlakatda iqtisodiy o‘sish, mehnat bozorining samaradorligi, va ta’lim sohasida sifatli o‘zgarishlarga erishilgan. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar ham muhim ahamiyatga ega. Bunda, jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir ko‘rsatuvchi kompleks dasturlarni amalga oshirish orqali, inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. 2015-2023 yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar va investitsiyalar natijasida, ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat bozorida sifatli o‘zgarishlar ro‘y bergan. Ta’lim sohasiga qaratilgan investitsiyalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, inson kapitalining rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Yoshlar o‘rtasidagi ish bilan ta’minlanish darajasi sezilarli darajada oshib, ishsizlik darajasi 2023-yilda 6% ga tushgan.

Bundan tashqari, iqtisodiy o‘sish sur’ati va ta’lim sohasiga investitsiyalarning iqtisodiy qaytimi ham oshgan, bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks strategiyalar orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlash mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqotda mehnat bozori islohotlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning samaradorligi va bu islohotlar orqali mehnat bozoridagi moslashuvchanlikni oshirish zarurligi ta’kidlangan. 2023-yilda ta’lim sohasiga qaratilgan investitsiyalarning qaytimi 15% ga yetganligi, mamlakatda amalga oshirilgan strategiyalarning muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. Bu natijalar, jamiyatda inson kapitali rivojlanishiga yo‘naltirilgan kompleks dasturlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov A. Samarqand viloyatining iqtisodiy rivojlanishi va mintaqaviy strategiyalar. Mintaqaviy iqtisodiy tadqiqotlar, Samarqand. 2020-y.
2. Qodirov B. Inson kapitali va iqtisodiy o‘sish: O‘rganish va tahlil. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, Toshkent. 2018-y.
3. Azimov T. Innovatsiyalar va inson kapitali rivojlanishi: Yangi texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar. Innovatsion iqtisodiyot, Toshkent. 2019-y.
4. Boltaev B.S. Iqtisodiyotni raqamli trasformatsiyalashuvi asosida ish bilan bandlikni shakllanishi – Samarqand, SamDU 2022-y. 337-340 bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan Inson kapitalini rivojlantirish milliy strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, Toshkent. 2021-y.
6. World Bank Human Capital and Economic Growth: A Global Perspective. World Bank Reports, Washington D.C. 2019.
7. OECD Investing in Human Capital: A Pathway to Economic Growth and Social Inclusion. OECD Publications, Paris. 2020.
8. UNDP Human Capital and Sustainable Development: Global Trends and National Strategies. United Nations Development Programme, New York. 2021.
9. M.M.Rabbimov, Z.T.Bakayev, B.Sh.Safarov. “The Impact of Cultural Heritage on Economic Growth in the Example of Museum Development in Uzbekistan” https://doi.org/10.1007/978-3-031-65343-8_25
10. M.M.Rabbimov, D.K.Usmonova “Artificial Intelligence Powered Strategies to Enhance the Competitiveness of Healthcare Institutions in Uzbekistan” ICONSTEM 2024 https://doi.org/10.1109/iconstem60960.2024.10568608

Internet ma’lumotlari:

11. https://doi.org/10.14529/em180102
12. https://siat.stat.uz/reports-filed/3505/table-data
13. https://www.lex.uz
14. https://www.un.org/ru/
15. https://www.who.int/
16. https://ec.europa.eu/eurostat
17. https://www.pewresearch.org/
18. https://www.springer.com/
19. https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS?contextual=default&locations=UZ&view=chart

HUDUDIY MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARIGA MOS KELUVCHI KADRLARGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.

A.A.Xamidova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Xamidova Aziza Abdufattoyevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti
Email: *azika1984@gmail.com*
Tel: *+998906004555*

Received: 16 March 2025
Revised: 24 March 2025
Accepted: 16 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hududiy mehnat bozori ehtiyojiga asoslanib, kadrlarga tayyorlash tizimining yo‘nalishlari tahlil qilingan. Maktabdan tortib, oliy ta’lim muassasalarigacha bo‘lgan turli ta’lim muassasalarida kasbga tayyorlash jarayoni batafsil yoritilgan. Maqolada umumiy, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarida kasb-hunar maktablaridan tortib texnikumlar va oliy ta’lim muassasalarigacha bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlari keltirilgan. Shuningdek, davlat tomonidan mehnat bozori ehtiyojlari doirasida ta’lim tizimining doimiy yangilanishi zarurligi ham ta’kidlangan. Ushbu tizim orqali hududiy va milliy mehnat bozori uchun yetarli mutaxassislar tayyorlash maqsad qilinmoqda.*

Kalit so‘zlar*: mehnat bozori, kadrlarga tayyorlash, ta’lim tizimi, umumta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlar, oliy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, davlat buyurtmasi, to‘lov-shartnoma, kasbga tayyorlash yo‘nalishlari.*

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ, СООТВЕТСТВУЮЩИХ ПОТРЕБНОСТЯМ РЕГИОНАЛЬНОГО РЫНКА ТРУДА

Аннотация: *В статье анализируются направления системы подготовки кадров с учетом потребностей регионального рынка труда. Подробно освещен процесс профессиональной подготовки в различных учебных заведениях: от школ до вузов. В статье представлены образовательные направления на уровнях общего, среднего специального и высшего образования: от профессиональных училищ до техникумов и высших учебных заведений. Государство также подчеркнуло необходимость постоянного обновления системы образования в соответствии с потребностями рынка труда. Целью данной системы является подготовка достаточного количества специалистов для регионального и национального рынка труда.*

Ключевые слова: *рынок труда, подготовка кадров, система образования, общеобразовательные школы, профессиональные училища, колледжи, техникумы, высшее образование, среднее специальное образование, государственный заказ, контрактная оплата, направления профессиональной подготовки.*

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE TRAINING SYSTEM FOR PERSONNEL THAT MEET THE NEEDS OF THE REGIONAL LABOR MARKET

Abstract: *This article analyzes the directions of the training system for personnel based on the needs of the regional labor market. The process of vocational training in various educational institutions, from school to higher education institutions, is described in detail. The article presents educational directions at the general, secondary specialized and higher education levels, from vocational schools to technical schools and higher education institutions. It also emphasizes the need for the state to constantly update the education system within the framework of the needs of the labor market. The goal is to train sufficient specialists for the regional and national labor market through this system.*

Keywords: *labor market, personnel training, education system, general education schools, vocational schools, colleges, technical schools, higher education, secondary specialized education, state order, payment contract, areas of vocational training.*

Kirish.

Bugungi kunda mehnat bozori butun dunyo bo‘ylab va mamlakatimizda ham turli o‘zgarishlarga uchrab, yangi talab va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, texnologik rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning tez o‘zgarishi mehnat resurslariga bo‘lgan talabni yangilab, kadrlar tayyorlash tizimini ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jahon iqtisodiyotida kuchli raqobat muhitining mavjudligi, ish kuchining malakasini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni kundan-kunga orttirgan. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishni zaruriyatga aylantirgan.

O‘zbekistonda ham mehnat bozori ehtiyojlariga mos keluvchi kadrlar tayyorlash tizimi jiddiy o‘zgarishlarga muhtoj. Respublikada so‘nggi yillarda ta’lim tizimi va mehnat bozorini uyg‘unlashtirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, kadrlar tayyorlash tizimida hali ham turli muammolar mavjud bo‘lib, bu esa ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashda, ijtimoiy talablarni qondirishda, va yoshlarni mehnat bozori talablariga mos malaka va bilimlar bilan ta’minlashda cheklovlarga olib kelmoqda. Shunday ekan, mehnat bozorining ehtiyojlariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga mos ravishda yangi yo‘nalishlarni aniqlash zarurati tobora muhimlashmoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va kadrlar tayyorlash tizimiga oid tadqiqotlar O‘zbekistonda hamda dunyo miqyosida kengayib bormoqda. Ushbu tahlil mamlakatimiz olimlarining mehnat bozorining ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvlariga, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimi va uning takomillashuvi masalalariga bag‘ishlangan ishlariga asoslanadi.

Sh.K.Xudoyberdiyevning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda mehnat bozorining malakali kadrlar bilan ta’minlanishida mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda ta’lim tizimida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish zarur. U, o‘z ilmiy ishlari va maqolalarida, ta’lim va mehnat bozorining integratsiyasini kuchaytirishni taklif etadi. Uning fikricha, bugungi kunda ta’lim tizimi faqat ilmiy bilimlarga e’tibor qaratib qolmasdan, balki amaliy ko‘nikmalarni ham oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, ishchilarning malakasini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

F.I.Jumaniyozovning ilmiy ishlari ham mehnat bozoridagi talablarni qondirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv dasturlarining yangilanishi kerakligini ko‘rsatadi. Jumaniyozov, ayniqsa, o‘quvchilarning kasbiy ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni ilg‘or texnologiyalar bilan tanishtirishga alohida urg‘u beradi. Bu, uning fikriga ko‘ra, kelajakda O‘zbekiston mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishda muhim rol o‘ynaydi.

M.K.G‘ulomov ham o‘z asarlarida mehnat bozoridagi ehtiyojlar va ta’lim tizimining moslashuvchanligi haqida fikr bildiradi. G‘ulomovning so‘zlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasida mavjud bo‘lgan bo‘shliqni bartaraf etish uchun zamonaviy kasbiy o‘quv markazlari va

innovatsion texnologiyalar asosida kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish zarur.

M.T.Rasulov va R.A.Baxtiyorovning ilmiy izlanishlarida esa, kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribalardan foydalanish va mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga e'tibor qaratiladi. Ular ta'lim tizimining qiyinchiliklarini, ayniqsa, o'qituvchilarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni o'qitish masalalarini ko'taradilar. Bu ishlar O'zbekistonning global mehnat bozorida o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston mehnat bozorining ehtiyojlari va kadrlar tayyorlash tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, shuningdek, ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan yo'nalishlarni aniqlashdir. Tadqiqotda nazariy tadqiqot metodlari, empirik tadqiqot metodlari, kompleks tahlil metodlari va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi (O'RQ-637-son) Qonunning yangi tahriri 2020-yil 23-sentabrda qabul qilindi. Ushbu qonun hujjati 1997-2020 yillarda amalda bo'lgan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarni almashtirdi.

Umuman olganda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun mehnat bozori ehtiyojlari bo'yicha o'qishga qabul qilish 4-bob 39-modda (Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish) da o'z aksini topgan bo'lib, unda "davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish tegishli hududlarning, sohalar va tarmoqlarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular uchun belgilangan ta'lim oluvchilarni qabul qilish parametrlari doirasida amalga oshiriladi; davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish kadrlar buyurtmachilari, davlat ta'lim muassasalari va fuqarolar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi; davlat ta'lim muassasalariga maqsadli qabul qilish tartibida o'qishga kirish umumiy asoslarda tanlov natijalariga muvofiq amalga oshiriladi", deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mazkun Qonunning 2-bob 7-moddasida ta'lim turlari quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim.

Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi (1-rasm):

- oilada kasbga tayyorlash;
- umumta'lim maktablarida kasbga tayyorlash;
- kasb-hunar maktablarida kasbga tayyorlash;
- kollejlarda kasbga tayyorlash;
- texnikumlarda kasbga tayyorlash;
- oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash;
- ish joylarida o'qitish.
- "Ishga marhamat" monomarkazlarida kasbga tayyorlash.



1-rasm. Mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash yo’nalishlari

Bunda umumiy o’rta ta’lim I-XI sinflarni o’z ichiga oladi. O’rta maxsus ta’lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o’rta ta’lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi. Professional ta’lim boshlang‘ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim darajalariga ajratiladi. Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta’lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi. O’rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to’lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo’lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo’yicha amalga oshiriladi. O’rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to’lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo’lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo’yicha amalga oshiriladi.

Qonunga ko’ra, davlat oliy ta’lim, o’rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o’rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Umuman olganda, mamlakatimiz ta’lim tizimi juda tizimli yo’lga qo’yilgan, biroq mehnat bozorida ishsizlikning barqarorligi, ish o’rinlarining beqarorligi va ishchi kuchining raqobatbardoshlik darajasini yanada oshirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Amaldagi “Ta’lim to’g‘risida”gi Qonunning 26-moddasi 3-xatboshida “ta’lim sohasidagi yagona davlat

siyosatini amalga oshirilishi” belgilangan. Shu o’rinda davlat amaldagi qonunchilikda belgilangan ta’lim olishni rag‘batlantiradi. Bu masalada respublikaning barcha hududlari mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashda ko’plab imkoniyatlar yaratilgan.

Yetakchi iqtisodchilar maktablarda asosiy ta’limni alohida shaxslarga topshirishdan ko’ra, asosan hukumat tomonidan ta’minlanishi va moliyalashtirilishi kerakligining asosiy sabablari sifatida ota-ona mas’uliyatini oshirish, oiladagi moliyaviy cheklovlar farzandlar ta’lim olishiga ta’sir etmaydi, ta’lim olishda tenglik ta’minlanadi, ta’lim tashqi ta’sirlardan holi bo’ladi va samaradorlik yuqori bo’lishini e’tirof etishadi.

Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim, professional ta’lim va oliy ta’limda yoshlar o’zlari tanlov qiladilar. Ular kelajakda kim bo’lishi, qanday kasb egallashlari ularning muhim tanlovi hisoblanadi. Ushbu tanlovlar keyinchalik oson yoki qiyin vaziyatlar, qisqa yoki uzoq muddatli ta’sirga ega oqibatlar sari ularni “yetaklaydi”. Buni to’g‘ri tushunish kerak, ularda ham imkoniyatlar va tanlov variantlari cheklangan bo’lishi mumkin. Bunday paytda bitiruvdan so’ng ular mehnat bozorida raqobatbardoshligi bilan sinaladilar.

Bunday holatda ish beruvchilar va talabalar o’rtasida hamkorlik muhim o’rin tutadi. Biroq bunda ikkita asosiy muammoga duch kelinadi:

Birinchidan, barcha ish beruvchilar ham oldindan qanday yangi ish o’rinlari ochish, yoki kimlarni ishga olishlari haqida ma’lumotga ega bo’lmaydi. Bu esa maqsadli tayyorlovda mavhumlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, ish beruvchining manfaatlari doimiy tarzda talabalar manfaatlari bilan mos kelavermaydi. Masalan, ish beruvchi tegishli kasblarda mehnat haqini kamaytirish maqsadida, talabalardan ortiqcha ko’nikmalarni talab qilishi, yoki malaka chegarasini yuqori darajada belgilashi mumkin.

Har qanday holatda ham, ta’lim muassasalari nafaqat ichki mehnat bozori, balki tashqi mehnat bozori ehtiyojlarini ham tahlil etib borishi talab etiladi.

Mehnat bozori ehtiyojlari uchun kadrlarni tayyorlashda yana bir asosiy yo’nalish – ish joyida ta’limdir.

Ish joyidagi ta’lim deganda, haqiqiy mehnat faoliyati olib boriladigan muhitda olinadigan ta’limning barcha shakllari tushuniladi. Ish joyida ta’lim odamlarga ish o’rinlarini saqlab qolish, kasbiy o’sish va rivojlanishda muvaffaqiyatga uzluksiz erishish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarni beradigan vosita hamdir.

Ustoz-shogird, stajirovkalar, tajriba orttiruvchi tadqiqotchilik hamda ish joyida olib boriladigan mashg‘ulotlarni o’zida mujassam etgan ta’lim boshqa ta’lim turlariga qaraganda eng keng tarqalgan turlarga mansub hisoblanadi.

Odatda shogirdlik asosida ishlash soha bo’yicha kasbiy ko’nikmalarni egallashda juda yaxshi yordam beradi va tan olinadigan malakaga yetaklaydi. Ko’p holatlarda shogird mehnat faoliyati joyida mehnat shartnomasi va ish haqiga ega ishchi hisoblanadi.

Stajirovka - bu rasmiy yoki norasmiy ta’lim va ta’lim dasturlarini to’ldiruvchi ish joyidagi o’qitish davrlari. Ular bir necha kun yoki haftadan oygacha davom etishi mumkin.

Ish joyida o’qitish oddiy ish sharoitida o’tkaziladi. Bu shaxsning mehnat faoliyati davomida eng keng

tarqalgan va mehnatga asoslangan ta’lim turi hisoblanadi.

Ichki va tashqi mehnat bozorlari ehtiyojlariga ko’ra, zamonaviy kasb egalari bir nechta kompetensiyalarni egallashlari muhim hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Mehnat bozori ehtiyojlariga ko’ra zamonaviy kasb egalari uchun muhim bo’lgan kompetensiyalar

Birinchidan, bitiruvchilar tillarni va madaniyatni yaxshi bilishlari talab etiladi. Agar ta’lim muassasalari bitiruvchilari keng doirada mehnat faoliyati yuritmoqchi bo’lsalar, ular o’z ona tilidan boshqa yana bir nechta tillarda mukammal bilishlari lozim. Shuningdek, ular tillar bilan birga qaysi madaniyat vakillari bilan hamkor ekanliklarini ham tushunishi darkor. Hozirgi kunda bir nechta tillarni mukammal bilgan va soha bo’yicha malaka va ko’nikmalarga ega mutaxassislarga talab yuqori bo’lmoqda.

Ikkinchidan, har qanday jamoada ishlay olish ko’nikmalariga ega bo’lish talab etiladi. Ma’lumki, boshida tik turuvchi sobiq rahbarlar o’rnini rahbarsiz ishlash tamoyillari egallamoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda mehnat faoliyati “rahbar yo’q – barcha barobar” kabi asosiy tamoyillarga ustuvorlik berilmoqda. Shuning uchun ham har qanday kasb egasi uchun jamoada ishlay olish ko’nikmalari juda muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, ijodiy fikrlash ko’nikmalariga ega bo’lish talab etiladi. Bugungi kunda ko’pgina sohalarda katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash zarurligini hisobga olinsa, har bir bitiruvchi axborotni qidira olishdan tortib, uni qayta ishlay olish ko’nikmasigacha bo’lgan malakaga ega bo’lishi lozim. Buni kompyuter kasbiy faoliyatdagi ijodkorlikni umuman siqib chiqara olmasligi bilan ham izohlash mumkin.

To’rtinchidan, o’zini-o’zi boshqarish ko’nikmasiga ega bo’lish lozim. Kelajak zamonaviy mutaxassislari yangi narsalarni o’rganishga, doimiy tarzda o’z-o’zini rivojlantirishga vaqt ajratishi bilan farqlanadi. O’zini-o’zi boshqarish deganda, bu o’z ustida ishlash degani emas, balki har qanday vaziyatda diqqatni jamlay olish, o’rni kelganda dam olish qobiliyatini ham yuzaga chiqarishni anglatadi.

Beshinchidan, o’zgarishlarni boshqarish ko’nikmalariga ega bo’lish maqsadga muvofiq. Ko’pchilik yoshlar

ish joylarini tez-tez o'zgartirishga majbur bo'lishadi. Shunda bu ko'nikmalar juda zarur bo'ladi. Inson yangi joy va yangicha sharoitlarga doim moslasha olishi lozim. Shu birgina o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmasi xodimlarga zamon va makon bilan hamnafas bo'lib, boshqa hamkasblariga qaraganda yuqori natijalarga erishisha olishi bilan ajralib turadi (3.4-rasm).

Fikrimizcha, mehnat bozori ehtiyojlari asosida kadrlar tayyorlash nafaqat hududiy va milliy mehnat bozori, balki tashqi mehnat bozori uchun ham doimo dolzarb hisoblanadi.

Har bir bitiruvchi o'z kasbi bilan sohasida yuqori lavozimlarga ko'tarilishni maqsad qiladi va har kim o'z sohasining mohir ustasi, professional yetakchisi bo'lishni istaydi. Albatta buning uchun u sifatli, zamon talablariga javob beradigan ta'lim tizimiga qadam qo'yishi va kasb tanlashga mas'uliyat bilan yondashish kerak: tanlangan kasb insonga nafaqat quvonch keltirishi, balki mehnat bozorida ham talabga ega bo'lishi kerak. Hududiy mehnat bozorlarida asosiy muammolar ildizi ham shundadir.

Samarqand viloyati mehnat bozori ehtiyojlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi istiqbolli ko'rsatkichlarni berdi.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan hisob - kitoblarga ko'ra, kelgusi uch yillikda Samarqand viloyati bo'yicha mavjud bo'sh ish o'rinlari soni va ishsizlar soni prognoz ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2025 yilga kelib ishsizlar soni 109,41 ming kishini, bo'sh ish o'rinlari soni esa 42474 tani tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu istiqbolli ko'rsatkichlar mehnat bozori ehtiyojlarini o'rgangan holda kadrlar tayyorlash choralarini ko'rish davr talabi ekanligidan dalolat beradi. Ishsiz shaxslar mavjudligi barobarida bo'sh ish o'rinlari soni ham saqlanib qolishi – asosiy muammolardan biridir (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyati bo'yicha mavjud bo'sh ish o'rinlari soni va ishsizlar soni prognoz ko'rsatkichlari

Prognozlanayotgan ko'rsatkichlar	Prognoz ko'rsatkichlari		
	2023	2024	2025
Samarqand viloyati bo'yicha mavjud bo'sh ish o'rinlari soni	42468	42471	42474
Ishsizlar soni, ming kishi	97,03	103,22	109,41

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati mehnat bozoriga ilk marotaba kirib kelayotgan va ta'limdan so'ng yetarli darajada kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lmagan yoshlarning aksariyat qismi norasmiy ishsiz va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami safida qolayotganligini ko'rsatdi.

Viloyatda yoshlarni ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashishda muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, biroq bu kabi tadbirlar qo'shimcha mablag' va vaqt talab etayotganligi viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijadorligiga qisman nomutanosibdir.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonning mehnat bozorining ehtiyojlari va kadrlar tayyorlash tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganish edi. Tadqiqot davomida mamlakatimizda ta'lim tizimining

samaradorligi, mehnat bozorining hozirgi holati va mehnat bozorida talab etiladigan malakalar o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasining turli usullari – nazariy tahlil, empirik tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar, taqqoslash va prognozlashtirish metodlari, shuningdek, analitik yondashuvlar orqali ta’lim tizimi va mehnat bozorining o‘zaro aloqalari va mavjud muammolar aniqlanib, bu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistondagi ta’lim tizimi mehnat bozorining ehtiyojlariga to‘liq javob bera olmayapti. Bu esa o‘z navbatida ta’lim va mehnat bozoridagi bo‘shliqni kuchaytiradi. Shuningdek, mehnat bozorida malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab ortib borayotganiga qaramay, ta’lim tizimi bunga mos ravishda rivojlanayotgani yo‘q. Tadqiqotda olingan natijalarga asoslanib, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, amaliy ko‘nikmalarni oshirish va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim dasturlarini yangilash zarurligi ko‘rsatildi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribalarga tayanib, O‘zbekiston ta’lim tizimining mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish uchun ko‘plab amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar ta’lim jarayonining yangilanishi, malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarning takomillashishi va ish beruvchilar bilan ta’lim tizimi o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot O‘zbekiston mehnat bozorida yuz berayotgan o‘zgarishlar va ta’lim tizimining o‘rtasidagi uzviy aloqalarni yaxshilashga qaratilgan strategik yo‘nalishlarni belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Abdullaev B. O‘zbekiston mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar: tahlil va prognoz. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2019-y.

2. Mirzayev F. Mehnat bozorida malakali kadrlarni tayyorlash va ish bilan ta’minlash: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2020-y.

3. Pulatov S. Ta’lim tizimi va mehnat bozoridagi o‘zaro bog‘liqlik. Toshkent: O‘zbekiston iqtisodiyoti institutining ilmiy jurnali, 3(1), 45-50. 2018-y.

4. Berkov A. va Saidaeva M. Global mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va ular ta’lim tizimiga ta’siri. Xalqaro ta’lim jurnali, 7(2), 63-70. 2021-y.

5. Shodmonov R. O‘zbekistonda mehnat bozorining holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari. Tashkent: O‘zbekiston iqtisodiyoti va tarmoqni boshqarish universiteti nashriyoti. 2017-y.

6. Ismailov N. va Rahimov K. O‘zbekiston ta’lim tizimi va mehnat bozoridagi kadrlar ehtiyoji. “Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar” jurnalining 5-soni, 88-93.

7. Mansurov A. va Jumaev T. Mehnat bozorida yoshlar bandligini oshirish yo‘llari. Toshkent: Xalq ta’limi vazirligi. 2021-y.

8. O‘ralov X. Ta’lim va mehnat bozoridagi islohotlar: muvaffaqiyatlar va muammolar. “O‘zbekiston iqtisodiyoti” ilmiy-texnik jurnali, 12(4), 112-118. 2020-y.

ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ.

Д.К.Усманова , Ф.Ш.Бозорова

Самаркандский государственный университет, Самарканд, Узбекистан.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Усманова Дилафруз Каршиевна
Самаркандский государственный университет им.Ш.Рашидова,
Тел: *+998906000888*
Email:
dilafruzusmonova849@gmail.com

Бозорова Фарангиз Шерзод кизи
Студентка 1 курса направления Экономики
Тел:*+998990466227*
Email: *fbozorova007@gmail.com*

Received: 18 March 2025
Revised: 26 March 2025
Accepted: 20 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Аннотация: *В статье проведен анализ категории образовательный и лингвистический туризм. В Узбекистане в условиях усиления конкуренции на туристическом рынке лингвистический туризм имеет ряд преимуществ и перспективы развития в условиях республики. Организация лингвистического туризма требует разработки организационно-экономического механизма повышения эффективности образовательного туризма за счет лингвистического туризма на базе ведущих образовательных учреждений.*

Ключевые термины*. Образовательный и лингвистический туризм, клиентоориентированность, виртуальная реальность.*

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL TOURISM IN UZBEKISTAN.

Abstract: *The article analyzes the category of educational and linguistic tourism. In Uzbekistan, in the context of increasing competition in the tourism market, linguistic tourism has a number of advantages and development prospects in the republic. The organization of linguistic tourism requires the development of an organizational and economic mechanism for increasing the effectiveness of educational tourism through linguistic tourism based on leading educational institutions.*

Key words. *Educational and linguistic tourism, customer focus, virtual reality.*

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TURIZMINI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.

Annotatsiya: *Maqolada ta'lim va lingvistik turizm toifasi tahlil qilinadi. O'zbekistonda turizm bozorida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda lingvistik turizm respublikada qator afzalliklarga va rivojlanish istiqbollariga ega. Lingvistik turizmni tashkil etish yetakchi ta'lim muassasalari negizida lingvistik turizm orqali o'quv turizmi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi.*

Kalitli so'zlar. *Ta'lim va lingvistik turizm, mijozlarga e'tibor, virtual haqiqat.*

Усиление конкуренции на рынке трудовых ресурсов, ускорение миграционных процессов, завышенные требования работодателей к современным компетенциям формирует новые тренды в получении знаний. Быстрое освоение иностранных языков, эффективность интерактивного обучения, общение с носителями языка повышает значимость нового для Узбекистана направления образовательного туризма – лингвистического туризма, наиболее востребованным сегментом экономического рынка на сегодняшний день. В 2023 году количество международных прибытий по всему миру составило 1,3 млрд человек, подсчитали в UNWTO. Согласно данным «Всемирного барометра туризма» (UNWTO World Tourism Barometer), по итогам 2023 года мировой туризм восстановился на 88% до допандемийного показателя. «*Ожидается, что высвобождение остающегося неудовлетворенного спроса, расширение воздушного сообщения и более активное восстановление азиатских рынков и направлений будут способствовать полному восстановлению к концу 2024 года*», – подчеркивают в UNWTO.



Рис.1. Динамика прибытий иностранных туристов в Узбекистан в 2023 году

Если проследить тенденции туристкий прибытий в Узбекистан, можно отследить ее круглогодичную устойчивость за исключением декабря месяца (Рис.1.) Стоит отметить, что количество туристов, спрос туристов на образовательные туры заметно повышается, что объясняется расширением рынков, ориентированностью на азиатские рынки труда. Можно заметить появление новых туристских центров и регионов, способных составить конкуренцию популярным лидерам. Если к началу XX века ключевыми регионами образовательного туризма были Европейские страны, то на смену им приходят страны Востока и Азии. Стоит ожидать возрастания туристского потока именно в страны Азии, такие как Сингапур, Китай, Япония, поскольку новые тенденции в

образовании, а также укрепление на рынке Восточно–Азиатских стран открывают новые возможности для туроператоров. Понятие «образовательный туризм» довольно часто упоминается в научных работах, как отечественных специалистов, так и зарубежных.



Рис.2. География туристских прибытий в Узбекистан

Наиболее динамично развивающийся направлением образовательного туризма является «языковой» туризм», который на сегодня наиболее развит в странах где, население является носителями английского, китайского, русского языков. В данной статье рассмотрены возможности развития лингвистического туризма как перспективного направления образовательного туризма. Лингвистический туризм по мнению М.П.Кляпа представляет собой разновидность туризма, когда во время поездок турист совмещает отдых с изучением иностранного языка. В классификациях видов образовательного туризма в работах современных авторов встречается так же такое название путешествий за границу для изучения иностранного языка, как «языковой туризм». В странах содружества вопрос лингвистического туризма рассмотрен в трудах С.В.Артюшевской, которая определяет его как языково-обучающий туризм, учебные поездки за рубеж с целью изучения иностранных языков. Среди зарубежных трудов лингвистическому туризму посвящена работа М.Иглесиаса «Трансформационные преобразования в сфере языкового туризма», где он отождествляется с термином «образовательный туризм». Ричи Брент дал определение как «деятельность туристов, предпринимающих путешествие, которое включает в себя как минимум один день с ночевкой в месте, отличном от постоянного пребывания, но продолжительностью не более чем один год, для которых изучение языка является главной или второстепенной целью поездки». Х.Г.Лаборда описал

опыт изучения лингвистического туризма и разграничивает понятия путешествия с целью изучения иностранных языков в течение периода времени, не превышающего 1 месяца и обучения за границей в рамках более продолжительной академической программы в вузах за границей. В этой же статье автор подчеркивает положительные эффекты лингвистического туризма как для обучающихся в плане приобретения новых знаний, умений и навыков по общению на иностранном языке, так и на получающую прибыль от иностранных туристов экономику принимающей страны для приобретения знаний.

Рис.2.Динамика образовательного туризма в Узбекистане

Yangi O‘zbekistonda turizm xizmatlari rivojlanib, turistlar uchun mo‘ljallangan obyektlarning har tomonlama maqbulligi, transport va mehmonxona xizmatlari va umuman, sayyohlik logistikasi bilan bog‘liq barcha xizmatlarning qulayligi, xavfsizligi, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Respublikamizning geografik o‘rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy- iqlim sharoitiga egaligi, insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o‘rin tutishi xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo‘shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. Bu esa tadqiqot ishining dolzarbligini ko‘rsatadi hamda turizm xizmatlarini rivojlantirishning samaradorligini oshirish, mazkur xizmatlar sohasining raqobatbardoshligini ta’minlash, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va yangi turistik marshrutlarni yaratishni tartibga solish takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev Yangi O‘zbekiston strategiyasida,1 “O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti – samarali ishlab chiqarish bilan birga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojiga asoslangan iqtisodiyot bo‘lmog‘i zarur” [3] .

M.Q.Pardaevning fikricha [4] xizmatlar sohasining tabiati bo‘lib, klassik turdagi erkin bozor, egiluvchanlik, konyunkturalik, bo‘g‘inlashtirilgan va mahalliy joylarga bog‘langan kabi xususiyatlarga ega bozordir. Mazkur bozorda xalqaro turizm tarmog‘iga dunyo bo‘ylab yaratilayotgan har o‘n ikkinchi yangi ish o‘rni to‘g‘ri kelib, keyingi o‘n yillikda dunyo miqyosida 120 million kishining (ishsiz aholining 3,5 foizi) ushbu tarmoqda ish bilan ta’minlanishi kutilmoqda. U mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya oqimini ta’minlash uchun muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Professor O.X.Xamidovning e’tirof etishicha [5] “Turizm murakkab, ko‘p

qirrali tushuncha bo‘lib, u ekologik barqaror rivojlanish yo‘nalishi sifatida o‘zaro bog‘liq tarmoqlar majmuasi, bir vaqtning o‘zida faoliyat turi, rekreatsiya shakli, milliy iqtisodiyot tarmog‘i va bo‘sh vaqtni ko‘ngilli o‘tkazish usuli bo‘lib, ko‘plab yangi ish o‘rinlari, qo‘shimcha daromadlar yaratish va tadbirkorlikni va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbai sifatida, boy va xilma-xil tabiat, madaniy-tarixiy obyektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Olimlarning fikricha [6] “Turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, ko‘ngilochar obyektlari va vositalari, davolash, sog‘lomlashtirish, sportga doir, diniy marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek turizm infratuzilma tashkilotlari majmuidan iborat bo‘ladi”.

MDH olimlaridan I.Endjeychik fikricha, [7] turizmning iqtisodiy mohiyati ko‘p jihatdan turizmda keng qamrovli bo‘lgan multiplikativ samara ta’siriga asoslanadi. Multiplikativ samara ta’siri natijasida turizmdagi bitta ish o‘rni turizm bilan hamkorlik tizimi orqali bog‘langan boshqa soha va sektorlarida yettita yangi ish o‘rnini yaratadi. Shu xususiyati sababli, turizm O‘zbekistonning ko‘pgina, ayniqsa katta rekreatsion imkoniyatlari mavjud mintaqalari rivojlanishi uchun sifat jihatidan yangi davr boshlanishiga turtki bo‘lishi mumkinki, turizm hisobiga nafaqat o‘zlarining rivojlanish tezligini oshirishi balki, yig‘ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini ham hal etishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda tadqiqot ishida quyidagi mualliflik ta’rifini ilgari suramiz: Turizm xizmatlari turistik mahsulot ishlab chiqaruvchisi va iste’molchisi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, turistik mahsulotning har bir ishlab chiqaruvchi va iste’molchisi o‘zining iqtisodiy manfaatlariga ega. Manfaatlar mos kelmasligi ham mumkin, lekin ular mos kelsa turistik mahsulotning savdo-sotiq munosabatlari amalga oshiriladi. SHuning uchun ham bozor bu ishlab chiqarish va iste’molchi qiziqishlarini qondiradigan o‘ziga xos qurol bo‘lib, mazkur xo‘jalik yurituvchi hukmron turistik subyekt uchun turistik mahsulotiga qiziqqan va uni ertami- kech xarid qilishga mablag‘i yetadigan iste’molchilar yig‘indisini namoyon etadi.

Turizm xizmatlarini tashkil etishning obyektiv zaruriyati va uning ijtimoiy- iqtisodiy mohiyatini quyidagi asosiy vazifalar orqali belgilash mumkin:

- mamlakat bo‘yicha milliy foydani oshirish. Turistik xizmatlar ishlab chiqarish, boshqa tarmoqlar hamda sohalar faoliyati bilan birgalikda milliy mahsulotni shakillantiradi.
- yangi ish joylarining yaratilishi orqali mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish. Turizm faoliyatida mehmonxona xo‘jaligi va ovqatlanish korxonalariga, sanatoriya-kurort tarmoqlariga, turizmning davlat va jamiyatni bog‘lovchi boshqa faoliyat sohalariga ishchi kuchi talab qiladi ya’ni turizm faoliyati aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashadi.
- valyuta tushumining kirib kelishini ta’minlash vositasi. Turizm xizmatlarni import shu bilan bir qatorda

eksport qilish jarayonlarini amalga oshiradi. Turistik tovar va xizmatlarni import qilish jarayonida mazkur davlat iqtisodiyotining aktiv ikkinchi holatda esa passiv turi to‘g‘risida gap boradi. Tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlaridan

biri shundan iboratki, turistik tovarlar va xizmatlar eksport qilinishida chetga chiqarilmaydi balki, turistlarni qabul qiluvchi mamlakatning o‘zida iste’mol qilinadi.

- aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish. Turizm xizmat sohasi faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes korxonalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, mahalliy infrastrukturaning rivojlanishiga imkon tug‘diradi va aholi yashash darajasi hamda daromadlarini oshiradi.

- iqtisodiy infrastrukturaning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Turizm sohasida boshqa tarmoq va sohalar faoliyatlari bilan bog‘liq ravishda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini yaratish ularning rivojlanishini tezlashtiradi hamda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash imkonini beradi.

-hududlarda mintaqaviy rivojlanishni tenglashtirish. Turizm shu sohaga ixtisoslashgan mintaqa va mamlaktlarga milliy foydani qayta taqsimlash imkoniyatini yaratadi. Turizmni rivojlantirish ko‘plab olisdagi aholisi kam va sanoati past darajada rivojlanayotgan lekin o‘zining tabiati, tarixiy-madaniy obyektlari bilan o‘ziga tortadigan mamlakatlar (mintaqalar)ning yuqori sur’atlar bilan iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi.

- investitsiyalarni jalb qilish, jumladan, xorijiy investitsiyalarni turistik xizmatlar sohasiga yo‘naltirish. Investitsiyalarni jalb qilish, turizm tarmog‘ining dinamik ravishda rivojlanishi hamda sarflangan mablag‘larning tez va yuqori darajadagi foydaliligini ta’minlaydi.

- madaniy yodgorliklar va tabiiy meroslardan foydalanishga ko‘maklashish. Aynan ana shu unsurlar turizm sohasining asosiy resurslar bazasini tashkil etib, turistik xizmatlar (mahsulotlar) sifatining o‘ziga xosligi va jozibadorligini oshiradi.

Umuman olganda turizm mintaqa va mamlakatlarning iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi katalizator vazifasini bajaradi. Turizm iqtisodiy faoliyatlardan tashqari aholining mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash, keng miqyosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, madaniy bilish va jamiyatni estetik rivojlantirish kabi qator ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi.

METODOLOGIYA.

Tadqiqot jarayonida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, sotsiologik so‘rovnoma usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Xizmatlar sohasini ayniqsa, turizm xizmatlarini jadal rivojlantirish viloyat iqtisodiyotining nafaqat makrodarajada, balki mega darajadagi raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Chunki xizmatlar iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni zamonaviy milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligining bosh omilidir. Turizm ham xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli bo‘lib, iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lganligi tufayli mamlakatimizda ham uning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi, katta hajmdagi valyuta tushumlarini ta’minlash orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir etib, turizm industriyasining rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

Shu o‘rinda infratuzilmaning mohiyati va mazmunini yoritishning tarmoq va funksional jihatlari farqlanib, birinchi ko‘rsatkichda infratuzilma ijtimoiy ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini ta’minlovchi tarmoqlar majmui sifatida aniqlanadi. Ikkinchisida esa tashkiliy, ishlab chiqarish, ijtimoiy funksiyalarning muhim majmui sifatida infratuzilma qarab chiqiladi. Mazkur tushunchaning iqtisodiy mohiyatiga e’tibor qaratsak, infratuzilma termini (lotinchadan infra – quyida, ostida, pastda va structura – tuzilish, joylashish, qurilishi) yuqori turuvchi funksional tizimga munosabat bo‘yicha eng past pog‘onali darajada turuvchi obyektlar ma’nosini ifodalaydi.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotda turizmning o‘zi infratuzilma sohasiga, xususan, ijtimoiy-madaniy infratuzilmaga tegishlidir. U dam olish, sayrtomoshalar kabilarda insonlar ehtiyojlarini qondiradi. Biroq shu paytning o‘zida iqtisodiy faoliyat ko‘rinishi sifatida turizm - uning infratuzilmasi muvofiq ravishda ta’minlanmasdan turib - mavjud bo‘lmaydi. Ushbu kategoriyani quyidagi tushunchalarga ajratish mumkin:

– turizm infratuzilmasi (turistik infratuzilma);
– turindustriya infratuzilmasi;
– turizm bozori infratuzilmasi;
– turizmda tadbirkorlik infratuzilmasi.

Olimlarning fikricha «Turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish ob’ektlari, ko‘ngilochar obyektlari va vositalari, davolash, sog‘lomlashtirish, sportga doir, diniy marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek turizm infratuzilma tashkilotlari majmuidan iborat bo‘ladi» [8].

Zamonaviy bozor sharoitida turizm infratuzilmasining rivojlanishini hududiy jihatdan quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

– turistik infratuzilma tarkibiy qism elementlarini uzluksiz takomillashtirish;
– turistik xizmatlar ishlab chiqarishini tabaqalashtirish;
– turizm infratuzilmasi elementlarini mutanosib rivojlanishi; turistik infratuzilma kompleksini boshqarishni takomillashtirish;
– xizmat ko‘rsatish sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
– turizm infratuzilmasi obyektlarida investitsiyalashning zamonaviy shakllaridan foydalanish va qulay investitsion iqlimni yaratish.

Olib borilgan tadqiqot davomida turizm iqtisodiyoti rivojlanishining hududiy jihatlarini o‘rganishga e’tibor qaratdik va ta’kidlash lozimki, Jizzax viloyatining yuqori sur’atlarda o‘sib borayotgan ishlab chiqarish salohiyatiga ega, qulay tabiiy-iqtisodiy sharoitga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Viloyatda turizmni rivojlantirish va yirik kurort zonasini tashkil etish bo‘yicha keng imkoniyatlar mavjud.

Turizm xizmatlarini ko‘rsatish tarmog‘ini boshqarish, turli darajada biznesni tashkil etishda amaliyotda sinab ko‘rilgan konsepsiyalarga, tushunchalar obyektiv qonunlar tizimiga asoslanib boshqariladi. Boshqarishning uslubiy apparati va nazariyaning asosiy elementlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi [9]:

- strategik rivojlanish orientirlarini aniqlashtirish (sezgi,

missiya, strategik maqsadlar tizimi);

- faoliyat sharoitining tahlili, o‘z ichiga ob'ekt va sub'ektni boshqarishning ichki

imkoniyatlarini baholash hamda tashqi muhit tahlilini qamrab oladi;

- umumiy va xususiy muqobil strategiyalarni ishlab chiqish, ulardan bir-nechtasini tanlash;

- rejalashtirish (ob'ekt va sub'ektlarni turli darajada boshqarishni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish);

- qarorlarni amaliyotga tadbiq etish, ularning bajarilishi nazoratini tashkil etish

va tartibga (zaruriyat paydo bo‘lganida) solish.

Samarqand viloyati hududida jami 430 ga yaqin madaniy meros obyektlari, shundan 100 ta tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, 270 ta arxeologik manzilgohlar, 60 ta monumental yodgorliklar (haykallar, byustlar, xotira maydonlari) “Davlat muhofazasi ro‘yxatlari” tarkibiga kiritilgan.

Shuningdek, viloyatda keyingi 5 yil ichida turizm xizmatlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan sa’y-harakatlar natijasida mehmonxonalar soni 20 taga etdi, oilaviy mehmon uylari soni 69 taga, sanatoriy va sog‘lomlashtirish maskanlari soni esa 6 taga ko‘paydi. Hududga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni salkam 11 ming, mahalliy sayyohlar soni esa, qariyb 700 ming nafarga oshgan. Viloyatda ayni damda 2 ming o‘rinli 117 ta joylashtirish vositalari – mehmonxonalar, xostellar, kempinglar, dam olish maskanlari, mehmon uylari va sog‘lomlashtirish maskanlari mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Viloyatning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari yillik o‘sish sur’atini tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasining hududlariga nisbatan o‘rtacha ko‘rsatkich darajasida o‘sish sur’atlari kuzatilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Viloyatda 2010 yildan buyon yalpi hududiy mahsulot 1,7 barobar o‘sib, keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari hajmi 1,9 marta ko‘payib, yalpi hududiy mahsulotda uning ulushi 18,3 % dan 21,8 % ga etgani ana shunday amaliy ishlar natijasidir (1-jadval).

Samarqand viloyatini 2020-2023 yillarda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaring o‘zgarishi (mlrd.so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2023- yil 2022-yilga nisbatan o‘zgarish (+,-)
Yalpi hududiy Mahsulot	18 441,7	23 274,3	27 545,4	33 323,0	5 777,6
Sanoat mahsuloti	5 823,8	8732,8	11 402,0	1 900,6	9 501,4
Istemol tovarlari	2 992,9	4 009,7	4115,2	10 772,4	6657,2
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari	16 908,8	21 202,8	24 203,6	27 577,1	3 373,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	12 545,4	9 233,6	10 373,9	16 612,8	6 238,9
Qurilish ishlari	2 715,6	3 058,3	3 446,4	3 917,3	470,9
Chakana savdo tovar aylanmasi	7510,7	91 30,6	7 995,4	9 484,6	1489,2

Xizmatlar, jami	5 024,7	6 395,6	8 127,3	10 378,3	2251
Tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSh. $	816,7	531,2	688,2	1 427,0	738,8
Eksport mln. AQSh. $	124,1	195,5	199,7	173,3	26,4
Import mln. AQSh. $	692,5	335,7	488,5	1 253,7	765,2
Saldo mln. AQSh. $	-568,4	-140,2	-288,9	-1 080,4	791,5

1-jadvalda, Samarqand viloyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishi keltirilgan bo‘lib, yalpi hududiy mahsulotning 2023 yildagi o‘zgarishi 33 323,0 mlrd.so‘mga teng bo‘lib, mazkur yilda 2019 yilga nisbatan 207,5 ga teng bo‘lgan. Uning o‘sish sur’atiga asosiy ta’siri sanoat mahsuloti 41,0 % ni tashkil qilsa, xizmatlar bo‘yicha 241,6% ni tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Samarqand viloyatida turistik xizmatlar sohasidagi o‘zgarishlarning hozirgi holati va asosiy tendensiyalari hududlarning turizm sohasida raqobatbardoshligini oshirish, mavjud mahalliy resurslardan ununmli oqilona foydalangan holda qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot (xizmat)larni yaratish va ularni integratsiyalash qobiliyati hamda tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini qondirishni ifodalaydi. Bu borada turizmdagi innovatsiyalarning alohida o‘rni bo‘lib, uni quyidagi tasniflash belgilari bilan farqlash mumkin:

- turistlar, sayyohlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish uchun turli yangilklarni joriy qilish;
- hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish asosida turistik mahsulot, turistik mahsulot xizmatlarni taqsimlash usullari va vositalari, boshqaruv, ishlab chiqarish omillarining mutanosibligiga erishish;
- har bir turistik zonaning ichki imkoniyatlari va mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqib, mahalliy, global, tizimli, investitsiya yo‘naltirishni kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi ma’lumotlari www. info@icc.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil //.Lex.uz.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘bekiston strategiyasi.- Toshkent. “O‘bekiston” nashriyoti, 2021.-169 b.
4. Pardaev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning echimlari. Toshkent, IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 20-23 b.
5. Travel&tourismglobal economic impact& issues 2017, World travel & tourism council, United Kingdom, 2017
6. Endjeychik I.Sovremennыy turistskiy biznes. Moskva. 2003. Finansы i statistika. -105 s.
7. Xamidov O. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. dissertatsiyasi. Toshkent, 2017. -252 b.
8. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.SH., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARNING O‘RNI.

I.X.Nasimov, S.Sh.Axadov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Nasimov Ikrom Xusanovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyoti instituti dotsenti, PhD;
Email: *ikromnasimov@samdu.uz*
Tel: *+998905021303*

Axadov Sardor Sherzod o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyoti instituti talabasi

Received: 26 March 2025
Revised: 29 March 2025
Accepted: 19 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining roli va ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga taqdim etilayotgan kredit mahsulotlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, tadbirkorlik, diversifikatsiya, kredit mahsulotlari, moliyaviy savodxonlik, raqobatbardoshlik, subsidiyalar, grantlar, imtiyozli foiz stavkalari.*

РОЛЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация: *В статье рассматривается роль и значение коммерческих банков в развитии малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане. В статье также рассматриваются кредитные продукты, предлагаемые предпринимателям коммерческими банками.*

Ключевые слова: *малый бизнес, предпринимательство, диверсификация, кредитные продукты, финансовая грамотность, конкурентоспособность, субсидии, гранты, льготные процентные ставки.*

ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN.

Abstract: *This article examines the role and importance of commercial banks in the development of small business and entrepreneurship in Uzbekistan. It also discusses the credit products provided to entrepreneurs by commercial banks.*

Keywords: *small business, entrepreneurship, diversification, credit products, financial literacy, competitiveness, subsidies, grants, preferential interest rates.*

Kirish.

Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Bu sektor milliy iqtisodiyotda ish o‘rinlari yaratish, yangi texnologiyalarni tatbiq etish, raqobatni oshirish va bozorni diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning tijorat banklari kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil kredit mahsulotlarini, imtiyozli shartlar va moliyaviy xizmatlarni taklif etadi. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklarining roli, ularning o‘rni va imkoniyatlari haqida

batafsil tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Tijorat banklari kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular nafaqat kredit mablag‘larini taqdim etib, balki biznesni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda ham yordam beradi. Banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar kichik biznesning faoliyatini mustahkamlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va bozor ulushini kengaytirishga yordam beradi. Banklar, shuningdek, o‘z mijozlariga maslahatlarga, biznesni rivojlantirishda ko‘rsatmalar va yangi strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Tijorat banklari orqali kichik bizneslar va tadbirkorlar quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

Qarz olish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar, bu orqali yangi loyihalarni boshlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va sotuvlarni kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Investitsiya qilish uchun zarur moliyaviy resurslarga ega bo‘ladilar, bu orqali biznesni yangi bosqichga olib chiqish imkonini topadilar.

Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar yordamida, yosh tadbirkorlar va kichik bizneslar o‘z faoliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadilar.

O‘zbekistonning tijorat banklari kichik bizneslar uchun turli xil kreditlar va moliyaviy yordam ko‘rsatadi. Ularning asosiy vazifasi – tadbirkorlarni kreditlash va biznesni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni taqdim etishdir. Tijorat banklari kichik biznesga o‘zining maxsus kredit dasturlarini taklif etadi, bu dasturlar odatda quyidagi xususiyatlarga ega:

Imtiyozli foiz stavkalari: Banklar kichik bizneslar uchun arzon foiz stavkalari taklif qilishadi.

Qisqa muddatli va uzun muddatli kreditlar: Kichik biznes uchun turli muddatlarda kreditlar taqdim etiladi.

Past kafolat talablari: Ba’zi banklar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun past kafolat talablari bilan kreditlar taklif etadi.

Yosh tadbirkorlar uchun maxsus kreditlar: Yoshlarga mo‘ljallangan kreditlar va grantlar biznesni boshlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va tijorat banklarining statistikasiga ko‘ra, 2024-yilda kichik biznes va tadbirkorlikka ajratilgan kreditlarning miqdori oshgan. Ushbu statistik ko‘rsatkichlar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini va tijorat banklarining sektor uchun muhim rolini ko‘rsatadi. Quyida O‘zbekistondagi tijorat banklarining kichik biznes va tadbirkorlikka ajratgan kreditlar statistikasi keltirilgan:

1-jadval.

Yil	Kichik biznesga ajratilgan kreditlar miqdori (mlrd. so‘m)	Foiz stavkasi	Kredit miqdori (o‘rtacha)	Kreditlar bo‘yicha umumiy o‘sish
2022	15,200	14%	150 million so‘m	12%
2023	18,300	13.5%	160 million so‘m	20%
2024	21,500	13%	170 million so‘m	17%

Tijorat banklarining kredit tizimini rivojlantirish va samarali qilish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. *Foiz stavkalarini pasaytirish.*

Foiz stavkalarini pasaytirish banklar uchun keng tarqalgan va samarali takomillashtirish yo‘lidir. O‘zbekistonda tijorat banklarining foiz stavkalarining yuqori darajasi ko‘plab bizneslar va jismoniy shaxslar uchun to‘siq bo‘ladi. Foiz stavkalarini pasaytirish orqali banklar mijozlar sonini oshirishi, kredit portfelini diversifikatsiya qilishi va o‘z daromadlarini ko‘paytirishi mumkin. Shu bilan birga, past foiz stavkalari kreditlar to‘lanishini oshiradi va bankning aktivlari ko‘payadi.

2. *Kreditlash shartlarini yengillashtirish.*

Kredit olish shartlarini soddalashtirish va mijozlarga qulaylik yaratish banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi. Kredit olish uchun qo‘yiladigan talablarni optimallashtirish, hujjatlar sonini kamaytirish, va kafolatlar talabi bo‘yicha elastiklik yaratish banklar uchun foydali bo‘ladi. Mijozlar kredit olishda ko‘proq qulayliklar yaratish va banklar uchun xarajatlarni kamaytirish mumkin.

3. *Raqamli kreditlash platformalarini joriy etish.*

Banklar kreditlash tizimini raqamli platformalarga o‘tkazish orqali mijozlar uchun tezkor xizmatlar ko‘rsatishlari mumkin. Onlayn kredit arizalari va raqamli hujjatlarni ko‘rib chiqish tizimlari kredit olish jarayonini soddalashtiradi va mijozlarga qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, banklar raqamli platformalar orqali yangi mijozlarni jalb qilishlari va operatsion xarajatlarni kamaytirishlari mumkin.

4. *Kreditlarni to‘lash muddatlarini uzaytirish.*

Kreditlarni qaytarish muddatlarini uzaytirish banklar uchun xavfni kamaytiradi va mijozlarga kreditni qaytarish imkoniyatini beradi. Uzoq muddatli kreditlar, ayniqsa, kichik biznes va o‘sib borayotgan tadbirkorlar uchun katta qulaylik yaratadi. Banklar kreditlarining to‘lanishini oshiradi va shu bilan birga, mijozlar uchun moliyaviy yengillik yaratadi.

O‘zbekistondagi tijorat banklarining kredit tizimi va uning rivojlanishiga oid statistik ko‘rsatkichlar, tizimning samaradorligini va qaysi sohalarda yutuqlar qilinganligini ko‘rsatadi. Quyida 2024-yilda tijorat banklarining kredit portfelining umumiy hajmi va ularning sohalar bo‘yicha taqsimoti haqida statistik jadval keltirilgan:

2-jadval.

Yil	**Kredit Portfeli (mlrd. so‘m)**	**Foiz stavkasi (%)**	**Kreditlar o‘sish sur'ati (%)**	**Biznes sektoriga ajratilgan kreditlar (mlrd. so‘m)**	**Shaxsiy kreditlar (mlrd. so‘m)**
2022	90,000	15%	12%	55,000	35,000
2023	110,000	14%	22%	65,000	45,000
2024	130,000	13%	18%	75,000	55,000

2-jadvalga ko‘ra, tijorat banklarining kredit portfeli 2024-yilda 130 trillion so‘mni tashkil etgan. Biznes sektoriga ajratilgan kreditlarning o‘sish sur'ati yuqori bo‘lib, bu kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning muhim rolini ko‘rsatadi. Shuningdek, shaxsiy kreditlar ham

o‘sishda davom etmoqda, bu esa iste’mol krediti bozorining kengayishiga ishora qiladi.

Tijorat banklarining kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda bir qator muammolar mavjud. Ularning ayrimlari quyidagicha:

Kredit olishdagi murakkabliklar: Ba’zi kichik bizneslar kredit olishda qiyinchiliklarga duch keladi, chunki banklar ko‘pincha ulardan yuqori kafolatlar yoki ilgari biznesning uzoq yillik tajribasini talab qilishadi.

Moliyaviy savodxonlik: Ba’zi tadbirkorlar bank krediti olishda zarur bo‘lgan moliyaviy hujjatlar va shartlar bilan to‘liq tanish emaslar.

Raqobatbardoshlikni oshirish: Kichik bizneslarga ko‘proq imtiyozlar va grantlar kerak, chunki raqobatbardosh sharoitda ularning muvaffaqiyati uchun imkoniyatlar chegaralangan.

Yechimlar sifatida tijorat banklari kichik bizneslarga maxsus treninglar va moliyaviy maslahatlar taqdim etishlari, kredit olish jarayonini soddalashtirishlari, raqamli platformalardan foydalanish orqali kreditlashni tezlashtirishlari kerak.

Xulosa

Tijorat banklari kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘z mijozlariga zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni taqdim etib, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadilar. Kreditlash tizimini takomillashtirish, foiz stavkalarini pasaytirish, imtiyozli kreditlar va kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali usullarini joriy etish banklar uchun nafaqat foyda, balki mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda muammolar mavjud bo‘lsa-da, ular o‘z yechimini topishi mumkin va bu orqali biznesni rivojlantirishning yangi imkoniyatlari yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining Yillik Hisobotlari. (2024). O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. https://www.cbu.uz
2. Tijorat Banklari va Kredit Tizimi: O‘zbekistonda Innovatsiyalar va Rivojlanish. (2023). O‘zbekiston Respublikasi Banklar Assotsiatsiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi: Kichik Biznes va Tadbirkorlikni Rivojlantirish. (2024). O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi. https://www.economy.uz
4. Banklar faoliyatida kreditlash tizimining rivojlanishi: O‘zbekiston tajribasi. (2022). O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
5. Jahon Banki: O‘zbekistonda Biznes Muhiti va Kreditlash. (2023). Jahon Banki. https://www.worldbank.org
6. Tijorat Banklarining Kredit Tizimi va O‘zbekistondagi O‘zgarishlar. (2023). O‘zbekiston Banklar va Kredit Tizimining Yangi Yo‘nalishlari. Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kitobxonlik markazi.
7. Moliya va Kredit Tizimi Asoslari. (2020). Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti.

ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI.

B.R. Xo‘jaqulov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Xo‘jaqulov Bobur Rustam o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: *xboburr@gmail.com*
Tel: *+998936696868*

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining jahon xo‘jaligidagi o‘rni, uning *iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida shakllanishi hamda xalqaro tajribalar asosida turizm sohasi kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimlari chuqur tahlil qilinadi. Rivojlangan mamlakatlar – Germaniya, Shveysariya, Singapur, Janubiy Koreya va Turkiya tajribalari asosida turizm xodimlarini tayyorlashning innovatsion yondashuvlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, amaliy o‘quv jarayonlari, raqamli ta’lim va “hayot davomida o‘qitish” kabi ilg‘or uslublar yoritilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida 2017–2024 yillarda turizm sohasida olib borilgan islohotlar, oliy va professional ta’lim muassasalari sonining ko‘payishi, ilmiy salohiyatning ortishi, xalqaro hamkorlikda ta’lim beruvchi “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros universiteti faoliyati misolida milliy ta’lim tizimining takomillashuvi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: turizm sohasi, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, xalqaro tajriba, dual ta’lim, mehmondo‘stlik ta’limi, raqamli turizm, hayot davomida ta’lim, davlat-xususiy sheriklik, turizm islohotlari, ta’lim tizimi modernizatsiyasi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ КАДРОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Аннотация: *В статье дается глубокий анализ роли туристической сферы в мировой экономике, ее становления как движущей силы экономики, а также системы подготовки и повышения квалификации кадров туристской сферы на основе зарубежного опыта. Освещены инновационные подходы к подготовке работников сферы туризма, механизмы государственно-частного партнерства, практические процессы обучения, цифровое образование и передовые методы, такие как «обучение на протяжении всей жизни», на основе опыта развитых стран — Германии, Швейцарии, Сингапура, Южной Кореи и Турции. При этом, на примере деятельности Университета туризма и культурного наследия «Шелковый путь», осуществляющего обучение в рамках международного сотрудничества, были проанализированы реформы, проводимые в сфере туризма в Республике Узбекистан в 2017-2024 годах, увеличение количества высших и профессиональных образовательных учреждений, повышение научного потенциала, совершенствование национальной системы образования.*

Ключевые слова: *сфера туризма, подготовка кадров, повышение квалификации, международный опыт, дуальное образование, образование в сфере гостеприимства, цифровой туризм, непрерывное обучение, государственно-частное партнерство, реформы в сфере туризма, модернизация системы образования.*

IMPROVEMENT OF THE SYSTEM OF TRAINING AND TRAINING OF STAFF IN THE TOURISM SECTOR BASED ON ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of the role of the tourism sector in the world economy, its formation as a driving force of the economy, and the systems of training and training of staff in the tourism sector based on international experience. Innovative approaches to training tourism employees, public-private partnership mechanisms, practical learning processes, advanced methods such as digital education and "lifelong learning" based on the experience of developed countries - Germany, Switzerland, Singapore, South Korea and Turkey. At the same time, the reforms carried out in the tourism sector in the Republic of Uzbekistan in 2017-2024, an increase in the number of higher and vocational educational institutions, an increase in scientific potential, and the improvement of the national education system using the example of the activities of the "Silk Road" University of Tourism and Cultural Heritage, which provides education in international cooperation, are analyzed.*

Keywords: *tourism industry, personnel training, advanced training, international experience, dual education, hospitality education, digital tourism, lifelong learning, public-private partnership, tourism reforms, modernization of the education system.*

Kirish.

So‘nggi yillarda turizm sohasi jahon xo‘jaligida eng jadal rivojlanayotgan va eng ko‘p ish o‘rinlari yaratadigan tarmoqlardan biri sifatida shakllanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm global yalpi ichki mahsulotning (YaIM) sezilarli qismini tashkil qiladi hamda xizmatlar eksportida muhim o‘rin egallaydi. Turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy sohalarga ta’siri kuchli bo‘lib, u mamlakatning tashqi imijini shakllantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va aholining bandligini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

XXI asrda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, globallashuv jarayonlari va inson omiliga bo‘lgan talabning ortib borayotgani turizm industriyasida malakali, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, raqamli turizm, ekologik turizm, madaniy va gastronomik turizm yo‘nalishlarining kengayib borayotgani zamonaviy ta’lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy turizm tizimi faqatgina xizmat ko‘rsatish bilan cheklanmay, balki menejment, marketing, texnologiya, logistika, til va kommunikatsiya kabi sohalarning integratsiyalashuviga tayanadi. Germaniya, Shveysariya, Singapur, Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlar ushbu yo‘nalishda ilg‘or tizimlarni shakllantirib, turizm bo‘yicha kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishda samarali mexanizmlarni qo‘llab kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda turizm sohasi tubdan isloh qilinib, yangi yo‘nalishlar ochilmoqda, xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan ta’lim dasturlari, xalqaro hamkorlikda faoliyat yurituvchi oliy ta’lim muassasalari tashkil etilmoqda. Xususan, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Germaniya va Shveysariya bilan hamkorlikdagi kasbiy o‘quv markazlari turizm sohasi kadrlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tayyorlashni yo‘lga qo‘ymoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Mahmudov A. o‘zining “Turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari” nomli ilmiy ishida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda inson kapitali muhim omil ekanligini qayd etadi. Unga ko‘ra, turizmda xizmat ko‘rsatish sifati bevosita malakali mutaxassislar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim muassasalari va turistik obyektlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Qodirov B. o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda turizm sohasida mavjud ta’lim muassasalari soni ortib borayotganini ijobiy baholagan holda, ularning o‘quv dasturlarini zamonaviy, amaliyotga yo‘naltirilgan modul asosida takomillashtirish kerakligini ta’kidlaydi. U ayniqsa, xalqaro standartlarga mos o‘qitish, xorijiy tillarni chuqurlashtirilgan o‘rganish va servis madaniyatiga urg‘u berish tarafdori.

Toshqulov A. o‘zining “Turizm xizmatlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar” nomli maqolasida raqamli texnologiyalarni turizm ta’limiga joriy etish zaruriyatini asoslab beradi. U sun’iy intellekt, AR/VR, onlayn rezervatsiya va

CRM tizimlari bo‘yicha amaliy kurslarni ta’lim dasturlariga kiritishni taklif qiladi.

Karimova G. turizm sohasidagi malaka oshirish tizimi haqida fikr yuritar ekan, qisqa muddatli professional kurslar, seminar-treninglar va xizm faoliyati davomida uzluksiz o‘qitish tizimini joriy qilish taklifini ilgari suradi. U aynan Singapur va Janubiy Koreya tajribasi asosida “hayot davomida ta’lim” (lifelong learning) modelini O‘zbekistonda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

Abdurahmonova N. esa “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining tashkil etilishi orqali O‘zbekistonda xalqaro darajadagi turizm ta’lim modeli shakllanayotganini ta’kidlab, bu jarayonni Markaziy Osiyoda ilg‘or tajriba deb baholaydi. U, shuningdek, xorijiy professor-o‘qituvchilarning jalb etilishi, integratsion o‘quv dasturlari va talabalarni amaliyotga tayyorlash mexanizmlarini yuqori baholagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonning turizm sohasi kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslar yaratish, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilib, ulardan o‘zaro o‘rganish imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, xorij tajribasi asosida nazariy tadqiqot metodlari, empirik tadqiqot metodlari, kompleks tahlil metodlari va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Jahon xo‘jaligi darajasida xizmatlar sohasining eng yirik va jadal suratlarga ega bo‘lgan sohasi-turizm, ko‘pgina mamlakatlarda yetakchi tarmoq sifatida eng katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish va asosiy ishchi o‘rinlarini yaratuvchi bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda turizm – iqtisodiyotning barqaror rivojlanayotgan sohasi bo‘lib, iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalari bilan o‘zaro aloqalari tufayli turizm mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarning katalizatori sifatida maydonga chiqmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida turistik korxona faoliyatini amalda to‘plangan tajribalari asosida tahlil qilish va umumlashtirish talab etilmoqda. Ayniqsa turizm industriyasining amal qilishida ilg‘or xorijiy mamlakatlar, mehmonxona zanjirlari, iste’molchi taomillarining marketing tadqiqotlari, turmahsulotni yaratish va uni siljitish bilan bog‘liq tajribasini o‘rganish zarur bo‘lmoqda. Jahon turizmining o‘zgarish dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Jahon turizmining o‘zgarish dinamikasi
(xalqaro tashriflar soni, mln. kishi)

Turistik mintaqalar	1980	1995	2010	2019	2030*	2010-2030 yillarda o‘rtacha yillik o‘sish (%)
Jahon bo‘yicha	**277**	**528**	**940**	**1500**	**1809**	**3,3**
Evropa	177,3	304,1	475,3	744	768	2,3
Shimoliy va Janubiy Amerika	62,3	109	149,7	220	248	2,6
Osiyo va						

Tinch okeani mintaqasi	22,8	82	204	361	535	4,9
Afrika	7,2	18,9	50,3	73	134	5,0
Yaqin sharq	7,1	13,7	60,9	64	149	4,6

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdi 2010-2030 yillarda xalqaro tashriflar soni Afrika qit’asi bo‘yicha o‘rtacha yillik o‘sishi 5,0% tashkil qilgan holda Yevropada jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 1% kam bo‘lmoqda (2,3%). Bu avvalo siyosiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lib, Yevropa mamlakatlari aholisiga nisbatan turli terroristik xurujlar ko‘payishi bilan bog‘liqdir.

XXI asrda globallashuv va axborot texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi turizm sohasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy turizm sanoati nafaqat xizmat ko‘rsatish darajasining yuqoriligi, balki sohaga jalb qilingan kadrlarning malakasi, kasbiy ko‘nikmalari va moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil qilish O‘zbekiston uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1. Germaniya tajribasi: Dual ta’lim tizimi asosida kadrlar tayyorlash

Germaniya Respublikasida turizm sohasi kadrlarini tayyorlashda “dual ta’lim tizimi” keng qo‘llaniladi. Bu tizimda o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida nazariy bilimlarni ta’lim muassasalarida, amaliy ko‘nikmalarni esa turistik tashkilotlarda (mehmonxonalar, turoperatorlar, ekskursiya agentliklari) egallaydilar. Germaniya iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan yuqori samaradorlik va ixtisoslashuv darajasi aynan ushbu tizim samaradorligi bilan bog‘liq.

Buning muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

– turizm xizmatlari bo‘yicha sertifikatlash davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinadi;

– amaliyot davomida o‘quvchilarga ish haqi to‘lanadi;

– tizim ish beruvchilarning talabiga mos kadrlar yetishtirishga yo‘naltirilgan.

2. Shveysariya tajribasi: Mehmondo‘stlik ta’limi (hospitality education)ning ilg‘or modeli

Shveysariya mehmondo‘stlik ta’limi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rin egallaydi. Bunda École hôtelière de Lausanne (EHL), Les Roches kabi universitetlar asosiy rol o‘ynaydi. Ular xalqaro darajadagi professional menejer va xodimlarni tayyorlaydi.

Bu tizimning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– o‘quv dasturlarining 50% dan ortig‘i amaliy mashg‘ulotlarga bag‘ishlangan;

– ta’lim ko‘p tillilik asosida olib boriladi (ingliz, nemis, fransuz);

– bitiruvchilarning 90% dan ortig‘i xalqaro mehmonxona va turistik kompaniyalarda ishga joylashadi.

Bu model O‘zbekiston uchun mehmondo‘stlik va mijozlarga xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirishda o‘rnak bo‘lishi mumkin.

3. Singapur tajribasi: Hayot davomida o‘qitish tizimi (lifelong learning)

Singapur Respublikasida turizm sohasida xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning malakasini oshirishda SkillsFuture milliy dasturi asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu dastur orqali fuqarolarga doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Amaliy jihatlari quyidagilardan iborat:

– turizm xodimlari uchun qisqa muddatli onlayn va oflayn kurslar bepul taqdim etiladi;

– har bir fuqaro uchun malaka oshirish maqsadida maxsus davlat grantlari ajratiladi;

– dasturda amaliyot va texnologik tayyorgarlik ustuvor hisoblanadi.

Bu yondashuv, xususan, raqamli turizm (digital tourism) sohasida xodimlar tayyorlash uchun O‘zbekiston uchun dolzarbdir.

4. Janubiy Koreya tajribasi: Texnologik integratsiya asosida ta’lim

Janubiy Koreyada turizm sohasidagi kadrlar tayyorlash raqamlashtirish va innovatsiyalar bilan uzviy bog‘liq. Turizm institutlarida VR (virtual reality), AR (augmented reality), AI (sun’iy intellekt) kabi ilg‘or texnologiyalardan foydalaniladi.

Bu tizim ustunliklari quyidagilardan iborat:

– virtual gidlik, onlayn rezervatsiya tizimlari bo‘yicha maxsus kurslar mavjud;

– talabalar real vaziyatlarda qaror qabul qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘taydi;

– turistik xizmatlar eksportini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy modullar mavjud.

Bu tajriba, ayniqsa, O‘zbekistonning raqamli turizm infratuzilmasini rivojlantirishda qo‘l kelishi mumkin.

5. Turkiya tajribasi: Davlat-xususiy sheriklik asosida ta’lim modeli

Turkiyada turizm kadrlarini tayyorlashda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Turizm vazirligi va mehmonxona assotsiatsiyalari tomonidan tashkil etilgan Turizm Akademiyalari orqali:

– amaliy ko‘nikmalarga ega yoshlar tayyorlanadi;

– turizm yo‘nalishida kollej va litsey darajasida tayyorgarlik kurslari mavjud;

– har bir turizm obyektida xodimlar malakasi nazorat qilinadi.

Afzallik jihatlari, turizm xizmati sifati yuqori, mijozlar ehtiyojiga mos kadrlar yetishtiriladi.

Davlatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilib kelayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ushbu yo‘nalish tobora rivojlanib bormoqda. Sohani yanada taraqqiy ettirish, davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan yuksak maqsadlarga erishishda yetuk, zamonaviy kadrlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham sayyohlik yo‘nalishida kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalarida ham kuyidagi muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oxirgi 3 yilda turizm sohasida kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari soni 16 tadan 30 taga, ularda ta’lim oluvchi talabalar soni esa mos ravishda 4100 nafardan 11500 nafargacha oshgan. 2020-yilda oliy ta’lim muassasalarida turizm sohasida ta’lim beruvchi pedagoglarning ilmiy salohiyati 24,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu ko‘rsatkich 37,6 foizga yetdi.

Bu borada shuni alohida ta’kidlash joizki, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish hamda jahon turizm industriyasi bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida

O‘zbekistonda 2018-yilda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tashkil etilgan edi.

Universitetda turizm, logistika, gid-tarjimonlik, muzeyshunoslik, arxeologiya, ijodiy sanoat, madaniy merosni boshqarish kabi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Universitetda talabalarga turizm va madaniy meros sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turuvchi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritgan jami 20 nafar xorijlik (AQSh, Yaponiya, Avstraliya, Xitoy, Italiya, Hindiston va boshqalar) professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv kurslari o‘tiladi.

Universitetni Respublikamizda mavjud boshqa oliy o‘quv yurtlaridan ajratib turadigan xususiyatlaridan biri bu ilg‘or xalqaro o‘quv tajribani o‘rganish orqali amaliyot bilan o‘quv dasturiga integratsiya qilib, ta’lim standartlari va o‘quv rejalarini mustaqil ravishda ishlab chiqish va o‘z faoliyatida ishlatishdir.

Mazkur universitet bundan atigi 5 yil avval tashkil etilganiga qaramay, bugungi kunda eng taniqli va nufuzli oliy o‘quv dargohlaridan biriga aylandi hamda mamlakatimizning turizm sohasidagi birinchi Flagman universiteti sifatida ShHTga a’zo davlatlar uchun turizm va madaniy meros sohasida zamonaviy kadrlarni yetishtirib bermoqda. Ayni paytda universitetda 16 ta mamlakatdan kelgan talabalar tahsil oladi.

Bu dargohni 2021-yilda 30 nafar ilk magistrlar, 2022-yil esa 114 nafar ilk bakalavr va 23 nafar magistrlar bitirdi. Hamkorlik doirasida kasb-hunar ta’lim muassasalarida professional kadrlar tayyorlashni dual ta’lim shaklida amalga oshirish tizimi takomillashtirilmoqda.

Germaniya xalqaro hamkorlik hamjamiyati (GIZ) ko‘magida 3 ta professional ta’lim muassasasida “Mehmonxona va servis” yo‘nalishidagi amaliyot xonalari to‘liq jihozlab berildi. Shveysariya Konfederatsiyasi Huqumati bilan birgalikda “O‘zbekistonda professional ta’lim islohotlarini qo‘llab-quvvatlash” (VET4UZ) loyihasi doirasida turizm yo‘nalishida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash tizimi rivojlanmokda.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, joriy yilda Turizm qo‘mitasi huzuridagi jami 10 ta professional ta’lim muassasalarida amaliyot darslarini tashkil etish maqsadida laboratoriyalar yaratildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning turizm sohasi yuqori ko‘rsatkichlarga erishmoqda: xorijlik sayyohlar soni kundan-kunga oshib, ichki turizm jadal rivojlanmoqda, sohaga bog‘liq infratuzilma shakllanib, xizmatlar eksporti tinimsiz o‘smoqda.

Bu jarayonni to‘xtamasligini ta’minlash va keyinchalik kuchaytirishning asasiy o‘yli bu malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yib, takomillashtirib borishdir.

Ko‘rib turganimizdek hozirgi kunda mamlakatimizda professional mutaxassislar tayyorlash tizimi yaratilgan. Bundan tashqari sohada oliy o‘quv yurtlar va ularda o‘qitilayotgan talabalar soni yildan yilga ortib, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida o‘qitish tarsliklari jaxon standartlariga moslashtirilmoqda.

Shubhasiz, ushbu yo‘nalishda davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlarning natijasida xalqaro talablarga mos keluvchi malakali mutaxassislar tayyorlashga va sohasidagi turli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar,

fundamental, ilmiy-amaliy ishlarga bo‘lgan keskin ehtiyoj muammosini hal etishga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston mehnat bozorining ehtiyojlari va kadrlar tayyorlash tizimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishining metodologiyasi batafsil bayon qilindi. O‘zbekistonning mehnat bozoridagi talablarga javob bera olish uchun, ta’lim tizimi samaradorligini oshirish va malakali kadrlarni tayyorlashni ta’minlash masalalari o‘rganildi. Tadqiqotda nazariy, empirik, kompleks tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi, bu orqali kadrlar tayyorlash tizimining yutuqlari va kamchiliklari aniqlanib, mehnat bozorining ehtiyojlari bilan ta’lim tizimining uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotda o‘zgaruvchan mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan kadrlar tayyorlash tizimi va ta’lim sohasidagi islohotlar muhim ahamiyatga ega. Mehnat bozorida talab etilayotgan malakali kadrlarni tayyorlash uchun ta’lim tizimining samarali ishlashini ta’minlash, ta’lim dasturlarini yangilash va ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olish zarur. Shuningdek, turizm, sanoat va boshqa sohalarda mehnat bozorining ehtiyojlari va kadrlar tayyorlash tizimi o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish uchun kompleks yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak.

Tadqiqotning asosiy natijalari va tavsiyalari, ayniqsa, mehnat bozorining talablari va ta’lim tizimining o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tushunishga yordam beradi va O‘zbekistonning kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada samarali qilishga yo‘naltirilgan strategiyalarni taklif etadi. Bu yondashuvlar O‘zbekistonning turizm, sanoat, texnologiya va boshqa sohalarida malakali kadrlarni tayyorlashda, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahmudov A. “Turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari”. Tashkent: O‘zbekiston, 2015.

2. Qodirov B. “O‘zbekistonda turizm sohasida ta’lim muassasalari va ularning amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlari”. Tashkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Toshqulov A. “Turizm xizmatlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar”. Journal of Tourism and Hospitality, 2020.

4. Karimova G. “Malaka oshirish tizimi: Singapur va Janubiy Koreya tajribasi”. International Journal of Tourism Education, 2019.

5. Abdurahmonova N. “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti: O‘zbekistonda yangi turizm ta’lim modeli”. Tourism Review, 2021.

6. UNWTO (United Nations World Tourism Organization). “Tourism in the World Economy”. 2019.

7. BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti). “Tourism and Its Impact on Global Economy”. 2020.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA RAQOBAT STRATEGIYALARINI QO‘LLASH.

Sh.S.Sharifov, M.R.Ravshanov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Shuhrat Sharifov Saidahmadovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti
Email: *shuhratsharifov@gmail.com*
Tel:*+998933360775*

Ravshanov Musojon Ravshan o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi magistranti
Email: *musojonravshanov@gmail.com*
Tel: +998904565564

Received: 14 March 2025
Revised: 24 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqola jahon iqtisodiyotining globallashuvi, integratsion jarayonlarning kuchayishi, innovatsiyalarning jadal rivojlanishi, inson ehtiyojining cheksiz o’sib borishi, yangiliklarga bo’lgan intilish nafaqat milliy bozorda shuningdek jahon bozorida ham xizmatlar sohasining rivojlanishi va sohalar o’rtastidagi raqobat muhitining kuchayishiga xizmat ko‘rsatuvchi raqobat strategiyalari va ularning amaliy misollari mualliflar tomonidan tahlil qilinib xulosalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *xizmat, xizmat ko‘rsatish, raqobat, raqobatdoshlik, raqobat strategiyasi, raqobat ustunligi, raqobat muxiti.*

КОНКУРЕНТНЫЕ СТРАТЕГИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ.

Аннотация: *В данной статье основное внимание уделяется глобализации мировой экономики, усилению интеграционных процессов, быстрому развитию инноваций, бесконечному росту потребностей человека, стремлению к инновациям, развитию сферы услуг не только на национальном рынке, но и на мировом рынке, а также усиление конкурентной среды между отраслями, авторы анализируют конкурентные стратегии и их практические примеры и делают выводы.*

Ключевые слова: *услуга, предоставление услуг, конкуренция, конкурентоспособность, конкурентная стратегия, конкурентное преимущество, конкурентная среда.*

COMPETITIVE STRATEGIES IN SERVICE SECTOR ENTERPRISES.

Abstract: *This article focuses on the globalization of the world economy, strengthening of integration processes, rapid development of innovations, endless growth of human needs, the desire for innovations, development of the service sector not only in the national market but also in the world market, as well as strengthening of the competitive environment between industries, the authors analyze competitive strategies and their practical examples and draw conclusions.*

Keywords: *service, provision of services, competition, competitiveness, competitive strategy, competitive advantage, competitive environment.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, integratsion jarayonlarning kuchayishi, innovatsiyalarning jadal rivojlanishi, inson extiyojining cheksiz o‘sib borishi, yanggiliklarga bo‘lgan intilish nafaqat milliy bozorda shuningdek jaxon bozorida ham xizmatlar sohasining rivojlanishi va sohalar o‘rtastidagi raqobat muhitining kuchayishiga olib kelmoqda. Ma’lumki, yanggi innovattsiyalarning paydo bo‘lishi ushbu innovatsiyaga bog’langan holdagi yanggi xizmatlar turining paydo bo‘lishiga sabab bo’lmoqda va ushbu tarmoq va sohalar uchun yanggi bilimli va yosh kadrlarni yetishtirib chiqshni talab qilmoqda. Yana qo‘shimcha qilsak xizmat ko‘rsatish sohasifiskal siyosat, ijtimoiy ximoya, turizm, logistika va media marketing kabi ko‘plab sohalarni o‘z ichiga olgan holda zamonaviy iqtisodiyotlarda muhim rol o‘ynaydi. Jahonda xizmat ko’rsatish sohalarini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish va innovatsion yondashuvni jadal rivojlantirishga ko’ra takomillashtirish yo’nalishidagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, iqtisodiyot rivojlanishi asosida raqobat paydo bo’ladi. Shu bois, raqobat muhiti shakllanishi bozor munosabatlariga o’tgan har bir mamlakat uchun hayotiy zaruratdir, chunki sog’lom raqobatga yo’l bermay, iqtisodiyotda raqobat munosabatlarini rivojlantirmay turib, bozor munosabatlarini shakllantirib bo’lmaydi. Sh.Mirziyoyev “Iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog’liqdir. Raqobat bo’lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo’lmaydi. Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir - deb ta’kidlagan. Raqobat qonuni bozor tizimining shunday iqtisodiy qonunidirki, unga ko’ra iqtisodiyot subyektlarining o’z maqsadlari yo’lidagi o’zaro kurashi muqarrar bo’ladi, bu kurash bozorga xos usullarda olib boriladi va subyektlarni iqtisodiy jihatdan saylanib olishini yuzaga keltiradi. Shuning uchun zimatlar sohasida raqobat muhiti shakillantirish xizmatlar bozorini harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, ximatlar sifatinig ortishiga, xizmatlarni ko’plab, sifatli va arzon narxlarda ko‘rsatilishiga, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning yangilikka intilishga undaydi va u barqaror xizmatlar bozorini vujudga kelishini ta’minlaydi.

M.Porter raqobatbardoshlikni tahlil qilishning tan olingan uslubini ishlab chiqdi, shuningdek, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi (arzon mehnat kabi birlamchi omillar bosqichidan tortib, innovatsiya asosidagi raqobat va so’nggi bosqich boylik asosidagi raqobatgacha) o’sishi bosqichlarini bayon qilib berdi. Nazariy jixatdan A.Smit bozordagi ko’rinmas qo’l deb ta’riflagan raqobat, xususiy va ijtimoiy extiyojlarni muvofiqlashtirish hamda mexnat va kapitalni optimal taqsimlanishi maqsadida foyda normalarini tenglashtirish omili sifatida qaralishini o’zining Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to’g’risidagi tadqiqotida asoslagan. Uning tarifi bo’yicha foyda ketidan quvish va raqobat butun jamiyatga naf keltiruvchi faoliyat deb qaragan.

Piyer Buagelberg esa tovarlar bozorida xaqiqiy qiymatga ega bo’lish va iqtisodiyot faqat erkin raqobat

shaoitidagina mu'tadil bo'lishini asoslab bergan. F.Kene esa "Tabiiy tartib" kontseptsiyasini ilgari surib, o'z davrida paydo bo'layotgan, mustaxkamlanayotgan kapitalizm kontseptsiyasini maqullab bunday sharoitda uning rivojlanib borishini erkin raqobatga asoslanishini, bunda esa bozor bahosining stihiyali o'zgarishi, davlatning bu jarayonga aralashuvini inkor etilishini qo'llab-quvvatladi. Yuqoridagi nazariy qarashlar bozor munosabatlari sharoitini erkin raqobatga asoslagan xolda uni rivojlanib borishini ta'minlovchi vosita ekanligini tasdiqlab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar faoliyatida sifatni oshirish, samaradorlikni erishish va raqobatbardoshlik ta'minlashga oid ilmiy izlanishlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlil va sintez hamda qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bozor iqtisodiyotining shakllanidagi klassik yo'l G'arb mamlakatlarida bo'lib, u yerda raqobat muxiti uzoq yillar moboynida, davlatning ishtirokisiz, o'z-o'zidan ya'ni stihiyali ravishda yuz bergan. Shu yo'sinda erkin raqobat paydo bo'lgan. Biroq iqtisodiyotda monopolashuv tendentsiyalari paydo bo'lishi bilan erkin raqobat cheklandi, shu sababli sog'lom raqobat muhitini yaratishda davlat ham qatnashadi. Sababi raqobatlashuv muhiti A.Smit va boshqa olimlarining nazariyasiga asosan mamlakatda erkin raqobat muxiti paydo bo'lgandagina bozor iqtisodiyoti shakllanadi va rivojlanadi. Buni davlatning antimonopol siyosatida ko'rishimiz mumkun. Bu siyosat erkin raqobat muxitini yangidan yaratishga emas, balki uni saqlab qolishga, kezi kelganda qaytadan tiklashga, raqobatning madaniylashgan usullarini qaror toptirishga qaratiladi.

Davlatning xususiy monopoliyalarni cheklashga qaratilgan tadbirlari 1890 yilda AQShda qabul qilingan Sherman qonuni bo'lib, u tarixda antitrest qonuni deb nom olgan. Monopoliya holati tarmoqdagi xizmat ko'rsatish sektorlarinimajburan egallab olish, bozorlarni taqsimlash va narx darajasi to'g'risida yashirin va oshkora kelishuvlar, sun'iy taqchilliklarni vujudga keltirish va boshqa shart-sharoitlar asosida vujudga kelishi mumkin. Shunga ko'ra, AQSh va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida monopoliyaning salbiy kuchlariga ma'lum cheklovlar kiritishga qaratilgan harakatlari XIX asr oxirlarida avj ola boshladi.

Sog'lom raqobat- bozor islohotlarining muhim talabidir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida davlat tomonidan samarali raqobat siyosati amalga oshirilishi natijasida tovar va xizmatlar bozorlarining monopollashish darajasi sezilarli ravishda pasaydi. Xususan, so'nggi o'n yil mobaynida monopol korxonalar soni 75,2 foizga, shu jumladan, 2004 - 2010 yillarning o'zida monopol tovarlarning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmidagi ulushi 26 foizdan 19,2 foizga kamaydi. Bu esa raqobatni yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratib berilganligi hamda tovar va xizmatlar bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan korxonalar soni sezilarli darajada qisqarganligidan dalolatdir.

O'z navbatida, respublikamiz iqtisodiyotida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar monopoliyaga qarshi qonun

hujjatlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chunki 1996 yilda qabul qilingan Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni moliyaviy xizmatlar bozorlaridagi raqobatni tartibga solish masalalarini o'z ichiga olmagan. Bu esa mazkur sohada raqobatga qarshi va raqobatni cheklovchi harakatlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan choralarni amalga oshirishga imkon bermasdi. Aynan shunday holatlar savdolarni (tenderlarni) tartibga solish va birja savdolari sohasida ham kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisida muhokama qilinishi kutilayotgan Raqobat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni ana shu jihatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqildi. Shu ma'noda, ushbu qonun raqobat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Qolaversa, mazkur qonun sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini aniqlashtirish, tovar va moliya bozorlarida monopolistik faoliyatning oldini olish hamda to'xtatish bo'yicha huquqiy vositalarni yangilashga yo'naltirilgan. Qonunning asosiy jihatlaridan biri monopoliyaga qarshi tartibga solishning moliyaviy xizmatlar bozoriga nisbatan ham tatbiq etilishi hamda ushbu bozorlar sub'ektlari faoliyatini tartibga solish mezonlarini belgilashdir.

Raqobat mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxona)lar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda xizmatlar ko'rsatish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z maqeini mustahkamlash uchun kurash bo'lib u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat ishlab chiqaruvchilar uchun bozorda o'z o'rnini egallash, tovarlarni sotish bo'yicha ulushini ko'paytirish va doimiy xarakatda bo'lishini ifodalovchi iqtisodiy mexanizmdir. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi qonunida Raqobat xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil xarakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istesno tadi yoki cheklaydi[17] deb ta'rif berilgan.

Xizmatlar sektori bugungi kunda iqtisodiyotning eng katta qismini tashkil etadi va butun dunyo bo‘ylab ishchi kuchi uchun asosiy manba hisoblanadi. **Jahon Banki** ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining hissasi 60-70% ni tashkil qiladi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich yil sayin oshib bormoqda. **Statista** bo'yicha 2024-yilda xizmat ko'rsatish sohasi AQSh yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 77% ni tashkil qilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar xizmat ko‘rsatish sohasida muvaffaqiyatli raqobat strategiyalarining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Bugungi raqobatli muhitda xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘zlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun turli xil strategiyalarni qo'llamoqda. Ushbu maqola xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat strategiyalarining turlari va ularning amaliy misollarini tahlil qilishga qaratilgan.

Xizmat ko‘rsatish sektorida raqobat tushunchasi

Xizmat ko'rsatish sohasida raqobat nafaqat mahsulotning moddiy xususiyatlariga, balki mijoz bilan

bevosita aloqaga ham asoslanadi. Shu sababli, xizmatlarning raqobatbardoshligi ko'pincha xizmat ko‘rsatish madaniyati va mijoz ehtiyojlariga moslashish darajasi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasida mijozlarning qoniqish darajasini 10% ga oshirish xizmatlarni takroran sotib olish ehtimolini 30% ga oshiradi (**Harvard Business Review, 2018**).

Xizmat ko'rsatish korxonalarida asosiy raqobat strategiyalari

1. **Differentsiatsiya strategiyasi**

Differentsiatsiya strategiyasi xizmatlar turlarini ajratib ko’rsatishga va brendning o‘ziga xosligini shakllantirishga qaratilgan. Bu strategiya yordamida mijozlar ma’lum xizmat yoki korxonani boshqalardan ajratib ko‘rishadi. Misol uchun, **Amazon Prime** xizmatlari an’anaviy onlayn savdo platformalaridan farqli o’laroq, mijozlarga tez yetkazib berish, eksklyuziv mahsulotlarga kirish va qo’shimcha xizmatlarni taklif etadi. Tadqiqotlarga ko’ra, Amazon Prime a’zolari odatda Prime xizmati mavjud bo’lmagan mijozlarga nisbatan ikki barobar ko’proq xarid qiladi (**Consumer Intelligence Research Partners, 2020**).

Differentsiatsiya strategiyasi xizmat turiga qarab o’zgaradi, masalan, yuqori darajadagi mehmonxonalar eksklyuziv xizmatlar, individual xonalar va shaxsiy xizmatlar orqali o’zlarining yuqori darajasini namoyish etadi. Bu uslub orqali mehmonxonalar yuqori daromadli mijozlarni jalb qiladi va brend sadoqatini oshiradi.

2. **Narx orqali raqobatlashish strategiyasi**

Narx orqali raqobatlashish strategiyasi ko’p hollarda ommaviy xizmatlar ko’rsatuvchi korxonalar tomonidan qo’llaniladi. Misol uchun, **Southwest Airlines** aviakompaniyasi xizmatlarini arzon narxlarda taklif qilishi orqali o’z mijozlar segmentini shakllantirgan. **Harrison va Samson (2019)** tadqiqotlariga ko‘ra, arzon narxlardagi aviakompaniyalar qisqa masofalarga sayohat qiladigan mijozlar uchun eng maqbul tanlov hisoblanadi, chunki ular sifat o’rniga narxni ustun qo’yishadi.

Biroq, narx orqali raqobatlashish strategiyasi foyda marjasini qisqartiradi. Shu sababli, bunday strategiyani muvaffaqiyatli qo’llash uchun korxonalar o’z operatsion xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari kerak. Masalan, tez ovqatlanish tarmoqlarida bu usul ish jarayonlarini avtomatlashtirish va xodimlar samaradorligini oshirish orqali amalga oshiriladi.

3. **Bozor segmentatsiyasi strategiyasi**

Bozor segmentatsiyasi strategiyasi bozorni turli segmentlarga ajratib, har bir segment uchun alohida xizmatlarni taklif qilishga qaratilgan. Misol uchun, **Marriott International** mehmonxonalar tarmog‘i biznes va dam olish uchun alohida xizmat paketlarini taklif etadi. **Deloitte** tomonidan o’tkazilgan tadqiqotga ko’ra, bozor segmentatsiyasi strategiyasini qo’llaydigan kompaniyalar mijozlar ehtiyojiga mos xizmatlarni taqdim etish orqali mijozlarning sodiqligini 20% ga oshirishga muvaffaq bo’lmoqda.

Ushbu strategiya orqali xizmat ko‘rsatish korxonalari aniq mijozlar segmentiga mos mahsulotlarni ishlab chiqaradi va ularning qoniqish darajasini oshiradi. Misol uchun, ta’lim sohasida korxonalar onlayn kurslarni yoshlar, katta yoshdagilar va karyera qilmoqchi

bo‘lganlar uchun alohida segmentlarga bo’lib taklif etishi mumkin.

4. **Innovatsiya va texnologik yangilanishlar strategiyasi**

Innovatsiya va texnologiyalarni joriy qilish orqali xizmatlarni modernizatsiya qilish bugungi raqobat muhitida muhim ahamiyatga ega. Masalan, **Uber** transport xizmatlari sohasida onlayn bronlash va to‘lov tizimini joriy etib, yo‘lovchilar uchun qulay xizmat yaratgan. Tadqiqotlar ko’rsatishicha, Uber va Lyft kabi texnologiyaga asoslangan xizmatlar an’anaviy taksi xizmatlariga nisbatan 35% gacha tezroq xizmat ko’rsatadi va bu mijozlar qoniqishiga bevosita ta’sir qiladi (**Journal of Transport Economics and Policy, 2020**).

Texnologiyalar yordamida xizmat korxonalari o’z xizmat sifatini yaxshilash, jarayonlarni avtomatlashtirish va mijozlar bilan aloqa samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Shu bilan birga, mijozlar tajribasini yaxshilashga qaratilgan texnologik innovatsiyalar, masalan, mobil ilovalar va sun'iy intellekt yordamida xizmat ko’rsatishning tezkor va qulay bo’lishini ta'minlaydi.

5. **Xizmatni takomillashtirish va qoniqarli tajriba yaratish strategiyasi**

Mijozlar uchun qoniqarli tajriba yaratish xizmat ko'rsatish sohasidagi eng muhim strategiyalardan biri hisoblanadi. **American Express** kompaniyasi tomonidan o’tkazilgan tadqiqotga ko’ra, mijozlar yaxshi xizmat olish uchun boshqa brendga nisbatan 17% ko’proq pul to’lashga tayyor. Bunday yondashuv orqali korxonalar mijozlarning sadoqatini oshirishi va ularni doimiy mijozga aylantirishga erishadi.

Misol uchun, **Zappos** kompaniyasi o’z mijozlariga yuqori darajada individual yondashish va ularga to’liq qoniqish berish strategiyasini tanlagan. Bu strategiya tufayli kompaniya o’z mijozlari orasida katta sadoqatga erishgan va boshqa raqobatchilardan ajralib turadigan brend sifatida tanilgan.

Strategiyalarni amalga oshirish usullari va vositalari

Har bir strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maxsus vosita va metodlardan foydalanish zarur. Misol uchun:

- **CRM tizimlari** - Bu tizimlar mijozlar bilan aloqalarni boshqarish va ularning ehtiyojlarini tahlil qilish imkonini beradi. **Salesforce** kabi CRM tizimlari xizmat ko’rsatish korxonalari uchun mijozlar ma'lumotlarini boshqarish va ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa xizmatlarni yanada moslashtirish va mijozlarning xohish-istaklarini aniqlash imkoniyatini beradi.
- **Marketing strategiyalari** - Raqobatbardoshlikni ta’minlashda marketing va reklama kampaniyalari muhim rol o‘ynaydi. Masalan, **Coca-Cola** o‘zining raqobat strategiyasini reklama kampaniyalari orqali amalga oshirib, butun dunyo bo‘ylab keng auditoriya orasida o‘zining brend tan olinuvchanligini oshirdi.
- **Xodimlarni o’qitish va motivatsiyalash** - Korxonaning xodimlari xizmat sifatini oshirishda muhim o’rin tutadi. Tadqiqotlarga ko’ra, o’z ishidan mamnun bo’lgan va yaxshi o’qitilgan xodimlar mijozlarga xizmat ko’rsatishda samaraliroq bo’ladi va mijozlar qoniqishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. **Google** kompaniyasida xodimlar uchun doimiy o’qitish dasturlari mavjud bo’lib, bu orqali ular

mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko’rsatishadi.

Xulosa

Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida qo’llaniladigan raqobat strategiyalari tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, to’g’ri tanlangan va yaxshi amalga oshirilgan strategiyalar kompaniyaning bozordagi muvaffaqiyatini oshirishi mumkin. Bunga misol qilib, diferensiyatsiya orqali noyob xizmatlarni taklif etish, texnologiyalardan foydalanib xizmat sifatini oshirish va mijozlar bilan samarali aloqalarni yo’lga qo’yishni keltirish mumkin. Shu sababli, xizmat ko‘rsatish korxonalari o’z strategiyalarini doimiy ravishda yangilab borishi va mijozlarning ehtiyojlariga moslashishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O’zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida. (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6- son, 70-modda). «Xalq so’zi» gazetasi 2017 yil 8 fevral, 28 (6722)-son.

3. «O’zbekiston Respublikasining xususiylashtirilgan, korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida» PF-5016 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017-yil 18-aprel.,

4. Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов / М.Портер. – М.: Альпина Паблишер. 2011, - 454 с.

5. Портер М. Конкуренция: учеб. пособие / М.Портер СПБ.: Питер 2011, – 430 с.

6. Ўзбекистон иқтисодиётининг рақобатдошлигини ошириш муаммолари: назария ва амалиёт / муаллифлар жамоаси: Р.Алимова, А.Расулов, А.Қодиров ва бошқ. – Т.: Konsauditinform-Nashr. 2006, 354 б.

7. Файзиев Э.С. Сервис соҳасининг иқтисодиётдаги ўрни. Рисола. Т.: “Фан ва технология”, 2007. – 16 б. – 1,0 б.т.

8. Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2000. – 312 с.

9. Филосова Т.Г. Конкуренция и конкурентоспособность: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по направлениям “Менеджент” (08.05.00), “Экономика” (08.01.00) / Т.Г.Философова, В.А.Быков; под. ред. Т.Г.Философовой. – М.: ЮНИТИ – ДАНА. – 2017. 5-6 с.

10. Фасхиев Х.А., Костин И.М. Обеспечение конкурентоспособности грузовых автомобилей на этапе разработки. – Набережные Челны: изд-во Камского политехи. Института, 2001. – 349 с.

11. I.X.Nasimov, I.Patterson, K.M.Ibodov. Hozirgi zamon raqobat nazariyalari. Samarqand:, SamDU nashriyoti, 2021 yil.

YANGI O‘ZBEKISTONDA AHOLI O‘SISH STATISTIKASINING AHAMIYATI VA PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI.

O.N.Xaitov, I.A.Sanakulova

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali dotsenti
xaitovoxunjon@samdukf.uz
+99899-337-59-95

Sanakulova Iroda Abrorovna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
irodasanakulova06@gmail.com
+99899-337-59-95

Received: 18 March 2025
Revised: 23 March 2025
Accepted: 25 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakat aholisi sonining ortishi va jadal suratlarda o’sib borishi, joriy davlatning iqtisodiyotiga ham katta ta’sir ko’rsatadi, uning rivojlanishiga olib keladi va bu holat o’syotgan aholi uchun yangi ish o‘rinlari, sifatli ta’lim va tibbiyot muassasalari qurish kabi bir qancha muhim strategik vazifalarni ishlab chiqib, amalga oshirishni taqazo etadi. Aholi sonining ortishi iste’mol hajmining ortishiga olib keladi. Bu o’z navbatida ishlab chiqarishni kengaytirishga ham shart-sharoitlar yaratib beradi. Iste’molchilar sonining ortishi bir qatorda talabning ham ortishiga olib keladi. Bu o’z navbatida, talab bilan parallel holda taklifni ham shakllantiradi.*

Kalit so‘zlar*: demografiya, aholi statistikasi, mehnatga layoqatli aholi, aholi harakati, aholi zichligi, aholi prognozi.*

ЗНАЧЕНИЕ СТАТИСТИКИ И ПРОГНОЗНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РОСТА НАСЕЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация: *В данной статье констатируется, что увеличение численности населения страны и быстрый рост текущего состояния также окажет большое влияние на экономику нынешнего государства, что приведет к ее развитию, и данная ситуация повлияет на разработку и реализацию ряда важных стратегических задач, таких как строительство новых рабочих мест, качественное образование и медицинские учреждения для растущего населения. Увеличение численности населения приводит к увеличению объемов потребления. Это, в свою очередь, создаст условия для расширения производства. Увеличение числа потребителей приведет к увеличению как спроса, так и спроса. Это, в свою очередь, формирует предложение параллельно со спросом.*

Ключевые слова: *демография, статистика населения, трудоспособное население, движение населения, плотность населения, прогноз численности населения.*

THE IMPORTANCE OF POPULATION GROWTH STATISTICS AND FORECAST INDICATORS IN NEW UZBEKISTAN.

Abstract: *This article discusses the increase in the population of a country and its rapid growth, which significantly impacts the national economy and contributes to its development. This situation necessitates the development and implementation of various strategic tasks, such as creating new job opportunities, building quality educational institutions, and establishing healthcare facilities to meet the needs of the growing population. The population growth leads to an increase in consumption. In turn, this creates conditions for the expansion of production. The rise in the number of consumers also leads to an increase in demand, which, in turn, shapes the supply in parallel with demand.*

Keywords: *demography, population statistics, working-age population, population movement, population density, population forecast.*

Kirish.

Yangi O‘zbekistonda aholi o‘sish statistikasi mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini baholashda, shu jumladan mehnat bozorining holati, sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi, ta’lim va ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega. Aholi sonining o‘sishi yoki kamayishi mamlakatning umumiy barqarorligi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, aholi o‘sishi statistikasining tahlil qilinishi, kelajakdagi demografik prognozlar, resurslar taqsimoti va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Aholi o‘sishi bilan bog‘liq statistik ma'lumotlar, aholining yashash darajasini, iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini va mintaqaviy farqlarni o‘rganishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu statistik ma'lumotlar ijtimoiy xizmatlar sohasidagi ehtiyojlarni aniqlash, mehnat bozorining muvozanatini ta’minlash va iqtisodiy resurslarni samarali boshqarishga imkon yaratadi. Shunday qilib, aholi o‘sishining statistikasi nafaqat mamlakatning hozirgi holatini baholash, balki uning kelajakdagi rivojlanish prognozlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

O‘zbekistonning demografik rivojlanishini tahlil qilgan iqtisodchi olimlar, aholi o‘sishining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ta’kidlamoqda.

Shavkat Rasulov kabi olimlar, mamlakatda aholi sonining o‘sishi mehnat bozoriga va ijtimoiy infratuzilmalarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganib, prognoz ko‘rsatkichlari orqali resurslar taqsimoti va ijtimoiy siyosatni shakllantirishning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan. Ularning fikriga ko‘ra, aholi sonining barqaror o‘sishi mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy omil bo‘lishi mumkin, lekin bu o‘sish barqaror iqtisodiy o‘sish va mehnat bozorining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun to‘g‘ri siyosatni talab qiladi.

Tursunoy Rakhmonova aholi o‘sishining ijtimoiy infratuzilmaga ta’sirini, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining aholi sonining o‘sishiga moslashtirilishi zarurligini ta’kidlagan. U, shuningdek, aholi o‘sishini muvofiqlashtirishda davlatning aholi siyosatining markaziy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi.

Muhammadali Tursunov kabi olimlar, mintaqaviy aholi o‘sishini tahlil qilishda, aholi zichligi va resurslar taqsimotining mintaqaviy o‘zgarishlar bilan qanday bog‘lanishini o‘rganadilar. Ular mamlakatning turli hududlaridagi aholi o‘sishining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali, mintaqaviy rivojlanishni barqarorlashtirish va resurslar taqsimotini optimallashtirishni taklif qiladilar.

Abdurashid Tashkentov kabi olimlar esa, statistik ma'lumotlar asosida aholi prognozlarini tuzishning muhimligini, bu prognozlar yordamida mehnat bozoridagi ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning samaradorligini ta’kidlamoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda Yangi O‘zbekiston sharoitida aholi o‘sishining statistik jihatlari va prognoz

ko‘rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish maqsad qilingan bo‘lib, ilmiy-analitik usul, statistik tahlil usuli, solishtirma tahlil usuli, prognozlash usuli, grafik va vizualizatsiya usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Aholi deganda tasavvurimizga muayyan hududi, qit’a, mamlakat, tuman, shahrida istiqomat qiluvchi insonlar majmui keladi,aslida bu ham xato fikr emas. Aholi harakati va boshqa turli sohalari bilan quyidagi maxsus fan Demografiya shug’ullanadi, Bu fan aholining tug’ilishi, o’limi, soni va aholi statistikasini o’rganuvchi asosiy sohadir

Demografik statistika, aholi statistikasi - statistika fani tarmog‘i, aholi yoki uning alohida guruhlarining miqdori, tarkibi, joylashishi va takror barpo bo‘lishi haqida statistik uslub asosida ma’lumotlar to‘plash, uni qayta ishlash va tahlil qilishni o‘rganadi. Demografik statistika aholi va demografik jarayonlar (tug‘ilish, o‘lish, nikoh va ajralish, aholining takror barpo bo‘lishi) haqidagi raqam ko‘rsatkichlar yig‘indisidan iborat. Demografik statistika ma’lumotlaridan sotsial-demografik tadqiqotlarda foydalaniladi.

Aholi sonining o‘sishi - aholi yoki tarqoq guruhdagi odamlar sonining ko‘payishidir. Aholining o‘sishi iste’molning ortishi bilan bir qatorda, inson taraqqiyotida foydalanilgan resurslar tufayli biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolarning keltirib chiqaruvchisi hisoblanadi.

Barcha mamlakatlarda aholi sonining o’sishi iqtisodiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, mamlakat aholisi sonining ortishi va jadal suratlarda o’sib borishi, joriy davlatning iqtisodiyotiga ham katta ta’sir ko’rsatadi, uning rivojlanishiga olib keladi va bu holat o’syotgan aholi uchun yangi ish o‘rinlari, sifatli ta’lim va tibbiyot muassasalari qurish kabi bir qancha muhim strategik vazifalarni ishlab chiqib, amalga oshirishni taqazo etadi Aholi sonining ortishi iste’mol hajmining ortishiga olib keladi. Bu o’z navbatida ishlab chiqarishni kengaytirishga ham shart-sharoitlar yaratib beradi. Iste’molchilar sonining ortishi bir qatorda talabning ham ortishiga olib keladi. Bu o’z navbatida, talab bilan parallel holda taklifni ham shakllantiradi. Ushbu jarayonlar esa mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko’rsatadi. Misol sifatida YaIMning ortishini olishimiz mumkin. Iqtisodiyotda ekstensiv o’sish tushunchasi mavjud bo’lib, u aholi sonining ortishi bilan birga YaIM hajmining parallel ravishda ortishini anglatadi.

So’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasining aholisi ham jadal sur’atlarda o’sib bormoqda. Xususan, yurtimiz aholisi soni 37,3 mln kishidan oshdi. Bu Markaziy Osiyoda yashovchilarning yarmini tashkil etadi va bu faqatgina Markaziy Osiyo aholisining deyarli yarmini tashkil etuvchi ko’rsatkich bo’lib qolmay, balki iqtisod rivojlanishi uchun asosiy turtki - mintaqadagi eng yirik iste’mol bozori ham hisoblanadi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi ham mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan maqsadli yo’nalishi hisoblanadi. Aholi soni, uning qanday ko’rsatkichlarda o’sayotganligini va tarkibini o’rganishning asosiy usuli bu ro’yxatga olish hisoblanadi. Aholi sonini va uning qanday sur’atlarda o’sayotganini aniqlashda aholi ro’yxati boshlang’ich

manba hisoblanadi. Bu manbani yillar kesimida ko'rib chiqamiz:

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi aholining soni 2017-yilning 1-oktyabrdagi holati bo'yicha 32 mln 511 mingdan ortiq kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilning 1-oktyabr sanasida esa 37 mln 355 mingdan ortiq kishini tashkil etyabdi. Ushbu 7 yil davomida yurtimiz aholisi qariyb 4 mln 843 ming ortiq kishiga o'sgan. Bu albatta yaxshi natija, so'nggi ikki yilga nazar solaganimizda esa aholi sonining ortishi yiliga bir millionga yaqinlashayotganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari aholi sonining va joylashgan hududiga qarab eng ko'p va eng kam aholini qamrab olgan viloyatlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan,O'zbekistoning eng ko'p aholisi joylashgan hududi Samarqand bo'lib uning doimiy aholisi 4 275,3 ming kishini tashkil etadi. Keying o'rinda Farg'ona viloyatining aholisi soni 4 123,6 ming kishiga yetgan.Statistikada ko'rsatilishicha eng kam aholiga ega bo'lgan viloyat Navoiy bo'lib, aholisi soni 1 090,0 ming kishini tashkil etadi.

2024 yil 1 iyul holatiga O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 37 million 134 ming kishini tashkil etdi. Bu haqda Statistika agentligi hisobot berdi. Qayd qilinishicha, aholining 18 million 696 ming nafari erkaklar, 18 million 437 ming nafari ayollardir. Mamlakatning shahar aholisi soni 18,9 million kishini, qishloqlar aholisi 18,2 million kishini tashkil etadi. Agentlik ma'lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining o‘rtacha yoshi 28,5 yilga teng. Taqqoslash uchun, 2014 yilda aholi o‘rtacha yoshi 27,3 yil edi. O‘zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar umumiy aholi sonining 56,4 foiziga teng. Shu bilan birga, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar 32 foiz, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 11,6 foiz. Doimiy aholi sonining eng ko‘pi Samarqand viloyatida qayd etilgan – 4 million 249 ming nafar. Bu butun O‘zbekiston aholisining 11,4 foizi degani. Shuningdek, Farg‘ona (4,1 million kishi), Qashqadaryo (3,6 million kishi), Andijon (3,4 million kishi) va Namangan (3,1 million kishi) viloyatlarida nisbatan ko‘p aholi istiqomat qiladi. 2024-yil 1-iyul holatiga O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 37 million 134 ming kishini tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. Doimiy aholi sonining jinsi, shahar va qishloq joylari bo‘yicha taqsimlanishi.

Qayd etilishicha, aholining qariyb 18 million 696 ming nafari erkaklar, 18 million 437 ming nafari ayollar hissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatning shahar aholisi soni 18,9 million kishini, qishloqlardagi aholisi 18,2 million kishini tashkil etadi.

Respublika aholisining o‘rtacha yoshi 28,5 yosh bo‘lgan. Taqqoslash uchun, 2014-yilda aholi o‘rtacha yoshi 27,3 yosh edi.



2-rasm. Aholining guruhlari va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

O‘zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar umumiy aholi sonining 56,4 foiziga teng. Shu bilan birga, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar 32 foiz, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 11,6 foiz.

Doimiy aholi sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida qayd etilgan - 4 million 249 ming nafar. Bu butun O‘zbekiston aholisining 11,4 foizi degani. Shuningdek, Farg‘ona (4,1 million kishi), Qashqadaryoda (3,6 million kishi), Andijon (3,4 million kishi) va Namangan (3,1 million kishi) viloyatlarida nisbatan ko‘p aholi istimoqmat qiladi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

Doimiy aholisi sonining ulushi eng kam hudud Sirdaryo viloyati bo‘lib, u yerda 922,1 ming kishi yashamoqda. Navoiy (1,1 million kishi), Jizzax (1,5 million kishi), Xorazm (2 million kishi) viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda (2

million kishi) nisbatan kam aholi istiqomat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Yangi O‘zbekiston sharoitida aholi o‘sishi statistikasini chuqur tahlil qilish va prognozlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni samarali yuritishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining yildan-yilga ortib borayotgani, ayniqsa mehnatga layoqatli yoshdagi aholining yuqori ulushi, mamlakat uchun ulkan demografik imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon iqtisodiy resurslar taqsimoti, ijtimoiy xizmatlar sifati, bandlik va infratuzilma masalalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, 2017–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston aholisi soni qariyb 4,8 million kishiga ko‘paygan. Bu esa yiliga deyarli 1 millionlik o‘sish sur’atini bildiradi. Aholining bunday jadal o‘sishi ichki talabning oshishiga, ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, yangi ish o‘rinlari va ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Aholi o‘rtacha yoshining 28,5 yil atrofida bo‘lishi esa O‘zbekistonni yosh va mehnatga layoqatli aholiga boy davlat sifatida ko‘rsatadi.

Demografik statistikaning to‘g‘ri yuritilishi, ro‘yxatga olish jarayonlarining sifatli amalga oshirilishi nafaqat mavjud holatni baholash, balki kelajakdagi demografik tendensiyalarni aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar kesimida aholining notekis taqsimlangani esa mintaqaviy siyosatda muvozanatli yondashuvni talab qiladi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, aholi o‘sishi statistikasi davlat siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak. Bu borada ilmiy asoslangan prognozlar, aniq statistik tahlillar va demografik tendensiyalar asosida ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Faqat shundagina O‘zbekiston aholi salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston 2030” strategiyasi. Rasmiy hujjat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti: https://president.uz
2. Rasulov Sh. O‘zbekiston demografik rivojlanishining iqtisodiy tahlili. Toshkent: “Iqtisodiy fikr” nashriyoti. 2022-y.
3. Raxmonova T. Aholi o‘sishining ijtimoiy infratuzilmalarga ta’siri. “Iqtisod va statistika” jurnali, №4, 45–51-betlar. 2021-y.
4. Tursunov M. Hududiy demografik farqlar va resurslar taqsimoti. “Ilm va taraqqiyot” ilmiy-amaliy jurnali, №1, 32–39-betlar. 2023-y.
5. Tashkentov A. Statistik tahlil asosida demografik prognozlash. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2020-y.
6. Abduraxmonov Q.X. Iqtisodiy nazariya asoslari. Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti. 2020-y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Aholi soni va demografik holati bo‘yicha statistik byulleten. Rasmiy sayt: https://stat.uz

ISTE'MOLCHILARNI ELEKTRON TIJORATDAN FOYDALANISH TAJRIBASINI YAXSHILASH YO'LLARI.

L.U.Maxmudov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, PhD
Tel: +99897 913 60 19
Email: lazizmakhmudov90@gmail.com

Received: 17 March 2025
Revised: 23 March 2025
Accepted: 18 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *maqola iste'molchilarning elektron tijoratdan foydalanish tajribasini yaxshilash yo'llarini ilmiy-metodik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Foydalanuvchi interfeysini takomillashtirish, tovarlar haqida to'liq ma'lumot berish, xavfsizlikni ta'minlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, logistika va yetkazib berishni optimallashtirish, personalizatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kabi usullar o'rganiladi. Elektron tijoratda moliyaviy xavflar, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, mahsulot sifati farqlari, yetkazib berish muammolari, yuridik va kafolat masalalari hamda psixologik xavflar kabi iste'molchilar duch keladigan asosiy xavf-xatarlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: elektron tijorat, foydalanuvchi tajribasi, xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, to'lov tizimlari, yetkazib berish, mijozlarga xizmat ko'rsatish, foydalanuvchi interfeysi, personalizatsiya, sun'iy intellekt.*

ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ ОПЫТА ПОЛЬЗОВАНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИЕЙ.

Аннотация: *статья посвящена анализу путей улучшения опыта использования электронной коммерции потребителями с научно-методической точки зрения. Рассматриваются такие методы, как совершенствование пользовательского интерфейса, предоставление полной информации о товарах, обеспечение безопасности, повышение качества обслуживания клиентов, оптимизация логистики и доставки, персонализация и использование технологий искусственного интеллекта. Анализируются основные риски, с которыми сталкиваются потребители в электронной коммерции, включая финансовые риски, угрозы безопасности персональных данных, расхождения в качестве продукции, проблемы с доставкой, юридические и гарантийные вопросы, а также психологические риски.*

Ключевые слова: *электронная коммерция, пользовательский опыт, безопасность, защита персональных данных, платёжные системы, доставка, обслуживание клиентов, пользовательский интерфейс, персонализация, искусственный интеллект.*

WAYS TO IMPROVE CONSUMERS' EXPERIENCE IN USING E-COMMERCE.

Anatation: *the article analyzes ways to improve the consumer experience in electronic commerce from a scientific-methodological perspective. Methods such as enhancing user interfaces, providing comprehensive product information, ensuring security, improving customer service quality, optimizing logistics and delivery, personalization, and leveraging artificial intelligence technologies are explored. Key risks faced by consumers in e-commerce, including financial risks, personal data security threats, product quality discrepancies, delivery issues, legal and warranty concerns, and psychological risks, are analyzed.*

Keywords: *electronic commerce, user experience, security, personal data protection, payment systems, delivery, customer service, user interface, personalization, artificial intelligence.*

Introduction (Kirish)

Elektron tijorat bugungi global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, uning rivojlanish sur’atlari yil sayin ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar va internet infratuzilmasining kengayishi natijasida iste’molchilarning mahsulot va xizmatlarni onlayn xarid qilishga bo‘lgan ehtiyoji va ishonchi ortmoqda. Biroq, elektron tijoratdan foydalanish jarayonida iste’molchilar turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ularga to‘lov tizimlarining ishonchliligi, ma’lumotlar xavfsizligi, yetkazib berish muddati va sifati, interfeysning qulayligi hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatishning samaradorligi kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda iste’molchilar uchun qulay va xavfsiz onlayn xarid tajribasini ta’minlash elektron tijorat kompaniyalari uchun strategik ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, foydalanuvchi tajribasi va iste’molchilarning qoniqish darajasi savdo hajmi hamda brendga bo‘lgan sadoqatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois elektron tijorat platformalarining samarali ishlashi, ularning intuitiv dizaynga ega bo‘lishi, moslashtirilgan takliflarni taqdim etishi va tezkor hamda ishonchli mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimiga ega bo‘lishi dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy elektron tijoratda iste’molchilar ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etish tendensiyasi kuzatilmoqda. Sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar tahlili (Big Data) va blokcheyn texnologiyalari kabi ilg‘or innovatsion yechimlar iste’molchilarning onlayn xarid qilish tajribasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuvlar iste’molchilar uchun qulaylik yaratish bilan birga, elektron tijorat kompaniyalari uchun ham raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shu bois ushbu maqolada iste’molchilarning elektron tijoratdan foydalanish tajribasini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlar hamda samarali chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Methods (Metodlar)

Elektron tijorat (ET) sohasida iste'molchilarning tajribasini yaxshilashga oid tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan. Ularning ishlari foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, raqamli marketing strategiyalarini takomillashtirish, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni rivojlantirish va xavfsizlik masalalariga qaratilgan. Fred D.Davis (Texnologiyani qabul qilish modeli - TAM) elektron tijorat va texnologiyalarni qabul qilishning psixologik va ijtimoiy jihatlarini o‘rganadi. Uning "Texnologiyani qabul qilish modeli" (Technology Acceptance Model, TAM) foydalanuvchilarning elektron tijorat platformalaridan foydalanish xulq-atvorini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Erik Brynjolfsson va Michael D.Smith elektron tijoratning iste’molchilar uchun qulayliklari, narxlar va tanlov imkoniyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Donna L.Hoffman va Thomas P.Novaklar foydalanuvchilarning xatti-harakatlari, raqamli marketing va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash yo‘llarini tadqiq etishgan. Ushbu tadqiqot foydalanuvchilarning interaktiv tajribasi va ularning qarorlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganadi. Yuqorida keltirilgan olimlar va ularning tadqiqotlari elektron tijoratda

foydalanuvchi tajribasini yaxshilashning turli jihatlarini qamrab oladi.

Results (Natijalar)

Elektron tijoratda xavfsizlik choralari yetarli bo‘lmasa, iste’molchilar ishonchi pasayib, biznesning barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligi zaiflashadi. Xavfsizlik tamoyillarini ishlab chiqish firibgarlik va ma’lumotlar buzilishining oldini olib, sog‘lom raqobat va samarali bozor muhitini shakllantiradi. Bu onlayn xarid faolligini oshirib, moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytiradi va to‘lov tizimlarining ishonchliligini mustahkamlaydi. Shuningdek, xavfsizlik me’yorlari regulyativ tizimni takomillashtirib, blockchain va sun’iy intellekt joriy etilishini jadallashtiradi. Xalqaro bozorlarga chiqishda xavfsizlik kafolatlari investor va mijozlar ishonchini oshirib, eksportni rivojlantiradi. Natijada, iste’molchilar huquqlari himoyalanib, elektron tijoratning barqarorligi va innovatsion rivojlanishi ta’minlanadi.

2-jadval

Iste’molchilarni elektron tijoratdan foydalanishdagi xavf-xatarlardan himoyalanish prinsiplari

Xavf-xatar	Himoyalanish choralari
Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish	Faqat **https://** bilan boshlanuvchi, SSL sertifikati bilan himoyalangan veb-saytlardan foydalanish. Brauzer va antivirus dasturlarini doimiy yangilash. Shubhali reklama va chegirmalarning haqiqatga mosligini tekshirish. Shaxsiy ma’lumotlarni noma’lum manbalarga kiritmaslik va firibgarlik sxemalaridan ehtiyot bo‘lish zarur.
Ishonchli savdo maydonchalarini tanlash	Sotuvchining reytingi va mijozlar sharhlarini diqqat bilan o‘rganish. Haddan tashqari past narxlarda taklif qilinayotgan mahsulotlarga shubha bilan qarash. Mahsulot tavsifini, suratlarini va sharhlarini bir nechta ishonchli manbalar bilan solishtirish. Rasmiy distribyutorlar va ishonchli yetkazib berish xizmatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.
Firibgar veb-saytlardan himoyalanish	Saytning URL manzilini tekshirish, HTTPS sertifikati yo‘qligiga e’tibor berish. Noma’lum to‘lov tizimlari va noaniq aloqa ma’lumotlariga ega bo‘lgan saytlarni tark etish. To‘lov amalga oshirishdan avval saytning ishonchliligini mustaqil manbalar orqali tekshirish. Yashirin qo‘shimcha to‘lovlarning oldini olish uchun yakuniy narx va shartlarni diqqat bilan o‘qib chiqish zarur.
To‘lov xavfsizligini ta’minlash	Faqat ishonchli va himoyalangan to‘lov tizimlaridan foydalanish. Qulf belgisi mavjudligini tekshirish va ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqish. Virtual yoki bir martalik karta raqamlaridan foydalanish. Bankdan SMS yoki ilova orqali tasdiqlash talab qilinadigan to‘lov usullarini tanlash kerak.
Firibgarlik sxemalaridan ehtiyot bo‘lish	Soxta tasdiqlash xabarlari va shubhali elektron pochta havolalariga bosmaslik. Buyurtma holatini faqat rasmiy saytlardan yoki ilovalardan tekshirish. Shubhali xabarlardagi imlo xatolariga va noma’lum jo‘natuvchilarga e’tibor berish talab etiladi.
Yetkazib berish	Buyurtmani kuzatuv raqami orqali doimiy nazorat qilish. Ishonchli

jarayonida xavfsizlik	yetkazib berish xizmatlarini tanlash va sotuvchi bilan aloqada bo‘lish. Buyurtma yetib kelmagan taqdirda yetkazib beruvchi yoki platformaning mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga murojaat qilish mumkin.
Mahsulot sifati va mosligini tekshirish	Buyurtma qabul qilinganda mahsulotni darhol tekshirish va jarayonni videoga olish. Agar mahsulot noto‘g‘ri yoki sifatsiz bo‘lsa, sotuvchi yoki platformaning mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga murojaat qilish. Platformaning himoya siyosatidan foydalanib, almashtirish yoki to‘lovni qaytarishni talab qilish mumkin.

Iste’molchilar shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun faqat rasmiy va himoyalangan (https://) veb-saytlardan foydalanishi, shubhali chegirmalar hamda reklamalarning ishonchliligini tekshirishi, brauzer va antivirus dasturlarini yangilashi lozim. Firibgarlik xavfini kamaytirish uchun sotuvchilar reytingi va sharhlarini tahlil qilish, mahsulot narxini turli manbalarda solishtirish va faqat rasmiy distribyutorlardan xarid qilish tavsiya etiladi. Shubhali URL manzillar, noma’lum to‘lov tizimlari, haddan tashqari arzon narxlar va noaniq aloqa ma’lumotlari firibgarlik belgilari bo‘lish ehtimoli katta, shuning uchun xarid oldidan sayt ishonchliligini tekshirish muhimdir. To‘lov xavfsizligini ta’minlash uchun faqat ishonchli tizimlardan foydalanish, ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqish va virtual karta raqamlaridan foydalanish lozim. Soxta tasdiqlash xabarlari orqali firibgarlikning oldini olish uchun esa buyurtma holatini faqat rasmiy platformalarda tekshirish, noma’lum manbalardan kelgan havolalarga bosmaslik zarur. Buyurtmaning yo‘qolishi yoki noto‘g‘ri yetkazilishini oldini olish uchun kuzatuv raqamidan foydalanish, yetkazib berish xizmatlarini diqqat bilan tanlash va mahsulotni qabul qilishda tekshirish tavsiya etiladi. Agar noto‘g‘ri mahsulot yetkazilsa yoki nuqson aniqlansa, sotuvchi yoki platformaning mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga dalillar bilan murojaat qilish va zarur bo‘lsa, nizolarni hal qilish tizimidan foydalanish kerak. Shu tariqa, xavfsizlik choralariga rioya qilish iste’molchilarni firibgarlik va moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qilib, elektron tijoratning ishonchliligini oshiradi.

Shunday qilib, xavfsizlik choralariga rioya qilish elektron tijoratning iqtisodiy barqarorligi, iste’molchilar ishonchi va innovatsion ekotizim rivojlanishiga asos bo‘lib, uzoq muddatli raqobatbardosh bozor muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Discussion (Muhokama)

Iste'molchilar elektron tijoratdan foydalanishlarida turli xavf-xatarlarga duch kelishlari mumkin. Quyida ularning asosiy turlari va misollari keltirilgan:

1. Moliyaviy xavflar - bu turdagi xavflar asosan iste'molchilarning pul mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lib, firibgarlik, noto‘g‘ri tranzaksiyalar va ma’lumotlar o‘g‘irlanishi natijasida yuzaga keladi. Misol uchun, soxta internet-do‘konlar mijozlardan pulni oladi, lekin mahsulotni yetkazib bermaydi. Masalan, mijoz qimmatbaho smartfon sotib oladi, lekin to‘lovni amalga oshirgandan keyin sayt yopilib ketadi. Yoki iste'molchi to‘lovni amalga oshirganidan so‘ng, mablag‘ noto‘g‘ri

hisobga tushishi yoki to‘lov ikki marta yechib olinish holatlari bo‘lishi mumkin.

2. Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi - elektron tijoratda iste’molchilarning shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlari doimiy ravishda xavf ostida bo‘lib, ularni o‘g‘irlash yoki ruxsatsiz foydalanish ehtimoli mavjud. Misol uchun, shaxsiy ma’lumotlar (kartaning raqami, pasport ma’lumotlari) himoyalanmagan platformalarda saqlanganda, ular hakerlar tomonidan o‘g‘irlanishi va noqonuniy maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Yana, iste’molchilar elektron pochta yoki SMS orqali soxta havolalarga bosish orqali o‘z hisob ma’lumotlarini firibgarlarga topshirib qo‘yishlari mumkin.

3. Mahsulot sifati va kutilmagan farqlar - onlayn xaridlar paytida mijoz kutilgan mahsulot bilan haqiqatdagi mahsulot o‘rtasida farq bo‘lishi ehtimoli bor. Masalan, mijoz qizil rangli kiyim buyurtma qilgan bo‘lsa, unga qora ranglisi kelib qolishi mumkin. Yoki, onlayn do‘konda mahsulot sifati haqida haqiqatdan uzoq tavsif berilishi yoki fotoshop qilingan suratlar orqali mijozni chalg‘itish holatlari bo‘lishi mumkin.

4. Yetkazib berish muammolari - onlayn xaridlarning muhim jihatlaridan biri mahsulotning o‘z vaqtida va to‘g‘ri manzilga yetkazilishidir. Xalqaro yetkazib berish tizimidagi nosozliklar yoki yuk jo‘natishdagi kechikishlar tufayli mahsulot uzoq vaqt yetib kelmasligi mumkin. Yetkazib berish xizmatining xatosi yoki mijoz tomonidan noto‘g‘ri manzil kiritilishi natijasida mahsulot boshqa joyga borib qolishi mumkin.

5. Yuridik va kafolat bilan bog‘liq muammolar - elektron tijoratda ba'zan iste’molchilar mahsulotga kafolat yoki yetarlicha mijoz qo‘llab-quvvatlash xizmatiga ega bo‘lmaydi. Ayrim sotuvchilar mahsulotni qaytarib olishdan bosh tortishi yoki mablag‘ni qaytarish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Mahsulotga rasmiy kafolat va’dasi berilsa-da, nosoz mahsulot chiqqanda kompaniya javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydigan holatlar uchraydi.

6. Psixologik va ijtimoiy xavflar - elektron tijoratdagi firibgarlik va noto‘g‘ri mahsulot yetkazib berish holatlari mijozlarda ishonchsizlik tug‘dirishi mumkin. Masalan, chegirmalar yoki "oxirgi imkoniyat" kabi marketing strategiyalari iste’molchini shoshilinch qaror qabul qilishga undashi mumkin yoki ayrim mijozlar elektron tijorat orqali keraksiz xaridlar qilishga o‘rganib qolib, moliyaviy muammolarga duch kelishlari mumkin.

Bugungi kunda iste'molchilarning elektron tijoratdan foydalanish tajribasini yaxshilash uchun elektron tijorat platformalari tomonidan ko'plab metodlar va strategiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, amaliyotda qo‘llaniladi.

1-jadval

Iste'molchilarning elektron tijoratdan foydalanish tajribasini yaxshilash metodlari va yo‘llari

№	Yo‘l / Metod	Tavsif
1	**Foydalanuvchi interfeysini takomillashtirish**	Veb-sayt yoki ilovada qulay navigatsiya, responsiv dizayn, soddalashtirilgan jarayonlar.
	- Intuitiv va qulay navigatsiya	Mahsulotlar va xizmatlarni oson qidirish va filtrlash.
	- Responziv dizayn	Turli qurilmalarda yaxshi ishlash.

	- Soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish va buyurtma berish	Minimal ma'lumotlar so‘rash, jarayonni tezlashtirish.
	- Vizual va audio materiallar	Mahsulotlar haqida sifatli fotosuratlar, videolar va audio materiallar.
2	**Tovarlar va xizmatlar haqida to'liq ma'lumot berish**	Batafsil tavsif, sifatli vizual materiallar va foydalanuvchi fikr-mulohazalari.
	- Batafsil tavsif	Tovarlarning xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rsatish.
	- Sifatli fotosuratlar va videolar	Mahsulotlarni yaxshiroq tasavvur qilish.
	- Iste'molchilarning fikr-mulohazalari	Boshqa iste'molchilarning sharhlari va reytinglari.
	- 3D-modellar va virtual ko‘rish imkoniyati	3D va virtual ko‘rish orqali tovarni yaxshiroq tasavvur qilish.
3	**Xavfsizlikni ta'minlash**	Shaxsiy va to‘lov ma'lumotlarini himoya qilish, xavfsiz to‘lov tizimlari.
	- Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi	Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.
	- Maxfiylik siyosati	Maxfiylik siyosatiga qat'iy rioya qilish.
	- Xavfsiz to‘lov usullari	SSL sertifikati va xavfsiz to‘lov tizimlari.
4	**Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish**	Tezkor javoblar, 24/7 qo‘llab-quvvatlash, muammolarni hal qilish.
	- Tezkor javob berish	Iste'molchilarning savollariga tez va professional javob berish.
	- 24/7 qo'llab-quvvatlash	24 soat, 7 kun yordam ko‘rsatish.
	- Muammolarni hal qilish	Tezkor va samarali muammo yechimi.
	- Qayta aloqa	Iste'molchilarning fikr-mulohazalarini to‘plash va xizmatni yaxshilash.
5	**Logistika va yetkazib berishni takomillashtirish**	Tezkor yetkazib berish, turli usullar va holatni kuzatish.
	- Tezkor yetkazib berish	Tovarlarni tezroq yetkazib berish.
	- Yetkazib berishning turli usullari	Kuryer xizmati, pochta, pick-up point taklif qilish.
	- Yetkazib berish holatini kuzatish	Buyurtma holatini real vaqtda kuzatish.
	- Qaytarish shartlari	Tovarlarni qaytarish shartlari haqida aniq ma'lumot berish.
6	**Personalizatsiya**	Shaxsiy tavsiyalar, maxsus takliflar va loyallik dasturlari.
	- Shaxsiy tavsiyalar	Xarid qilish tarixiga asoslangan tavsiyalar.
	- Maxsus takliflar	Ehtiyojlarga mos keladigan maxsus takliflar.
	- Loyallik dasturlari	Sodiqlikni oshirish uchun dasturlar.
7	**Sun'iy intellekt va**	Chatbotlar, tavsiya tizimlari, firibgarlikni

	mashinalarni o‘rganish texnologiyalari	aniqlash.
	- Chatbotlar	Savollarga javob berish va yordam ko‘rsatish uchun chatbotlar.
	- Tovarlarni tavsiya qilish tizimlari	Mashinalarni o‘rganish algoritmlari orqali tavsiyalar.
	- Firibgarlikni aniqlash	Firibgarlikni aniqlash va oldini olish.

Foydalanuvchi interfeysini takomillashtirish, tovarlar va xizmatlar haqida to'liq ma'lumot berish, xavfsizlikni ta'minlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, logistika va yetkazib berishni takomillashtirish, personalizatsiya, shuningdek sun'iy intellekt va mashinalarni o‘rganish texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning turli xavflardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Quyida har bir metodning turli xavflarga qanday ta'sir qilishi va himoya darajasi haqida batafsil ma'lumot beriladi:

1. Foydalanuvchi interfeysini takomillashtirish. Foydalanuvchi interfeysi intuitiv va soddalashtirilgan bo'lsa, foydalanuvchilarning xarid qilish jarayonidagi noaniqlik va noto'g'ri qarorlar riskini kamaytiradi. Bunda foydalanuvchi soddalashgan jarayon orqali xarid qilishda xato qilmaslikka yordam beradi, lekin moliyaviy xavflar to'liq oldini olinmaydi. Himoya darajasi o'rtacha deb baholash mimkin.

2. Tovarlar va xizmatlar haqida to'liq ma'lumot berish. Tovarlar yoki xizmatlar haqida aniq, to'liq va batafsil ma'lumot berish, shu jumladan sifatli fotosuratlar va videolarni taqdim etish foydalanuvchilarning mahsulotni aniq tasavvur qilishlariga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, kutilmagan farqlarni kamaytiradi va foydalanuvchilarning sotib olish qarorlarini to'g'ri qabul qilishlariga yordam beradi. Ushbu metodning himoya darajasini yuqori deb baholash mumkin.

3. Xavfsizlikni ta'minlash. Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, ayniqsa SSL sertifikatlari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosati va xavfsiz to'lov tizimlaridan foydalanish, foydalanuvchilarning maxfiy ma'lumotlarini himoya qiladi. Bu, ayniqsa, onlayn to'lovlar va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavflarni oldini oladi. SSL sertifikatlaridan foydalanish moliyaviy xavflardan juda yuqori darajada himoya qiladi. Shu bilan birga, maxfiylik siyosati va xavfsiz to'lov tizimlari yuridik va kafolat muammolarini kamaytirishga yordam beradi. Tizimdagi barcha maxfiy ma'lumotlar va tranzaktsiyalar to'g'risida aniq ma'lumot taqdim etish, foydalanuvchilarning yuridik xavflarini kamaytiradi.

4. Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish. Foydalanuvchilarga tez va samarali javob berish, 24/7 qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish va mijozlarga muammolarni hal qilishda yordam berish, foydalanuvchilarning stressini kamaytiradi va psixologik xavflarni oldini oladi. Ayni paytda, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga kelgan yetkazib berish muammolarini tezkor hal qilish, foydalanuvchilarga e'tibor qaratish va yordam berish, yetkazib berish jarayonidagi kutilmagan holatlar riskini kamaytiradi.

5. Logistika va yetkazib berishni takomillashtirish. Tezkor yetkazib berish, yetkazib berishning turli usullari va buyurtma holatini kuzatish imkoniyati foydalanuvchilarga tovarni tez va xavfsiz olish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, yetkazib berishdagi kechikishlar va noto'g'ri manzillar bilan bog'liq muammolarni oldini olishga yordam beradi. Yana, yetkazib berishning tezligi va ishonchliligi foydalanuvchilarni xarid qilish jarayonida moliyaviy xavflardan himoya qiladi, chunki bu holat to'lovlarni qaytarish yoki buyurtma holatini tekshirishda samarali yordam beradi.

6. Personalizatsiya. Shaxsiy tavsiyalar va maxsus takliflar orqali foydalanuvchilarga ularning qiziqishlariga mos keladigan mahsulotlar tavsiya etilishi, xarid qilish jarayonini optimallashtiradi va foydalanuvchilarning xato qarorlar qabul qilish xavfini kamaytiradi.

7. Sun'iy intellekt va mashinalarni o‘rganish texnologiyalari. Sun'iy intellekt va mashinalarni o‘rganish texnologiyalaridan foydalanish, firibgarlikni aniqlash va oldini olishda yordam beradi. Bu texnologiyalar foydalanuvchilarning tranzaktsiyalarini tahlil qilib, firibgarlik xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, mashinalarni o‘rganish va xavfsizlik tizimlari yordamida firibgarlikning oldini olish, shaxsiy ma'lumotlarni xavfsiz saqlashga yordam beradi.

Xavfsizlik metodlari elektron tijorat platformlari tomonidan iste’molchilarga taqdim etiladigan bo‘lib, bularning barchasi iste’molchilar foydalanish jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan barcha xavf-xatarlarni bartaraf etolmaydi. Iste’molchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan barcha xavf-xatarlarni to‘liq bartaraf etish imkonsiz. Ammo, iste’molchining o‘zi ham foydalanish jarayonida e’tibor berishi zarur bo‘lgan jixatlar mavjud. Demak, xavf-xatarlarni aniq belgilash va unga uchramaslik uchun iste’molchi tomonidan elektron tijorat jarayonini amalga oshirilish jarayoni bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.

Elektron tijoratda iste’molchi jarayonning har bir bosqichida o‘z ehtiyojlari va xavfsizlikni ta’minlashni o‘ylab harakat qiladi. Har bir bosqichda u tanlovdan to‘lovgacha va mahsulotni qabul qilishgacha bo‘lgan jarayonlarda diqqatli bo‘lishi zarur.

Axborot izlash bosqichida iste’molchilar soxta veb-saytlar (phishing) orqali shaxsiy ma’lumotlarining o‘g‘irlanishi xavfiga duch kelishadi. Firibgarlar mashhur platformalar ko‘rinishida soxta sahifalar yaratib, elektron pochta yoki SMS orqali foydalanuvchilarni login, parol yoki bank kartasi ma’lumotlarini kiritishga undashadi. Bunday havolalar haqiqiy saytga o‘xshash, biroq kichik farqlarga ega bo‘ladi (masalan, “amaz0n.shop”). Shuningdek, noto‘g‘ri yoki yo‘naltirilgan reklamalar orqali haddan tashqari past narxlar, soxta chegirmalar bilan manipulyatsiya qilinadi.

Tanlash va solishtirish bosqichida haddan tashqari past narxlarda taklif qilinadigan mahsulotlar firibgar saytlar yoki ishonchsiz sotuvchilar tomonidan taqdim etilishi mumkin. Bunday mahsulotlar sifatsiz, qalbaki yoki umuman yetkazilmaslik ehtimoli yuqori. Firibgarlar katta chegirmalar va "cheklangan takliflar" orqali xaridorlarni jalb qiladi. Mahsulot tavsifi bilan haqiqat o‘rtasidagi farq sifat, o‘lcham, dizayn yoki funksionallikda ko‘rinadi, natijada mahsulot reklama qilinganidan farqli bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarga

uchramaslik uchun sharhlarni tekshirish, sotuvchining ishonchliligini aniqlash va mahsulotning haqiqiy suratlarini talab qilish lozim.

1-rasm. Elektron tijoratni iste'molchi tomonidan amalga oshirish bosqichlari

Sotib olish qarorini qabul qilish bosqichida firibgar veb-saytlar arzon narxlar va soxta chegirmalar bilan iste'molchilarni jalb qilib, ularning bank kartasi ma'lumotlarini kiritishga undaydi. To'lov amalga oshirilgach, na mahsulot yetkazib beriladi, na mablag' qaytariladi, ba'zan esa karta ma'lumotlari kelajakdagi noqonuniy tranzaksiyalar uchun ishlatiladi. Shuningdek, ayrim veb-saytlar dastlab past narx ko'rsatib, yakuniy bosqichda qo'shimcha to'lovlarni yashirin ravishda qo'shadi. Bular yetkazib berish, soliqlar yoki xizmat haqi sifatida rasmiylashtirilib, iste'molchining e'tiboridan chetda qolishi yoki avtomatik rozilik orqali tasdiqlanishi mumkin.

To'lovni amalga oshirish bosqichida to'lov jarayonida kredit karta ma'lumotlarini o'g'irlash (skimming yoki phishing) firibgarlar tomonidan soxta to'lov sahifalari yoki zararli dasturlar orqali amalga oshiriladi. Buni

oldini olish uchun to‘lov sahifasining HTTPS bilan boshlanishi, SSL sertifikati (qulf belgisi) mavjudligi, rasmiy to‘lov tizimidan foydalanishi, domen nomining ishonchliligi va til hamda dizayn xatolarining yo‘qligi tekshirilishi lozim. Firibgarlar haqiqiy platformalarga o‘xshash soxta to‘lov tizimlarini yaratib, mablag‘larni o‘g‘irlashga harakat qiladi. Bu xavfni kamaytirish uchun faqat rasmiy va tasdiqlangan to‘lov tizimlaridan foydalanish, noma’lum platformalar orqali tranzaksiya qilmaslik hamda bank bildirishnomalarini doimiy kuzatish zarur.

Buyurtma tasdiqlash bosqichida tasdiqlash xabarlari orqali firibgarlik – bu soxta SMS yoki elektron pochta xabarlari orqali foydalanuvchini aldab, shaxsiy ma'lumotlarini yoki to‘lov tafsilotlarini qo‘lga kiritish usulidir. Bunday xabarlarni aniqlash uchun manba manziliga e'tibor berish (rasmiy domenlardan kelganligini tekshirish), xabardagi imlo va grammatik xatolarga qarash, hamda havolalar yoki fayllarni tekshirmasdan ochmaslik kerak. Shubhali xabarlarga javob bermaslik va rasmiy ilovalar yoki veb-sayt orqali buyurtma holatini tekshirish tavsiya etiladi.

Yetkazib berish bosqichida buyurtmaning kechikishi yoki yo‘qolishi mahsulotning belgilangan muddatda mijozga yetib kelmasligi yoki transport jarayonida yo‘qolib ketishi bilan bog‘liq. Bunday holatlarning oldini olish uchun yetkazib berish muddati va kuzatuv (tracking) raqami muntazam tekshirib borilishi lozim. Agar mahsulot belgilangan vaqtda yetib kelmasa yoki kuzatuv ma’lumotlari yangilanmasa, yetkazib beruvchi bilan bog‘lanish va hujjatlarni saqlab qo‘yish muhimdir.

Tovarni tekshirish va qabul qilish bosqichida Tovarni qabul qilish jarayonida buyurtma tafsilotlariga mos kelmagan mahsulot yetkazilishi mumkin, bu esa rang, o‘lcham, texnik xususiyatlar yoki sifat farqlari orqali namoyon bo‘ladi. Bunday holatni aniqlash uchun mahsulotni darhol tekshirib, farqlarni qayd etish va sotuvchi bilan bog‘lanib, almashtirish yoki qaytarish shartlarini aniqlash lozim. Mahsulot nomuvofiqligi ishlab chiqarishdagi nuqsonlar, noto‘g‘ri saqlash yoki transport jarayonidagi shikastlanish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, yorilgan ekran, dog‘ tushgan kiyim yoki ishlamaydigan qurilma kabi muammolar kuzatilishi ehtimoli mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Belanger, F., et al. (2002). *Trustworthiness in Electronic Commerce*.
2. Brynjolfsson, E., & Smith, M. D. (2000). *Frictionless Commerce? A Comparison of Internet and Conventional Retailers*. *Management Science*.
3. Christopher, M. (2016). *Logistics & Supply Chain Management*.
4. Davis, F. D. (1989). *Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology*. *MIS Quarterly*.
5. Hoffman, D. L., & Novak, T. P. (1996). *Marketing in Hypermedia Computer-Mediated Environments: Conceptual Foundations*. *Journal of Marketing*.
6. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2010). *Social Media Challenges*.
7. Kim, J., & Kim, Y. (2020). *Mobile Shopping and Customer Satisfaction*.
8. Nielsen, J., & Norman, D. (2000). *Usability Engineering*.
9. Parasuraman, A., Zeithaml, V. A., & Berry, L. L. (1988). *SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality*.

ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOS KADRLAR TAYYORLASHNING TIZIMLI YONDASHUVI.

S.Q.Qurbonov, D.E.Pardakulov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Qurbonov Sirojiddin Qurbonovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti
s.q.qurbonov@gmail.com
+99897-920-77-33

Pardakulov Dalerjon Erkinovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-kurs talabasi
Email: s.q.qurbonov@gmail.com
Tel: +99893-771-31-77

Received: 19 March 2025
Revised: 27 March 2025
Accepted: 18 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni asosida ta’lim tizimining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy shakllari va yo‘nalishlari, shuningdek, hududiy mehnat bozori bilan uzviy bog‘liqligi o‘rganiladi. Ayniqsa, Samarqand viloyatining mehnat bozori prognoz ko‘rsatkichlari asosida yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ta’lim jarayonining ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etilishi, ish joyida o‘qitish, ustoz-shogird an’anasi, zamonaviy kompetensiyalar talabi va raqobatbardoshlik mezonlari asosida kadrlar tayyorlash zaruriyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: ta’lim tizimi, mehnat bozori, kadrlar tayyorlash, kompetensiyalar, kasb tanlash, ish joyida ta’lim, ustoz-shogird tizimi, raqobatbardoshlik, ishsizlik, maqsadli qabul, qonunchilik, zamonaviy kasblar*

СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ, СООТВЕТСТВУЮЩИХ ТРЕБОВАНИЯМ СОВРЕМЕННОГО РЫНКА ТРУДА

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы адаптации системы образования к потребностям рынка труда, современные формы и направления подготовки кадров, а также ее неразрывная связь с региональным рынком труда на основе новой редакции Закона Республики Узбекистан «Об образовании». В частности, на основе прогнозных показателей рынка труда Самаркандской области были проанализированы меры, направленные на обеспечение занятости молодежи. В ходе исследования обоснована необходимость организации образовательного процесса во взаимодействии с работодателями, обучения на рабочем месте, традиций наставничества и ученичества, потребность в современных компетенциях, обучении на основе критериев конкурентоспособности.*

Ключевые слова: *система образования, рынок труда, подготовка кадров, компетенции, выбор карьеры, обучение на рабочем месте, система ученичества, конкурентоспособность, безработица, целевой набор, законодательство, современные профессии.*

A SYSTEMATIC APPROACH TO TRAINING STAFF THAT MEET THE REQUIREMENTS OF THE MODERN LABOR MARKET

Abstract: *This article examines the adaptation of the education system to the needs of the labor market, modern forms and directions of personnel training, as well as its close connection with the regional labor market, based on the new edition of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education". In particular, measures aimed at ensuring youth employment based on the forecast indicators of the labor market of the Samarkand region are analyzed. The study substantiates the need for organizing the educational process in cooperation with employers, training on the job, the tradition of mentoring, the need for training personnel based on modern competencies and competitiveness criteria.*

Keywords: *education system, labor market, personnel training, competencies, career choice, on-the-job training, apprenticeship system, competitiveness, unemployment, targeted recruitment, legislation, modern professions.*

Kirish.

Bugungi globallashuv va tezkor texnologik o‘zgarishlar sharoitida ta’lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy yuksalishining muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy mehnat bozorida yuzaga kelayotgan yangi kasblar, mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarning o‘zgarishi ta’lim mazmuni va shakllarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining yangi tahriri mamlakatda ta’lim sohasini isloh qilishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni mehnat bozorining real ehtiyojlariga mos tarzda kasb-hunarga yo‘naltirish, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu jarayonda oliy va professional ta’lim muassasalari, ish beruvchilar hamda hududiy mehnat bozorining o‘zaro integratsiyasi muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Samarqand viloyati misolida olib borilgan tahlillar hududiy mehnat bozori prognoz ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda ta’limni rejalashtirish va mehnat resurslarini oqilona boshqarish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va kadrlar tayyorlash tizimiga oid tadqiqotlar O‘zbekistonda hamda dunyo miqyosida kengayib bormoqda. Ushbu tahlil mamlakatimiz olimlarining mehnat bozorining ehtiyojlarini qondirish yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvlariga, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimi va uning takomillashuvi masalalariga bag‘ishlangan ishlariga asoslanadi.

Sh.K.Xudoyberdiyevning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda mehnat bozorining malakali kadrlar bilan ta’minlanishida mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda ta’lim tizimida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish zarur. U, o‘z ilmiy ishlari va maqolalarida, ta’lim va mehnat bozorining integratsiyasini kuchaytirishni taklif etadi. Uning fikricha, bugungi kunda ta’lim tizimi faqat ilmiy bilimlarga e’tibor qaratib qolmasdan, balki amaliy ko‘nikmalarni ham oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, ishchilarning malakasini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

F.I.Jumaniyozovning ilmiy ishlari ham mehnat bozoridagi talablarni qondirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv dasturlarining yangilanishi kerakligini ko‘rsatadi. Jumaniyozov, ayniqsa, o‘quvchilarning kasbiy ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni ilg‘or texnologiyalar bilan tanishtirishga alohida urg‘u beradi. Bu, uning fikriga ko‘ra, kelajakda O‘zbekiston mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishda muhim rol o‘ynaydi.

M.K.G‘ulomov ham o‘z asarlarida mehnat bozoridagi ehtiyojlar va ta’lim tizimining moslashuvchanligi haqida fikr bildiradi. G‘ulomovning so‘zlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasida mavjud bo‘lgan bo‘shliqni bartaraf etish uchun zamonaviy kasbiy o‘quv markazlari va innovatsion texnologiyalar asosida kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston mehnat bozorining ehtiyojlari va kadrlar tayyorlash tizimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish,

shuningdek, ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan yo‘nalishlarni aniqlashdir. Tadqiqotda nazariy tadqiqot metodlari, empirik tadqiqot metodlari, kompleks tahlil metodlari va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy mehnat bozori tobora murakkablashib borayotgan iqtisodiy va texnologik muhitda faoliyat yuritmoqda. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab nafaqat son jihatdan, balki sifat, ya’ni kasbiy malaka, raqamli savodxonlik, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalar bilan ham belgilanmoqda. Shu bois, ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasida o‘zaro integratsiyalashuv zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi (O‘RQ-637-son) Qonunning yangi tahriri 2020-yil 23-sentabrda qabul qilindi. Ushbu qonun hujjati 1997-2020 yillarda amalda bo‘lgan “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarni almashtirdi.

Umuman olganda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun mehnat bozori ehtiyojlari bo‘yicha o‘qishga qabul qilish 4-bob 39-modda (Davlat ta’lim muassasalariga o‘qishga maqsadli qabul qilish) da o‘z aksini topgan bo‘lib, unda “davlat ta’lim muassasalariga o‘qishga maqsadli qabul qilish tegishli hududlarning, sohalar va tarmoqlarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular uchun belgilangan ta’lim oluvchilarni qabul qilish parametrlari doirasida amalga oshiriladi; davlat ta’lim muassasalariga o‘qishga maqsadli qabul qilish kadrlar buyurtmachilari, davlat ta’lim muassasalari va fuqarolar o‘rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi; davlat ta’lim muassasalariga maqsadli qabul qilish tartibida o‘qishga kirish umumiy asoslarda tanlov natijalariga muvofiq amalga oshiriladi”, deb belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, mazkun Qonunning 2-bob 7-moddasida ta’lim turlari quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan: maktabgacha ta’lim va tarbiya; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim; professional ta’lim; oliy ta’lim; oliy ta’limdan keyingi ta’lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta’lim.

Bunda umumiy o‘rta ta’lim I-XI sinflarni o‘z ichiga oladi. O‘rta maxsus ta’lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o‘rta ta’lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi. Professional ta’lim boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim darajalariga ajratiladi. Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta’lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi. O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi. O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning

filiallari prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari

Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Umuman olganda, mamlakatimiz ta’lim tizimi juda tizimli yo‘lga qo‘yilgan, biroq mehnat bozorida ishsizlikning barqarorligi, ish o‘rinlarining beqarorligi va ishchi kuchining raqobatbardoshlik darajasini yanada oshirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Amaldagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasi 3-xatboshida “ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirilishi” belgilangan. Shu o‘rinda davlat amaldagi qonunchilikda belgilangan ta’lim olishni rag‘batlantiradi. Bu masalada respublikaning barcha hududlari mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashda ko‘plab imkoniyatlar yaratilgan.

Yetakchi iqtisodchilar maktablarda asosiy ta’limni alohida shaxslarga topshirishdan ko‘ra, asosan hukumat tomonidan ta’minlanishi va moliyalashtirilishi kerakligining asosiy sabablari sifatida ota-ona mas’uliyatini oshirish, oiladagi moliyaviy cheklovlar farzandlar ta’lim olishiga ta’sir etmaydi, ta’lim olishda tenglik ta’minlanadi, ta’lim tashqi ta’sirlardan holi bo‘ladi va samaradorlik yuqori bo‘lishini e’tirof etishadi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim va oliy ta’limda yoshlar o‘zlari tanlov qiladilar. Ular kelajakda kim bo‘lishi, qanday kasb

egallashlari ularning muhim tanlovi hisoblanadi. Ushbu tanlovlar keyinchalik oson yoki qiyin vaziyatlar, qisqa yoki uzoq muddatli ta’sirga ega oqibatlar sari ularni “yetaklaydi”. Buni to‘g‘ri tushunish kerak, ularda ham imkoniyatlar va tanlov variantlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Bunday paytda bitiruvdan so‘ng ular mehnat bozorida raqobatbardoshligi bilan sinaladilar.

Bunday holatda ish beruvchilar va talabalar o‘rtasida hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Biroq bunda ikkita asosiy muammoga duch kelinadi:

Birinchidan, barcha ish beruvchilar ham oldindan qanday yangi ish o‘rinlari ochish, yoki kimlarni ishga olishlari haqida ma’lumotga ega bo‘lmaydi. Bu esa maqsadli tayyorlovda mavhumlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, ish beruvchining manfaatlari doimiy tarzda talabalar manfaatlari bilan mos kelavermaydi. Masalan, ish beruvchi tegishli kasblarda mehnat haqini kamaytirish maqsadida, talabalardan ortiqcha ko‘nikmalarni talab qilishi, yoki malaka chegarasini yuqori darajada belgilashi mumkin.

Har qanday holatda ham, ta’lim muassasalari nafaqat ichki mehnat bozori, balki tashqi mehnat bozori ehtiyojlarini ham tahlil etib borishi talab etiladi.

Mehnat bozori ehtiyojlari uchun kadrlarni tayyorlashda yana bir asosiy yo‘nalish – ish joyida ta’limdir.

Ish joyidagi ta’lim deganda, haqiqiy mehnat faoliyati olib boriladigan muhitda olinadigan ta’limning barcha shakllari tushuniladi. Ish joyida ta’lim odamlarga ish o‘rinlarini saqlab qolish, kasbiy o‘sish va rivojlanishda muvaffaqiyatga uzluksiz erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni beradigan vosita hamdir.

Ustoz-shogird, stajirovkalar, tajriba orttiruvchi tadqiqotchilik hamda ish joyida olib boriladigan mashg‘ulotlarni o‘zida mujassam etgan ta’lim boshqa ta’lim turlariga qaraganda eng keng tarqalgan turlarga mansub hisoblanadi.

Ichki va tashqi mehnat bozorlari ehtiyojlariga ko‘ra, zamonaviy kasb egalari bir nechta kompetensiyalarni egallashlari muhim hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Mehnat bozori ehtiyojlariga ko‘ra zamonaviy kasb egalari uchun muhim bo‘lgan kompetensiyalar

Birinchidan, bitiruvchilar tillarni va madaniyatni yaxshi bilishlari talab etiladi. Agar ta'lim muassasalari bitiruvchilari keng doirada mehnat faoliyati yuritmoqchi bo'lsalar, ular o'z ona tilidan boshqa yana bir nechta tillarda mukammal bilishlari lozim. Shuningdek, ular tillar bilan birga qaysi madaniyat vakillari bilan hamkor ekanliklarini ham tushunishi darkor. Hozirgi kunda bir nechta tillarni mukammal bilgan va soha bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega mutaxassislarga talab yuqori bo'lmoqda.

Ikkinchidan, har qanday jamoada ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Ma'lumki, boshida tik turuvchi sobiq rahbarlar o'rnini rahbarsiz ishlash tamoyillari egallamoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda mehnat faoliyati "rahbar yo'q – barcha barobar" kabi asosiy tamoyillarga ustuvorlik berilmoqda. Shuning uchun ham har qanday kasb egasi uchun jamoada ishlay olish ko'nikmalari juda muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Bugungi kunda ko'pgina sohalarda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash zarurligini hisobga olinsa, har bir bitiruvchi axborotni qidira olishdan tortib, uni qayta ishlay olish ko'nikmasigacha bo'lgan malakaga ega bo'lishi lozim. Buni kompyuter kasbiy faoliyatdagi ijodkorlikni umuman siqib chiqara olmasligi bilan ham izohlash mumkin.

To'rtinchidan, o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lish lozim. Kelajak zamonaviy mutaxassislari yangi narsalarni o'rganishga, doimiy tarzda o'z-o'zini rivojlantirishga vaqt ajratishi bilan farqlanadi. O'zini-o'zi boshqarish deganda, bu o'z ustida ishlash degani emas, balki har qanday vaziyatda diqqatni jamlay olish, o'rni kelganda dam olish qobiliyatini ham yuzaga chiqarishni anglatadi.

Beshinchidan, o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish maqsadga muvofiq. Ko'pchilik yoshlar ish joylarini tez-tez o'zgartirishga majbur bo'lishadi. Shunda bu ko'nikmalar juda zarur bo'ladi. Inson yangi joy va yangicha sharoitlarga doim moslasha olishi lozim. Shu birgina o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmasi xodimlarga zamon va makon bilan hamnafas bo'lib, boshqa hamkasblariga qaraganda yuqori natijalarga erishisha olishi bilan ajralib turadi.

Mehnat bozori ehtiyojlari asosida kadrlar tayyorlash nafaqat hududiy va milliy mehnat bozori, balki tashqi mehnat bozori uchun ham doimo dolzarb hisoblanadi.

Samarqand viloyati mehnat bozori ehtiyojlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi istiqbolli ko'rsatkichlarni berdi.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan hisob - kitoblarga ko'ra, kelgusi uch yillikda Samarqand viloyati bo'yicha mavjud bo'sh ish o'rinlari soni va ishsizlar soni prognoz ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2027 yilga kelib ishsizlar soni 109,41 ming kishini, bo'sh ish o'rinlari soni esa 42474 tani tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu istiqbolli ko'rsatkichlar mehnat bozori ehtiyojlarini o'rgangan holda kadrlar tayyorlash choralarini ko'rish davr talabi ekanligidan dalolat beradi. Ishsiz shaxslar mavjudligi barobarida bo'sh ish o'rinlari soni ham saqlanib qolishi – asosiy muammolardan biridir (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha mavjud bo‘sh ish o‘rinlari soni va ishsizlar soni prognoz ko‘rsatkichlari

Prognozlanayotgan ko‘rsatkichlar	Prognoz ko‘rsatkichlari		
	2025	2026	2027
Samarqand viloyati bo‘yicha mavjud bo‘sh ish o‘rinlari soni	42468	42471	42474
Ishsizlar soni, ming kishi	97,03	103,22	109,41

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati mehnat bozoriga ilk marotaba kirib kelayotgan va ta’limdan so‘ng yetarli darajada kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan yoshlarning aksariyat qismi norasmiy ishsiz va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami safida qolayotganligini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida kadrlar tayyorlash jarayoniga tizimli va strategik yondashuv zarur. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, mavjud ta’lim tizimi mehnat bozori ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti.

– kelajakda malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

– ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

– o‘quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda yangilash;

– raqamli va "yumshoq" ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;

– kasbga yo‘naltirish tizimini maktabdan boshlab yo‘lga qo‘yish;

– kadrlar tayyorlashda hududiy prognoz va statistik ma’lumotlarga tayangan rejalashtirishni joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, kadrlar tayyorlash tizimi faqat ta’lim sohasi doirasida emas, balki iqtisodiy rivojlanish, bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biridir. Shu bois, bu jarayonga tizimli va barqaror yondashuv bugunning dolzarb vazifasiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi PQ–82-sonli “Yoshlarning bandligini ta'minlash hamda kasb-hunarga o‘rgatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. T.: “Fan” nashriyoti. 2019, - 76 b.

4. Xudoyberdiyev Sh.K. Mehnat bozorining malakali kadrlar bilan ta’minlanishidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Ta’lim va Innovatsiyalar Jurnali, 3(2), 2024, 45-50.

5. Jumaniyozov F.I. O‘quv dasturlarining yangilanishi va kasbiy ta’limga bo‘lgan qiziqishni oshirish. Kasbiy Ta’lim Tadqiqotlari, 2(1), 2023, 22-28.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA RAQAMLI MARKETING-TOVAR-XIZMATLARNI INTERNET ORQALI TARG‘IB QILISH.

M.M.Pazilidinov

Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Pazilidinov Muxiddin Maxammadin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: *m.muhiddin1995@gmail.com*

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: Hozirgi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning kichik biznes rivojlanishidagi o‘rni, ularning afzalliklari hamda tadbirkorlar uchun yaratayotgan imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining ijtimoiy media platformalaridan foydalanish tajribasi o‘rganilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali ijtimoiy media strategiyasi kichik biznesga mijozlar bilan bevosita aloqa o‘rnatish, marketing xarajatlarini kamaytirish va brend taniluvchanligini oshirish imkonini beradi. Maqolada tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, raqamli marketing, ijtimoiy media strategiyasi, O‘zbekiston.

ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ-ПРОДВИЖЕНИЕ ТОВАРОВ И УСЛУГ ЧЕРЕЗ ИНТЕРНЕТ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ЧАСТНОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация: В современную цифровую эпоху социальные сети становятся эффективным инструментом развития малого бизнеса и частного предпринимательства. В статье анализируется роль социальных сетей в развитии малого бизнеса, их преимущества и возможности, которые они создают для предпринимателей. Также будет изучен опыт малого бизнеса Узбекистана по использованию социальных сетей, обсуждены существующие проблемы и пути их преодоления. Результаты исследований показывают, что эффективная стратегия работы в социальных сетях позволяет малому бизнесу напрямую взаимодействовать с клиентами, сокращать расходы на маркетинг и повышать узнаваемость бренда. В статье даны практические рекомендации для бизнеса по использованию социальных сетей.

Ключевые слова: социальные сети, малый бизнес, частное предпринимательство, цифровой маркетинг, стратегия социальных сетей, Узбекистан.

DIGITAL MARKETING-PROMOTION OF GOODS AND SERVICES VIA THE INTERNET IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN.

Abstract: In the current digital era, social networks are becoming an effective tool for the development of small businesses and private entrepreneurship. This article analyzes the role of social networks in the development of small businesses, their advantages and the opportunities they create for entrepreneurs. It also studies the experience of small businesses in Uzbekistan in using social media platforms, discusses existing problems and ways to overcome them. The results of the study show that an effective social media strategy allows small businesses to establish direct contact with customers, reduce marketing costs and increase brand awareness. The article provides practical recommendations for business entities on the use of social networks.

Keywords: Social networks, small business, private entrepreneurship, digital marketing, social media strategy, Uzbekistan.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat shaxsiy muloqot vositasi, balki biznesni rivojlantirish va targ‘ib qilishning samarali vositasiga ham aylangan. Xususan, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ijtimoiy media platformalari mahsulot va xizmatlarni keng auditoriyaga yetkazish, mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish hamda brend imidjini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Kichik biznes ko‘pincha moliyaviy resurslarning cheklanganligi, reklama va marketing imkoniyatlarining yetarli emasligi sababli raqobat muhitida o‘z o‘rnini topishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda ijtimoiy tarmoqlar biznes egalari uchun tejamkor va samarali marketing vositasi sifatida xizmat qiladi. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar orqali mijozlar bilan bevosita aloqaga kirishish, ularning ehtiyoj va talablarini o‘rganish hamda shunga mos ravishda marketing strategiyasini shakllantirish mumkin.

Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning kichik biznes rivojidagi o‘rni, ularning afzalliklari hamda O‘zbekiston tajribasida ushbu texnologiyalarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ijtimoiy media vositalaridan samarali foydalanish strategiyalari va ularning biznesga ta’siri yuzasidan tavsiyalar beriladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganish maqsadida turli tadqiqot usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirilib, mavzuni har tomonlama yoritishga harakat qilindi.

Birinchidan, nazariy tahlil usuli yordamida ijtimoiy tarmoqlarning biznes rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar va hisobotlar ko‘rib chiqildi. Ushbu tahlil asosida kichik biznesning ijtimoiy media orqali rivojlanishining asosiy jihatlari belgilab olindi.

Ikkinchidan, empirik tadqiqot doirasida O‘zbekistondagi kichik biznes subyektlarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tajribasi o‘rganildi. Buning uchun so‘rovnomalar, intervyular hamda mahalliy biznes vakillari bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing yuritish strategiyalari, duch kelayotgan muammolari va natijalari tahlil qilindi.

Uchinchidan, statistik tahlil usuli qo‘llanib, ijtimoiy tarmoqlarning biznes rivojiga ta’sirini aks ettiruvchi raqamli ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Jumladan, foydalanuvchilar faolligi, mijozlar jalb qilish darajasi, reklama samaradorligi va sotuv hajmlariga ta’siri kabi indikatorlar ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida O‘zbekistondagi kichik biznesning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tajribasi boshqa davlatlardagi amaliyotlar bilan solishtirilib, samarali modellar tahlil qilindi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning kichik biznes rivojiga ta’sirini chuqurroq tushunishga hamda tadbirkorlar uchun amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

NATIJALAR

Datareportal xalqaro onlayn ma’lumotlar kutubxonasi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda butun insoniyatning 63 % qismi, aniqroq qilib aytganda 5.35 milliard aholi internetdan foydalanishi qayd etilgan. Shuningdek,

so‘ngi bir yil davomida internet foydalanuvchilari soni 200 millionga ortgan. Ularning asosiy qismi, ya’ni 92,4 foizi mobil qurilmalar vositasida internetdan foydalanishadi. Hozirda dunyo bo‘ylab 4,65 milliard foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanib kelishmoqda. Ushbu raqamlar onlayn olamning naqadar muhimligini yana bir marta isbotlaydi. O‘zbekistonda esa aholining 18,3% qismi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi. 2024-yil yanvar oyida O‘zbekistonda qariyb 31 million internet foydalanuvchisi bo‘lib, undan internetga faol kirishlar 83,3 foizni tashkil qilgan. Bu raqamlar O‘zbekistonda 5,91 million kishi internetdan foydalanmaganini va yil boshida aholining 16,7 foizi oflayn holatda ekanligini ko‘rsatadi. GSMA Intelligence ma’lumotlariga ko‘ra, yil boshida O‘zbekistonda jami 33,81 million uyali mobil aloqa faol holatda bo‘lib, bu ko‘rsatkich jami aholining 95,5 foiziga teng. Ammo shuni ta’kidlash joizki, butun dunyo bo‘ylab ko‘plab odamlar bir nechta mobil aloqadan foydalanadilar - shaxsiy foydalanish uchun bitta ulanish, boshqasi ish uchun - shuning uchun mobil aloqa ko‘rsatkichlari umumiy ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada oshib ketganini ko‘rish mumkin. Kepios xalqaro tadqiqotlar markazi tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi bir yil davomida O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari 436 mingga (+1,5 foiz) oshgan, mobil aloqalar soni esa 1,5 millionga (+4,6 foiz) oshgan.

Ookla xalqaro ma’lumotlar bazasi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2024-yil yanvar oyida internetga ulanish tezligi uyali aloqa tarmoqlari orqali o‘rtacha mobil internetga ulanish tezligi 24,70 Mbit/s, ruxsat etilgan internetga ulanishning o‘rtacha tezligi esa 55,45 Mbit/sni tashkil etgan. Shuningdek, so‘ngi o‘n ikki oy ichida O‘zbekistonda mobil internetga ulanishning o‘rtacha tezligi 10,15 Mbit/s (+69,8 foiz)ga oshgan. Ookla ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda o‘rnatilgan internetga ulanish tezligi xuddi shu davrda 10,20 Mbit/s (+22,5 foiz)ga oshgan.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy media marketingi har bir biznes strategiyasining muhim qismiga aylanib ulgurdi. Bu, ayniqsa, mijozlar bazasini rivojlantirish va kengaytirishga intilayotgan kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun juda muhim hisoblanadi. Ijtimoiy media marketingi kichik va o‘rta biznes uchun maqsadli auditoriyaga erishish va brend xabardorligini oshirishning tejamkor usulidir. Facebook, Twitter, Instagram va Telegram kabi ijtimoiy media platformalari millionlab faol foydalanuvchilarga ega. Ushbu platformalarda mavjud bo‘lish va o‘z tovar va xizmatlarini targ‘ib qilish orqali kichik va o‘rta biznes subyektlari reklama uchun ko‘p pul sarflamasdan katta auditoriyani qamrab olishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar biznes egalariga o‘z mijozlari bilan real vaqt rejimida muloqot qilish va o‘zlarining mahsulotlari yoki xizmatlari haqida fikr-mulohaza olish imkonini beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xabarlar va jonli video seanslar kabi xususiyatlar orqali korxonalar o‘z auditoriyasi bilan bevosita muloqot qilishlari, ularning so‘rovlariga javob berishlari va ularga o‘z tovar va xizmatlari haqida masofadan turib axborot berishlari mumkin. Mijozlar bilan muloqot o‘rnatish orqali korxonalar yanada chuqurroq munosabatlar o‘rnatishi va mijozlarning sodiqligini oshirishi mumkin. Bundan tashqari,

ijtimoiy media korxonalar uchun o‘z mijozlaridan fikr-mulohazalarini olish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi, bu ularning mahsulot yoki xizmatlarini yaxshilash uchun qimmatli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mijozlarning fikr-mulohazalariga jiddiy e‘tibor qaratish orqali korxonalar kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirishi va mijozlarning kerakli fikrlarini qabul qilib olishi mumkin, bu esa o‘z navbatida mijozlarning qoniqishini oshirishga va biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, ijtimoiy media korxonalarga o‘z mijozlari bilan yanada to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shaxsiy aloqa o‘rnatishga imkon beradi, bu esa kuchli munosabatlarga va pirovardida katta muvaffaqiyatlarga olib keladi.



1-rasm. 2024-yilda O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni
(mln kishi)

DataReportal xalqaro ma’lumotlar bazasining hisobotlariga ko‘ra, 2024-yil yanvar oyida O‘zbekistonda 8,70 million faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo‘lib, bu umumiy aholining 24,6 foiziga tengdir. Bu ko‘rsatkich so‘nggi bir yil davomida qariyb 0,5 million (+107 foiz)ga oshgan. Ijtimoiy media platformalarining reklama rejalashtirish vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra joriy yil boshida O‘zbekistonda 18 va undan katta yoshdagi 7,50 million foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan, bu esa 18 va undan katta yoshdagi jami aholining 32,6 foiziga tengdir. Kengroq qilib aytganda, mamlakatdagi jami internet foydalanuvchilarining 29,5 foizi (yoshidan qat’iy nazar) kamida bitta ijtimoiy media platformasidan foydalanadi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining 37,0 foizini ayollar, 63,0 foizini esa erkaklar tashkil etadi.

Metaning reklama resurslarida chop etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar oyida Facebookning O‘zbekistonda 2,15 million foydalanuvchisi bo‘lib, bu jami aholining 6,1 foizini tashkil etadi. Metaning o‘z vositalarida e’lon qilingan raqamlar Facebookning O‘zbekistondagi foydalanuvshilari soni so‘nggi bir yil davomida 500 ming (+30,3 foiz)ga oshganini ko‘rsatmoqda.

Kompaniya o‘zining reklama rejalashtirish vositalarida ta’kidlaganidek, Hisob-kitoblar aholi soni, aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari yoki boshqa manbalarga mos kelishi

uchun mo‘ljallanmagan va bir kishining Meta texnologiyalari bo‘yicha qancha hisobi borligi, ma’lum bir vaqtda ma’lum bir geografik joylashuvda qancha vaqtinchalik tashrif buyuruvchilar borligi va boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin. Natijada, reklamalar doirasidagi o‘zgarishlar platformaning umumiy foydalanuvchi bazasidagi o‘zgarishlarga mos kelmasligi mumkin. Biroq, Meta faqat 13 va undan katta yoshdagilarga Facebookdan foydalanishga ruxsat beradi, shuning uchun 2024-yilda O‘zbekistondagi mavjud auditoriyaning 8,3 foizi Metadan foydalanishini ta’kidlash joiz. Joriy yil boshida Facebookning O‘zbekistondagi reklamasi mahalliy internet foydalanuvchilari bazasining (yoshidan qat’iy nazar) 7,3 foiziga teng bo‘ldi va Facebook reklama auditoriyasining 31,9 foizini ayollar, 68,1 foizini esa erkaklar tashkil qilgan.

Shu bilan birga Instagram ham O‘zbekistondagi eng tez rivojlanayotgan ijtimoiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. So‘nggi 4 yil ichida uning auditoriyasining o‘sish sur’ati 212% ni tashkil etdi. Meta reklama vositalarida e’lon qilingan raqamlar joriy yil boshida Instagramning O‘zbekistonda 8,70 million foydalanuvchisi bo‘lganini ko‘rsatmoqda. Kompaniyaning muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqiladigan raqamlari shuni ko‘rsatadiki, Instagramning O‘zbekistondagi reklamasi joriy yil boshida jami aholining 24,6 foiziga teng bo‘ldi. Biroq Meta Instagramga ham Facebook kabi faqat 13 va undan katta yoshdagilarga foydalanishga ruxsat beradi. Shuning uchun O‘zbekistondagi 13 yoshdan yuqori aholining 33,5 foizi Instagramdan foydalanishini ta’kidlash joiz. Shuningdek Instagramning O‘zbekistondagi reklamasi joriy yil boshida mahalliy internet foydalanuvchilari bazasining (yoshidan qat’iy nazar) 29,5 foiziga teng bo‘ldi va auditoriyasining 37,0 foizini ayollar , 63,0 foizini esa erkaklar tashkil qildi. Metaning rejalashtirish vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, Instagramning O‘zbekistondagi foydalanuvchilar soni so‘nggi bir yil davomida qariyb 569 ming (+107 foiz)ga oshgan .

ByteDance reklama resurslarida e’lon qilingan raqamlar 2024-yil boshida TikTokning O‘zbekistonda 18 va undan katta yoshdagi 3,12 million foydalanuvchisi bo‘lganini ko‘rsatdi. TikTok foydalanuvchilari mamlakat aholisining 10,6 foizini, 18 va undan katta yoshdagi aholining 13,6 foizini tashkil etadi. TikTok reklama auditoriyasining 34,7 foizini ayollar , 65,3 foizini esa erkaklar tashkil qilgan .

Hootsuite hisobotiga ko‘ra , mamlakatdagi sarflanayotgan trafikning 75% mobil telefonlarga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda eng ommabop ijtimoiy tarmoq YouTube hisoblanadi va hozirda mamlakatda uning 5,7 million foydalanuvchisi bor. Tomoshabinlarning asosiy qismini 25 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan odamlar tashkil etadi, ya’ni jami aholining 36 foiziga teng. Ammo, atigi 300 nafarga yaqin kanal ijodkorlari O‘zbekistonni o‘z mamlakati sifatida tanlagan va shu bois ichki bozor hali yetarli darajada rivojlanmagan. Mamlakatda video tomosha qilish uchun muqobil platformalar mavjud. Eng ko‘p foydalaniladigani Mover.uz bu YouTubedan videolarni takrorlaydi va original kontentni nashr etadi.

Messenjerlar orasida Telegram mamlakatda ommabopligi va foydalanuvchilar soni bo‘yicha birinchi o‘rinda turadiva hozirda undan 18

million kishi foydalanadi. Shuningdek Odnoklassniki ham O‘zbekistonda boshqa MDH davlatlariga qaraganda ancha mashhur bo‘lib, hozirda bu tarmoqda 16,7 million kishi ro‘yxatdan o‘tgan. Ijtimoiy tarmoqning asosiy auditoriyasi 25 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan odamlar (taxminan 42%), 35-44 yosh toifasi esa barcha foydalanuvchilarning umumiy sonining 30 foizini tashkil qiladi.

Statista.com xalqaro ma’lumotlar bazasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil yakunida dunyo bo‘ylab ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 4.89 mlrd kishini tashkil etgan. 2027-yilga kelib bu ko‘rsatkich 5.85 mlrd foydalanuvchiga yetishi kutilmoqda. Ijtimoiy media 2005-yilda paydo bo‘lganidan beri kundalik hayotimizga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda. Ajablanarlisi shundaki, biznes egalari endi ijtimoiy mediadan o‘zlarining asosiy usuli sifatida foydalanadilar. Ular ijtimoiy tarmoqlarda iste’molchilarni jalb qilish uchun katta miqdorda pul sarflaydilar va ijtimoiy media reklama strategiyalarini yaxshilash uchun doimo yangi, ijodiy usullarni o‘ylab topishadi.

Internet infratuzilmasining rivojlanishi va smartfonlardan foydalanish imkoniyati ijtimoiy media reklamasining kengayishi ortidagi asosiy kuch hisoblanadi. So‘nggi o‘n yil ichida internet infratuzilmasi sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va bugungi kunda u ancha tezroq, arzonroq va qulayroq hisoblanadi. Vaqt o‘tishi bilan smartfonlar arzonlashgan bo‘lsa-da, ular qariyb 20 yil oldin insonlar uchun hashamatli narsa edi. Hozirgi kunda odamlar har kuni o‘z smartfonlaridan foydalanadilar, bu esa ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Ijtimoiy media reklamasi COVID-19 pandemiyasidan oldin kengayib borayotgan edi. Biroq, pandemiya ijtimoiy mediadan, ayniqsa video kontentdan foydalanish darajasini oshirdi, bu esa ijtimoiy media reklamasining eksponentsial o‘sishiga olib keldi. Odamlar ijtimoiy tarmoqlarda tobora ko‘proq vaqt o‘tkazishni boshladilar, bu asosan pandemiya davrida TikTokning portlashi va Instagram video kontentining sezilarli darajada oshishi tufayli ro‘y berdi. Kontent iste’molining ortishi tufayli ijtimoiy tarmoqlardagi reklama sezilarli darajada o‘sdi.

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar dam olish, o‘yin-kulgi va yangiliklar manbaiga aylandi. Buni, shuningdek, eng samarali raqamli marketing kanallaridan biriga aylandi deb atash mumkin. Aksariyat kompaniyalar ijtimoiy tarmoqlardan avvalgidan ko‘ra ko‘proq foydalanmoqdalar. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni o‘sishda davom etib, iste’molchilarning xarid qilish xulq-atvoriga Instagram va TikTok kabilar ko‘proq ta’sir ko‘rsatar ekan, biznes egalari ushbu tarmoqlarni reklama qilish uchun jalb qilish kuchidan aniq foydalanishlari kerak.

Facebook 2023-yilda marketing bo‘yicha yetakchi ijtimoiy media platformasi sifatida tanlandi. So‘rovda qatnashgan marketing bo‘yicha mutaxassislarning qariyb 90 foizi undan reklama maqsadida foydalanganliklarini ta’kidladilar, bu esa facebookning global miqyosda eng katta auditoriyaga ega ekanligini hisobga olganda bu ajablanarli hol emas. Xuddi shunday, Instagram ham eng daromadli marketing kanallaridan biriga aylandi. Metaga tegishli ilova korxonalarga o‘z mahsulotlari va xizmatlarini fotosuratlar va teglardan

tortib hikoyalar va markalargacha bo‘lgan turli formatlar orqali targ‘ib qilish imkonini beradi. Foydalanuvchilar brend veb-saytlariga yoki integratsiyalangan xaridlar yorlig‘iga osongina yo‘naltirilishi mumkin, bu platformaning brend hamkorlikka e’tiborini oshirishini ta’kidlaydi. Instagram foydalanuvchilarga ko‘proq ta’sir o‘tkazuvchi marketing harakatini ilgari surmoqda. Endi har qachongidan ham ko‘proq ijodkorlar brendlar bilan hamkorlik qilishmoqda. Ya’ni, kompaniyalarning tobora ortib borayotgan ulushi ham brend ta’sirini oshirish va joriy qisqa video tendentsiyalaridan foydalanish uchun Instagram va TikTokga murojaat qilishmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sirchan postlar tobora foydalanuvchilarni oddiy reklamalarga qaraganda ko‘proq jalb qilmoqda, va bundan unumli foydalanadigan biznes egalari uchun bu eng samarali yo‘l hisoblanadi.

MUHOKAMA

Hozirgi raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun marketing, mijozlar bilan muloqot va brendni targ‘ib qilishning muhim vositasiga aylangan. Ushbu bo‘limda ijtimoiy tarmoqlarning biznes rivojlanishiga ta’siri, ularning afzalliklari, duch kelinayotgan muammolar hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning kichik biznesga ta’siri

Ijtimoiy tarmoqlar orqali kichik biznes egalari minimal xarajat evaziga mahsulot va xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatiga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Facebook, Instagram, Telegram va TikTok kabi platformalarda faol ishtirok etuvchi bizneslar an’anaviy marketing usullariga qaraganda tezroq rivojlanmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy media vositalari mijozlar bilan real vaqtda muloqot qilish, ularning ehtiyoj va istaklarini tushunish imkonini beradi. Bu esa mahsulot yoki xizmat sifatini doimiy ravishda yaxshilash va mijozlar sadoqatini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning afzalliklari:

✓ arzon va samarali marketing vositasi – An’anaviy reklama usullaridan farqli o‘laroq, ijtimoiy media platformalarida reklamalar nisbatan arzon va maqsadli auditoriyani jalb qilishga qaratilgan,

✓ mijozlar bilan bevosita aloqa – Ijtimoiy tarmoqlar orqali tadbirkorlar mijozlarning fikr-mulohazalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganish va ularga javob berish imkoniyatiga ega,

✓ brend taniluvchanligini oshirish – Kichik biznes o‘z sahifalari orqali ma’lum bir mavzuda kontent yaratish, vizual materiallardan foydalanish va auditoriya bilan faol muloqot qilish orqali brend imidjini shakllantirishi mumkin,

✓ analitika va monitoring imkoniyati – Ijtimoiy media platformalarida biznes sahifalari uchun maxsus analitik vositalar mavjud bo‘lib, ular orqali reklama samaradorligi va auditoriya faolligini tahlil qilish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda uchraydigan muammolar:

✓ ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari – Kichik biznes egalari ijtimoiy tarmoqlarda mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va

xavfsizlik choralarini ko‘rishga alohida e’tibor qaratishi lozim,

✓ kontent yaratish va boshqarishdagi qiyinchiliklar – Samarali marketing strategiyasini yuritish uchun sifatli kontent yaratish zarur. Biroq, kichik biznes egalari har doim ham bunday materiallarni tayyorlash uchun yetarli resurs va bilimga ega emaslar,

✓ o‘zgaruvchan algoritmlar va platforma qoidalari – Ijtimoiy media platformalari tez-tez algoritmlarini o‘zgartirib borishi sababli, biznes egalari o‘z strategiyalarini yangilab borishga majbur bo‘ladi,

✓ trollar va salbiy sharhlar – Ijtimoiy tarmoqlarda biznes sahifalariga nisbatan asossiz tanqid yoki salbiy sharhlar berilishi mumkin, bu esa mijozlar ishonchiga ta’sir qilishi ehtimoli mavjud.

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy tarmoqlardan biznesda foydalanish imkoniyatlari

O‘zbekiston Respublikasi hukumati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Xususan, kichik biznesni rivojlantirish uchun raqamli xizmatlar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha maxsus trening va dasturlar tashkil etilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda internetdan foydalanish darajasi yildan yilga ortib bormoqda. Facebook, Instagram va Telegram kabi platformalar aholining katta qismi tomonidan faol ishlatilmoqda, bu esa biznes uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, tadbirkorlar o‘z marketing strategiyalarida ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishlari lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar kichik biznes uchun samaradorlikni oshirish, bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlash va mijozlar bazasini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, elektron tijorat, CRM tizimlari, onlayn to‘lov platformalari va raqamli marketing vositalaridan foydalanish kichik tadbirkorlik subyektlari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Maqolada, shuningdek, O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiya jarayoni tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes vakillari raqamli texnologiyalarni joriy etishda infratuzilma yetishmovchiligi, texnik ko‘nikmalarning pastligi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu sababli, davlat tomonidan kichik biznesni raqamlashtirishga oid qo‘llab-quvvatlash dasturlari, ta’lim va malaka oshirish kurslari hamda innovatsion yechimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar zarur ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, tadbirkorlarning texnologik savodxonligini oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviy IT-yechimlarni joriy etishni rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlarda aniq

strategiyalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqamli transformatsiyasi iqtisodiy o‘sishning muhim omili bo‘lib, bu boradagi islohotlar davom ettirilishi lozim. Kelgusida ushbu sohada davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2024). Ijtimoiy tarmoqlarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri bo‘yicha statistik hisobot.
2. Chaffey, D. (2022). Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. Pearson Education.
3. Kotler.P., & Keller.K. L. (2021). Marketing Management (16th ed.). Pearson.
4. Brown, S., & Jones, R. (2020). Social Media Marketing for Small Businesses: Strategies for Success. Routledge.
5. Safarov, X. (2023). O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. Tashkent: Iqtisodiyot va Biznes Nashriyoti.
6. M.M.Pazilidinov. Raqamli iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” jurnali 9-son 2023-yil 48-bet.
7. M.M.Pazildinov. Development tendencies of electronic commerce in Uzbekistan. Actual Problems of Humanities and Social Sciences Volume 4 | Special Issue 3 | 2024. 87-bet.
8. O.Aripov, M.M.Pazilidinov. Development Tendencies of the Digital Economy in Uzbekistan. International Interdisciplinary Research Journal Volume 2, Issue 5 Year 2023.
9. M.M.Pazilidinov. Dynamics of internet and social networks use in Uzbekistan. Journal of Management Value & Ethics. April-June 24 Vol. 14 No. 02. 97-p.
10. M.M.Pazilidinov. O‘zbekistonda raqamli media bozori daromarlarining tendensiyalari tahlili. “Boshqaruv va biznes sohalarida matematik modellashtirishning zamonaviy muammolari” mavzusida respublika ilmiy amaliy onlayn anjumani – Namangan. 2024-yil, 15 – 16may. – 90-b.
11. M.M.Pazilidinov. O‘zbekistonda raqamli reklama xarajatlarining tendensiyalari tahlili. Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo respublikalarining iqtisodiy transformatsiyasi. / Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiyasiya materiallari to’plami. – Farg‘ona, 2024-y. 152-bet.
12. M.M.Pazilidinov. O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning tahlili. Iqtisodiyotda uch spiralli innovatsiyalar tizimini shakllantirish: yangi yondashuvlar va rivojlanish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Namangan: “Yashin print servis”, 2024 (29-may). – 432 b.
13. M.M.Pazilidinov. Wide implementation of digital technologies in small business and private entrepreneurship. “International conference” “law, economics and tourism sciences in the modern world” paris, france 2023.

FARG‘ONA VODIYSIDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIKDAN CHIQARISHDA EKOTURIZM IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHDA AVTOMOBIL YO‘LLARI TARMOG‘INI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI.

R.M.Axmedov

Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Axmedov R.M.
NamDU Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi dotsenti
Email: *axmedovrahmonjon@namdu.uz*
Тел.: *+998 99 632 72 48*

Received: 17 March 2025
Revised: 23 March 2025
Accepted: 12 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur maqola Farg‘ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishda avtomobil yo‘llari tarmog‘ining o‘rni va uning aholini kambag‘allikdan chiqarishdagi muhim rolini tahlil qiladi. Farg‘ona vodiysi tabiiy resurslari va turizm salohiyati jihatidan katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, ekologik turizm orqali mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni kamaytirish mumkin. Biroq, ekoturizmni rivojlantirishda samarali transport infratuzilmasining, ayniqsa avtomobil yo‘llarining rivoji muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda Farg‘ona vodiysida transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi, uning turizm va qishloq xo‘jaligi sohalariga ta’siri, shuningdek, kambag‘allikni kamaytirishga qanday yordam berishi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, ekoturizm, transport infratuzilmasi, avtomobil yo‘llari tarmog‘I, kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, turizm salohiyati, mahalliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.*

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ СЕТИ АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЭКОТУРИЗМА В ВЫВЕДЕНИИ НАСЕЛЕНИЯ ИЗ БЕДНОСТИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ.

Аннотация: *В статье анализируется роль дорожной сети в развитии экотуризма в Ферганской долине и ее важная роль в преодолении бедности населения. Ферганская долина обладает огромным потенциалом с точки зрения природных ресурсов и туристического потенциала, а экотуризм может развить местную экономику, создать новые рабочие места и сократить бедность. Однако для развития экотуризма необходимо развитие эффективной транспортной инфраструктуры, особенно дорог. В исследовании изучался уровень развития транспортной инфраструктуры в Ферганской долине, ее влияние на секторы туризма и сельского хозяйства, а также то, как она способствует сокращению бедности.*

Ключевые слова: *Ферганская долина, экотуризм, транспортная инфраструктура, дорожная сеть, сокращение бедности, социально-экономическое развитие, сельское хозяйство, туристический потенциал, местная экономика, устойчивое развитие.*

THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE ROAD NETWORK IN USING THE OPPORTUNITIES OF ECOTURISM TO REMOVE THE POPULATION OF THE FERGANA VALLEY FROM POVERTY.

Abstract: *This article analyzes the role of the road network in the development of ecotourism in the Fergana Valley and its important role in lifting the population out of poverty. The Fergana Valley has great potential in terms of natural resources and tourism potential, and ecotourism can develop the local economy, create new jobs and reduce poverty. However, the development of an effective transport infrastructure, especially roads, is of great importance in the development of ecotourism. The study examines the level of development of transport infrastructure in the Fergana Valley, its impact on tourism and agriculture, and how it contributes to poverty reduction.*

Keywords: *Fergana Valley, ecotourism, transport infrastructure, road network, poverty reduction, socio-economic development, agriculture, tourism potential, local economy, sustainable development.*

Kirish

Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning eng yirik va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri bo‘lib, uning tabiiy go‘zalliklari, boy tarixiy va madaniy merosi turizm sohasida katta salohiyatga ega. Biroq, regionning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lgan kambag‘allik muammosi hali ham dolzarb. Bu muammoni hal qilishda ekoturizmning o‘rni katta bo‘lishi mumkin, chunki ekologik turizm, tabiatga asoslangan xizmatlar va mahalliy resurslardan foydalanish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish mumkin.

Usullar

Maqolani yozishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

1. Adabiyotlar tahlili (Literature Review):

Tadqiqotda mavjud bo‘lgan ilmiy, amaliy va davlat hisobotlari, o‘quv materiallari hamda avvalgi tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu metod yordamida Farg‘ona vodiysi va ekoturizm sohasidagi transport infratuzilmasining o‘rni, shuningdek, transport tarmog‘ining aholi iqtisodiyotiga va kambag‘allikni kamaytirishga ta’siri haqida ma’lumotlar yig‘ildi.

2. Statistik tahlil:

Transport infratuzilmasi va iqtisodiy rivojlanishning ta’siri haqida ma’lumot olish uchun statistik ma’lumotlar, masalan, Farg‘ona vodiysidagi avtomobil yo‘llarining uzunligi, turizm hajmi, qishloq xo‘jaligi eksporti va ish o‘rinlari yaratilishi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Bu ma’lumotlar iqtisodiy o‘sish va ekoturizmni rivojlantirish jarayonidagi o‘zgarishlarni aniqlashda yordam berdi.

3. Komparativ tahlil (Comparative Analysis):

Farg‘ona vodiysidagi transport infratuzilmasi va boshqa hududlardagi transport tizimlari bilan taqqoslash. Ushbu metod yordamida Farg‘ona vodiysidagi avtomobil yo‘llarining rivojlanish darajasi, uning turizm sohasidagi roli va iqtisodiy foydasi boshqa regionlarga nisbatan qanday ekanligi tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili

Ekoturizm imkoniyatlaridan foydalanishda avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlanishining ahamiyati quidagi mualliflarning tadqiqotlarida yoritilgan:

Berkov, M. S. (2018). *Ekoturizm va uning barqaror rivojlanishdagi o‘rni*; Shukurov, A. F. (2020). *Farg‘ona vodiysining tabiiy resurslari va turizm salohiyati*; Mirzayev, B. T. (2019). *Transport infratuzilmasi va uning turizm sohasidagi roli;;* K. S., & Jalilov, F. R. (2017). "Farg‘ona vodiysi hududida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari"; Bekmirzaev, S. S. (2021). *Ekoturizm va transport tizimi: iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga ta’siri;* Saidov, M. (2019). "Farg‘ona vodiysi iqtisodiyotida transportning o‘rni"; Xudoyberganov, A. (2020). "Avtomobil yo‘llarining ekoturizm rivojlanishidagi ahamiyati";Uzbekistan Ministry of Transport (2022). *Avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish va ekoturizmni qo‘llab-quvvatlash* (hisobot);UNWTO (United Nations World Tourism Organization) (2019). *Ecotourism and sustainable development: Guidelines for planners and managers*; Dimitrov, V. P., & Guliev, R. (2018). "The role of infrastructure in the development of tourism in Central Asia" va [11-18].

Ularda quidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘icha mualliflarning fikr va mulohazari yoritib berilgan:

1. Ekoturizm va uning Farg‘ona vodiysidagi salohiyati.

Ekoturizm - bu tabiatga hurmat bilan yondashadigan va barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan turizm turi bo‘lib, sayyohlar tabiiy muhitni asrash, uning resurslaridan samarali foydalanish va mahalliy aholi bilan birgalikda ishlashga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Farg‘ona vodiysining tabiiy resurslari, jumladan, tog‘lar, daryo bo‘ylaridagi yashil hududlar, o‘rmonlar va qishloq joylari ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega.

Farg‘ona vodiysida aholini kambag‘allikdan chiqarishda ekoturizmning salohiyati katta, chunki bu soha orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishi, mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirilishi va aholi turmush darajasini oshirishga erishish mumkin. Biroq, bu sohaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun samarali transport infratuzilmasi, xususan, avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanishi zarur.

2. Transport infratuzilmasi va avtomobil yo‘llarining ekoturizmda roli.

Transport infratuzilmasi turizmni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi kabi geografik jihatdan turistik markazlardan uzoq va o‘rta darajadagi shaharlarga ega hududlarda bu yana-da muhimdir. Ekoturizmda transport tizimi sayyohlarning xavfsiz va qulay tarzda manzilga yetib borishini ta’minlaydi, shuningdek, turistik faoliyatni rivojlantirishda qo‘shimcha daromad manbalarini yaratadi.

Farg‘ona vodiysida avtomobil yo‘llari tarmog‘ining ahamiyati quyidagi jihatlarga borib taqaladi:

- Sayyohlarning erkin harakati: Yaxshi rivojlangan avtomobil yo‘llari tarmog‘i sayyohlar uchun qulay va tezkor transport imkoniyatlarini yaratadi. Ekoturizmda sayohatlar ko‘pincha tabiiy va madaniy ob’ektlarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi. Farg‘ona vodiysidagi ayrim joylarga kirish qiyinligi tufayli, transport infratuzilmasini yaxshilash sayyohlarning ko‘payishiga olib keladi.
- Mahalliy aholini ish bilan ta’minlash: Avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanishi mahalliy aholiga yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatini beradi. Yo‘llar qurilishi va ularning texnik xizmat ko‘rsatish, transport sohasidagi faoliyatlarni rivojlantirish, shu jumladan turistik xizmatlarni taqdim etish orqali, kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.
- Transportning ekologik jihatlari: Ekoturizmda tabiatni saqlash va ekologik muvozanatni ta’minlash muhim hisoblanadi. Yaxshi rivojlangan transport tarmog‘i orqali, ekologik zararni kamaytirish, masalan, ekologik toza transport vositalari va yo‘l qurilishida ekologik normativlarga rioya qilish mumkin.
- Farg‘ona vodiysining turistik potensialini oshirish: Rivojlangan transport infratuzilmasi yordamida Farg‘ona vodiysining tabiiy va madaniy ob’ektlariga osonroq kirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa sayyohlarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Tabiatni o‘rganish, ekologik sayohatlar va mahalliy madaniyat bilan tanishish orqali turizmni rivojlantirish mumkin.

3. Avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanishi va aholini kambag‘allikdan chiqarish

Farg‘ona vodiysida transport infratuzilmasi, ayniqsa, avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanishi aholini kambag‘allikdan chiqarishda muhim rol

o‘ynaydi. Yaxshi yo‘l infratuzilmasi mahalliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga yordam beradi:

•Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish: Farg‘ona vodiysida qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, xususan, paxta, meva-sabzavot yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Avtomobil yo‘llari tarmog‘ining yaxshilanishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini shaharlarga yoki eksportga olib chiqishni osonlashtiradi, bu esa aholi daromadlarini oshiradi.

•Turizm sohasida yangi imkoniyatlar: Avtomobil yo‘llarining rivojlanishi turizm sohasida yangi imkoniyatlarni ochadi, xususan, ekoturizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ob’ektlarga oson kirish imkoniyati yaratadi. Bu esa sayyohlarni ko‘paytiradi va turizm orqali iqtisodiy foyda keltiradi.

Natijalar va muhokama

Natijalar kuyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘icha muhokama qilindi:

1. Ekoturizm va uning Farg‘ona vodiysidagi salohiyati:

Farg‘ona vodiysi turizm salohiyati bo‘yicha O‘zbekistondagi eng istiqbolli hududlardan biri hisoblanadi. 2022-yilda O‘zbekistonning umumiy turizm hajmi 7,5 million sayyohni tashkil etdi. Farg‘ona vodiysi esa bu umumiy turistlar oqimining taxminan 10-15% ini jalb qilish imkoniyatiga ega. Farg‘ona vodiysidagi eng yirik turistik markazlar – Farg‘ona shahri, Andijon, Namangan, Quva va Bog‘dod tumanlari bo‘lib, bu hududlar o‘zining tabiiy go‘zalligi, tarixiy obidalar va madaniy merosi bilan sayyohlarni jalb qiladi.

2. Transport infratuzilmasi va avtomobil yo‘llarining ekoturizmda roli:

Transport tizimining ahamiyatini ko‘rsatish uchun O‘zbekistonning avtomobil yo‘llari tarmog‘ining o‘sishini keltirish mumkin. 2023-yilda O‘zbekistonning avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 182,000 km ga yetdi, uning 40% dan ortig‘i asfaltlangan va yuqori sifatli yo‘llar hisoblanadi. 2022-yilda Farg‘ona vodiysi bo‘yicha avtomobil yo‘llarining qurilishi va ta’mirlashiga 2,3 trillion so‘m (taxminan 200 million dollar) sarflandi, bu esa hududda transport infratuzilmasining rivojlanishiga turtki berdi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo bilan chegaralarining yaxshilanishi va yangi avtomobil yo‘llarining qurilishi orqali, ekoturizmni rivojlantirishda sayyohlarning qiziqishlari ortadi. Misol uchun, Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan "Toshkent – Farg‘ona – Andijon" yo‘li, 2023-yildan boshlab sayyohlar uchun ancha qulay va tezkor xizmatlar taqdim etadi. Bu yo‘lning uzunligi 250 km ni tashkil etadi va sayyohlar uchun sayohatni soddalashtiradi.

3. Avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanishi va aholini kambag‘allikdan chiqarish

Farg‘ona vodiysidagi iqtisodiy rivojlanishning asosiy tarmoqlaridan biri qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. 2022-yilda Farg‘ona vodiysi paxta va meva-sabzavot yetishtirishda O‘zbekistonda yetakchi o‘rinlarda edi. Paxta eksporti 2022-yilda 2,5 million tonnani tashkil etdi, bunda avtomobil yo‘llarining o‘rni katta edi. Rivojlangan transport infratuzilmasi orqali paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari shaharlarga va eksportga osonroq olib chiqilib, mahalliy aholi daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Farg‘ona vodiysida avtomobil yo‘llarining rivojlanishi bilan yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. 2023-yilda Farg‘ona viloyatida yangi avtomobil

yo‘llarining qurilishi 7,000 ta yangi ish o‘rni yaratdi, shu bilan birga, bu yo‘llarda transport xizmatlari ko‘rsatish uchun yana 3,500 ta yangi ish o‘rni ochildi. Buning natijasida, aholi daromadlari oshdi va kambag‘allik darajasi kamaydi.

4. Aholining ijtimoiy holatini yaxshilash

Xulosa

Farg‘ona vodiysida aholini kambag‘allikdan chiqarishda ekoturizm imkoniyatlaridan foydalanish samarali transport infratuzilmasi, xususan, avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ekoturizmni rivojlantirishda yaxshi transport tizimi sayyohlar uchun qulaylik yaratadi, mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlarini ta’minlaydi, iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu boisdan, Farg‘ona vodiysida transport infratuzilmasini rivojlantirishni davom ettirish va ekoturizmni qo‘llab-quvvatlash regionning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Berkov, M. S. (2018). *Ekoturizm va uning barqaror rivojlanishdagi o‘rni*. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Nashriyoti.
2. Shukurov, A. F. (2020). *Farg‘ona vodiysining tabiiy resurslari va turizm salohiyati*. Farg‘ona: Farg‘ona Universiteti nashriyoti.
3. Mirzayev, B. T. (2019). *Transport infratuzilmasi va uning turizm sohasidagi roli*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi.
4. Ibragimov, K. S., & Jalilov, F. R. (2017). "Farg‘ona vodiysi hududida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari". *Turizm va iqtisodiy rivojlanish* jurnali, 10(3), 45-52.
5. Bekmirzaev, S. S. (2021). *Ekoturizm va transport tizimi: iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga ta’siri*. Toshkent: Akademnashr.
6. Saidov, M. (2019). "Farg‘ona vodiysi iqtisodiyotida transportning o‘rni". *Iqtisodiyot va transport* jurnali, 2(6), 23-30.
7. Xudoyberganov, A. (2020). "Avtomobil yo‘llarining ekoturizm rivojlanishidagi ahamiyati". *O‘zbekiston ekologiyasi va turizmi* jurnali, 11(8), 15-21.
8. Uzbekistan Ministry of Transport (2022). *Avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish va ekoturizmni qo‘llab-quvvatlash* (hisobot). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi.
9. UNWTO (United Nations World Tourism Organization) (2019). *Ecotourism and sustainable development: Guidelines for planners and managers*. Madrid: UNWTO Publications.
10. Dimitrov, V. P., & Guliev, R. (2018). "The role of infrastructure in the development of tourism in Central Asia". *International Journal of Sustainable Tourism*, 24(1), 33-42.
11. Ахмедов Р.М. и др. Повышения эффективности обучения студентов с применением приема, ИНСЕРТ‘.//Материалы республиканской научно-практической конференции. – Наманган, 2018. – С. 253-255.
12. Ахмедов Р.М. и др. Инновационные педтехнологии в обучении специалистов дорожной отрасли // Материалы республиканской научно-практической конференции. – Наманган, 2018. – С.256-259.

AGROTURIZMNING SALOHIYATINI BAHOLASH USULLARI.

S.B.Jurakulova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Jurakulova Sarvinoz Baxtiyor qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: *sarvinozjurakulova@gmail.com*
Tel: *+998 97 916 51 56*

Received: 08 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 16 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Maqolada hududning agroturizm salohiyati darajasini aniqlash uchun baholash bosqichlarini shakllantirish va rivojlanish salohiyatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar aniqlangan. Shuningdek, agroturizm salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari tavsifi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *strategiya, salohiyat, agroturizm, turistik xizmatlar, agroturizm resurslar, agroturizm infratuzilmasi, texnologik baholash, fiziologik baholash, psixologik baholash.*

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОТЕНЦИАЛА АГРОТУРИЗМА.

Аннотация. *В статье определены основные показатели, характеризующие потенциал развития и формирование этапов оценки для определения уровня агротуристического потенциала региона. Также дано описание показателей оценки агротуристического потенциала.*

Ключевые слова: *стратегия, потенциал, агротуризм, туристические услуги, агротуристические ресурсы, агротуристическая инфраструктура, технологическая оценка, физиологическая оценка, психологическая оценка.*

METHODS FOR ASSESSING THE CAPACITY OF AGROTURISM.

Abstract*. The article defines the main indicators characterizing the development potential and the formation of assessment stages for determining the level of agrotourism potential of the region. It also provides a description of the indicators for assessing the agrotourism potential.*

Keywords: *strategy, potential, agrotourism, tourism services, agrotourism resources, agrotourism infrastructure, technological assessment, physiological assessment, psychological assessment.*

Kirish.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarida qishloq joylarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi agroturizmning rivojlanishi bilan tobora ko‘proq bog‘liqdir. Bunda u nafaqat rekreatsion-turistik ixtisoslashgan hududlarning, balki ko‘p tarmoqli, shuningdek, tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda qulay bo‘lmagan hududlarning iqtisodiy o‘sishining real omili bo‘lib xizmat qiladi. Agroturizmni rivojlantirishning hududiy boshqaruvidagi strategik yondashuv, uning rivojlanish salohiyatining qiymatini aniqlashni va undan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Turistik salohiyat hajmini baholashning nazariy-metodologik va uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish muammolariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy mualliflarning tadqiqotlari ko‘p yo‘nalishli tavsifga ega bo‘lib, u yoki bu usullar yordamida qo‘llanilib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida miqdoriy va sifat usullari, qiymatli va balli baholashlar kabi turli yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Hududni kompleks rekreatsion tahlil qilish uchun keng tarqalgan va mos keladigan usul muayyan parametrlarning ijobiy darajasini baholash hisoblanadi. Avvalo, turizmning ma’lum bir turiga funksional yaroqlilik (texnologik baholash), qulaylik darajasi (fiziologik baholash), estetik sifatlar (psixologik baholash) kabi parametrlar ko‘rib chiqiladi.

“Salohiyat” iqtisodiy kategoriyasining mohiyati va mazmuni an’anaviy ravishda quyidagicha ta’riflanadi: salohiyat manbalar, imkoniyatlar, faollashtirilishi yoki ishlatilishi mumkin bo‘lgan vositalar; rivojlanish imkoniyati sifatida salohiyat; salohiyat resurs sifatida; salohiyat turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda muayyan sohalardagi jarayonlar uchun zarur bo‘lgan vositalar, imkoniyatlar, shart-sharoitlar to‘plami sifatida.

Hududning agroturistik salohiyati darajasini aniqlash uchun baholash bosqichlarini shakllantirish va rivojlanish salohiyatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash lozim bo‘ladi.

1-bosqich. Hudud jozibadorligini turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan baholash.

Albatta, turizmni istalgan joyda, dunyoning istalgan burchagida rivojlantirish mumkin, degan gap noto‘g‘ridir. Avvalo, hududni turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan baholash zarur. Buning uchun hududda noyob tarixiy joylarning mavjudligi, tabiiy-iqlim sharoitining tajovuzkorlik darajasi, transport tarmoqlarining mavjudligi va hududning ijobiy imidji kabi bir qator xususiyatlar bo‘yicha tahlil qilish talab etiladi.

2-bosqich. Hududning umumiy turistik infratuzilmasini baholash.

Ushbu bosqich turizm infratuzilmasi rivojlanishini baholashni o‘z ichiga oladi. Buning uchun mavjud infratuzilmani tahlil qilish lozim. Baholash vaqtida taklif etilayotgan xizmat darajasi, transport aloqalarining rivojlanishi, jinoiy vaziyat darajasi, hududda turistik klaster yaratish imkoniyati va boshqalar tahlil qilinadi.

3-bosqich. Hududning agrosurizm infratuzilmasini baholash.

Hududning agroturistik infratuzilmasini baholash quyidagi parametrlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi: agroturistlar uchun mehmon uylari,

ijaraga beriladigan uylar soni; asfaltlangan yo‘llarning sifati va uzunligi; an’anaviy hunarmandchilikning mavjudligi; aholi farovonligi darajasi; aholining xalqaro tillarni bilish darajasi; hududdagi jinoyatlar darajasi.

4-bosqich. Agroturizm nuqtai nazaridan eng jozibali hududlarni tanlash.

Ushbu bosqichda agroturizmning rivojlanishi nuqtai nazaridan hududning jozibadorligini baholash zarur. Jozibadorlikni baholash uchun biz quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanishni taklif qilamiz: atrof muhitning ifloslanish darajasi; qishloq aholisi soni (aholi zichligi); qishloq xo‘jaligi sohasi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni; hududiy markazdan uzoqligi; turistik tashriflar soni;

5-bosqich. Muayyan hududga xos noyob (eksklyuziv) agroturizm resurslarini tanlash.

Ma’lumki, noyoblik yoki o‘ziga xoslik omili raqobat ustunligini keltirib chiqaradi. Agar hududda yetarli miqdordagi turistik resurslar mavjud bo‘lsa, uning integratsiyasi raqobatbardosh agroturistik mahsulotni yaratadi va ushbu hududda agroturizmni rivojlantirish mumkin.

6-bosqich. Agroturizm turlarini (mahsulotlarini) shakllantirish va targ‘ib qilish (reklama, PR).

Bu bosqichda agroturizm mahsuloti shakllanadi va turizm xizmatlar bozorida uni amalga oshirish yo‘llari aniqlanadi.

Fikrimizcha, hududdagi agroturizm salohiyati iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa turdagi samaraga erishishda uning hududiy agroturistik mahsulotini yaratish qobiliyatini tavsiflovchi o‘zaro bog‘liq resurslar, imkoniyatlar va rivojlanish sharoitlari tizimi sifatida tushuniladi va hududning barqaror rivojlanishi omili sifatida belgilanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agroturizmning hududiy salohiyati tuzilishini olti element - xususiy salohiyatning kombinatsiyasi ko‘rinishida taqdim etishga imkon beradi:

- ishlab chiqarish (agroturistik ob’ektlarining miqdoriy va sifat xususiyatlari, qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, shu jumladan, dehqon-fermer xo‘jaliklari, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari, hunarmandchilik markazlari, ov majmualari va boshqalar);
- tabiiy resurs (suv va o‘rmon resurslari, tabiiy yodgorliklarning mavjudligi, iqlim sharoiti va boshqalar);
- ijtimoiy-iqtisodiy (hududiy iqtisodiyot tarkibi, aholi daromadlari, jon boshiga chakana tovar aylanmasi, ishsizlik darajasi, aholi zichligi va boshqalar);
- tarixiy, madaniy va etnologik (tarixiy va madaniy meros ob’ektlari, muzey fondi, mahalliy hunarmandchilik, etnografik manbalar);
- ekologik (ekotizimlarga antropogen yuk darajasi, hududning radiatsiyaviy ifloslanishi, alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning mavjudligi, yashil marshrutlar va boshqalar);
- infratuzilma (hududning yirik shaharlar (aglomeratsiyalar)dan uzoqligi, sport va turizm ob’ektlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, kurortlar, avtomobil yo‘llarining zichligi va boshqalar).

Bu o‘z navbatida turizm mahsulotlari bozorida agroturizm xizmatlar takliflari mavjudligini anglatadi. Hududda agroturizmni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, agroturistik brendni

yaratish va imidjni shakllantirish va turizm xizmatlari bozorida uni ilgari surish kabi masalalar yechilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalardan hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Hududning agroturizm salohiyatini baholash sxemasi

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bozor iqtisodiyoti sharoitida agroturizmni rivojlantirishni samarali rejalashtirish uchun uning imkoniyatlarini har tomonlama baholash lozim bo‘ladi. Bu esa bevosita hududiy turizmni rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlari, investorlar va turistik biznes egalariga bog‘liq bo‘lib, haqiqiy turizm salohiyati hajmini, uning o‘zgarishi tendensiyalari va samaradorligini aniqlashni talab qiladi.

1-jadval

Hududlarning agroturizm salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi
1.	Aholi jon boshiga iste’mol tovarlari.	ming so‘m
2.	Aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari.	ming so‘m
3.	Aholi jon boshiga xizmatlar.	ming so‘m
4.	Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi.	ming so‘m
5.	Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar.	ming so‘m
6.	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi.	Tonna
7.	Qishloq aholisi soni.	ming kishi
8.	Aholining uy-joy bilan ta’minlanish darajasi .	(bir nafar aholiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni, kv.m.)
9.	Fermer xo‘jaliklari soni.	Birlik
10.	Viloyat markazidan uzoqligi.	Km
11.	Moddiy-madaniy meros ob’ektlari.	birlik
12.	Ekin yerlar.	Ga
13.	Bog‘lar.	Ga
14.	Uzumzorlar.	Ga
15.	O‘rmonzorlar.	Ga

Ushbu baholashning asosiy maqsadi - hududda agroturizmni rivojlantirish zahiralarini aniqlash, uning salohiyati va uning tarkibiy elementlarini takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholashdir. Hududiy baholash tizimi mavjud salohiyatni hisobga olgan holda agroturizmni rivojlantirish uchun uning istiqbolli faoliyat turlarini (biznes modellarini) rivojlantirishni asoslab beradigan eng qulay hududlarni aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alieva M.T. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma.– T.: “TDIU nashriyoti”, 2007. – 344 b.
2. Ананьев М.А. Экономика и география международного туризма. – М.: «Изд.МГУ», 1975.– 298 с.
3. Axmedov X.I., Allaberganov A.A. Turizm faoliyatini tashkil etish.-T.: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2004. – 238 b.
4. Баканова А.А. Формирование и реализация системы развития сельского туризма в регионе (на примере Ленинградской области): диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Санкт-Петербург – 2005.
5. Коль О. Д. Теория и методология развития потенциала туристских предпринимательских структур крупного города : дис. ... д-ра экон. наук : 08.00.05 / О. Д. Коль. — СПб., 2010. — 330 л.

EFFICIENCY OF DRUG PRODUCTION OF HUPERICUM PERFORATUM LEDEB IN THE PHARMACEUTICAL INDUSTRY.

O.E.Ernazarov, Z.R.Musinov

ISFT instituti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Ernazarov Ortik Eshnazarovich
PhD, docent, head of the Department of Economics and Information Technologies of the Samarkand branch of ISFT (International school of finance technology and science) Institute. Uzbekistan. Samarkand.
Email: *ernazarovortiq@gmail.com.*

Musinov Zokir Rahmonovich
Master of the Department of Economics and Information Technologies of the Samarkand branch of ISFT (International school of finance technology and science) Institute. Uzbekistan. Samarkand.

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotation: *Despite the long history of the collection of medicinal plant raw materials in our country, we know that there is a lack of information on the current state of the natural population of even the most promising medicinal, food, technical, and other raw material plants. Determining the current state of reserves of medicinal plants in nature has shown the need to organize a comprehensive research program to study the degree (results) of restoration of their populations after harvesting.*

Keywords: *Morphological characteristics, sowing methods, cultivation technology, vegetative, generative, vegetation, budding, flowering, budding, bulbous inflorescence, fruit, seed, fertile, biologically active substances, medicine, synthetic food, technical, raw materials.*

FARMATSEVTIKA SANOATIDA GUPERICUM PERFORATUM LEDEB DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGI.

Annotatsiya: *Mamlakatimizda dorivor o‘simliklar xomashyosini yig‘ishning uzoq tarixiga qaramay, biz bilamizki, hatto eng istiqbolli dorivor, oziq-ovqat, texnik va boshqa xomashyo o‘simliklarining tabiiy populyatsiyasining hozirgi holati haqida ma’lumotlar yetishmaydi. Tabiatdagi dorivor o‘simliklar zaxiralarining hozirgi holatini aniqlashtirish, ularning yig‘ib olingandan keyingi populyatsiyalarining tiklanish darajasini (natijalarini) o‘rganish bo‘yicha keng ilmiy tadqiqot dasturini tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi.*

Tayanch so‘zlar: *Morfologik belgilari, ekish usullari, yetishtirish texnologiyasi, vegetativ, generativ, vegetatsiya, shonalash, gullash, shonalash, piyozboshli to‘pgul, meva, urug‘, unumdor, biologik faol moddalar, dori-darmon, sintetik oziq-ovqat, texnik, xomashyo.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ GUPERICUM PERFORATUM LEDEB В ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.

Аннотация: *Несмотря на долгую историю сбора лекарственного растительного сырья в нашей стране, мы знаем, что не хватает данных о современном состоянии естественной популяции даже самых перспективных лекарственных, пищевых, технических и других видов сырья. Уточнение современного состояния запасов лекарственных растений в природе показало необходимость организации комплексной научно-исследовательской программы по изучению степени (результатов) восстановления их популяций после сбора.*

Ключевые слова: *Морфологические признаки, способы посева, технология выращивания, вегетативный, генеративный, вегетация, бутонизация, цветение, бутонизация, луковичное соцветие, плод, семя, плодородный, биологически активные вещества, лекарство, синтетическое пищевое, техническое, сырье.*

I. INTRODUCTION

The following medicinal plants are grown in farms located in different regions (zones) of our country: cinnabar, aloe species, orthosiphon, Mexican bangi devon, kalanchoe species, shy mimosa, crimson passionflower, pink catharanthus, round-leaved stephania, eucalyptus species, lumpy ituzum and others.

Medicinal plants grown in irrigated fields are very different from medicinal plants growing wild, which means that the cultivated medicinal plant product does not contain any admixture of foreign plants. Medicinal plants grown on the basis of agrotechnical rules are fertile and rich in biologically active substances.

It is possible to increase the productivity of planted medicinal plants and the amount of biologically active chemical compounds in them by selecting high-yielding varieties of medicinal plants, crossing them or obtaining polyploid (increasing the number of chromosomes) varieties.

No matter how much the natural wealth of wild plants in our country is, they have a limit. Just as there is no wealth on earth in unlimited quantities, so the supply of flora is not unlimited. Therefore, if the resources of plants that grow naturally are not properly used, these unlimited resources may eventually disappear from the earth.

II. LITERATURE REVIEW

The following scholars have considered efficiency of drug production of Hupericum perforatum ledeb in the pharmaceutical industry in their research: Akhmedov U., Ergashev A., Abzalov A. [1], Nurmatov Sh., Mirzajonov Q., Avliyokulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshaev Sh., Niyozaliev B., Khalikov B., Khasanov F., Mallaboev N., Tillabekov B., Ibragimov N., Abdullaev Sh., Shamsiev A. [3], Niyazaliev I and others [4], Ponamarev A.N. [5], Robotnov T.A. [6], Karshiboev H.Q., Ashurmetov O.A., Karshiboev J.H. [7], Begmatova M., Oralova S. [8], Begmatova M. Kh., Urokov A. Y. [9], Begmatova M.Kh. [10], Gammerman A.F., Kadaev G.N., Yatsenko-Khmelevsky A.A. [11], Pratov U. Jumaev K. [12], Sulaymanov E.S., Haydarov X.Q. [14].

III. RESEARCH METHODOLOGY

We used methods of logical analysis and synthesis, grouping, abstraction , induction and deduction in the research.

IV. ANALYSIS AND RESULTS

It is known that one of the most important indicators in the cultivation of introduced or wild plant species, the study of its biological properties and the development and implementation of cultivation technology is the determination of its productivity.

Mountain regions of the Altai region and Kazakhstan E.M. According to Gontar (2000), the yield of dry mass of field tea was 4-49 g per square meter area (1 m ^{2}). It is reported that the average phytomass content of one plant in Sumskaya region of Ukraine is from 3 to 10 grams. According to the observations conducted on the study of the phytomass of the field tea plant in the natural phytocenoses of the Lipetsk region of Russia, it was determined that the phytomass reserve of this plant ranges from 13 to 43 g per 1 ^{m2} . According to the results of research conducted in the Siberian Central Botanical Garden of the Russian Academy of Sciences, the phytomass

yield of this plant in field phytocenoses was 19-24 t/ha.

In the Volga-Vyat region of Russia, when the field plant was planted and cultivated, T.L. According to Egoshina et al. (2003), it was noted that up to 1-2 tons of dry phytomass was obtained from each hectare of land in two harvests. The phytomass weight of one bush of Dalachoy was 8-31 grams in the second vegetation year, and the maximum was 241-1620 grams in the third vegetation year. In the following years, the amount of phytomass decreased.

Three species of Huperisum are found in Uzbekistan:

Huperisum elongatum Ledeb - long field; Huperisum scabrum Ledeb - red horse; Huperisum rerforatum Ledeb - hole tea grass, field.

Huperisum elongatum Ledeb - Elongated meadowsweet. A perennial herb. Height 40 - 50 cm, leaves opposite, 15 - 20 mm. Chanchili is short compared to the petals, blooms and seeds in July-August. It grows on rocky and soft soils in the mountain zone. The flowers are collected in a shield-shaped or round-ovoid inflorescence. Petals are 18-20 mm, longer than pollen. The plant contains essential oils 0.25%, vitamin C, coumarin, flavoring agent 9.84%, flavonoids 18%, anthocyanins 5.32%, vitamins P, E. In scientific medicine, the flower is used to reduce stomach worms, to prevent fever (malaria) and diarrhea. In folk medicine, it is used to treat stomach worms and various worms in the stomach [14].

Huperisum scabrum Ledeb – Red scab. A perennial herb. Height 20 - 40 cm. Stems and branches are gnarled. The leaves are long - pencil or lanceolate, 10-15 mm. Branches emerge from leaf axils. The bulbous thyroid-fertilizer blooms and seeds in May - July. It grows in rocky and gravelly areas of hills and mountains. The plant contains alkaloid, essential oil, coumarin, cotechin 18%, saponin, vitamin C, P, additives and flavonoids 5.1%.

In scientific medicine, medicinal preparations of the field plant (tincture, nastoyka, liquid extract, imanin preparation) are used in the treatment of gastrointestinal (colitis, diarrhea), oral cavity (gingivitis, stomatitis) and II and III degree burns. In folk medicine, the above-ground organs are used in the treatment of jaundice (decoction) [13].

Huperisum perforatum Ledeb . This plant naturally can be obtained from 15 - 20 centners of dried raw material per hectare in some mountain regions.

In the Commonwealth of Independent States, Dalachoy is a southern boreal Eurasian species, which is quite widespread on Earth. Dalachoy is found in the middle part of Europe, Central and Asia Minor, North Africa, Iran, Mongolia, Japan, China and North America. Dalachoy is often widespread in dry, bright areas, and it can be found in mountainous regions up to 2300 m altitude, as well as in forest-steppe and forest regions. Its growth area in nature is very small and often occupies small areas[11,12].

Research object and used methods. The researches were conducted on the gray soil site of the "Sherzod, Sherkozi, Jamshid Rozievich" farm located in the Urgut district of the Samarkand region.

The productivity of field raw materials in the climatic conditions of Uzbekistan is being studied for the first time. Our observations in this field were conducted on October 15, 2016, during the flowering phase of field phytomass planted in different planting methods

(30x15 cm, 45x15 cm, and 60x15 cm), July 15, 2017, July 25, 2018, and July 21, 2019. Our obtained data are presented in Table 1.

The study of phytomass raw materials showed that in the first growing year according to planting methods, 11.2 centners were obtained from 1 hectare in the 30x15 cm planting method, 11.3 centners in the second year, 11.8 centners in the third year, and 11.4 centners when we took the average of all years. In the 45x15 cm planting method, 12.3 centners were obtained from 1 hectare, 12.4 centners in the second year, 13.2 centners in the third year, and 12.6 centners when we took the average of all years.

Table 1

The yield of Huperisum perforatum raw material is ts/ha

Planting methods	15.07.2017	25.07.2018	21.07.2019	Average
30x15	11,2±0,07	11,3±0,07	11,8±0,08	11,4±0,16
45x15	12,3±0,16	12,4±0,16	13,2±0,15	12,6±0,22
60x15	14,5±0,16	14,7±0,16	15,2±0,16	14,8±0,08

In the planting methods of 60x15 cm, although there was no difference in the first and second vegetation years, it was found that there was a sharp change in the third vegetation year. That is, when we took the average of 14.5 centners per hectare in the first year, 14.7 centners in the second year, and 15.2 centners in the third year, it was determined that it was 14.8 centners. So, the average yield was 11.4 t/ha in 30x15 cm planting method in three years, 12.6 t/ha in 2018 and 14.8 t/ha in the third growing year, or the average yield of phytomass obtained in 60x15 cm planting method was 45x15 cm It was observed that it was 2.2 centners more compared to the sowing method and 3.4 centners compared to the 30x15 cm.

Currently , the reserves of this naturally growing medicinal plant are decreasing under the influence of anthropogenic factors. In order to make up for this and meet the needs of our people, this plant should be propagated and planted in irrigated regions taking into account the soil and climate conditions of Uzbekistan, cultivation and processing in order to supply the pharmaceutical industry with raw materials of medicinal plants, and for farmers and specialized farms to develop their seed production. We think that it is appropriate to multiply the field by planting 60x15 cm.

Figure 1. Planted area of *Huperisum perforatum* according to planting methods.

V. CONCLUSION/RECOMMENDATIONS

Optimum planting conditions for field cultivation were observed on October 15, 60x15 cm, and 0.5 cm deep, in which phytomass yield was 14.8 centners per hectare on average.

Therefore, obtaining a higher yield from the field plant planted in the 60x15 cm planting methods made it possible to achieve a higher index than the 30x15 cm and 45x15 cm planting methods due to the relative width of the soil nutrition area and the possibility of using solar energy.

LIST OF REFERENCES:

1. Akhmedov U., Ergashev A., Abzalov A. Medicinal plants and their growing technology. Tashkent. 2008. P. 11-13;
2. Methodology for state agricultural variety testing crops Issue 1. General part. Moscow. “Spike”, 1974, p. 476;
3. Nurmatov Sh., Mirzajonov Q., Avliyokulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshaev Sh., Niyozaliev B., Khalikov B., Khasanov F., Mallaboev N., Tillabekov B., Ibragimov N., Abdullaev Sh., Shamsiev A., "Methods of conducting field experiments" methodological guide . UzPITI.- Tashkent, 2007. P.146;
4. Niyazaliev I. and others. Practical training in agrochemistry "Labor Publishing House" Tashkent. 1980, pp. 16-17;
5. Ponamarev A.N. Study of flowering and pollination of plants // Field geobotany. M. – L.: Nauka, 1960. P.9-19;
6. Robotnov T.A. Methods for determining the age and lifespan of herbaceous plants // field geobotany. M; L., 1960. T. 2. P. 500;
7. Karshiboev H.Q., Ashurmetov O.A., Karshiboev J.H. Methodological guidelines for conducting scientific-research works in the field of "Plant Reproductive Biology". Gulistan, 2008. P. 24;
8. Begmatova M., Oralova S. Subject: some biological characteristics of cherry (huperisumperforatum l) planted in different crop schemes //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – No. 6. P. 51-58.

SAMARQAND VILOYATI KORXONALARINING MOLIYAVIY FAOLIYATI NATIJALARINI BAHOLASH.

O.E.Arzikulova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi
Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: *barchin967@gmail.com*
Tel: *+99890-505-42-43*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 18 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Maqolada hududning agroturizm* ***Annotatsiya.*** *Ushbu tadqiqotda bugungi kunda korxonalar faoliyatida yuzaga kelayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning sabablari, ularning oldini olish va boshqarish usullari tahlil qilingan. Xususan, xorijiy davlatlar va O‘zbekiston tajribasi asosida inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmlari, korxonalarni sog‘lomlashtirish choralarining ilmiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda iqtisodchi olimlarning yondashuvlari tahlil etilgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida foyda, zarar, sof tushum va boshqa moliyaviy natijalar statistik jihatdan baholangan. Ushbu tahlillar korxonalarni moliyaviy inqirozdan chiqarish va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlash yo‘lidagi muhim amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *korxona, inqiroz, moliyaviy tahlil, bankrotlik, sog‘lomlashtirish, inqirozga qarshi boshqaruv, Samarqand viloyati, foyda, zarar, moliyaviy holat, iqtisodiy barqarorlik.*

ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. *В исследовании анализируются причины возникновения финансово-экономических кризисов, возникающих в деятельности предприятий сегодня, а также методы их предупреждения и управления. В частности, рассмотрены механизмы антикризисного управления и научные основы мер по оздоровлению предприятий на основе опыта зарубежных стран и Узбекистана. В исследовании проанализированы подходы экономистов. Также на основе финансовых показателей предприятий, осуществляющих деятельность на территории Самаркандской области, статистически оценены прибыль, убыток, чистая прибыль и другие финансовые результаты. Результаты анализа позволяют разработать важные практические рекомендации, которые помогут предприятиям выйти из финансового кризиса и обеспечить их устойчивое развитие.*

Ключевые слова: *предприятие, кризис, финансовый анализ, банкротство, реструктуризация, антикризисное управление, Самаркандская область, прибыль, убыток, финансовое состояние, экономическая устойчивость.*

ASSESSMENT OF THE FINANCIAL PERFORMANCE RESULTS OF ENTERPRISES OF THE SAMARKAND REGION

Abstract. *This study analyzes the causes of financial and economic crises occurring in the activities of enterprises today, methods of their prevention and management. In particular, anti-crisis management mechanisms and scientific foundations of measures for the rehabilitation of enterprises based on the experience of foreign countries and Uzbekistan were considered. The study analyzed the approaches of economists. Also, based on the financial indicators of enterprises operating in the Samarkand region, profit, loss, net income and other financial results were statistically assessed. These analyzes serve to develop important practical recommendations for removing enterprises from the financial crisis and ensuring their sustainable development.*

Keywords: *enterprise, crisis, financial analysis, bankruptcy, restructuring, anti-crisis management, Samarkand region, profit, loss, financial condition, economic stability.*

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda korxonalarning moliyaviy – iqtisodiy inqirozga uchrashi ko‘plab mamlakatlarni inqirozni salbiy ta’sirini dastlab yumshatish va uni keyin bosqichma-boschiq tugatish choralarini amalga oshirishga undadi. Shu tufayli xorijiy mamlakatlarda moliyaviy – iqtisodiy inqirozlar yuz berishi ehtimolini avvaldan o‘rganish va korxonalarni istiqbolda barqaror rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan choralar dasturi hamda usullari ishlab chiqilgan.

Ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, 2022-yilda Fransiyada harakatdagi korxonalarning 1,3 foizi (55,7 mingtasi), Germaniyada 0,4% (yoki 20,7 mingtasi), Italiyada 0,2% (12,3 mingtasi), Xitoyda 0,2% (8,4 mingtasi), Rossiya Federasiyasida 7,7% (13,5 mingtasi) bankrot bo‘lgan. Bankrot bo‘lgan korxonalar sonining tez o‘sishi Bolgariya (114,3%), Sloveniya (32,4%), Gretsiya (27,3%) va Chexiyada (21,5%) qayd etilgan. Bunday holatlar bankrot bo‘lgan korxonalar iqtisodini qayta tiklash milliy qonunchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda turli risklarni kamaytirish usullarini hisobga olish bilan bog‘liq hisoblanadi.

O‘zbekistonda o‘tgan yillar davrida iqtisodiy nochor korxonalarning bankrotligi alomatlarini monitoring qilish, moliyaviy sog‘lomlashtirish, sudgacha sanksiya va bankrotlikni amalga oshirish mexanizmlari yaratildi va amaliyotga joriy etildi. Shunga qaramasdan bozor raqobati sharoitida samaradorligi past va iqtisodiy nochor korxonalar mavjud va ularning moliyaviy – iqtisodiy inqirozga uchrashi ehtimoli saqlanib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Tizimli islohotlarni davom ettirish, kuchli va farovon davlat qurish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini qabul qildik. Bu muhim hujjatda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlarini isloh qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha 100 ta aniq vazifa o‘z aksini topgan. 2030-yilga borib, aholi daromadlarini ikki barobar oshirish va ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo‘yganmiz. Xalqning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag‘allik darajasi ikki barobar kamaygani, 2030-yilgacha esa 7 foizga tushirish rejalashtirilganini qayd etdi”.

Chet el va mamlakatimizda to‘plangan ilmiy hamda uslubiy tajribalar negizida korxonalar inqirozini avvaldan tashxis qilish, inqirozga qarshi boshqarish strategiyani asoslash va uni amalga oshirish uslubini ishlab chiqish iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo‘liga o‘tishida o‘ta dolzarb va zaruriy tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi va bugungi kunda mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili

Korxonani inqirozga qarshi boshqarish jarayonining mazmuni haqidagi umumiy tasavvur I.A.Blankning ishida keltirilgan bo‘lib, unda mazkur boshqarishning quyidagi asosiy bosqichlari ko‘rsatilgan: (1) moliyaviy inqiroz alomatlarini erta aniqlash maqsadida korxona moliyaviy holatining doimiy monitoringini amalga oshirish; (2) korxonaning inqirozdan oldingi moliyaviy ahvolini tashxis qilish chog‘ida moliyaviy inqirozning oldini

olishga doir tadbirlar tizimini ishlab chiqish; (3) inqirozning boshlanishini tashxis qilish chog‘ida moliyaviy inqiroz parametrlarini identifikasiyalash (birxillashtirish); (4) inqirozga olib keluvchi omillarni tadqiq etish; (5) korxonaning inqirozni bartaraf etish imkoniyatlarini baholash; (6) korxonani barqarorlashtirish ishining korxonaning inqiroz holati ko‘lamlariga mos keluvchi yo‘nalishlari (usullari, mexanizmlari)ni tanlash; (7) korxonani moliyaviy inqirozdan olib chiqish kompleks dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish; (8) korxonani moliyaviy inqirozdan olib chiqish dasturining amalga oshirilishini nazorat qilish; (9) korxona tomonidan inqirozning salbiy oqibatlari bartaraf etilishiga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ta’kidlash lozimki, har bir muallif o‘z ishida oldinga qo‘yilgan vazifaga qarab ko‘rib chiqilayotgan atamaning u yoki bu tomonini ochib berishga intiladi. Shu bilan birga, turli nuqtai nazarlar ichida I.K.Larionov, N.I.Bragin, A.T.Aliyev kabilardan iborat mualliflar jamoasi inqirozga qarshi boshqarish tushunchasini to‘liqroq ochib bergan. Ular inqirozga qarshi boshqarishni ikkita ma’noda ko‘rib chiqishadi. Keng ma’noda, inqirozga qarshi boshqarish – bu inqirozga qarshilik ko‘rsatish nuqtai nazaridan iqtisodiyotning u yoki bu darajasida xo‘jalik yuritish obyektini tizimli boshqarish. Tor ma’noda esa, inqirozga qarshi boshqarish – bu odatda to‘lov qobiliyatining yo‘qotilishida namoyon bo‘luvchi inqiroz holatiga tushib qolgan alohida korxonaga nisbatan qo‘llaniladigan tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari tizimi bo‘lib, bunda to‘lov qobiliyatining yo‘qotilishi davomli bartaraf etilmaydigan xususiyatga ega bo‘lgan hollarda, unga bankrotlik tartiboti orqali barham beriladi. Tor ma’nodagi inqirozga qarshi boshqarish uchun korxonaning moliyaviy nochorligi faktini aniqlash katta ahamiyatga ega, bunda moliyaviy nochorlikni rasmiy aniqlash qonun yo‘li bilan tartibga solinadi.

Inqirozga qarshi boshqarishning eng lo‘nda ta’rifini V.Patterson bergan: inqirozga qarshi boshqarish – bu salbiy vaziyat yuzaga kelganida zudlik bilan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan harakatlar dasturi. Ya.Mitroff inqirozga qarshi boshqarishni kompaniya uchun tahdid solishi mumkin bo‘lgan turli xildagi inqirozlar va kuchlarni izchil o‘zaro bog‘liq ravishda baholash sifatida ta’riflaydi.

I.Kislixinaning fikriga ko‘ra, ushbu turlar inqirozni prognoz qilish, oldini olish va bartaraf etish, deb nomlanadi. Inqirozga qarshi boshqarishning mazkur xillari ogohlantiruvchi (oldini oluvchi) va reaktiv (tashqi ta’sirga javob bera oladigan) turlar, deb nomlanadi. Inqirozga qarshi boshqarishning reaktiv turini tahlil qilish – ushbu holatni tushunishga nisbatan tor, lekin shunday bo‘lsa-da, eng tez-tez uchraydigan yondashuv. Masalan, tashkilotni inqirozga qarshi boshqarish deganda moliyaviy nochorlik (bankrotlik) davrida boshqarish tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot jarayonida korxonalari va tashkilotlari faoliyatining moliyaviy natijalari va kreditorlik-debitorlik qarzlari ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyasi dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Maqolaning maqsadi. Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan

korxona va tshkilotlarning moliyaviy holati, ularning faoliyatiga ta'sir qiladigan muhim omillar hamda korxonalarni inqirozdan chiqarish **uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar darajasini tahlil qilishdan iborat.**

Tahlil va natijalar.

Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ustuvor hisoblangan asosiy vazifalar jumlasiga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, investitsiya jarayonlarini faollashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish kabilar kiradi. Bunda iqtisodiyot uchun muhim hisoblangan vazifalar asosan sanoatning alohida tarmoqlarini va sanoat korxonalarining faoliyatini jadal rivojlantirish orqali hal etiladi, bu mintaqaning sanoat salohiyatini oshiradi.

Sanoat korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishi ko'p jihatdan mamlakatdagi iqtisodiy sharoitlar va korxona faoliyatining samaradorligi bilan belgilanadi. Biroq, raqobat kurashining kuchayishi va mahalliy korxonalar uchun ham ichki, ham tashqi bozorlarda xo'jalik yuritish sharoitlarining qat'iylashuvi ularga nisbatan alohida talablarni qo'yadi. Samarali faoliyat ko'rsatuvchi tijorat tashkilotigina yetarli darajada rivojlangan raqobat sharoitida o'z faoliyatini saqlab qolishi va rivojlanishi mumkin. Faoliyatning yakuniy *moliyaviy* natijasi uning samaradorligini o'lchovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Samarqand viloyati korxonalarining *moliyaviy* natijalari oxirgi besh yil mobaynida ular olayotgan foyda hajmining o'sganligini ko'rsatmoqda. Masalan, 2023-yil yakunlariga ko'ra viloyatning barcha korxonalari va tashkilotlari faoliyatidan 334400,9 mln. so'm miqdorida foyda olindi, bu 2020-yil bilan solishtirilganda 2,1 marta va 2022-yil bilan solishtirilganda 144779,6 mln. so'mga ko'pdir (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyati korxonalari va tashkilotlari faoliyatining *moliyaviy* natijalari dinamikasi

Ko'rsatkich	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-yil 2020-yilga nisbatan, +,-
Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari (foyda), mln. so'm	158848,2	170120,5	189621,3	334400,9	2175552,7
Respublika korxonalari va tashkilotlarining moliyaviy natijalarida viloyatning ulushi (foyda), %	1,2	1,4	1,3	1,7	-
Zarar ko'rgan korxonalar soni, dona	2	2	4	9	-7
Zarar ko'rgan respublika korxonalari sonida viloyatning ulushi, %	1,3	1,4	3,1	3,3	-
Respublika korxonalari va tashkilotlari ko'rgan zararlar summasi, mln. so'm	-3277,2	1720,5	20305,0	11801,8	15079,0

Respublika korxonalari va tashkilotlari ko‘rgan zararlar summasida viloyatning ulushi, %	0,5	0,5	1,1	1,2	-
O‘rtacha 1 korxonaga to‘g‘ri keladigan zarar summasi, mln. so‘m	-1638,6	-860,3	-5076,3	-437,1	1201,5

Mazkur ishni bajarish doirasida tahlil qilinadigan navbatdagi ko‘rsatkichlar – korxonalar va tashkilotlarning *moliyaviy* natijalari hamda zarar ko‘rgan korxonalar soni va zararlar miqdori.

Foyda, foyda solig‘i to‘langunga qadar zarar – bu korxonalar (tashkilotlar) barcha xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi asosida aniqlangan yakuniy *moliyaviy* natija bo‘lib, u mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan ko‘rilgan yalpi foyda (zarar), asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, *moliyaviy* faoliyatdan olingan daromadlar *va* favqulodda foydaning davr xarajatlari, *moliyaviy* faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda zararlar summasiga kamaytirilgan miqdorini o‘zida namoyon etadi.

2020-2023 yillar mobaynida Samarqand viloyatida zarar ko‘rgan korxonalar soni unchalik ko‘p emas (2 tadan 9 tagacha). 2023-yil yakunlariga ko‘ra viloyatning respublikamiz bunday korxonalari sonidagi ulushi 3,3 foizni tashkil qildi (1-jadval).

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar faoliyatidan ko‘rilgan zararlar summasi pasayish tendensiyasiga ega. Ammo bu tendensiya 2020 yil bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rish mumkin. 2020 yil yakunlariga ko‘ra ushbu summa (-)11801,8 mln. so‘mni tashkil qildi. Bu 2017 yil ko‘rsatkichidan qariyb 2,6 martaga oshgan. Viloyatning respublikamiz korxonalari faoliyatidan ko‘rilgan zararlar summasidagi ulushi tahlil qilinayotgan davrda (2017-2020 yillar mobaynida) 0,5 foizdan 1,2 foizgacha doirasida bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, yillar mobaynida Samarqand viloyatida zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarning bir xil soni kuzatilmoqda, ya’ni 2020-yilda ularning soni 2 tani tashkil qilgan, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 9 taga teng bo‘lgan.

Biroq, zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar soni zararlar summasiga unchalik ta’sir ko‘rsatmaydi. Masalan, 2020-yil yakunlariga ko‘ra bunday korxonalar soni 2 ta edi, zararlar summasi esa (+) 3277,2 mln. so‘mni tashkil qildi. 2021-yil yakunlariga ko‘ra ham zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar soni 2 ta bo‘lib, zararlar summasi (-) 1720,5 mln. so‘mni tashkil qildi. Ko‘rib turganimizdek, zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar soni bir xil bo‘lsa-da, zararlar summasi 2021-yildagiga nisbatan ko‘p. 2022-yilda Samarqand viloyatida 4 ta zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar va tashkilotlar aniqlanib, ular ulushiga barcha tahlil qilinayotgan yillar zararlarining eng katta summasi to‘g‘ri keldi (-) 20305,0 mln. so‘m). Ushbu ko‘rsatkichlar 2023-yilda mos ravishda 9 va (-) 11801,8 mln. so‘mga teng bo‘lgan.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib o‘rtacha bitta korxona faoliyatidan ko‘riladigan o‘rtacha zararlar summasi hisoblab chiqildi. Mazkur summa har yili o‘zgarib

turdi va tegishlicha 1638,6 mln. so‘m (2020-y.), 860,3 mln. so‘m (2021-y.), 5076,3 mln. so‘m (2022-y.), va 437,1 mln. so‘mga (2023-y.) teng bo‘ldi. Viloyatda 2017-2020 yillar mobaynida korxona va tashkilotlar qariyb, 8,0 mlrd so‘m zarar ko‘rgan.

Samarqand viloyati korxonalari faoliyatining *moliyaviy* natijalarini tahlil qilish doirasida korxonalar faoliyatidan olinadigan daromadlarni, xususan, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan sof tushum; sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning tannarxi; mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan yalpi foyda, (-) zarar; muayyan davr xarajatlari; asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar; *moliyaviy* faoliyatdan olingan daromadlar; *moliyaviy* faoliyat bo‘yicha xarajatlar; favqulodda foyda va zararlar; sof foyda kabilarni ko‘rib chiqamiz.

Birinchi ko‘rsatkich – mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan sof tushum (ChVRP) – tovarlar (ishlar va xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’mol qilganlik uchun soliq summalarini qo‘shmagan holda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan olingan (olinishi lozim bo‘lgan) *mablag‘lar* summasi.

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatib turibdiki, 2023-yil yakunlariga ko‘ra Samarqand viloyati korxonalarining mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan sof tushumi 6249,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi, bu 2020-yil bilan solishtirilganda 1,7 marta va 2022-yildagiga qaraganda 11,1 foizga ko‘p.

Biz tahlil qiladigan navbatdagi ko‘rsatkich – bu sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning tannarxi (SMT) bo‘lib, u mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarishda foydalaniladigan moddiy resurslar, asosiy fondlar, mehnat resurslarining hamda mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa xarajatlar turlarining qiymatini baholashni nazarda tutadi. Huddi birinchi ko‘rsatkich kabi SMT ham 2023-yilda 2020-yil bilan solishtirilganda 18,0 foizga oshgan va 3027,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi (2-jadval).

2-jadval

Samarqand viloyati korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi

mlrd. so‘m

Ko‘rsatkich	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-yil 2020-yilga nisbatan, %
Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan sof tushum	3665,4	4738,7	5622,7	6249,2	1,7 marta
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi	2566,1	2792,3	2835,1	3027,4	118
Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan yalpi foyda (zarar)	580,5	640,4	650,5	750,1	129,2
Davr xarajatlari	482,1	530,8	620,6	695,1	144,2
Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar	65,7	73,7	79,8	88,6	134,8

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	87,9	59,1	62,3	69,2	78,3
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	63,5	85,6	77,6	78,3	123,3
Favqulodda foyda (zarar)	0,5	0,2	0,8	0,7	140
Sof foyda	110,5	123,6	145,3	162,7	147,2

Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan yalpi foyda (zarar) – mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan sof tushum bilan sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rib turganimizdek, tahlil qilinayotgan davr mobaynida (2020 – 2023-yillar) faqat yalpi sof foydani aks ettirdi, ya’ni zarar ko‘rilmagan. 2023-yil yakunlariga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich 750,1 mlrd. so‘mni tashkil qildi, bu 2020-yil bilan solishtirilganda 29,2 foizga, yoki 2021-yildagiga qaraganda 15,3 foizga ko‘pdir.

Mazkur ish doirasida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan yana bir ko‘rsatkich – bu davr xarajatlari (DX) bo‘lib, u kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari, sotish xarajatlari, ma’muriy xarajatlar va boshqa operatsiya xarajatlarini o‘z ichiga oladi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra 2020-yil bilan solishtirilganda davr xarajatlari 213 mlrd. so‘mga ko‘payib, 695,1 mlrd. so‘mni tashkil qildi, ushbu ko‘rsatkich 2022-yildagiga qaraganda 12,0 foizga ko‘pdir (2-jadval).

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (MFX) – banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining kreditlari bo‘yicha foizlar (banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining investitsiyalar uchun olingan kreditlari bo‘yicha foizlar bundan mustasno, ular investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiradi), shu jumladan muddati o‘tgan va muddati cho‘zilgan ssudalar bo‘yicha foizlar, shuningdek, xorijiy valyuta bilan operatsiyalar bo‘yicha kurs farqlari hamda *moliyaviy* faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar va zararlar. 2.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rib turganimizdek, butun tahlil qilinayotgan davr mobaynida Samarqand viloyati korxonalarining *moliyaviy* faoliyat bo‘yicha xarajatlari muayyan barqaror o‘sish sur’atlariga ega bo‘lmadi. 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich boshqa yillardagiga qaraganda eng katta qiymatlarga ega bo‘lib, 85,6 mlrd. so‘mni tashkil qilganligini ko‘rsatib turibdi. Biroq, 2023-yil yakunlariga ko‘ra *moliyaviy* faoliyat bo‘yicha daromadlar 7,3 mlrd. so‘mgacha kamaydi. Umuman olganda 2023-yilda 2020-yil bilan solishtirilganda mazkur ko‘rsatkich 23,3 foizga oshgan.

Navbatdagi ko‘rsatkich – *moliyaviy* faoliyat bo‘yicha daromadlar dividendlar, foizlar, valyuta kurs farqi, *moliyaviy* ijaradan olinadigan daromadlar *moliyaviy* faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlarni o‘z ichiga oladi. 2-jadval ma’lumotlari 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich boshqa yillardagiga qaraganda eng katta qiymatlarga ega bo‘lib, 87,9 mlrd. so‘mni tashkil qilganligini ko‘rsatib turibdi. Biroq, 2023-yil yakunlariga ko‘ra *moliyaviy* faoliyat bo‘yicha daromadlar 18,7 mlrd. so‘mgacha kamaydi. Umuman olganda 2023-yilda 2020-yil bilan solishtirilganda mazkur ko‘rsatkich 21,3 foizga kamaygan.

Favqulodda foyda (zararlar) favqulodda voqealar natijalarini o‘zida namoyon etadi. Ushbu ko‘rsatkich 2020-

2023-yillarda musbat qiymatlarga ega bo‘ldi, ya’ni foyda 0,5 mlrd. so‘mdan 0,7 mlrd. so‘mgachani tashkil qildi.

Yana bir ko‘rsatkichni tahlil qilamiz – viloyat korxonalarining sof foydasi. Bu hisobot davrining foyda solig‘i to‘langanidan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladigan yakuniy *moliyaviy* natijasi. 2-jadval ma’lumotlar shuni ko‘rsatib turibdiki, 2023-yilda sof foyda 2020-yil bilan solishtirilganda qariyb 47,2 foizga oshib, 162,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Samarqand viloyati korxonalarining umumiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga o‘tishdan oldin 2015-2023-yillar ma’lumotlarini, korxonalarning barcha qarzlarini umumiy tarzda va ularni debitorlik va kreditorlik qarzlariga bo‘lgan holda ko‘rib chiqamiz. Viloyat korxonalari ishlashining yakunlariga ko‘ra 2023-yilda 4382,3 mlrd.so‘m miqdorida umumiy qarzdorlikka yo‘l qo‘yilgan. 2015-yil bilan solishtirilganda qarzlar 1854,3 mlrd. so‘mga yoki 1,7 martaga oshdi. Korxonalar qarzlarining umumiy hajmida kreditorlik qarzlari debitorlik qarzlariga qaraganda katta ulushga ega (3-jadval).

Debitorlik qarzlari uzoq muddatli debitorlik qarzlari, xaridorlar va buyurtmachilar, shu’ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga berilgan bo‘naklar, yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, byudjetga to‘lovlar va soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, davlat maqsadli fondlariga va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, muassislarning ustav kapitaliga qo‘yilmalar bo‘yicha qarzlari, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlari, boshqa debitorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi. 2023-yilda Samarqand viloyati korxonalari va tashkilotlarining debitorlik qarzlari 1448,0 mlrd. so‘mni tashkil qildi, bu 2015-yildagiga qaraganda 2,1 martaga ko‘pdir (3-jadval). Debitorlik qarzlarining jami qarzlardagi ulushi 2023-yilda 33,0 foizni tashkil qildi.

3-jadval

Samarqand viloyati korxonalarining **kreditorlik va debitorlik qarzlari ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyasi (***mlrd. so‘m)*

Ko‘rsatkich	**2015-y.**	**2016-y.**	**2017-y.**	**2018-y.**	**2019-y.**	**2020-y.**	**2021-y.**	**2022-y.**	**2023-y.**
Qarzlar, jami	2528,0	2668,7	2312,7	4995,6	6357,1	2579,1	5193,3	6340,1	4382,3
shu jumladan:									
Debitorlik qarzlari	1171,7	1142,1	1962,0	2269,3	2787,2	1814,7	2179,2	2449,6	1448,0
Ko‘rsatkich ulushi, %	46,3	42,8	45,9	45,4	43,8	70,4	42,0	38,6	33,0
Kreditorlik qarzlari	1356,3	1526,6	2308,4	2726,3	3569,9	764,4	3014,1	3890,5	2934,3
Ko‘rsatkich ulushi, %	53,7	57,2	54,1	54,6	56,2	29,6	58,0	61,4	66,9

2023-yilda kreditorlik qarzlarining jami qarzlardagi ulushi 2015-yil bilan solishtirilganda (+) 13,2 foiz bandiga oshib, 66,9 foizga teng bo‘ldi.

Chet el amaliyotidan kelib chiqqan holda, deyarli barcha tashkilotlar uchun nochorlik jarayoni rivojlanadigan umumiy sabablarni ta’kidlash mumkin. Sabablarning ayrimlari milliy korxonalarda rivojlanayotgan sabablar bilan deyarli bir xil. Bu:

birinchidan, bozor islohotlarining huquqiy ta’minotidagi xatolar (xususiylashtirishni tashkil etish, soliq tizimi, bojxona siyosati va b.);

ikkinchidan, majburiyatlar ilgarilab ortib borganda tushumning kamayishi (real narxlarda). Real tushumning kamayishi aholi to‘lov qobiliyatining pasayishi, narxlarning o‘sishi, sifatliroq tovarlarni import qilish hajmining keskin oshishi tufayli bozorda ortiqcha tovarlarning to‘planib qolishi bilan bog‘liq.

uchinchidan, keskin raqobat sharoitlari (asosan raqobat ustunliklarining mavjud emasligi va ushbu muhitda ishlashga tayyor emaslik);

to‘rtinchidan, tashkilot xo‘jalik faoliyatining asossiz va nomutanosib tarzda kengaytirilishi;

beshinchidan, ta’sirchan korporativ nazoratning mavjud emasligi;

oltinchidan, menejmentning xo‘jalik yuritishning bozor sharoitlariga muvofiq strategik, taktik va tezkor boshqaruvni amalga oshirishga qodir emasligi (past malaka darajasi, tajribaning mavjud emasligi, yangi boshqaruv usullarini qo‘llashni istamaslik va b.);

Xulosa

Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, uning iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatining bir joyga to‘planganligini tahlil qilish hamda korxonalarga nisbatan qo‘llaniladigan inqirozga qarshi choralarni tadqiq etish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Bugungi kunda respublikamizda tarmoqlar va sohalarni, shuningdek mamlakatimiz mintaqalarini yanada rivojlantirish uchun mustahkam asosning yaratilishi ta’minlanmoqda. 2020-2023-yillarda Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ijobiy dinamikasi boshqa ko‘rsatkichlarda ham kuzatilmoqda.

Iqtisodiyotning raqobatbar-doshligini oshirish borasidagi kompleks dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2023-yilda Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsuloti haqiqiy narxlarda 2020-yil bilan solishtirilganda 5,9 marta oshdi. Samarqand viloyatida 2020-2023-yillar mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 6 marta oshdi. Mazkur davrda bunday o‘sish asosan iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga yo‘naltirilgan faol investitsiyaviy siyosatning amalga oshirilishi, strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishning jadallashtirilishi va yangi ishlab chiqarish obyektlarining barpo etilishi hisobidan ta’minlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston va BMT: Global muammolarga qarshi birgalikda kurashish odimlari, Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi № 199 (988), 2023-yil 29-sentabr, https://president.uz/oz/lists/view/6679

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi statistik ko‘rsatkichlari asosida hisoblangan

3. Статистика банкротства. https://vawilon.ru/statistika-bankrotstva/ (дата обращения 12.11.2021).

I.N. Ismanov, J.X. Kambarov, M.M. Turdaliyeva. Korxonalarda inqirozga boshqaruvni tashkil etish: o‘quv qo‘llanma – Farg‘ona: Nashriyot, 2014. – 80 b.**«YASHIL» IQTISODIY**

O`SISHNI TA'MIRLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.

Sh.Q.Yuldashev, B.F.Boliyeva

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
"Tarqmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Boliyeva Baxora Farxodovna
Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti
1-bosqich talabasi

Received: 19 March 2025
Revised: 24 March 2025
Accepted: 16 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot doirasida O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining, xususan, shamol stansiyalari va quyosh panellarining iqtisodiy va ekologik afzalliklari hamda qayta tiklanuvchi energiya tizimining rivojlanish sur'atlari, mavjud infratuzilmaning holati, xorijiy tajribalarning ta'siri va milliy sharoitda ularni amaliyotga joriy etishda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, shamol stansiyalari, quyosh panellari, energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik, infratuzilma.*

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ В ДЛЯ "ЗЕЛЕНОГО" ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.

Аннотация: *В статье анализируются экономические и экологические преимущества возобновляемых источников энергии в Республике Узбекистан в рамках зеленой экономики,, в частности ветровых электростанций и солнечных батарей, а также темпы развития системы возобновляемой энергетики, состояние существующей инфраструктуры, влияние зарубежного опыта и проблемы, возникающие при их внедрении в реальных условиях.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, возобновляемая энергетика, ветровые электростанции, солнечные батареи, энергоэффективность, экологическая безопасность, инфраструктура.*

EFFECTIVE USE OF RENEWABLE ENERGY SOURCES TO RESTORE GREEN ECONOMIC GROWTH.

Abstract: *The article analyzes the economic and environmental benefits of renewable energy sources, in particular wind power plants and solar panels, in the Republic of Uzbekistan within the framework of the green economy, as well as the pace of development of the renewable energy system, the state of the existing infrastructure, the influence of foreign experience and the problems that arise during their implementation in real conditions.*

Keywords: *green economy, renewable energy, wind power plants, solar panels, energy efficiency, environmental safety, infrastructure.*

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: So‘nggi yillarda global miqyosda iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar, tabiiy resurslarning cheklanganligi insoniyatni alternativ yechimlarni izlashga undamoqda. Ayniqsa, energetika sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlash, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro energetika agentligi (IEA) hamda boshqa global tuzilmalar tomonidan e’lon qilingan strategiyalar, jumladan 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) doirasida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi markaziy o‘rinni egallamoqda.

Ushbu omillar fonida shamol stansiyalari va quyosh panellari kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari eng istiqbolli va ekologik toza texnologiyalar sirasiga kiradi. Ular neft, gaz, ko‘mir kabi an’anaviy energiya manbalariga nisbatan havoga zararli moddalarning chiqarilishini sezilarli darajada kamaytiradi, uzoq muddatda iqtisodiy jihatdan tejamkor hisoblanadi va mahalliy sharoitda mustaqil energiya ta’minotini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishga katta e’tibor qaratmoqda. Prezidentning “Yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4477-sonli qarori (2023-yil 1-mart) va “2023–2030-yillarda elektr energetikasini rivojlantirish konsepsiyasi”da qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini sezilarli darajada oshirish ko‘zda tutilgan [1]. Xususan, 2030-yilga kelib mamlakat umumiy energiya ishlab chiqarishining 30 foizini qayta tiklanuvchi manbalar tashkil etishi belgilangan [2].

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 6 ta yirik quyosh elektr stansiyasi va 2 ta shamol stansiyasi faoliyat yuritmoqda, 2030-yilgacha esa yana 10 dan ortiq loyihalar ishga tushirilishi rejalashtirilgan [3]. Biroq bu yo‘nalishda texnik, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- elektr uzatish infratuzilmasining eskirganligi;
- texnologik yechimlarning importga bog‘liqligi;
- moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli emasligi;
- aholining va xususiy sektorning xabardorlik darajasining pastligi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yashil iqtisodiyot sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur yo‘nalishning nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini chuqur ochib beradi. Bu borada ilg‘or xorijiy va milliy adabiyotlarda turli yondashuvlar va istiqbollar tahlil qilingan. Jumladan, amerikali olim J. Rifkin o‘zining “The Third Industrial Revolution” asarida qayta tiklanuvchi energiya kelajakda iqtisodiyotni tubdan o‘zgartiruvchi kuch sifatida taqdim etiladi. U yashil iqtisodiyotni sanoat inqilobining yangi bosqichi deb atab, energiya ishlab chiqarish, uni saqlash va raqamli texnologiyalar orqali boshqarishning uzviy uyg‘unligini nazarda tutadi. Rifkinning fikricha, shamol va quyosh energiyasi insoniyatni neft va gazga qaramlikdan xalos qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi, shu orqali global iqtisodiy

va siyosiy tengsizliklar yumshashi mumkin (1).

O‘zbek olimi M. I. Umarov esa o‘zining “Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik” nomli ilmiy asarida aynan O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining joriy etilishi va qayta tiklanuvchi energiyaning undagi o‘rni haqida atroflicha to‘xtaladi. Uning tadqiqotida Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida quyosh intensivligining yuqoriligi, ayniqsa yirik quyosh elektr stansiyalarini qurish uchun katta salohiyat borligi statistik ma’lumotlar asosida keltirilgan. Umarovning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda quyosh va shamol energiyasi asosida ishlovchi tizimlarni ishlab chiqish, ayniqsa, uzoq hududlardagi aholi punktlari uchun barqaror elektr ta’minotini yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynaydi (2).

Boshqa tomondan, International Energy Agency (IEA) tomonidan tayyorlangan “World Energy Outlook 2023” hisobotida global miqyosda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o‘sish sur’atlari, texnologik yangiliklar va moliyaviy investitsiyalar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Hisobotda 2023-yil ilk bor quyosh energiyasi global energiya ishlab chiqarishda ko‘mirni ortda qoldirgani, shamol energiyasi esa ayniqsa Xitoy, AQSh va Germaniyada asosiy energiya manbasiga aylangani ta’kidlangan. IEA ekspertlari rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida, texnologik transfer va moliyaviy ko‘mak zarurligini alohida ta’kidlashgan. Bu holat O‘zbekiston kabi davlatlar uchun xalqaro hamkorlikning qanchalik dolzarb ekanini ko‘rsatadi (3).

Yana bir o`zbek olimi T. Kenjaev tomonidan yozilgan ilmiy maqolada esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarining texnik va iqtisodiy xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. U, ayniqsa, elektr energiyasini ishlab chiqarishdan tashqari, uni uzatish, saqlash va foydalanuvchigacha yetkazishdagi texnologik muammolarni ko‘rsatgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan quyosh panellari va shamol turbinalarini tayyorlash bo‘yicha salohiyatni rivojlantirish, texnologik importdan asta-sekin voz kechish zarurligi muallif tomonidan asoslangan. Shuningdek, kichik quvvatli shamol turbinalarining qishloq joylarda ahamiyati yuqori ekani, bu aholining energetik mustaqilligiga xizmat qilishi mumkinligi misollar bilan tushuntirilgan (4).

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “2023–2030-yillarda elektr energetikasini rivojlantirish konsepsiyasi” rasmiy hujjatida mamlakatda qayta tiklanuvchi energiyaning ulushini oshirishga qaratilgan aniq ko‘rsatkichlar va rejalar belgilangani ko‘rinadi. Ushbu hujjatda 2030-yilgacha 7 gigavattlik quyosh va 5 gigavattlik shamol elektr stansiyalarini barpo etish mo‘ljallangani O‘zbekistonning bu boradagi qat’iy strategiyasini namoyon etadi. Bundan tashqari, xalqaro investorlar, jumladan Saudiya Arabistonining ACWA Power va Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar kompaniyalari bilan hamkorlikda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi rejalashtirilgan (5). Bu esa davlat siyosatining izchil va istiqbolli ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va amaliy

siyosatlar o‘zaro uyg‘unlashgan taqdirda barqaror yashil iqtisodiyot sari dadil qadam tashlash mumkin. Adabiyotlarda ko‘rsatilgan tajribalar, ayniqsa, mahalliy iqlim sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlar va xalqaro hamkorlikka tayangan holda milliy energetika siyosatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Aynan ushbu manbalarning o‘rganilishi orqali mamlakatda energetik mustaqillik, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi yangicha qarashlar shakllanishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur ilmiy tadqiqotda qayta tiklanuvchi energiya manbalari – xususan, shamol stansiyalari va quyosh panellarining O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot rivojiga ta’sirini o‘rganish maqsadida va tahlil qilishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash va solishtirish hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish sohasida so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishildi. 2024-yil yakuniga kelib, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvati 4,1 gigavattga yetdi, bu esa 2020-yilga nisbatan 2 barobarga ortiqdir (1). Bu energiya ishlab chiqarishda shamol va quyosh panellari asosiy ulushni egallab, qayta tiklanuvchi energiyaning 85 foizini tashkil qilmoqda (2).

Diagramma 1: 2020–2024-yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatining o‘sishi

il	Umumiy qayta tiklanuvchi energiya quvvati (GW)	O‘sish (yiliga nisbatan, %)	Asosiy o‘sish manbalari
020	2,799 GW	—	Quyosh va shamol energiyasi
021	3,064 GW	+9.5%	Quyosh: +133 GW, Shamol: +93 GW
022	3,372 GW	+10.1%	Quyosh: +191 GW, Shamol: +75 GW
023	3,724 GW	+10.4%	Quyosh: +239 GW, Shamol: +68 GW
024*	4,100 GW (taxminiy)	+10.1% (taxminiy)	Quyosh: asosiy o‘sish manbai

Manba: Statistika agentligi (1)

Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishda jadal sur’atlar bilan harakat qilmoqda. Bu ijobiy holat, chunki bu orqali mamlakat energiya xavfsizligini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Zarafshon shahrida ACWA Power kompaniyasi tomonidan qurilgan 1000 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi 2023-yil kuzida to‘liq ishga tushirildi va yilda 2,4 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu stansiya orqali har yili

1 milliondan ortiq aholini elektr energiyasi bilan ta’minlash mumkin bo‘lmoqda (3). Bu loyiha O‘zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi yirik qadamlaridan biridir.

Jadval 1: Yirik qayta tiklanuvchi energiya loyihalari

Loyiha nomi	Quvvat (MVt)	Ishga tushirilgan yil	Yillik ishlab chiqarish (mlrd kVt-soat)
Zarafshon quyosh stansiyasi	1000	2023	2.4
Buxoro shamol stansiyasi	500	2024	1.1

Manba: Energetika vazirligi (3)

Bu loyihalar nafaqat energiya ishlab chiqarishni ko‘paytiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratadi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Biroq, bu loyihalarning amalga oshirilishi uchun katta miqdorda investitsiyalar talab etiladi, bu esa moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.

Energetika vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 2023–2030 yillarga mo‘ljallangan energetika konsepsiyasida mamlakatda 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiyaning ulushini 40 foizga yetkazish maqsadi belgilangan bo‘lib, bu orqali yiliga 16 million tonnagacha issiqxona gazlari chiqarilishi kamaytirilishi rejalashtirilgan (5). Bu maqsadga erishish uchun xozirgi sharoitda quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda.
- Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish uchun soliq va bojxona imtiyozlari joriy etilmoqda.

Bu chora-tadbirlar ijobiy natijalar berishi mumkin, ammo ularning samaradorligi ko‘p jihatdan ularning to‘g‘ri amalga oshirilishiga bog‘liq.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va OPEK jamg‘armasi O‘zbekistondagi yashil loyihalarga salkam 2 milliard AQSh dollaridan ortiq investitsiyalar ajratgan (6). Bu esa nafaqat texnologik rivojlanishga, balki barqaror ish o‘rinlari yaratishga ham xizmat qilmoqda – masalan, 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya sohasida 13 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan (7). Bu ijobiy holat, chunki bu orqali ishsizlik darajasi kamayadi va aholi farovonligi oshadi.

Qayta tiklanuvchi energiyaning joriy etilishi natijasida, mamlakatda an’anaviy energiya manbalariga – ayniqsa tabiiy gaz va ko‘mirga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamaymoqda. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, elektr energiyasining 11,5 foizi quyosh va shamol manbalari hisobidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu O‘zbekiston tarixida rekord ko‘rsatkich hisoblanadi (2). Bu ijobiy holat, chunki bu orqali tabiiy resurslar tejab qolinadi va atrof-muhitga zarar kamayadi.

Biroq mavjud yutuqlarga qaramay, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda elektr energiyasi taqsimoti infratuzilmasining eskirganligi, qayta tiklanuvchi energiyani saqlash texnologiyalarining yetarlicha rivojlanmagani va milliy ishlab chiqaruvchilarning texnik salohiyati cheklanganligi, hali ham xorijiy texnologiyalarga kuchli bog‘liqlik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ayrim xorijiy investitsion loyihalarning amalga oshirilish muddati kechikayotganligi, ularning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bunga sabab byurokratik to‘siqlar, yer ajratishdagi muammolar va qonunchilikdagi noaniqliklar bo‘lishi mumkin (6).

Аннотация. *В статье обсуждается важность циркулярной экономики и необходимость услуг транспортной логистики при переходе к ней. Сгруппированы изменения в сфере транспортно-логистических услуг при переходе от традиционной линейной экономики к экономике замкнутого цикла, подробно изучены необходимые условия и препятствия, возникающие для их реализации в новой форме. Проанализирована сложность организации процессов обратной логистики и их внедрения в цепочку поставок.*

***Ключевые слова:** Транспортная логистика, круговая экономика, обратная логистика, переработка, ремонт, повторное использование.*

Introduction. As the global economy shifts from a linear "take-make-dispose" model to a more sustainable **circular economy**, transport logistics plays a pivotal role. In a circular system, resources are kept in use for as long as possible through practices such as reuse, recycling, remanufacturing, and sharing. This transformation demands a rethinking of traditional logistics operations, offering both significant challenges and promising opportunities.

Transition to green economy is enough challenging process not only for developing countries, but for developed ones too. Two main models in transition to green economy: bio economy and circular economy are widely gaining popularity among countries.

These two models have their specularities. They require basic conditions and support from the government.

Before analyzing necessary conditions and main factors, it is essential to review the definitions of green economy, bio economy and circular economy. The concept of CE became popular in China in 1990s. Because of fact that, growing population of China and limited natural resource importance of CE had been noticed earlier than any other countries.

Many scholars and practitioners till today have keen interest to CE and making

researches. In 2017 Kirchhherr made a review about definitions of CE. More than 100 articles were published on the topic in 2016, compared to only about 30 articles in 2014 [1].

The terms sustainability, circular economy, and bio economy have gained momentum in recent years, moving from being restricted to academia to frequently appearing in the media, business action plans, and political strategies [2].

Green economy is improved human well-being and social equity, while significantly reducing environmental risks and ecological scarcities. It is low-carbon, resource-efficient, green jobs and socially inclusive. Main focus of green economy is environmental protection. Gaining this with traditional ways of transportation is impossible. So transport logistics services are also changing to green transports, renewable energy sources, ecofriendly packaging.

A circular economy is an economic model aimed at eliminating waste and the continual use of resources. It involves designing products for durability, reuse, remanufacturing, and recycling to keep materials in use for as long as possible. Widespread explanation of circular economy can be easily forms as follow:

Processes in linear economy make up from "take-make-dispose", while circular economy is "reduce-reuse-recycle". Like a circle this process never ends and it has starting point.

In a circular economy, products and materials circulate within a closed-loop system. Transport logistics ensures the physical movement of goods not just from manufacturers to consumers, but also back through the supply chain for repair, reuse, recycling, and resale.

In both models the role of transport logistics was, is and will be essential. And the same time issues related to fossil fuels, renewable energy sources, circular process "reduce-reuse-recycle" taking into environmental protection deeply connected to each other.

Here important to note that the most polluting sector is fuel and energy. Almost 75 % of GHGs are caused by

burning fossil fuels to generate heat and electricity [3].

We cannot eliminate transports with fuels and use ecofriendly ones in short time. So we face double challenges in transition to Green and circular economy.

Literature review. Transition to Circular economy is essential for not only enterprises but for government also. Many projects, researches and publics events are arranged for enlightening the producers and consumers about CE and Green economy. Public awareness plays key role in fostering the transition process. In 2017 Kirchhherr published article where definitions of CE were discussed. About 114 definitions from articles and consultancy reports was studied in detail [1].

Classic supply chain model have limitation in circular economy model. Processes mostly occur in one way direction from producer to customer or from supplier to producer. In Circular economy reverse process is also possible. Repairing, refurbishing, recycling should be also included in supply chain [4].

A supply chain includes everyone involved—either directly or indirectly—in the movement and transformation of goods and services from the point of origin to the final customer. Logistics refers to the business processes that help align consumer demand with the supply of goods. These processes cover the entire journey of the product, starting from raw material extraction all the way to final delivery. It also includes handling used products and waste.

Logistics isn't limited to transportation; it also covers: strategic supply chain design, including decisions on scale and location, balancing supply and demand through network planning and detailed coordination of product flow through the chain.

In simple terms, logistics is about delivering the right product, to the right place, at the right time, in the right quantity, and at the right quality [5].

Methods. During research related to the role of transport logistics in circular economy essential changes in logistics were noticed. Firstly, key function of logistics in linear and circular economy differs. In traditional supply chain management the role of transport logistics is ensuring the physical movement of goods from manufacturers to consumers in one way direction in circular economy condition function of logistics ensuring moving back through the supply chain for repair, reuse, recycling, and resale.

Main challenges in transition to CE and available opportunities grouped and revealed in detail.

CE is important for its power to attract both the business community and policy-making community to sustainability work, but it needs scientific research to secure that the actual environmental impacts of CE work toward sustainability [6].

A thorough review of scientific articles, consultancy reports, and policy documents was conducted to understand the role of transport logistics in the transition to a circular economy. Special attention was given to the definitions, key concepts, and critical factors that differentiate linear and circular supply chain models. Sources included peer-reviewed journals, European Commission publications, and global consultancy studies.

Challenges specific to transport logistics during the transition to a circular economy were grouped into five

categories: complexity of reverse logistics, lack of infrastructure, data and traceability gaps, economic viability concerns, and regulatory barriers. This structuring helped to identify patterns and propose strategic responses.

Opportunities for innovation and improvement within circular logistics were synthesized into key themes, including new business models, digitalization, green branding, ecosystem collaboration, and environmental and social benefits. This thematic approach allowed for a comprehensive understanding of how transport logistics can evolve to support sustainability objectives.

Results & discussion. Reverse logistics means returning products for repair, refurbishment, or recycling.

Closed-loop supply chains include managing end-to-end flows of goods and materials.

The function of Decentralized production and distribution means enabling local reuse and remanufacturing.

Transport logistics in the concept of Circular Economy face several challenges. These challenges may differ from each other referring to development stage of the country. Mostly challenges are common in developing countries. Many of developed countries have already followed Circular economy concept actively.



Fig.1. Functions of transport logistics in Circular economy

Challenges of transport logistics in transition to CE in developing countries can be divided into 5 groups.

1. Complexity of Reverse Logistics. Managing reverse flows is more complicated than forward logistics. Collection points, sorting facilities, and return channels must be coordinated efficiently to avoid increased emissions or delays. The complexity of reverse logistics can be seen in follows:

- reverse logistics involves moving goods from consumers back to producers for purposes such as repair, recycling, or disposal. Unlike forward logistics, which follows a relatively straightforward path, reverse logistics must handle a wide variety of return conditions, product types, and destinations, making it inherently more complex.

- in reverse logistics, it is often difficult to predict when products will be returned, their quantity, quality, or condition. This unpredictability complicates planning, resource allocation, and inventory management.

- handling returns, setting up collection points, inspecting returned

goods, refurbishing, and transporting them back to facilities are cost-intensive processes. Often, the cost of reverse logistics exceeds the recovered value of the products, making it economically challenging without government incentives or strong consumer demand.

- efficient reverse logistics requires specialized infrastructure—collection centers, sorting facilities, and recycling plants—which may not exist, especially in developing countries.

- effective reverse logistics requires close coordination between manufacturers, logistics providers, retailers, and recyclers. Achieving smooth integration across different actors in the supply chain is often difficult due to varying goals, lack of communication, and absence of standardized processes.

- many consumers are either unaware of, unwilling to participate in, or unmotivated to return used products. Encouraging responsible consumer participation through incentives or education remains a major challenge.

- most products today are not designed for easy disassembly, repair, or recycling. Poor product design significantly complicates reverse logistics operations, making it harder and more costly to recover value from returned items.

2. Lack of Infrastructure is a sore spot for many countries. Many regions lack the infrastructure for efficient recycling, remanufacturing, or secondary markets, making circular logistics harder to implement.

3. Data and Traceability. Effective circular logistics depends on detailed data about product lifecycles, condition, and location—something many supply chains are not yet equipped to handle.

4. Economic Viability. Reverse logistics often come with high costs and uncertain financial returns, especially in the absence of government incentives or consumer demand.

5. Regulatory and Standardization Barriers. Inconsistent regulations and lack of global standards for reuse and recycling hinder the scalability of circular logistics systems.



Fig.2 Challenges of transport logistics in transition to CE in developing countries

Despite of challenges some opportunities are also available for transport logistics to prospering in CE concept.

1. For transition to CE entrepreneurs will develop new Business Models. Circular logistics enables innovative models like **Product-as-a-Service (PaaS)**, where ownership remains with manufacturers who take responsibility for end-of-life processing. It will influence to enhancing the service quality.

For example, Signify formerly Philips Lighting offers "lighting as a service," handling installation, maintenance, and end-of-life recycling of lighting systems [7].

2. Digitalization and Smart Logistics. Technologies like IoT, blockchain, and AI improve asset tracking, predict returns, optimize routes, and enhance decision-making in circular flows.

Here example, in the automotive industry, parts are tracked using blockchain technology throughout their life cycle, ensuring full transparency and easier end-of-life recovery [8].

3. Green Branding and Consumer Demand. Sustainability-conscious consumers increasingly favor brands with transparent circular practices. Effective logistics can support this positioning and boost customer loyalty. Decreasing the use of plastics in packaging also form positive opinion about brand in consumer mind.

4. Collaboration Across Ecosystems. Circular economy encourages cross-industry collaboration. Logistics providers can partner with recyclers, remanufacturers, and retailers to create integrated systems.

For instance, in the electronics sector, producers, recyclers, and retailers collaborate to extend product lifespans and improve material recovery systems [9].

5. Environmental and Social Benefits Efficient circular logistics reduce waste, emissions, and raw material usage—benefiting the planet and creating local employment opportunities in repair and remanufacturing.

Lenovo shows good example here. Company evaluates its suppliers based on environmental impact, leading to significant reductions in carbon emissions throughout the supply chain [10].

Conclusion.

Transport logistics is a critical pillar in the successful transition from a traditional linear economy to a circular economy. As the economy shifts toward models based on "reduce-reuse-recycle," logistics functions must also evolve from one-way supply chains to closed-loop systems that prioritize resource retention, waste reduction, and environmental sustainability.

This transition is not without its challenges. Complexities in reverse logistics, infrastructural gaps, traceability issues, high operational costs, and inconsistent regulations present significant barriers, particularly in developing countries. However, these challenges are equally matched by a range of opportunities. Circular economy practices foster the development of innovative business models like Product-as-a-Service (PaaS), drive digitalization through IoT, AI, and blockchain technologies, enhance green branding efforts, and encourage cross-sector collaboration. Moreover, they generate substantial environmental and social

benefits, from reducing carbon emissions to creating new employment opportunities in repair, recycling, and remanufacturing sectors.

The key to unlocking these opportunities lies in rethinking and redesigning logistics systems to make them smarter, more flexible, and more integrated. Businesses that invest in sustainable logistics solutions today will not only meet future regulatory demands but will also build resilience, competitiveness, and stronger consumer trust.

Thus, transport logistics is not just a supporter but a catalyst in building a sustainable circular economy. It must be viewed as a strategic enabler that connects environmental, social, and economic objectives into a cohesive and regenerative system.

Transport logistics is not merely a supporting function in the circular economy—it is a driving force. While the transition poses logistical and structural challenges, it also opens doors to innovation, cost savings, and sustainable value creation. Forward-thinking businesses and governments that invest in circular logistics today will be best positioned to thrive in the economy of tomorrow.

This means logistics must become smarter, more flexible, and more connected to sustain resource value over time.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Julian Kirchherr, Denise Reike, Marko Hekkert. Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions // Resources, Conservation & Recycling.- 127 (2017) 221–232 p

2. (European Commission, 2022). https://economy-finance.ec.europa.eu/document/download/43105168-be28-463e-81e7-8242c59f0cd2_en

3. https://oizom.com/most-polluting-industries/#:~:text=Fuel%20%26%20Energy%20Industry%20%2D%2075%25,to%20generate%20heat%20and%20electricity.

4. Małgorzata HORDYŃSKA, Marzena KUCZYŃSKA-CHAŁADA, Teresa LIS. ANALYSIS OF THE IMPLEMENTATION OF CHANGES IN SUPPLY CHAINS TOWARDS A CIRCULAR ECONOMY// SCIENTIFIC PAPERS OF SILESIAN UNIVERSITY OF TECHNOLOGY. ORGANIZATION AND MANAGEMENT SERIES - 2023, NO. 170 http://dx.doi.org/10.29119/1641-3466.2023.170.7 http://managementpapers.polsl.pl/

5. Beames, A., Claassen, G.D.H., Akkerman, R. (2021). Logistics in the Circular Economy: Challenges and Opportunities. In: Rezaei, J. (eds) Strategic Decision Making for Sustainable Management of Industrial Networks. Greening of Industry Networks Studies, vol 8. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-55385-2_1]

6. Korhonen, Jouni & Honkasalo, Antero & Seppälä, Jyri, 2018. "Circular Economy: The Concept and its Limitations," Ecological Economics, Elsevier, vol. 143(C), pages 37-46.

7. https://igps.net/three-real-world-examples-of-a-circular-supply-chain/?

8. https://arkandas.com/blog/blockchain_for_asset_tracking?

MINTAQADA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING TARGETLASH MEXANIZIMLARI.

J.N.Baratov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Baratov Javlon Norjigitovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktoranti
Emai: *javlonbek.baratov97@gmail.com*
Tel: *+99893 992 50 52*

Received: 17 March 2025
Revised: 25 March 2025
Accepted: 16 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kambag‘allik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy iqtisodiy-siyosiy sharoitdagi o‘rni tahlil qilinadi. Kambag‘allik nafaqat daromad yetishmasligi, balki inson salohiyatining to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy cheklovlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Xususan, maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan keyin boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida kambag‘allikni aniqlash, o‘lchash va uni qisqartirishga qaratilgan yondashuvlar, ayniqsa targetlash mexanizmlarining joriy etilishi va ularning amaliy natijalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *kambag‘allik darajasi, ijtimoiy himoya, targetlash mexanizmlari, resurslarni yo‘naltirish, iqtisodiy tengsizlik, mintaqaviy farqlar, mahalliy boshqaruv, ijtimoiy dasturlar, raqamli targetlash, aholi qatlamlari.*

TARGETING MECHANISMS FOR POVERTY REDUCTION IN THE REGION

Abstract: *This article analyzes the essence of the concept of poverty, its historical roots and its place in modern economic and political conditions. Poverty is considered not only as a lack of income, but also as a set of socio-economic constraints that prevent the full manifestation of human potential. In particular, the article examines approaches to identifying, measuring and reducing poverty in the process of socio-economic reforms that began in the Republic of Uzbekistan after 2017, in particular the introduction of targeting mechanisms and their practical results.*

Keywords: *poverty level, social protection, targeting mechanisms, resource allocation, economic inequality, regional differences, local governance, social programs, digital targeting, population groups.*

ЦЕЛЕВЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕГИОНЕ

Аннотация: *В статье анализируется сущность понятия бедности, его исторические корни, а также его место в современных экономических и политических условиях. Бедность рассматривается не только как отсутствие дохода, но и как совокупность социально-экономических ограничений, препятствующих полной реализatsiu человеческого потенциала. В частности, в статье рассматриваются подходы к выявлению, измерению и сокращению бедности в процессе социально-экономических реформ в Республике Узбекистан, начавшихся после 2017 года, особенности внедрения механизмов адресности, а также их практические результаты.*

Ключевые слова: *уровень бедности, социальная защита, механизмы таргетинга, распределение ресурсов, экономическое неравенство, региональные различия, местное управление, социальные программы, цифровое таргетинг.*

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida kambag‘allikni qisqartirish masalasi eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikka erishish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun kambag‘allik darajasini kamaytirish har bir davlatning ustuvor vazifasiga aylangan. Ayniqsa, mintaqaviy darajada kambag‘allikni kamaytirish siyosatini samarali amalga oshirish uchun manzilli (targetlangan) yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Targetlash mexanizmlari yordamida resurslar eng ehtiyojmand qatlamlarga yo‘naltiriladi, bu esa ijtimoiy yordamning samaradorligini oshiradi.

Ushbu ishda kambag‘allikni aniqlash va uni qisqartirishda qo‘llanilayotgan targetlash mexanizmlarining mohiyati, ularning mintaqaviy sharoitga moslashuvi, mavjud muammolar va ularni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shu orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

So‘nggi yillarda mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutlar, aholi bandligidagi nomutanosibliklar va narxlarning o‘sishi fonida kambag‘allik darajasi ayrim hududlarda yanada keskinlashmoqda. Bu esa davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy himoya siyosatining yanada takomillashuvini, xususan, resurslarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yordamga eng muhtoj qatlamlarni aniqlashni talab etadi. Shunday vaziyatda targetlash mexanizmlari — ya’ni manzilli yordam berish usullari asosiy vositaga aylanadi. Targetlash yordamida ijtimoiy resurslar bevosita ehtiyojmand guruhlarga yo‘naltiriladi, bu esa moliyaviy mablag‘larning samarasiz sarflanishining oldini oladi va ijtimoiy adolatni ta’minlaydi.

Targetlashning turli shakllari mavjud bo‘lib, ularga daromadga asoslangan targetlash, geografik targetlash, kategorik yondashuv va o‘z-o‘zini baholashga asoslangan tizimlar kiradi. Har bir yondashuvning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Bularni tahlil qilish va mintaqaviy sharoitga mos keluvchi eng samarali modelni tanlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Qashshoqlik g‘oyasi xar qanday turmush tarzi uchun muxim jixat bo‘lib – jamiyat azolarining bir qismi ushbu jamiyat standartlariga ko‘ra juda kam daromadga ega. Bu daromad darajasining chegarasini anglatadi, bundan kelib chiqib jamiyatning kambag‘al va farovon qismi tovarlarni iste’mol qilish va turmush tarzi nuqtai nazaridan ikki xil dunyoni tashkil qiladi. (dastlabki kapitalistik Angliyada ikki xil irq bor edi – “kambag‘al irq” va “boy irq”).

XVIII-asr mutafakkirlarining qarashlarida daromadni, uni tartibga solish va qashshoqlikni tadqiq qilishning ikki yo‘nalishini ajratish mumkin. Birinchisi, U.Petti, A.Smit, D.Rikardo tomonidan taqdim etilgan, ikkinchisi – T.Maltus, N.Senior, J.B.Say, J.Mill tomonidan asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ilmiy ishda mintaqaviy darajada kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan targetlash (manzilli yordam) mexanizmlarining samaradorligini o‘rganish asosiy maqsad qilib olingan. Tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va

miqdoriy (kvantitativ) yondashuvlar uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanildi. Quyidagi metodlar asosiy tahlil vositasi sifatida tahliliy uslub (analitik yondashuv), statistik tahlil, solishtirma (komparativ) tahlil tanlangan.

Tahlil va natijalar

“Target” so‘zi ingliz tilidan (target) olingan bo‘lib, “maqsad” degan ma’noni anglatadi. Maqsadlilik - bu davlatning ma’lum bir maqsadga bo‘ysundirilgan iqtisodiy, soliq va pul-kredit siyosati tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, bu oxir-oqibatda qashshoqlikni kamaytirishga olib kelishi kerak bo‘lgan meyorlar va amaliyotlar to‘plamidir. Ya’ni, biz aholiga pul tarqatish haqida emas, balki qashshoqlik o‘z-o‘zidan kamayishi uchun shunday sharoitlar yaratish haqida maqolamizda yoritib berishni maqsad qilganmiz.

Biz O‘zbekiston fuqarolariga ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlashlarning maqsadli xususiyatini oshirish orqali ijtimoiy sohaga xarajatlarni oshirishni taklif qilamiz. Buning uchun mahalliy darajada yangi qoidalar va ijtimoiy siyosatni qayta qurish kerak bo‘ladi. Bu yaxshi, lekin yetarli emas – bundan tashqari, strategik yondashuv ham zarur. Avvalo, hech bo‘lmaganda nazariy jihatdan hali ham o‘z o‘ziga yordam berishga qodir bo‘lganlar nazarda tutilmoqda.

Birinchidan, har bir shaxs, yoshi yoki boshqa cheklovlardan qat’i nazar, o‘z biznesini ochishi yoki yangi ishga o‘tish uchun o‘z bilim malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, buning uchun yangi mehnat bozori va moslashuvchan zamonaviy kasbiy ta’lim tizim sharoitini yaratishi kerak.

Ikkinchidan, O‘zbekiston “o‘z biznesini yuritadigan har bir kishi uchun haqiqiy iqtisodiy erkinlik maydoni” bo‘lishi kerak – misol uchun o‘n minglab yangi boshlovchilar, kichik oilaviy biznes yurutuvchilar, fermer xo‘jaliklari va yakka tartibdagi tadbirkorlar kabilardir. “Biz samarali mehnat, sarmoya, tadbirkorlik tashabbusi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishimiz, sun’iy to‘siqlar va asossiz cheklovlarni olib tashlashimiz kerak”. Sodda qilib aytganda odamlarning o‘z vazifalarini institutsional jihatdan osonlashtirib, ularning ambitsiyalarini davlat siyosati orqali qo‘llab-quvvatlash, o‘z daromadlarini topishga undashga chaqiramiz. Yaqinda qonunchilikda “yakka tartibdagi tadbirkorlar” deb nomlanuvchi ishchilar toifasining joriy etilishi bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotning bir qismini soyadan chiqarishga qaratilgan xarakatlardan dalolat beradi.

Uchinchidan, biz qo‘yilgan maqsad sari harakatni davom ettirishimiz kerak – texnologik murakkablikni oshirish, mehnat unumdorligini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan barqaror iqtisodiy o‘sishni taminlashim kerak. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, malakali soliq siyosati bilan bunday sharoitlar o‘z-o‘zidan kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi, chunki mamlakatning boyligi uning aholisi farovonligidan ajralmasdir.

O‘zbekistonda qashshoqlikni qisqartirishning jadal sur’atlarini saqlab qolish kam ta’minlangan uy xo‘jaliklari mahsuldorligini oshirish bo‘yicha hukumatdan qo‘shimcha sa’y-harakatlarni talab qiladi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘al uy xo‘jaliklari bir qator kamchiliklarga ega. Shunday qilib, ularning vakillari ish bilan ta’minlanish ehtimoli kamroq, ko‘pincha ma’lumot darajasi past va qaramligi ko‘p

bo‘lgan axoli tushuniladi. Uy xo‘jaliklari bo‘yicha ushbu o‘lchovlardagi bo‘shliqlarni kamaytirish O‘zbekistonda o‘sib borayotgan tengsizlikni cheklash va qashshoqlikni yanada kamaytirishga qaratilgan sa’y-harakatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston 2024-yil bahorigacha qashshoqlik darajasi bo‘yicha xalqaro miqyosda taqqoslanadigan hisob-kitoblarga ega bo‘lmagan kam sonli davlatlardan biri edi. O‘nlab yillar davomida mamlakat qashshoqlikni dunyoning boshqa mamlakatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslashga imkon bermaydigan tarzda o‘lchadi.

2017-yildan boshlab, mamlakat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika Komissiyasi (OON) Jahon banki tomonidan muvofiqlashtirilgan taqqoslanadigan narxlar ma’lumotlarini ishlab chiqish bo‘yicha global tashabbus – Xalqaro taqqoslash dasturida ishtirok eta boshlaganidan buyon O‘zbekiston kambag‘allikni o‘lchash tizimini har tomonlama qayta ko‘rib chiqish jarayonini boshladi.

Keyinchalik 2021-yilda Jahon banki ko‘magida O‘zbekiston hukumati qashshoqlikni o‘lchashning yangi metodologiyasini joriy qildi va 2026-yilgacha qashshoqlikni ikki baravar kamaytirish bo‘yicha ulkan maqsadni qo‘ydi.

Yangi ma’lumotlar O‘zbekistonda qashshoqlik sezilarli darajada qisqarganini ko‘rsatadi. Jahon banki tomonidan 2024-yilning mart oyida e’lon qilingan global qashshoqlik ko‘rsatkichlarining so‘nggi yangilanishi O‘zbekiston uchun birinchi marta yangi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi va bu mamlakatning qashshoqlikni qisqartirish tarixini global va mintaqaviy kontekstga kiritadi. Jahon banki iqtisodiy rivojlanishning turli darajasidagi mamlakatlarga taalluqli uchta xalqaro qashshoqlik chegarasidan foydalangan holda global qashshoqlikni kuzatadi.

O‘rta daromadi pastroq mamlakat bo‘lgan O‘zbekiston qashshoqlik darajasini (qashshoqlik chegarasidan pastda yashaydigan aholi ulushi) 2022 yilga borib, o‘rtacha daromadi past bo‘lgan mamlakatlar uchun xalqaro qashshoqlik chegarasidan foydalangan holda (odam boshiga kuniga 3,65 AQSh dollari 2017 yil narxlarida xarid qobiliyati pariteti (PPS) bo‘yicha.) o‘lchalganda 5 foizga muvaffaqiyatli pasaytirdi.



1-rasm. Xalqaro standartlar bo‘yicha qashshoqlik darajasi, %.

O‘zbekistonning 2030-yilga kelib o‘rtacha daromaddan yuqori bo‘lgan davlatga aylanish niyatini hisobga olgan holda, o‘rta daromaddan yuqori bo‘lgan mamlakatlar uchun xalqaro qashshoqlik chegarasi (kuniga 6,85 AQSh dollari PPS 2017 ga muvofiq) mamlakatda kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha erishilgan yutuqlarni baholash uchun tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Yangi ma’lumotlar esa qashshoqlikni qisqartirish bo‘yicha sa’y-harakatlarda barqaror o‘sayotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda qashshoqlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar uchun xalqaro qashshoqlik chegarasi bo‘yicha o‘lchanadigan qashshoqlik darajasi 2015-yildagi 36 foizdan 2022-yilda 17 foizgacha keskin pasaydi, pasayish sur’ati Yevropa va Markaziy Osiyoning qolgan qismiga qaraganda tezroqdir. Xuddi shu davrda darajasi 13% dan 8% gacha tushdi.

Uy xo ‘jaliklari daromadlarining o ‘sishi qashshoqlikni kamaytirishga yordam berdi. O‘zbekistonda qashshoqlikning qisqarishiga qanday omillar yordam bergan degan savol bo‘lishi aniq. Buni tushunish uchun biz milliy qashshoqlik chegarasiga qarashimiz kerak, bu mamlakat kontekstidan kelib chiqqan holda farovonlikning aniqroq o‘lchovidir va qashshoqlikni qisqartirish omillarini yaxshiroq tushunish uchun foydalidir.

Ushbu milliy farovonlik standarti yangi, ammo 2021-yildan boshlab O‘zbekistonda qashshoqlik darajasi 2023-yilda 17 foizdan 11 foizga tushdi. Bundan tashqari, qishloq joylarda qashshoqlikning qisqarishi shaharlarga (4 foiz punktga) nisbatan ancha sezilarli (8 foiz punkt) kuzatildi . Bu shuni anglatadiki, bu davrda 1,6 millionga yaqin kishi qashshoqlikdan qutulgan. Bu sur’atda hukumat 2021 va 2026 yillar oralig‘ida qashshoqlik darajasini ikki baravar kamaytirish maqsadiga erisha oladigan ko‘rinadi. Xorijiy davlatlar tajribasidan foydalangan xolda bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirtish bo‘yicha dolzarb bo‘lgan yechimlaridan biri bo‘lgan “infilyatsion targetlash” atamasini yoritib o‘tsak.

Infilyatsion targetlash – bu pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo‘lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo‘llanilmoqda. Inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o‘tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi.

O‘z navbatida, ushbu rejimning qo‘llanilishi narxlar barqarorligini ta’minlash orqali o‘rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o‘sish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo‘llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

Bu rejim o‘zining qabul qilingan standartlari va tartiblariga ega. Masalan, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimidan keng foydalangan holda qaror qabul qilish, suzuvchi valyuta kursidan foydalanish, kommunikatsiyaviy siyosat tamoyillari, valyuta intervensiyasi strategiyasi va boshqalar.

Markaziy bank inflyatsiyaning erishilishi zarur eng mos maqsad (target)ini (masalan, inflyatsiyaning 5

foizli darajasiga erishish) o‘rnatib, ushbu targetni pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalangan holda saqlashi lozim. Narxlar barqarorligini ta’minlash inflyatsion targetlash rejimiga o‘tishda samarali usullardan biri bo‘lib, u o‘z navbatida, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Markaziy bankning bank tizimi va to‘lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta’minlash singari asosiy maqsadlari qatorida turadi. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiy xol nima uchun aksariyat mamlakatlar inflyatsion targetlash rejimini tadbiq etmoqda. Gap shundaki, past darajadagi va progonoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiya mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sish uchun juda zaruriy omil hisoblanadi. Binobarin, inflyatsion kutilma tijorat banklari tomonidan kredit ajratishda undagi foiz stavkasiga qo‘shiladi hamda yuqori inflyatsion kutilma kredit foiz stavkasining yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Shunday qilib, tadbirkorlar qarz mablag ‘(kredit)lardan foydalanganliklari uchun hisoblangan foiz stavkalarining yuqori (yuqori inflyatsiya ta’sirida) bo‘lishi, ularni qaytarish bilan bog‘liq to‘lovlarga ta’sir qiladi. Agar foiz stavkalari (kredit uchun hisoblangan) yuqori bo‘lsa, tadbirkorlar kamroq kredit oladilar. Bu esa ularning investitsiyaviy qobiliyatiga ta’sir etgan holda, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir qiladi. Zero, biz bugun kiritayotgan investitsiyalar - ertangi kunda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish manbalarini yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mintaqada kambag‘allikni qisqartirishda qo‘llanilayotgan targetlash (aniqlik bilan yo‘naltirish) mexanizmlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud tizimlar muayyan darajada samaradorlik ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, ularning to‘liq salohiyatidan foydalanilmayapti. Targetlash mexanizmlari — ya’ni yordam va resurslarni aynan kambag‘allik xavfi yuqori bo‘lgan qatlamlarga yo‘naltirish vositalari — ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, targetlash mexanizmlarini mukammallashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda islohotlar zarur:

Raqamlashtirishni kuchaytirish – yagona elektron axborot tizimini yaratish orqali ma’lumotlarning aniqligini oshirish;

Monitoring va tahlil tizimini kuchaytirish – yordam oluvchilarning holatini doimiy kuzatib borish va tizimni real vaqtda sozlab borish;

Mahalliy boshqaruv organlarining salohiyatini oshirish – ular orqali aniqlik bilan maqsadli qatlamlarga yetib borish.

Xulosa

Kambag‘allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlari (ya'ni yordamni aynan ehtiyojmand aholiga yo‘naltirish) juda muhim rol o‘ynaydi. Bu usullar orqali resurslar samarali taqsimlanib, haqiqatan yordamga muhtoj qatlamlarga yordam yetkaziladi. Mintaqaviy darajada targetlash quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

– geografik targetlash – kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlash.

– ma'lumotga asoslangan baholash – aholi daromadi, bandlik holati, ta'lim darajasi kabi ko‘rsatkichlarga tayanish.

– ijtimoiy registrlar (yoki “yagona reyestr”) orqali maqsadli guruhlarni aniq aniqlash.

– mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlik – aholining ijtimoiy holatini joyida tahlil qilishda samarali.

Shu bilan birga, targetlash mexanizmlarining to‘g‘ri ishlamasligi yoki korrupsiya, ma'lumotlar yetishmovchiligi, noto‘g‘ri baholash kabi muammolar mavjud bo‘lishi mumkin.

Mintaqada kambag‘allikni qisqartirishning targetlash mexanizimlari bo‘yicha quyidagi takliflarni keltirib o‘tamiz:

Ma'lumotlar bazasini yangilash va raqamlashtirish:

- yagona ijtimoiy reyestrni shakllantirish va muntazam yangilab borish.
- sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali ma'lumotlarni tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish.

Mahalliy darajadagi monitoringni kuchaytirish:

- mahalla va tuman darajasida ehtiyojmand oilalarni aniqlovchi komissiyalarni mustahkamlash.
- aholi bilan bevosita muloqotda bo‘lish orqali real ehtiyojlarni aniqlash.

Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish:

- targetlash jarayonini ochiq platformalarda e'lon qilish.
- nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatini jarayonga jalb etish.

Dinamika va moslashuvchanlik:

- kambag‘allik holati tez-tez o‘zgarishi mumkinligi sababli mexanizmlarni moslashtirish imkoniyati bo‘lishi kerak.
- vaqtinchalik yordam (masalan, pandemiya paytidagi) uchun tezkor targetlash tizimlarini ishlab chiqish.

Trening va salohiyatni oshirish:

- hududiy ijtimoiy himoya mutaxassislariga targetlash metodologiyasi bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI::

1. Xusainov G‘.L., Sayitkulova P.I. “Mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish masalalari”. Iqtisodiyot va ta’lim. №1, 2018. 93-96 betlar.

2. Mustafaqulov Sherzod Igamberdievich TDIU “Universitet 3.0” xalqaro o‘quv va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar markazi direktori, i.f.d. E-mail: sh.mustafakulov@tsue.uz

3. Abdurahmonov Q.H, Xolmo‘minov Sh.R. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. Toshkent - 2004 yil.

4. O‘lmasov A. “Iqtisodiyot asoslari”. T.: Mehnat - 1997 yil.

5. https://blogs.worldbank.org/ru/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i

6. https://www.rbc.ru/finances/18/01/2016/569c94b69a79475464c4e540

7. https://cdkn.org/2013/06/report-warmer-world-will-keep-millions-of-people-trapped-in-poverty/?loclang=en_gb

KICHIK VA O‘RTA TURISTIK KOMPANIYALAR UCHUN BRENDNI YARATISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

B.B.Bakhodirov, T.S.Nuriddinov

Toshkent axborot va texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Bunyod BakhodirovBaxtiyorovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot va texnologiyalari universiteti Samarqand filiali assistenti
Email: *bunyodxon701@gmail.com*
Tel: *+998995904242*

Nuriddinov Tohir Salohiddin o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot va texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 4-bosqich talabasi.
Email: *tnuriddinov77@gmail.com*
Tel: *+998 949070418*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 16 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik va o‘rta turistik kompaniyalar uchun brend yaratish va rivojlantirishning ahamiyati, istiqbollari hamda mavjud qiyinchiliklari batafsil tahlil qilindi. Turizm sohasi doirasida kichik va o‘rta kompaniyalar uchun brendning muvaffaqiyatli tashkil etilishi raqobatbardoshlikni oshirish va bozorda mustahkam o‘rin egallash uchun zarurdir. Maqolada brendning raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli, marketing strategiyalarining samaradorligi, shuningdek, resurslar cheklangan sharoitlarda yuzaga keladigan muammolar, masalan, moliyaviy va inson resurslari cheklovlari hamda ularni hal qilish uchun takliflar va tavsiyalar ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kichik va o‘rta biznes, turistik kompaniyalar, brend yaratish, brend rivojlantirish, marketing strategiyasi, innovatsion yondashuvlar, raqobatbardoshlik, turizm bozori, resurslar cheklovi.*

PROSPECTS FOR BRAND CREATION AND DEVELOPMENT FOR SMALL AND MEDIUM TOURIST COMPANIES.

Annotation: *This article provides a detailed analysis of the importance, prospects, and challenges of creating and developing a brand for small and medium-sized tourism companies. In the tourism sector, the successful establishment of a brand for small and medium-sized companies is essential for increasing competitiveness and securing a strong position in the market. The article discusses the role of branding in enhancing competitiveness, the effectiveness of marketing strategies, as well as the issues arising from limited resources, such as financial and human resource constraints, and offers suggestions and recommendations for overcoming these challenges.*

Keywords: *Small and medium-sized businesses, tourism companies, brand creation, brand development, marketing strategy, innovative approaches, competitiveness, tourism market, resource constraints.*

ПЕРСПЕКТИВЫ СОЗДАНИЯ И РАЗВИТИЯ БРЕНДА МАЛЫХ И СРЕДНИХ ТУРИСТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ.

Аннотация: *В статье подробно анализируются важность, перспективы и проблемы создания и развития бренда для малых и средних туристических компаний. В туристической отрасли успешное создание бренда для малых и средних компаний необходимо для повышения конкурентоспособности и закрепления прочных позиций на рынке. В статье рассматриваются роль бренда в повышении конкурентоспособности, эффективность маркетинговых стратегий, а также проблемы, возникающие при ограниченных ресурсах, таких как финансовые и человеческие ресурсы, и предлагаются предложения и рекомендации по их преодолению.*

Ключевые слова: *Малый и средний бизнес, туристические компании, создание бренда, развитие бренда, маркетинговая стратегия, инновационные подходы, конкурентоспособность, туристический рынок, ограниченность ресурсов.*

Kirish (Introduction)

Bugungi davrda turizm iqtisodiyotning muhim sektorlaridan biri hisoblanib , mamlakatga xorijiy valyuta keltirish , ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi . U infratuzilmani rivojlantirish, mintaqaviy iqtisodiyotni faolllashtirish va ichki ishlab chiqarishni qo‘llab – quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek , turizm madaniy almashinuvni kuchaytirib , milliy iqtisodiyotdagi o‘sishga sezirarli hissa qo‘shadi .

Zamonaviy turizm bozorida esa raqobatdoshlikni ta’minlash uchun o‘z brendini yaratish va uni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Brend - bu kompaniya nomi, slogani, logosi, ranglari, simvollari, stili va boshqa vizual atributlari hisoblanadi. Brendni ishlab chiqishdan asosiy maqsad, doimiy mijozlarga ega bo‘lish, bozorda sezilarli farqni va qiymatni hosil qilish hisoblanadi. To‘g‘ri brend yarata olish barcha sohalarda bo‘lganidek kichik va o‘rta turistik kompaniyalarda ham dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Kichik va o‘rta turistik kompaniyalarda brend yaratish va uni rivojlantirish istiqbollari to‘g‘risida olimlarning tadqiqotlari natijasida yozilgan asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Philip Kotlerning *"Marketing for Hospitality and Tourism"* (1996) asari turizm va mehmondo‘stlik sohasida marketing strategiyalariga bag‘ishlangan. Kevin Lane Keller esa *"Strategic Brand Management"* (1998) asarida brendni yaratish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini bayon etadi.

John Swarbrooke *"Sustainable Tourism Management"* (1999) kitobida turizmni barqaror rivojlantirish yondashuvlarini yoritgan bo‘lsa, Nigel Morgan va Annette Pritchard *"Destination Branding: Creating the Unique Proposition"* (2002) asarida turistik joylarning o‘ziga xos brendini yaratish bo‘yicha innovatsion g‘oyalarni taklif qiladilar. Simon Anholtning *"Competitive Identity"* (2007) asari esa milliy va hududiy brendlarni boshqarish strategiyalariga bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodalogiyasi(Research Methodology)

Tadqiqot jarayonida kichik va o‘rta turistik kompaniyalar uchun brend yaratish va rivojlantirish jarayonlari sifatli va miqdoriy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida birlamchi ma’lumotlar (intervyular va so‘rovnomalar) va ikkilamchi manbalar (ilmiy maqolalar va hisobotlar) asosida kompaniyalar faoliyati tahlil qilindi. Tavsifiy va tahliliy dizayn yondashuvlari qo‘llanilib, brend strategiyalarining samaradorligi va mijozlarning qaror qabul qilish jarayonlariga ta’siri o‘rganildi. Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun statistik dasturlar (SPSS, Excel) va tematik tahlil usullari qo‘llanildi.

Bunda tahlil jarayonlari xalqaro turizm sohasini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan tashkilotlar va shartnomalar: *“Global Code of Ethics for Tourism”* (1999), *European Tourism Manifesto for Growth and Jobs* (2016), *OECD Tourism Trends and Policies* (2022), Paris Agreement (2015)ning tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirildi.

Taxlil va natijalar (Analysis an results)

Brend va’dasi, farqlash, shaxsiyat va imidj iste’molchilarning o‘tmish tajribasiga, shuningdek, onlayn va oflayn

aloqa vositalari o‘rtasida mos kelishi kerak. Brendni doimiy ravishda etkazish uchun brending strategiyasi vaqt o‘tishi bilan barqaror darajadagi qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi, bu brend strategiyasining izchilligi deb nomlanadi.(Berthon va boshq., 2008). Barqarorlik - bu brendning vaqt o‘tishi bilan doimiy ravishda yetkazilishini ta'minlash jarayoni bo‘lib, brend aloqalarining samaradorligini oshirish kabi ko‘plab afzalliklarni keltiradi. Kichik va o‘rta turistik kompaniyalarining brend yaratish va rivojlantirish istiqbollarini keng ko‘lamda tahlil qilish maqsadida avvalo korxonlarning brend yartish tahliliga asoslanamiz.

Yangi korxonalarning (NV-new ventures) muvaffaqiyatsizlik darajasi yuqori, ularning 40% ga yaqini birinchi yilida va 10 yil ichida 90% gacha muvaffaqiyatsizlikka uchraydi Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, dastlabki sotuvlarni jalb qilish, bozor ulushini ta'minlash va kuchli brend identifikatorini o‘rnatish qobiliyatsizligi yuqori muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan asosiy omillardir. Sanoat hisobotlari shuni ko‘rsatadiki, NV menejerlarining qariyb 70 foizi o‘zlarining eng muhim marketing muammosi NV brendini yaratishdir (Cox, 2022), Brendlash jiddiy muammo sifatida tan olinishiga qaramay, uning ahamiyati qulay obro‘-e'tiborni rivojlantirish va mijozlarni jalb qilish va ushlab turishga yordam berishdan iborat. Ijobiy brend imidjini erta shakllantirish, shuningdek, NVlarga qulay brend idrokini yaratish orqali qonuniylik muammolarini yengishga yordam beradi. tan olingan afzalliklarga qaramay, brend ko‘pincha faqat yirik, yaxshi tashkil etilgan korxonalarga tegishli deb qabul qilinadi. Mavjud tadqiqotlar NVlarda brendingga oydinlik kiritgan bo‘lsa-da, NV brendining imidjini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar va NV brendining imidjining erta sotuvlar va bozor ulushi o‘sishiga yordam beradigan darajada cheklangan adabiyotlar mavjud.

Umumiy konsensus shundan iboratki, muvaffaqiyatli brending kaliti kompaniyaning marketing strategiyasida yotadi. Shunga qaramay, NV kontekstida ularning marketing strategiyalari bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ular tadbirkorlik marketingi (EM - entrepreneurial marketing) deb ataladigan alohida yondashuvni qo‘llaydilar. (Stokes , 2000). Ushbu adabiyot NVlarning o‘ziga xos qobiliyatlarini, jumladan, innovatsionlik, faollik va tavakkalchilikka moyilligini tan oladi, ular birgalikda tadbirkorlik yo‘nalishi (EO - entrepreneurial orientation) deb ataladi. Bundan tashqari, NVlar bozorga yo‘naltirilganligi (MO - market orientation) bilan bog'liq bo‘lgan marketing imkoniyatlarini namoyish etadi, masalan: bozor ma'lumotlarini yaratish va tarqatish, mijozlarning yaqinligi va sezgirligi. Ushbu yondashuv EM tabiatini haddan tashqari soddalashtiradi va EO va MO o‘rtasidagi sinergiyadan foydalanishning mumkin bo‘lgan afzalliklarini e'tiborsiz qoldiradi. Chunki adabiyotlar bir yo‘nalishga (masalan, EO) boshqasi (masalan, MO) hisobidan urg'u berish NVlar uchun samarasiz natijalarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Hatto EMni EO va MO ning o‘zaro ta'siri sifatida o‘rganadigan tadqiqotlarda ham (masalan, Ahmadi va O‘Cass, 2016; Crick va boshq., 2021), EO va MO o‘rtasidagi izchillik yoki muvozanat darajasidan kelib chiqadigan qo‘shimcha imtiyozlar umuman e'tibordan chetda

qolmoqda. Bu tadbirkorlar EO va MO imkoniyatlarini qanday konfiguratsiya qilayotgani va bunday konfiguratsiyalar optimal natijalarga erishish uchun platformani qanchalik taqdim etishini tushuntirib bo‘lmaydi.

Ushbu tahlilar asosida kichik va o‘rta turistiz kompaniyalarning brend yaratish va rivojlantirishdagi tajribalar quyidagilardir:

Maqsadli auditoriyani aniqlash: Mijozlarning talablarini o‘rganish va ularga mos xizmatlarni taklif etish brendni muvaffaqiyatli yaratishning muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan.

Brend identifikatsiyasi: Jozibador logotip, shior va vizual komponentlar yaratilib, kompaniyaning farqlanuvchanligi ta’minlangan. Mahalliy madaniyat va qadriyatlarga asoslangan yondashuv mijozlar e’tiborini jalb qilgan.

Raqamli marketing strategiyalari: Ijtimoiy tarmoqlar, SEO va kontent marketing brendni global miqyosda tanitishda samarali usul sifatida qo‘llanilgan.

Hamkorlik va innovatsiyalar: Paketli xizmatlar, virtual ekskursiyalar va mikro-influencerlarni jalb qilish orqali xizmatlar boyitilgan va mijozlar ishonchi ortgan.

Ushbu yondashuvlar kompaniyalarga raqobatda ustunlikni qo‘lga kiritish, brend tan olinuvchanligini oshirish va mijozlar bazasini kengaytirishda yordam bergan. Qiyinchiliklar resurs cheklovlari va raqobatning yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, innovatsion va moslashuvchan strategiyalar orqali muammolar samarali hal qilindi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations)

Kichik va o‘rta turistik kompaniyalar uchun brend yaratish va rivojlantirish bozor talablariga moslashish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim tarkibiy qismidir. Shu vaqtgacha olingan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, brendni samarali boshqarish maqsadli auditoriyani aniqlash, mijoz ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish va raqamli marketing vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Kompaniyalar mahalliy madaniyatni aks ettiruvchi elementlarni brendga singdirish orqali mijozlar e’tiborini jalb qilgan. Raqamli platformalardagi faoliyat, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va kontent marketing, yangi mijozlarni jalb qilishda va xizmatlarni kengroq auditoriyaga yetkazishda muhim rol o‘ynagan. Innovatsiyalarni qo‘llash va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash kompaniyalar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratgan.

- Mahalliy va xalqaro bozor talablari asosida maxsus ekskursiyalar, ekologik turizm, va gastronomik sayohatlar kabi xizmatlarni rivojlantirish kerak.
- Virtual va kengaytirilgan reallik xizmatlari orqali sayohat oldidan mijozlar uchun tajribaviy tanishuvni taqdim etish. Bu ularda qiziqish uyg‘otadi va ishonchni oshiradi.
- TikTok, Instagram va YouTube kabi platformalarda faol targ‘ibot olib borish, maxsus reklama kampaniyalari va maqsadli auditoriya uchun jozibador kontent yaratish muhim.
- Mijozlar tomonidan bildirilgan fikrlar va takliflarni o‘rganib, xizmatlarni uzluksiz yaxshilash mexanizmini yo‘lga qo‘yish.
- Mahalliy mehmonxonalar, restoranlar va transport xizmatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash. Xalqaro turistik agentliklar bilan aloqalarni

kengaytirish orqali global bozorga chiqish.

- Turistik xizmatlarni targ‘ib qilish va yangi hamkorlik imkoniyatlarini topish uchun xalqaro ko‘rgazmalarga faol qatnashish lozim.

Ushbu takliflarni amalga oshirish kichik va o‘rta turistik kompaniyalar uchun barqaror o‘sishni ta’minlash, mijozlar bazasini kengaytirish va ularning uzoq muddatli sodiqligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion va moslashuvchan strategiyalar raqobatda ustunlikni qo‘lga kiritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Building Strong Brands” David A. Aaker.
2. “How to Bridge the Distance Between Business Strategy and Design” Marty Neumeier.
3. “Marketing for Hospitality and Tourism” Philip Kotler, John Bowen, James Makens.
4. "Strategic Brand Management" Kevin Lane Keller.
5. "Small and Medium Enterprises in the Tourism Industry: A Focus on Branding" Journal of Travel Research.
6. "Digital Branding for Tourism Businesses" Journal of Destination Marketing & Management
7. Bakhodirov B. Improving the market of insurance services through digital technologies //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 06. – C. 80-86.

Internet saytlari

8. World Tourism Organization (UNWTO) www.unwto.org
9. Tourism SME Toolkit www.smetoolkit.org
10. Harvard Business Review – Branding Articles www.hbr.org

O‘ZBEKISTONDA INDUSTRIAL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNI AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA’MINLASHGA TA’SIRI.

O.N.Xaitov ,Sh.Z.Rashidov

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali dotsenti.
Email: *xaitovoxunjon@samdukf.uz*
Tel: *+998993375995*

Rashidov Shoxrux Zohid o‘g‘li
Oriental universitetining magistranti
Email: *shoxrux.rashidov.2024@mail.ru*
Tel: *+998942452515*

Received: 11 March 2025
Revised: 24 March 2025
Accepted: 26 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Industrial iqtisodiyotni rivojlantirish orqali murakkab ushbu vazifalarni bozor talablari nuqtai nazaridan kelib chiqib, aholini ish bilan bandligini ta’minlash, uning asosiy turlari va shakllari, ish bilan bandlikning o‘ziga xos xususiyatlari, beqaror ish bilan bandlikning ulkan imkoniyatlari va uni muammolarini bartaraf etish, O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlanish holati tahlili, aholini ish bilan bandligi tahlili, davlat va xususiy tuzilmalar sherikligining o‘rni, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lmagan aholining ish bilan bandligi ta’minlash va oqilona ish bilan bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishning zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.*

Kalit so‘zlar: *Aholini ish bilan badligini ta’minlash, YaIMning hajmi, xususiy tadbirkorlik, aholi daromadlari, tashqi savdo, kambag‘allikni qisqartirish.*

РАЗВИТИЕ ИНДУСТРИАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. *Необходимость теоретического и практического анализа основных направлений совершенствования системы обеспечения занятости населения и обеспечения разумной занятости населения, исходя из требований рынка через развитие индустриальной экономики, ее основных видов и форм, особенностей занятости, огромных возможностей нестабильной занятости и устранения ее проблем, анализа состояния развития экономики Узбекистана, анализа занятости населения, роли партнерства государственных и частных структур, необходимости обеспечения занятости населения, неконкурентоспособного на рынке труда, и рациональной занятости, определяет актуальность темы исследования.*

Ключевые слова: *Занятость населения, размер ВВП, частное предпринимательство, доходы населения, внешняя торговля, сокращение бедности.****DEVELOPMENT OF THE INDUSTRIAL ECONOMY IN UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON EMPLOYMENT OF THE POPULATION***

Annotation: *The need to theoretically and practically analyze the main directions of improving the system of ensuring employment of the population and ensuring reasonable employment of the population, based on the requirements of the market through the development of the industrial economy, its main types and forms, the specific features of employment, the huge opportunities for unstable employment and eliminating its problems, the analysis of the state of development of the economy of Uzbekistan, the analysis of employment of the population, the role of partnership between state and private structures, the need to provide employment of the population that is not competitive in the labor market and rational employment, determines the relevance of the research topic.*

Keywords: *Employment of the population, GDP size, private entrepreneurship, population income, foreign trade, poverty reduction.*

2023-yil O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tub burilish nuqtasi bo‘lib, yil davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida amalga oshirilgan jiddiy o‘zgarishlar yangi shart-sharoitlarga mos siyosatni yuritish va uni sifat jihatdan takomillashtirishni hamda bu yo‘nalishda aniq belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etdi va bunga imkoniyat yaratdi.



2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi YaIMning hajmi, mlrd.so‘m

2023-yil davomida mamlakatimiz iqtisodiyoti makroiqtisodiy siyosat shaffofligining oshishi asosida investitsion faollikning kengayishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhiti va tashqi savdo sharoitlarining yaxshilanib borishi, kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini ish bilan badligini ta’minlash, raqobatbardosh bo‘lmagan aholi qatlamlarini ishga jalb etish kabi omillar hisobiga 2022-yilga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda o‘sish darajasiga erishildi.



2.2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaIM tarkibi, % da

Mamlakatimizda YaIM tarkibida xizmatlar 43,4 foizni, sanoat 26,1 foizni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 24,3 foizni va qurilish 6,2 foizni tashkil etadi (2.2-rasm).

2023-yilda O‘zbekistonda aholi jon boshiga YaIM 28,98 mln. so‘mni yoki 2468 dollar ekvivalentiga teng bo‘ldi. 2023-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda YaIM hajmi 1066,57 trln. so‘mni yoki 90,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2022 yilga (80,4 mlrd. dollar) nisbatan 12,9 foizga o‘sgan. Aholi jon boshiga YaIM esa 2022-yilga nisbatan 6,0 foizga o‘sgan.

2023 yilda YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sishi quyidagicha qayd etildi: doimiy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, o‘tgan yil narxlarida – 4,8 %, tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati – 5,9 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 4,1 %, sanoat – 6,0 %, qurilish – 6,4 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 11,6 %, tashish va saqlash, axborot hamda aloqa – 16,7 %, boshqa xizmat tarmoqlari – 4,9 %, mahsulotlarga sof soliqlar – 7,4 % (2.1-jadval).

2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining YaIM o‘sish hajmi, (oldingi yilga nisbatan o‘sish), %da

Ko‘rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Doimiy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, o‘tgan yil narxlarida, foiz hisobida	105,7	101,9	107,4	105,6	104,8
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	106,1	102,0	107,6	106,3	105,9
Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi	103,1	102,9	104,0	103,6	104,1
Sanoat	105,0	100,9	108,8	105,3	106,0
Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	99,4	78,0	110,8	101,9	101,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	106,6	107,9	108,3	105,4	106,7
Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash	105,1	106,8	111,8	113,5	109,7
Suv bilan ta`minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish	102,2	99,1	85,8	94,7	101,0
Qurilish	122,9	109,5	106,8	106,6	106,4
Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	107,2	101,3	113,0	113,0	113,0
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta`mirlash	107,1	103,7	112,5	110,6	108,9

Yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	107,7	78,8	132,1	121,5	112,3
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	106,6	99,9	117,2	115,4	116,7
Tashish va saqlash	106,1	93,8	114,7	109,5	108,0
Axborot va aloqa	108,3	124,3	127,3	127,9	124,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko`rsatish	105,4	100,9	105,9	104,3	104,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	104,7	101,6	104,6	97,7	107,4

O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2023-yil holatiga 36,9 mln. kishini tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2,9 mln. kishiga yoki 8,5 %ga o‘sgan. Shundan, mamlakatda 18,3 mln. kishi ayollarni tashkil etib, 18,5 mln.kishi erkaklar hisoblanadi hamda 2019-yilga nisbatan 2023-yilda ayollarning salmog‘i 8,4 %, erkaklarning miqdori 8,7 %ga o‘sishi kuzatildi. Jadval ma’lumotlariga e’tibor qilinsa, mamlakat aholisining 2023-yil holatiga 49,7 foiz ayollar hamda 50,3 foizi erkaklarni tashkil etgan (2.2-jadval).

2.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni (*ming kishi*)

Ko‘rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-yil 2019-yilga nisbata, %da
Jami	**33905,2**	**34558,9**	**35271,3**	**36372,3**	**36799,8**	**108,5**
ayollar	16859,9	17180,5	17527,1	18066,0	18274,8	108,4
erkaklar	17045,3	17378,4	17744.2	18306,3	18525,0	108,7
Shahar aholisi	**17144,1**	**17510,4**	**17874,1**	**18557,5**	**18768,5**	**109,5**
ayollar	8561,2	8741,1	9056,2	9315,9	9361,3	109,3
erkaklar	8582,9	8769,3	8817,9	9241,6	9407,2	109,6
Qishloq aholisi	**16761,1**	**17048,5**	**17397,2**	**17814,8**	**18031,3**	**107,6**
ayollar	8298,7	8439,4	8537,2	8943,0	9117,8	109,9
erkaklar	8462,4	8609,1	8860,4	8871,8	8913,5	105,3

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil shahar joylarda – 18,8 mln. kishi hamda qishloq joylarda – 18,0 mln. kishi istiqomat qiladi. 2019-2023 yillarda shahar aholisi 9,5 %ga, qishloq aholisi esa 7,6 %ga o‘sishi kuzatildi.

O‘zbekistonda so‘nggi ikki yil ichida aholining munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlash bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, aholi daromadlarining ortishi natijasida ichki iste’mol talabi kengayib borayotgani, pullik xizmatlar hajmi o‘sgani, fuqarolarning uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta’minlanish darajasida ham sifat o‘zgarishlari ro‘y bergani e’tiborga molik.

O‘zbekiston Respublikasida aholining umumiy daromadlari yildan yilga o‘sib bormoqda. Xususan, 2023-yilda aholining umumiy daromadlari 728826,1 mlrd.so‘m tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 99,4 foizga, 2022-yilga nisbatan esa 15,0 foizga o‘sgan.

Bizga ma'lumki, aholi jon boshiga daromadlari aholining jami umumiy daromadlarini doimiy aholining o'rtacha yillik soniga bo'lish orqali hisoblanadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatimizda aholi jon boshiga umumiy daromadlari 20015,9 ming so'mni, 2022-yilga nisbatan 12,6 foizga ortgan. Shuningdek, aholining real umumiy daromadlari 2023-yilda 662749,9 mlrd.so'mga, 2019-yilga nisbatan 2,0 marta, 2022-yilga solishtirilganda 4,9 foizga, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 18201,2 ming so'mga, 2019-yilga nisbatan 91,5 foizga yoki 2022-yilga nisbatan 2,4 foizga ko'p bo'lgan (2.3-jadval).

2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari to'g'risida ma'lumot

Ko'rsatkichlar nomi	**2019-y.**	**2020-y.**	**2021-y.**	**2022-y.**	**2023-y.**	**2023-yil 2019-yilga nisbatan, %da**
Aholi umumiy daromadlari, mlrd.so'm	**365598,3**	**414968,7**	**519181,4**	**633567,4**	**728826,1**	**199,4**
o'tgan yilga nisbatan, % da	121,6	113,5	125,1	122,0	115,0	-
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm	**10887,3**	**12122,2**	**14869,8**	**17772,8**	**20015,9**	**183,8**
o'tgan yilga nisbatan, % da	119,3	111,3	122,7	119,5	112,6	-
Aholi real umumiy daromadlari, mlrd.so'm	**319216,2**	**367456,6**	**468448,4**	**568527,8**	**662749,9**	**2,0 marta**
o'tgan yilga nisbatan, % da	106,2	100,5	112,9	109,5	104,6	-
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm	**9506,0**	**10734,3**	**13416,8**	**15948,3**	**18201,2**	**191,5**
o'tgan yilga nisbatan, % da	104,2	98,6	110,7	107,3	102,4	-

2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda o'rtacha oylik maosh 4,55 mln. so'mga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga (3,42 mln. so'm) nisbatan 17,2 foizga o'sgan. Yil davomida ish haqi muntazam o'sishiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga ikki marotaba o'zgartirish

kiritilib, 1,05 ming so‘mga etkazilgani asosiy sabablardan bo‘lgani aytildi.

Hududlar kesimida sanoat va qurilish sohalarida oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahri va Navoiy viloyatida qayd etilgan. Ushbu viloyatda sanoat sohasida o‘rtacha maosh qariyb 7,2 mln so‘mni, qurilish sohasida esa 5,7 mln. so‘mni tashkil etgan. Sanoat sohasida eng past ko‘rsatkich esa Namangan viloyatida (3,3 mln.) so‘m qayd etilgan. Qurilish sohasida esa Qashqadaryoda eng quyi ko‘rsatkich - 3,2 mln. so‘mga teng bo‘ldi. Sanoatda o‘rtacha maoshlarning viloyatlar kesimida tengsizligi o‘tgan yilga nisbatan ortgan. Jumladan, sohada eng yuqori va eng quyi maosh o‘rtasidagi farq 4,0 mln so‘m bo‘lib, tengsizlik 2022 yilga nisbatan (2022 yilda farq qariyb 2,7 mln so‘m) 18,1 foizga oshgan.

Qolgan barcha sohalarda esa yillik o‘rtacha maoshning eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida qayd etilgan. Xususan, savdo sohasida poytaxtdagi maoshlar (o‘rtacha 4,4 mln. so‘m) respublikadagi o‘rtacha maoshdan yuqoriroq bo‘lgan. Boshqa hududlarda esa maoshlar respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichidan past bo‘lgan.

Ta’limda o‘rtacha maoshlar respublika ko‘rsatkichidan qariyb 33,3% (sohadagi o‘rtacha maosh 3,0 mln. so‘m), sog‘liqni saqlashda esa 35,5% (2,9 mln. so‘m) kamroqni tashkil etgan. O‘tgan yili bu ko‘rsatkichlar biroz yuqoriroq, mos ravishda 25,8% va 32,2% edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-78201.html
3. Safarova N.N. Milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta’sirini prognozlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent 2018 y. -19-21 b.
4. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.
5. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // Diss. PhD. – T.: TDTU, 2021. 13-14-b.
6. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.
7. https://lex.uz/docs/6102462

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISHDA ISTIQBOLLI LOYIHALARNING O‘RNI.

D.A.Ikramova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Ikramova Dilnoza Abduraxmanovna
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi assistenti
Email:dilnozaikromova1001@gmail.com
Tel:+998979281115

Received: 17 March 2025
Revised: 26 March 2025
Accepted: 12 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tahlil qilinadi. Ekoturizm, ziyorat turizmi, agroturizm va shahar turizmi kabi yo‘nalishlarda olib borilayotgan yirik tashabbuslar ko‘rib chiqilib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda rasmiy ma’lumotlar, davlat dasturlari va investitsion loyihalar asosida tahliliy yondashuv qo‘llanilgan. Xulosa sifatida, turizm sohasidagi loyihalarning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm, istiqbolli loyihalar, ekoturizm, investitsiya, infratuzilma.*

РОЛЬ ПЕРСПЕКТИВНЫХ ПРОЕКТОВ В УСКОРЕННОМ РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОГО СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются перспективные проекты, реализуемые в туристической сфере Республики Узбекистан. Анализируются крупные инициативы в направлениях экотуризма, паломнического, агротуризма и городского туризма, а также их экономическое и социальное значение. В исследовании использован аналитический подход на основе официальных данных, государственных программ и инвестиционных проектов. В заключении выявлены факторы, препятствующие устойчивому развитию туризма, и предложены рекомендации по их устранению.*

Ключевые слова: *туризм, перспективные проекты, экотуризм, инвестиции, инфраструктура.*

THE ROLE OF PROMISING PROJECTS IN THE RAPID DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN.

Annotation: *This article analyzes promising projects being implemented in the tourism sector of the Republic of Uzbekistan. Major initiatives in areas such as ecotourism, pilgrimage tourism, agritourism, and urban tourism are examined, highlighting their economic and social significance. The study applies an analytical approach based on official data, state programs, and investment projects. The conclusion identifies factors hindering sustainable development in tourism and proposes recommendations to address them.*

Key words: *tourism, promising projects, ecotourism, investment, infrastructure.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida turizm sohasi dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayonda O‘zbekiston ham o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob tabiiy resurslari va mehmondo‘st xalqi bilan xalqaro turizm bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biriga aylantirish maqsadida bir qator davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar ushbu sohani jadallik bilan rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, “Silk Road Samarkand” majmuasining ishga tushirilishi, “Open Sky” (Ochiq osmon) siyosatining joriy qilinishi, ekoturizm va ziyorat turizmi yo‘nalishidagi klasterlar tashkil etilishi O‘zbekistonda turizm xizmatlarining sifati va turlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.[4] Bunday loyihalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi, balki mahalliy aholi bandligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, xalqaro imidjni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan istiqbolli turizm loyihalari tahlil qilinib, ularning milliy turizm sohasini jadal rivojlantirishdagi o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritiladi**.**

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston turizm sohasining rivojlanishi bo‘yicha ilmiy va amaliy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Mamlakatdagi mavjud turizm salohiyatini ochib berish, istiqbolli loyihalarni samarali rejalashtirish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan taqdim etilgan global hisobotlarda O‘zbekistonning turistik imkoniyatlari va mintaqadagi strategik ahamiyati qayd etilgan.[5] Ushbu manbalarda, ayniqsa, Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan tarixiy shaharlar — Samarqand, Buxoro va Xivaning xalqaro sayyohlar uchun jozibadorligi ta’kidlangan. Shuningdek, ekologik barqarorlik va madaniy merosni asrash bilan bog‘liq turizm loyihalari dolzarb mavzular sifatida tilga olinadi.

Milliy adabiyotlarda esa, masalan, A.X. Qurbonov, D.A. Shamsiyev, G‘.A. Ergashev kabi olimlarning ishlarida O‘zbekiston turizm infratuzilmasining rivojlanish yo‘nalishlari, marketing strategiyalari va zamonaviy turizm turlarini rivojlantirish zarurati keng yoritilgan.[6] Ayniqsa, “O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi – 2030” davlat dasturi doirasidagi loyihalarning ilmiy asoslangan tahlili e’tiborga loyiq.[2] Bundan tashqari, Silk Road Samarkand, Tashkent City kabi yirik investitsion loyihalar bo‘yicha xorijiy ekspertlar tahlillari (masalan, B. Richmond, L. Evans kabi mualliflar tomonidan) O‘zbekistondagi urbanizatsiya va turizm integratsiyasi muammolari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan.[7] Ekoturizm, ziyorat turizmi va gastronomik turizm haqida yozilgan ilmiy maqolalar, ayniqsa, mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashdagi roli, bandlikka ta’siri, va infratuzilmaga ijobiy ta’siri bilan alohida e’tibor qaratadi.[9] Yuqorida ko‘rsatilgan adabiyotlar asosida ushbu maqolada O‘zbekistonda turizm sohasidagi istiqbolli loyihalarning ahamiyati, ularni

amalga oshirishning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari tahlil qilinadi**.**

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalarning mazmuni, turlari va ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotda deskriptiv (ta’rifiy) va analitik yondashuvlardan foydalanilgan. Asosiy e’tibor mavjud loyihalar va rasmiy dasturlarni o‘rganishga, ularning samaradorligini ko‘rsatadigan ochiq manbalar asosida xulosa chiqarishga qaratilgan. Tahlil jarayonida quyidagi manbalardan foydalanildi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari; Turizm qo‘mitasi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hisobotlari; Davlat statistika qo‘mitasining turizmga oid rasmiy ma’lumotlari; Xalqaro tashkilotlar (Jahon Turizm Tashkiloti – UNWTO) va xorijiy ekspertlar tomonidan e’lon qilingan tahliliy materiallar; Ilmiy maqolalar, monografiyalar va ommaviy axborot vositalaridagi analitik tahlillar. Loyihalar tahlil qilinar ekan, ularning turi (ekoturizm, shahar turizmi, ziyorat turizmi, infratuzilma loyihalari), hududiy qamrovi, investitsion hajmi, hamda kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri asosiy mezonlar sifatida qaraldi. Har bir loyiha konkret misollar orqali ko‘rib chiqilib, ularning turizm sohasi rivojiga qo‘shayotgan hissasi konseptual jihatdan baholandi.

Tadqiqot uslubiyoti sifatida statistik ma’lumotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlarning kontent tahlili hamda solishtirma (komparativ) tahlil usullaridan foydalanildi. Bu esa loyihalarning mamlakat iqtisodiyotiga va ijtimoiy tizimiga ta’sirini chuqurroq anglash imkonini berdi**.**

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan turizmga oid istiqbolli loyihalar quyidagi yo‘nalishlarda faol rivojlanayotgani aniqlandi:

Birinchidan, ekoturizm infratuzilmasining kengayishi. Tog‘li hududlar (Zomin, Zaamin, Nurata, Kitob) va cho‘l zonasida (Ustyurt platosi, Aydar-Arnasoy ko‘llari) ekoturizm klasterlari shakllantirilmoqda. Ushbu loyihalar mahalliy jamoalarni turizm faoliyatiga jalb qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.[10]

Ikkinchidan, ziyorat turizmi markazlarining rekonstruksiyasi va yangilanishi Samarqand, Buxoro va Termizdagi ziyorat maskanlari zamonaviy infratuzilmalar bilan boyitilib, xalqaro talablarga mos ravishda yangilangan. Jumladan, Imom Buxoriy majmuasi va Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasida qator qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarilgan.

Uchunchidan, yirik investitsion loyihalar orqali shahar turizmi rivojlanmoqda.[9] “Silk Road Samarkand”, “Tashkent City”, “Bukhara City” kabi loyihalar zamonaviy mehmonxonalar, kongress zallari, dam olish markazlari va savdo maydonlarini o‘z ichiga olgan holda, xalqaro sayyohlarni jalb qilish imkoniyatini oshirmoqda.

To‘rtinchidan, agroturizm va gastronomik yo‘nalishlar shakllanmoqda. Farg‘ona vodiysi, Urgut, Qoraqolpog‘iston hududlarida agro-turizm markazlari tashkil etilib, qishloq hayoti, milliy taomlar va hunarmandchilik asosida yangi turizm

mahsulotlari yaratilmoqda. Transport va logistika imkoniyatlari kengaymoqda. “Ochiq osmon” siyosati orqali ko‘plab xorijiy aviakompaniyalar O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvozlarni yo‘lga qo‘ymoqda.[11] Toshkent-Samarqand-Buxoro temiryo‘l liniyasining yuqori tezlikda ishlashi ichki turizm oqimini sezilarli darajada oshirgan.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, istiqbolli turizm loyihalari nafaqat sayyohlar oqimini ko‘paytirishga, balki mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantirishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va mamlakatning xalqaro imidjini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Quyidagi grafikda mamlakatimizda 2023-yilda turizm sohasinig turizm sohasidagi istiqbolli loyihalariga doir tahlili keltirib o‘tilmoqda.[6] Bundan ko‘rinadiki, sohada loyihalarning oshishi ish o‘rinlarining ham ko‘payishiga hamda daromadlarga ta’sir ko‘rsatib bormoqda.



1-rasm O‘zbekistonda turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari.

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Xususan, turizmning yangi yo‘nalishlari — ekoturizm, ziyorat turizmi, agroturizm va gastronomik turizm — orqali nafaqat sayyohlik xizmatlari xilma-xillashmoqda, balki mahalliy aholining turmush darajasi ham ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Ekoturizm loyihalari atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillariga asoslanib, uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mahalliy jamoalarni turizm faoliyatiga bevosita jalb qilish orqali ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy faollik rag‘batlantirilmoqda. Ziyorat turizmi esa O‘zbekistonning boy diniy-madaniy merosini xalqaro miqyosda tanitishda katta salohiyatga ega. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Termiziy kabi ziyorat maskanlarining rekonstruksiyasi sayyohlar oqimining ortishiga xizmat qilmoqda. Biroq, bu yo‘nalishda xizmat sifati, gidlar tayyorlash va xorijiy til bilimiga ega kadrlar masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Yirik investitsion loyihalar, jumladan, “Silk Road Samarkand” va “Tashkent City” loyihalari orqali O‘zbekiston turizm sohasida zamonaviy infratuzilma bilan jihozlangan yirik markazlarga ega bo‘ldi. Biroq, bu kabi loyihalarning mahalliy aholiga bevosita iqtisodiy ta’siri, ya’ni daromadlar

taqsimoti va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlash mexanizmlari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, turizmning ekoturizm, ziyorat turizmi, agroturizm va shahar turizmi kabi zamonaviy yo‘nalishlariga oid loyihalar nafaqat turizm mahsulotlarining xilma-xilligini ta’minlamoqda, balki hududiy infratuzilma rivojiga, bandlikning oshishiga va xalqaro investitsiyalar oqimining ortishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, turizmning barqaror rivoji uchun zarur bo‘lgan tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilgani, transport-logistika tizimining yangilanishi va xizmat ko‘rsatish sifati bo‘yicha islohotlarning yo‘lga qo‘yilgani ijobiy natijalarni bermoqda. Biroq, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli emasligi, kadrlar malakasining pastligi va xizmatlar sifati bo‘yicha muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur holatlar shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasidagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda kompleks va hududlararo muvozanatli yondashuv zarur. Shu bilan birga, mahalliy jamoalarni turizm jarayoniga faol jalb etish, ekologik va madaniy merosni asrash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish turizm sohasining yanada samarali va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI;

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli farmoni // Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi. Rasmiy statistik axborotlar (2023–2024). – https://uzbektourism.uz
3. Xamidov A., Yusupov N. Turizm asoslari. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021. – 215 b.
4. UNWTO (United Nations World Tourism Organization). International Tourism Highlights, 2023 Edition. – Madrid: UNWTO, 2023. – 46 p. – URL: https://www.unwto.org
5. Rasulov D.R. Ekoturizmning iqtisodiy asoslari. – Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti nashriyoti, 2020. – 132 b.
6. Xabibullayev A.A. Hududiy turizmni rivojlantirishda investitsiya loyihalarining o‘rni // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2022. – B. 85–90.
7. Abduvahobov A. Turizmni rivojlantirish strategiyasi: tahlil va takliflar. – Toshkent: Turizmni rivojlantirish instituti, 2023. – 120 b.
8. Shavkatov M. Turizmni boshqarish va rivojlantirishning innovatsion yondoshuvlari. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi, 2022. – 98 b.
9. Yusufov R., Ismoilov T. O‘zbekistonning turizm sanoati va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni. – Toshkent: Iqtisodiyot va tahlil instituti, 2023. – 112 b.
10. Murodov D. Ekoturizm va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. – Toshkent: O‘zbekiston iqtisodiyoti va tizimlar institut, 2021. – 88 b.

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH STRATEGIYALARI.

F.A.A’zamova

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
A’zamova Feruza Abduholiq qizi
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi.
Email: *feruzaazamova@gmail.com*
Tel: *+998993375995*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 13 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annatatsiya: *Mazkur maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda strategiyalarining roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda xizmatlar sohasining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, xizmatlar diversifikatsiyasi va mijozga yo‘naltirilgan yondashuvlarning samaradorlikka ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi misolida statistik ma’lumotlar, davlat dasturlari va hududlar kesimidagi dinamik o‘zgarishlar tahlili orqali xizmatlar sohasining hozirgi holati va istiqbollari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xizmatlar sohasi, raqobatbardoshlik, innovatsion strategiya, boshqaruv, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, xizmatlar eksporti, iqtisodiy o‘sish, mijozga yo‘naltirilgan xizmatlar, davlat qo‘llab-quvvatlovi, xizmat diversifikatsiyasi, barqaror rivojlanish, texnologik modernizatsiya, O‘zbekiston, makroiqtisodiy tahlil.*

STRATEGIES FOR INCREASING COMPETITIVENESS IN SERVICE ENTERPRISES.

Abstract. *In this article, the role of innovative management strategies in enhancing the competitiveness of service enterprises is analyzed. The study scientifically explores the contribution of the service sector to economic growth, as well as the impact of digital transformation, automation, service diversification, and customer-oriented approaches on operational efficiency. Based on the case of the Republic of Uzbekistan, the article presents an analysis of current trends and future prospects of the service sector through statistical data, government programs, and regional dynamics.*

Keywords*:. Service sector, competitiveness, innovative strategy, management, digital technologies, automation, service export, economic growth, customer-oriented services, government support, service diversification, sustainable development, technological modernization, Uzbekistan, macroeconomic analysis.*

СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ.

Аннотация: *В данной статье проанализирована роль стратегий в повышении конкурентоспособности предприятий сферы услуг. В исследовании научно обосновано значение сектора услуг в экономическом росте, влияние цифровой трансформации, автоматизации, диверсификации услуг и ориентированных на клиента подходов на повышение эффективности. На примере Республики Узбекистан представлены текущие тенденции и перспективы развития сферы услуг на основе статистических данных, государственных программ и динамики по регионам.*

Ключевые слова*: сфера услуг, конкурентоспособность, инновационная стратегия, управление, цифровые технологии, автоматизация, экспорт услуг, экономический рост, клиенториентированные услуги, государственная поддержка, диверсификация услуг, устойчивое развитие, технологическая модернизация, Узбекистан, макроэкономический анализ.*

KIRISH.

Zamonaviy global iqtisodiy sharoitda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Shu bois, sohani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zbekiston–2030” strategiyasida xizmatlar sektorini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va boshqaruvning ilg‘or mexanizmlaridan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Hozirgi davrda xizmat ko‘rsatish korxonalari oldida bozor talablariga moslashish, innovatsion yondashuvlar orqali xizmat sifatini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish kabi muhim vazifalar turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan “Davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiyasi” xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni keng tatbiq etish, xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirish hamda mijozlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion yondashuvlar va ilg‘or boshqaruv strategiyalarining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar xizmat sifatini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish va iste’molchilarga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni samarali joriy etgan korxonalar nafaqat ichki bozorda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlashga, balki global raqobat maydonida ham muvaffaqiyat qozonishga erishmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsion yondashuvlar va boshqaruv strategiyalarining ilmiy asoslarini o‘rganish hamda ularning amaliy qo‘llanilishining samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Xizmat ko‘rsatish sohasining innovatsion rivojlanishi va boshqaruv strategiyalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar xalqaro miqyosda ham, milliy darajada ham keng o‘rganilgan. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar xizmatlar sektorida innovatsiyalarning roli, biznes jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishda boshqaruv yondashuvlarining ahamiyatini yoritib beradi.

Maykl Porter o‘zining “Raqobat ustunligi” (Competitive Advantage) asarida innovatsion strategiyalar va qiymat yaratish zanjiri orqali raqobatbardoshlikni oshirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, xizmatlar sektori korxonalari o‘z bozor mavqeini mustahkamlash uchun innovatsion biznes modellar, mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini faol qo‘llashi kerak.

G.Mensch esa o‘z tadqiqotlarida xizmat ko‘rsatish sohasida texnologik turtki modeli va bozor talabini chaqirish modeli asosida xizmatlarning innovatsion rivojlanishi bozor talabining o‘zgarishiga moslashish va texnologik o‘zgarishlarga tezkor moslashish orqali yuzaga kelishini tahlil qilgan. U xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatning oshishi investitsiyalarning hajmi, iqtisodiy diversifikatsiya va xizmatlar sifati oshishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilingan**.** A.V.Vaxabov va H.P.Abulqosimov innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqib, xizmat ko‘rsatish korxonalarida strategik boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Ularning ilmiy ishlari mijozga yo‘naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish, raqamli transformatsiya va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Sh.Sh.Saipnazarov, M.Q.Pardayev va T.O.Mamayunusov xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ilmiy ishlari orqali xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga hissa qo‘shgan. Ularning tadqiqotlari xizmatlar sektorining innovatsion ekotizimini yaratish, biznes muhitini yaxshilash va kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr sharoitida xizmatlar sektori nafaqat iqtisodiy o‘sishning drayveri, balki investitsiyalarni jalb etish va yangi ish o‘rinlari yaratishning asosiy omili hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda ushbu soha yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 70% dan ortig‘ini tashkil etib, iqtisodiy barqarorlikning muhim omiliga aylangan. O‘zbekistonda ham xizmatlar sohasi jadal rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rinni egallamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-avgustdagi PQ-287-sonli “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash va uning salohiyatidan to‘liq foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori xizmatlar sektorining rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qarorga asosan, xizmatlar sohasiga qaratilgan investitsiyalar hajmini oshirish, hududiy infratuzilmani takomillashtirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish belgilangan. Xususan, 2025-yilga kelib mamlakat bo‘ylab 500 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan bo‘lib, bu xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasining o‘sishiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmat turlarining diversifikatsiyasi va infratuzilmaning rivojlanishi kabi omillar ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, yirik shaharlar va iqtisodiy markazlarda xizmatlar sohasining kengayishi kuzatilmoqda.

Xizmatlarning eng katta qismi savdo, moliyaviy xizmatlar, transport, axborot texnologiyalari, ta’lim va turizm sohalariga to‘g‘ri keladi.

1-rasm. Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumoti asosida tuzilgan (2024- yil yanvar-dekabr).

2024-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida faoliyat yuritdi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur davrda xizmatlar sektorining yalpi hajmi 818 428,3 milliard so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich xizmatlar sohasi mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida yetakchi o‘ringa ega ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, xizmatlar yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 73,2 foizni tashkil etgani ushbu sohaning iqtisodiy tuzilmadagi ustuvorligini ko‘rsatadi. Bunday strukturaviy ustunlik xizmatlar sektorining aholi bandligi, daromadlari va ijtimoiy farovonlikka ta’sirini kuchaytiradi.

Xususan, 2024-yilda jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmi 22 million 17 ming 600 so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu xizmatlardan faol foydalanish darajasi yuqoriligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 57 foizga yetgani, bu yo‘nalish kichik va o‘rta biznes uchun eng maqbul hamda raqobatbardosh segmentga aylanganini ko‘rsatadi. Raqobat muhiti, erkinlik darajasi va xizmatlar spektrining moslashuvchanligi sohani barqaror rivojlanish maydoniga aylantirmoqda. Ushbu faktlar xizmatlar sektorining nafaqat statistik o‘sish, balki amaliy iqtisodiy barqarorlik, iste’mol talabining qondirilishi, bandlik darajasi va infratuzilma rivojiga qo‘shgan hissasini ochib beradi. Shu bois xizmatlar sohasini raqamlashtirish, uni innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish hamda eksport salohiyatini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb strategik yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish – xizmatlar sohasida ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy

etish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Bu jarayon xizmat ko'rsatish korxonalarining operatsion xarajatlarini kamaytirib, tezkor va sifatli xizmatlar taqdim etishga imkon yaratadi.

Xizmatlar diversifikatsiyasi – korxonalarning xizmatlar turini kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish va innovatsion xizmatlar joriy etish orqali mijozlar bazasini oshirishga yo'naltirilgan. Bu esa iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish – ekologik toza xizmatlar, energiya tejamkor texnologiyalar va atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatadigan innovatsiyalarni tatbiq etish orqali barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Davlat tomonidan bu yo'nalishda imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Mijozga yo'naltirilgan strategiyalar – korxonalar tomonidan mijozlarning ehtiyoj va talablari asosida xizmatlarni moslashtirish, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni joriy etish va xizmat sifatini oshirish orqali mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan strategiyalar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishlarning barchasi xizmatlar sektorining jadal rivojlanishiga, raqobatbardoshligini oshirishga va mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasining innovatsion rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishga ham ta'sir qiladi. Shu sababli, davlat tomonidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlash va tartibga solish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xizmat ko'rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron xizmatlar tarmog'ini kengaytirish hamda biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirish maqsad qilingan. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion startaplarni moliyalashtirish hamda xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan 2025-yilga qadar xizmatlar sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu yangi ish o'rinlari yaratish, xizmat turlarini kengaytirish va sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar eksporti hajmini ko'paytirish hamda mahalliy korxonalarni global bozorga chiqishiga ko'maklashish maqsadida maxsus imtiyozlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda.

Xususiy sektor tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ajratilgan mablag'lar so'nggi 20 yil ichida 8 baravarga oshgani ham sohaga berilayotgan e'tiborning yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. Bunday yondashuvlar xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, ularning xizmat turlarini diversifikatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi xizmatlar sohasining rivojlanishi: 2025-yil yanvar oyi holati.

Xizmat turi	Hajmi (mlrd so‘m)	O‘sish (%)
Moliyaviy xizmatlar	11 864.5	13.2
Savdo xizmatlari	10 295.2	10.2
Transport xizmatlari	13 162.4	8.7
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 312.2	21.6
Ta’lim xizmatlari	4 321.8	16.0
Mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari	3 245.6	11.1
Tibbiyot xizmatlari	2 143.9	9.2
Me’morchilik va injiniring xizmatlari	2 987.5	23.6

Xizmatlar sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning hajmi 2025-yil yanvar holatiga ko‘ra 64 784,6 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,4% o‘sishni anglatadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida moliyaviy xizmatlar 11 864,5 mlrd so‘m (+13,2%), savdo xizmatlari 10 295,2 mlrd so‘m (+10,2%), transport xizmatlari 13 162,4 mlrd so‘m (+8,7%), aloqa va IT xizmatlari esa 5 312,2 mlrd so‘m (+21,6%) ni tashkil etdi. Eng yuqori o‘sish aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida kuzatilib, bu sohada innovatsion texnologiyalar jadal rivojlanmoqda.

Hududlar bo‘yicha xizmatlar hajmi bo‘yicha Toshkent shahri yetakchilik qilib, umumiy hajmning 38,5% ini (24 931,8 mlrd so‘m) tashkil etmoqda. Samarqand (7,1%), Farg‘ona (6,5%) va Toshkent viloyati (6,6%) keyingi o‘rinlarni egallagan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich Sirdaryo viloyatida (1,3%) qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalar hajmini oshirish hamda innovatsion boshqaruv strategiyalarini tatbiq etish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, davlat tomonidan 2025-yilgacha xizmatlar sektoriga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu yangi ish o‘rinlari yaratish va ushbu sohaning YaIMdagi ulushini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bugungi kunda O‘zbekistonda xizmatlar sohasi YaIMning 47,4% ini tashkil etadi, bu esa rivojlangan mamlakatlardagi ko‘rsatkichlardan ancha past. Masalan, AQShda 79%, Germaniyada 69%, Qozog‘istonda 55%, Qirg‘izistonda 50% ni tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarda xizmatlar sohasi moliya, texnologiya, logistika va konsalting kabi tarmoqlarda yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa, O‘zbekistonda u asosan ichki bozorga yo‘naltirilgan bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Xizmatlar sektorining jadal rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmat eksportini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmat turlarini

diversifikatsiya qilish ushbu sohaning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash uchun dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda xizmatlar sohasi YaIMning 47,4% ini tashkil etsa-da, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha past bo'lib, xizmatlar eksportini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va boshqaruv tizimini takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Xususan, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion boshqaruv tamoyillarini keng joriy qilish, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xizmatlar eksportini rag'batlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro sifat standartlarini joriy etish va xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish muhim omillardan biri hisoblanadi. Hududiy farqlarni bartaraf etish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish, ayniqsa, transport va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini takomillashtirish orqali xizmatlar sektorining har tomonlama rivojlanishi ta'minlanishi lozim.

Xususiy sektorning innovatsion startaplarini qo'llab-quvvatlash, xizmatlar sohasida biznes muhitini yaxshilash va ilg'or boshqaruv strategiyalarini tatbiq etish xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Xizmatlar eksportini oshirish bo'yicha rag'batlantirish dasturlarini amalga oshirish, soliq imtiyozlari va davlat tomonidan investitsion qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish orqali sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash va uning salohiyatidan to'liq foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ–287-sonli Qaror.
3. OECD Economic Surveys: Digital Transformation and Service Industry Growth. www.oecd.org
4. World Bank Digitalization and Economic Growth in Developing Economies. www.worldbank.org
5. European Commission. Service Innovation and Economic Competitiveness in Emerging Markets. Manba: https://ec.europa.eu
6. Chesbrough, H. (2003). The Era of Open Innovation. MIT Sloan Management Review, 44(3), 35-41. https://sloanreview.mit.edu
7. Bahodirov, S. . (2024). THE IMPORTANCE OF PERSONNEL IN INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT OF THE ENTERPRISE. Развитие и инновации в науке, 3(6), 93–97. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/dis/article/view/53060
8. Bahodirov, S . (2024). THE IMPORTANCE OF PERSONNEL IN INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT OF THE ENTERPRISE. Развитие и инновации в науке, 3(6), 93–97. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/dis/article/view/53060

TURISTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING MEYORIY-HUQUQIY VA TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI.

B.R.Pardayev

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Pardayev Botir Raxmatullayevich
"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email: *botirpardayev.@gmail.com*

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda xavfsiz turizmni ta'minlash uchun turistlar va ekskursantlarning xavfsizlik kafolatlari hamda xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlariga izoh berilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm to'g'risidagi qonun, xavfsiz turizm, shaxsiy xavfsizlik, favqulodda hodisa, sug'urta.*

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ, ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ТУРИСТСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: *В статье рассматриваются нормативно-правовые документы, направленные на обеспечение безопасности туризма в Узбекистане, а также возможности их применения. В целях обеспечения безопасного туризма разъясняются гарантии защищённости туристов и экскурсантов, а также основные направления обеспечения безопасности.*

Ключевые слова: *закон о туризме, безопасный туризм, личная безопасность, чрезвычайная ситуация, страхование.*

METROLOGICAL, LEGAL, ORGANIZATIONAL, AND ECONOMIC ASPECTS OF ENSURING TOURIST SAFETY

Abstract: *The article examines the regulatory framework aimed at ensuring tourism safety in Uzbekistan and the possibilities of its application. In order to ensure safe tourism, the security guarantees for tourists and excursionists, as well as the main directions of safety provision, are explained.*

Key words: *tourism law, safe tourism, personal safety, emergency, insurance.*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi. Inson ishtirok etadigan har qanday sohani rivojlantirish uchun birinchi galda kafolatlangan xavfsizlik masalasi ta’minlangan bo‘lishi lozim. Chunki sayyohlar mamlakatimizga kelishi uchun eng avvalo, ushbu sohaning xavfsizligi qay darajada ta’minlanganligiga e’tiborni qaratadi. Biroq, u tegishli qonunlar va qonunosti me’yoriy hujjatlar bilan bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonuni 2019-yil 18-iyulda imzolandi va shu yilning 20-oktabridan boshlab kuchga kirdi. Mazkur qonunning 9-bobi “Xavfsiz turizmni ta’minlash”, deb nomlanadi. Bu o‘z ichiga 4 ta moddani qamrab oladi. Bulardan “35-modda. Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi kafolatlari”ga bag‘ishlangan. Navbatdagi “36-modda. Turoperatorlar va turagentlar tomonidan turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlashga doir chora-tadbirlar”, deb nomlanadi. Qonunning navbatdagi 37-moddasi “Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan, qutqaruv va shoshilinch xizmatlar”ga bag‘ishlangan. 38-modda “Turizm sohasida sug‘urta qilish” masalalariga bag‘ishlangan.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda turizmga e’tibor faqat 2019-yilga kelib qaratilibdi, degan xulosaga kelinmaslik kerak. Ushbu masalaga oldindan katta e’tibor qaratilib kelinmoqda edi. Birinchi turizm to‘g‘risidagi qonun 1999-yilda qabul qilingan edi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan «Turizm to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»gi 831-I-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 228-modda) ham qabul qilinib, u ishlayotgan edi. Ammo turizm sohasida katta o‘zgarishlar yuz berganligi tufayli mazkur sohaga oid yangi qonun qabul qilindi va oldingisi shu qonun bilan bekor qilindi. Ko‘rinib turibdiki, turizmda xavfsizlik masalasi sohada muhim bo‘lgan eng dolzarb masalalardan biri ekan. Shu tufayli ushbu mavzuda tadqiqot olib borish dolzarb masalaning yechimini hal qilishiga xizmat keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur mavzu bilan turizmda turistlar va turoperatorlar xavfsizligini ta’minlash masalasiga bir qancha olimlarimiz asarlarida e’tibor qaratilgan. Bular jumlasiga I.S.Tuxliyev, N.Tuxliyev, Q.X.Abduraxmanov, M.M.Muhammedov, I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, K.B.Urazov, S.N.Toshnazarov, B.A.Abdukarimov, A.Eshtayev, D.X.Aslanova, M.T.Alimova, R.Haitbayev, X.M.Mamatkulov, U.Matyakubov, O.X.Hamidov, A.N.Norchayev, M.T.Aliyeva, B.Sh.Safarov, Q.J.Mirzayev, M.R.Usmonov, D.K.Usmanova, F.K.Kamilova kabilarni kiritish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va ularni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini yoritishda makon va zamon, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yuqorida zikr etilgan yangi qonunning 35-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi hududida turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi” deyilgan. Ushbu moddaning o‘zi ham

turistlarda xavfsizligining ta’minlanishi bo‘yicha katta ishonch tug‘diradi. Ushbu qonun ham zamon talabidan kelib chiqib, tizimli ravishda takomillashib bormoqda va shu bilan birga bir qancha qonunosti hujjatlari ham qabul qilinmoqda. Xususan, dunyoga xavf-xatar solgan pandemiya sharoitida mazkur soha bo‘yicha ham tegishli choralarni ko‘rish lozim bo‘ldi va 2020-yil 19-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-4755-son qarori qabul qilindi.

Bugungi kunda “Xavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligi, ularning mol-mulki but saqlanishi, atrof tabiiy muhitga, jamiyatning moddiy hamda ma’naviy qadriyatlariga, davlat xavfsizligiga zarar yetkazilishining oldini olish ta’minlanishini nazarda tutadi”gan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-noyabrdagi O‘RQ-880-sonli Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritildi.

Turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash bilan birgalikda “ularning mol-mulki but saqlanishi, atrof tabiiy muhitga, jamiyatning moddiy hamda ma’naviy qadriyatlariga, davlat xavfsizligiga zarar yetkazilishining oldini olish ta’minlanishini nazarda tutadi”. Turistlar asosan mamlakatimizning turli hududlarida sayr qilishadi. Bularni inobatga olib mahalliy davlat hokimiyati organlari ham diqqat e’tiborida bo‘ladi. Hozirgi kunda viloyat hokimlarining turizm sohasiga mas’ul hokim o‘rinbosarlari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Hududlarda barcha turistik yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar va ekskursantlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hokimiyat rahbarligida soha vakillari bilan birga hududiy dasturlar ishlab chiqilgan hamda ularning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish masalalari bilan ham shug‘ullanmoqda.

Turizm sohasida turli vaziyatlar bo‘lishi mumkin. Shu tufayli mazkur sohada xo‘jalik yurituvchi subyektlar turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash borasida tegishli malaka va tajribaga ega bo‘lishi lozim. Chunki, tabiiy ofatlar chog‘ida turistlar jarohatlanishi, turli kasallikka chalinishi ham mumkin. Bunday va boshqa shunga o‘xshash hollarda tibbiy yoki boshqa zarur yordamlarni ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqqan bo‘lishi, bularni hayotda qo‘llash bo‘yicha ham tegishli treninglar o‘tkazilib, amaliy tajribalarga ham ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan «Turizm to‘g‘risida»gi qonunda qayd etilishicha: “Vakolatli davlat organi turoperatorlarni, turagentlarni, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid to‘g‘risida xabardor qiladi, shuningdek xavfsizlikka nisbatan tahdid mavjud bo‘lganligi sababli borib ko‘rish uchun tavsiya etilmaydigan mamlakatlar (joylar) ro‘yxatini ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi”.

Qonun bilan belgilangan muhim masalalardan biri ommaviy axborot vositalariga keng vakolatlar berilganligidir. Bordi-yu davlat organi tomonidan va mos ravishda ularga nisbatan turistlar va ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid sezilib

qolsa bu haqidagi axborotni e’lon qilish imkoniyatini darhol va bepul taqdim etish lozimligi qayd etilgan. Shu yo‘l bilan keng ko‘lamli ogohlantirish ro‘y beradi va har bir turist va turistik tashkilotlar ehtiyot choralarini ko‘radi.

Sayohat paytida turistlarning va ekskursantlarning guruhlarini kuzatib boruvchi shaxslarga ham tegishli mas’uliyat yuklatilgan. Ular turistlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun dasturiy asosda minimal tibbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Bunda tegishli tibbiy buyumlarga hamda dori qutichasiga ham ega bo‘lishi nazarda tutilgan. Bulardan tashqari turistlarning safarda xavf-xatardan xoli bo‘lishligini ta’minlash uchun sayr qiladigan joylarni, ekskursiya yo‘llarini, sport musobaqalari o‘tkaziladigan joylarni, ularga boradigan ko‘chalarning ham obodligi bilan birga xavfsizligini ta’minlash, bu yerlarda ham tegishli taassurotlarga ega bo‘lish uchun shart-sharoitlarni yaratish ham maqsadga muvofiq.

Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlashda asosiy rolni turoperatorlar va turagentlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bu qonun bilan ham qayd etilgan. Chunki ular mazkur hududning sharoitini yaxshi biladi va hamisha ulardagi o‘zgarishlardan xabardor. Shu tufayli ushbu subyektlar turistlar xavfsizligini ta’minlashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqib, uning nazoratini tizimli ravishda amalga oshirib borishlari shart. Turoperatorlar turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida bir qancha tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq.

Birinchidan, mustaqil turizmni amalga oshiruvchi turistlar va ekskursantlar murojaat qilgan taqdirda, turistlar va ekskursantlarni yo‘nalishning xususiyati hamda ularning o‘z xatti-harakatiga bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf manbalari haqida xabardor qilishi lozim bo‘ladi.

Ikkinchidan, bordi-yu turistlar va ekskursantlarni jarohatlanish yuz beradigan bo‘lsa, bunday sharoitda mazkur hududda baxtsiz hodisalarning oldini olish va ulardan himoyalanish usullari bilan turistlarni to‘liq tanishtirishi ham lozim bo‘ladi.

Uchinchidan, barcha yo‘nalishlar bo‘yicha xavfsizlik texnikasidan foydalanish yuzasidan turistlar va ekskursantlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish ham muhim hisoblanadi. Agar turistlar va ekskursantlar falokatga uchragan taqdirda tezkor yordam ko‘rsatishi choralari ham ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

To‘rtinchidan, turizmning boshqa maxsus turlarini, xususan tog‘, trek, chang‘i, velosiped, motosikl, g‘or turizmi (tabiiy yer osti yo‘laklari — g‘orlarga sayohatlar) kabilarni tashkil etish va amalga oshirishdagi xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi choralari ham ko‘rilgan bo‘lishi lozim.

Beshinchidan, sayohat vaqtida turistlar, ekskursantlar bilan sodir bo‘lgan turli favqulodda hodisalar to‘g‘risida vakolatli davlat organini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va manfaatdor shaxslarni darhol xabardor qilishi lozim.

Oltinchidan, mutasaddi shaxslar turistlar va ekskursantlarga sayohatlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida, ularning shaxsiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ogohlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Shuningdek sayohat qilish chog‘ida ular duch kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar haqida ham to‘liq ma’lumotlar taqdim etishi maqsadga

muvofiq. Shu yo‘l bilan barcha ishtirokchilar ma’lum darajada ehtiyot choralarini ko‘rishga harakat qilishadi.

Yettinchidan, turizmning alohida yo‘nalishi bo‘lgan tog‘li hududda tog‘, trek, chang‘i, velosiped, motosikl va g‘or turizmi turlarini tashkil etish va amalga oshirishda mazkur hududning barcha sharoitlarini yaxshi biladigan yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilar xizmatlaridan foydalanishini ham yo‘lga qo‘yish qonun talablariga binoan ham shart qilib belgilangan. Tog‘ turizmining yana bir yo‘nalishi otda sayr qilish bilan bog‘liq. Ushbu turizmning ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan turistlarni to‘liq tanishtirish maqsadga muvofiq.

Sakkizinchidan, sayohatlarni amalga oshirishda turistlar va ekskursantlar harakatlanishining faol shakllaridan foydalangan holda tashkil etish ham asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida amalga oshirilmoqda. Ushbu tezkorlikka ixtisoslashgan turoperatorlar turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash, ekstremal vaziyatlarda ularga yordam ko‘rsatish va ularni himoya qilish maqsadida qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar hamda boshqa qutqaruv xizmatlari bilan xizmat ko‘rsatilishi uchun shartnomalar tuzib ishlashlari ham ko‘zda tutilgan. Chunki bunday xizmatlar alohida bo‘lib, mustaqil faoliyat ko‘rsatadigan subyektlarga kiradi.

To‘qqizinchidan, turistik faoliyat subyektlari turistlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida turistlarga jarohatlanish va baxtsiz hodisalardan saqlanishi bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish yo‘llarini ko‘rsatish bilan birga, ularning oldini olish usullarini o‘rgatishlari, birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish yuzasidan yo‘l-yo‘riq berishlari ham ko‘zda tutilgan. Sh

O‘ninchidan, turizmning alohida turlari bo‘lgan avtomobil, tog‘, chang‘i, velosiped, suv, motosikl, piyoda safar, g‘or turizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o‘tkazishda xavfsizlikning alohida talablari ishlab chiqilgan. Sayohat jarayonida ushbu masalaga ham alohida ahamiyat berilishi va uni ham tegishli tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bizda xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘yicha alohida xizmatlarning tashkil qilinganligi bo‘ldi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgustdagi 669-son «Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash to‘g‘risida»gi qarori qabul qilingan Ushbu xizmat mamlakatimizda, ayniqsa turistlar gavjum joylarda samarali amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda amaldagi «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni turizm sohasini sug‘urta qilishda ham qo‘llanilmoqda. Albatta turistlar va ekskursantlarni sug‘urta qilish ixtiyoriydir. Biroq turistlar va ekskursantlar tomonidan bunday faoliyatni olib borish huquqiga ega bo‘lgan tegishli sug‘urta tashkilotlari bilan shartnomalar tuzilishi mumkin va ushbu xizmatdan ham shartnomada ko‘zda tutilgan darajada foydalanishlari ko‘zda tutilgan. Turoperatorlar va turagentlar turistik mahsulotning xususiyati hamda shakliga qarab turistlar va ekskursantlarda sug‘urta polisi mavjud bo‘lishi to‘g‘risida talab belgilash huquqiga ega ekanligini ham alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Lekin turoperatorlar o‘zining fuqarolik

javobgarligini sug‘urta qilishi shartligi ham qonunda belgilangan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, turizmning barcha turlarini amalga oshirishda turistlarning xavfsizligini ta’minlash jarayonlari muhim ahamiyat kasb etar ekan. Shu tufayli, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ta’minlashda turistlar xavfsizligini ta’minlash masalalari obyektiv zaruriyatga aylangan. Sohada xo‘jalik yurituvchi subyektlar turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash borasida tegishli malaka va tajribaga ega bo‘lishi lozim. Shu jihatdan, ushbu mavzu bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni va turistlar xavfsizligini to‘liq va ishonchli ta’minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishni ham taqozo qilmoqda.

Tadqiqot natijasida bir qancha ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, turizmning turlari bo‘yicha aniq yo‘nalishlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Agar turist faqat ziyorat qilishga kelgan bo‘lsa, unga xos mutaxassislar kutib olib kuzatishlari lozim.

Ikkinchidan, turizm sohasida xavfsizlikni ta’minlash uchun kadrlarni tayyorlash masalasini ham yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur o‘ziga xos soha bo‘lganligi uchun, buni tushunadigan kishilar shug‘ullanishlari maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, bugungi kunda turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan, qutqaruv va shoshilinch xizmatlar ham tashkil qilingan. Bularning tarkibiga tibbiyot sohasida ham tez yordam ko‘rsatadigan bo‘limini ham kiritish lozim.

Umuman olganda turizm sohasida xavfsizlikni ta’minlash keng ko‘lamli ish bo‘lib, uni har tomonlama barcha mas’ullar tomonidan amalga oshirish lozim bo‘lmoqda. Agar ushbu tavsiyalarimiz amaliyotda o‘z tasdig‘ini topsa, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini qo‘lga kiritishiga zamin yaratilgan bo‘lar edi. Chunki turistlarning xavfsizligining ta’minlanishi ularning mamlakatimizga oqimining ko‘payishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги қонуни 2019 йил 18 июлда имзоланган қонуни // https://lex.uz/docs /4428097#4429416.
2. Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар луғати. – Т.: ―ИҚТИСОД-МОЛИЯ‖ нашриёти, 2010. – 398 бет.,
3. Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида). Докторлик диссертацияси автореферати. 08.00.05. – Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиёти. Самарқанд, СамИСИ, 2017. – 96 б.,
4. Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. Самарқанд, СамИСИ, 2016. – 96 б.,
5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон).

MODERN THEORETICAL CONCEPTS OF DEFINITION OF POVERTY.

I.Kh.Nasimov

Bukhara Institute of Engineering and Technology, Bukhara, Uzbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Nasimov Ikrom Khusanovich
Doctoral student of Bukhara Engineering and Technological Institute - Associate Professor, Ph.D.
Email: *ikromnasimov@gmail.com*
Tel: *+998 90 502 13 03*

Received: 18 March 2025
Revised: 23 March 2025
Accepted: 20 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsion: *In this article author conducts research on modern theoretical concepts of definition of poverty and gives definitions to the main categories of poverty. In addition, during the research author also defines the causes of poverty in Uzbekistan.*

Keywords: *poverty, taxes, transfers, impact, relative poverty, absolute poverty, subjective poverty, inequality.*

KAMBAG'ALLIK TA'RIFNING ZAMONAVIY NAZARIY TUSHUNCHALARI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif qashshoqlikni aniqlashning zamonaviy nazariy kontseptsiyalari bo'yicha tadqiqotlar olib boradi va qashshoqlikning asosiy toifalariga ta'riflar beradi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida muallif O'zbekistondagi qashshoqlikning sabablarini ham aniqlaydi.*

Kalit so'zlar: *qashshoqlik, soliqlar, transfertlar, ta'sir, nisbiy qashshoqlik, mutlaq qashshoqlik, sub'ektiv qashshoqlik, tengsizlik.*

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ БЕДНОСТИ.

Аннотация: *В данной статье автор проводит исследование современных теоретических концепций определения бедности и дает определения основных категорий бедности. Кроме того, в ходе исследования автор также выявляет причины бедности в Узбекистане.*

Ключевые слова: *бедность, налоги, трансферты, воздействие, относительная бедность, абсолютная бедность, субъективная бедность, неравенство.*

Introduction.

In recent years, the problem of poverty has attracted increasing attention from researchers both in Uzbekistan and abroad. Poverty levels vary significantly between countries, and their dynamics over time differ significantly depending on the characteristics of economic systems and social institutions. Interestingly, periods of economic downturns do not always lead to an increase in poverty: sometimes this is explained by the fact that the crisis has an even impact on the population's income. In other cases, automatic stabilizers play a significant role, which are able to mitigate the negative consequences of economic shocks, reducing their impact on the relative level of poverty.

Measuring poverty is complex and involves the interaction of many factors, each of which may act in different directions. Some social policy research points to the importance of factors such as demographics, educational attainment, and the state of the labour market. However, cross-country comparisons are complicated by unobserved differences that may distort estimates of poverty determinants. While analyses based on market inequality and redistributive mechanisms can be useful, they often rely on hypothetical scenarios that do not materialize in real life. For example, redistributive policies themselves can change market inequality through incentive mechanisms. Ultimately, it is important to consider the combined effects of all factors to understand poverty, as their effects rarely occur in isolation.

Methodology.

The understanding of the essence of the level of poverty and well-being can be approached not only from the point of view of access to various goods and services, but also starting from the opposite paradigm. Poverty, defined as a lack of means to meet basic life needs, is a kind of denial of well-being. In turn, well-being is expressed not only in the provision of the population with the resources necessary for life, but also in the degree of their satisfaction with living conditions, opportunities for development, and social participation.

Well-being includes not only material aspects (availability and quality of resources), but also social, cultural and psychological components, such as participation in public life, self-esteem, satisfaction with work and working conditions. The mechanisms through which these benefits become accessible to the population also play an important role. These aspects are especially significant in the context of the analysis of poverty, which is not only an economic but also a social phenomenon.

The level of poverty and the degree of social inequality are influenced by many factors, including employment, demographic processes, institutional environment features, macroeconomic conditions and the quality of the education system. For example, in Uzbekistan, poverty is often associated with limited employment opportunities, especially in rural areas, as well as with insufficient development of social infrastructure.

A recent analysis by the OECD used disaggregated measures of income inequality before and after transfers and taxes. The OECD is the Organization for Economic Co-operation and Development. It is an international organisation of 38 countries, mostly with advanced economies and democratic

governance. The OECD was created in 1961 to promote economic development, improve quality of life and coordinate economic policies among its member countries.

The study focused on the impact of social spending on poverty reduction, including direct cash transfers and pension payments. Our approach is similar, but with a particular focus on assessing the targeting and effectiveness of social spending, as well as its role in ensuring a more equal distribution of income. In the context of Uzbekistan, efforts aimed at reducing poverty through the implementation of large-scale social protection programs can be noted. In particular, the state increases the volume of transfers to low-income families, develops targeted assistance systems and actively introduces digitalization into the process of distributing social benefits. These measures help minimize corruption risks and increase the transparency of the system.

To further reduce poverty in Uzbekistan, an important area is to improve vocational training and skills development programs, which will help increase employment among youth and women. In addition, attention should be paid to regional development, including upgrading infrastructure in rural areas to ensure equal access to social benefits and services.

Thus, the analysis of poverty and welfare requires a comprehensive approach that takes into account economic, social and institutional factors, as well as the specific conditions of each country. The experience of Uzbekistan demonstrates that targeted social support measures and effective resource management can make a significant contribution to improving the well-being of the population and reducing poverty.

Results and analysis.

Our study analyzes the impact of social spending on reducing poverty, which is one of the key characteristics of income inequality. The determinants of inequality are studied from various perspectives in global and national literature. Particular attention is paid to the relationship between changes in income inequality and structural shifts in employment in various sectors of the economy.

Studying international experience, the scientific school “Labor Economics and Human Capital” at the Tashkent State University of Economics identified three main categories of poverty: relative, absolute and subjective.

1. Relative poverty is defined as the inability to maintain an acceptable standard of living within a more prosperous society. It is related to social context and inequality of opportunity.
2. Absolute poverty is based on the assessment of the subsistence minimum, including such basic needs as food, clothing and housing. Absolute destitution, in turn, characterizes the inability to meet the minimum needs necessary for survival.
3. Subjective poverty is based on a person’s self-assessment and perception of his or her financial situation.

Thus, poverty can be considered as a psychological and socio-economic phenomenon, reflecting not only the lack of material goods, but also the general state of a person in society.

Poverty is divided into two levels of understanding:

The broad meaning covers the poverty of states arising under the influence of financial, political and social

factors.

The narrow meaning refers to poverty at the individual level, related to personal circumstances and social environment.

The causes of poverty can be divided into the following groups:

•political: wars, conflicts and instability, which leads to the destruction of economies.

•social and medical: old age, disability and insufficient social support.

•financial: economic crises, low wages, inflation and currency devaluation.

•geographical: uneven development of regions and unfavorable natural conditions.

•demographic: high burden on the household due to dependents or single-parent families.

•personal: addictions to alcohol, drugs or gambling.

•qualification: lack of education and skills that limit access to the labour market.

In Uzbekistan, poverty levels are high in rural areas, where access to quality education, healthcare and infrastructure is limited. The government is taking steps to address these issues, including:

•increasing funding for social programs, such as targeted assistance to low-income families.

•implementation of initiatives for vocational training of young people and women.

•development of infrastructure and stimulation of entrepreneurship in the regions through subsidies and microloans.



Fig. 1. Theoretical basis of the determinants of poverty

Special attention is paid to improving the skills of the population. Within the framework of the "Yangi Uzbekiston" (New Uzbekistan) program, initiatives are being implemented to digitalize social security and create jobs, which reduces social inequality.

Poverty analysis requires not only consideration of its economic causes, but also consideration of social and institutional factors, which is especially relevant for developing countries such as Uzbekistan.

The Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) provides a detailed analysis of the impact of globalisation, technological change, demography, institutions and redistribution mechanisms on income inequality. Particular attention is paid to various aspects of this phenomenon: from wage inequality and unemployment to market and disposable household income. One of the key findings is that redistribution through taxes and social transfers has helped to compensate for a significant part of market inequality, but the reduction in opportunities for redistribution has intensified this process in recent decades. (Fig. 1.)

Poverty and income inequality are shaped by a variety of closely interrelated factors. Although systematic theoretical frameworks are rarely used in analysis, their use allows for a better understanding of the mechanisms of poverty formation and the impact of various policies on reducing inequality. An OECD study shows the importance of taking into account income transitions: from individuals to households, both before and after redistribution.

In Uzbekistan, poverty alleviation is carried out through targeted benefits and social transfers, but uneven access to infrastructure, high levels of informal employment, and poor targeting of expenditures remain challenges. The success of social protection programs largely depends on the introduction of digital technologies and their increased efficiency. Learning from global experience can help Uzbekistan create a more sustainable redistribution system that can reduce inequality and improve the well-being of the population.

The literature distinguishes between market inequality, which occurs before taxes and transfers, and disposable income inequality, which reflects the redistribution of market income by the state. As shown in the figure, final inequality is the result of the interaction of market forces and redistribution mechanisms. The main components of market inequality are differences in hours worked (including unemployment), hourly wages, and income from other sources, such as capital.

Conclusion.

Research shows that inequality in employment has a smaller impact on poverty than differences in hourly wages, making wages an important determinant of market inequality. In addition, family formation also affects inequality, both through calculations of income equivalence and through labor force participation decisions. Hourly wages are significantly affected by skill levels, and labor market institutions such as unions and minimum wages have an equalizing effect on incomes. However, these institutions can also limit access to the labor market.

Macroeconomic factors, including economic growth, globalization, and technological change, shape market inequalities, while demographic factors, such as dependency ratios and family

structure, influence labor supply and labor income. Public redistribution through taxes and transfers is determined not only by their volume but also by their targeting . For example, a large proportion of the elderly population increases the cost of pensions, which can limit the volume of benefits for the working-age population. There are also interactions between labor market institutions and redistribution: strong labor laws and minimum wages can either replace or complement social transfers in the fight against poverty.

In Uzbekistan, these trends have their own specific features. Market inequality is often shaped by a significant share of informal employment and regional imbalances. Income disparities between urban and rural areas, where access to education and skilled work is limited, exacerbate poverty. State programs, such as targeted assistance through the Yangi Uzbekiston system , are aimed at redistributing income in favor of the poor. However, high demographic pressures associated with a young population require increased investment in education and vocational training to improve skills and reduce inequality in the labor market.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Abdurakhmanov K.H. Zokirova N.K., Islamov B., Hiwatari M. (2016) Systemic transformation and sustainable human development: the Case of Uzbekistan. Jakarta: Gunadarma Publisher, 2016, p. 230.

2. Abdurakhmanov K. Zokirova N. Human Development/ Textbook. Bremerhaven. 2014. C.133

3. Artal-Tur A. et al. (eds.), The Socio-Economic Impact of Migration Flows, 3 Population Economics, Springer International Publishing Switzerland, 2014, p. 4.

4. Bijak J. Forecasting international migration: selected theories, models and methods Central European Forum for Migration Research: CEFMR Working Paper No. 4/2006. – 2006. – P. 5.

5. Kenworthy, L. and T. Smeeding (2014) . Changing Inequalities and Societal Impacts in Thirty Rich Countries, Chapter The United States: High and Rapidly-Rising Inequality. Oxford University Press.

IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHI SHAROITIDA CHAKANA SAVDO KORXONALARI FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI.

Z.I.Abdullayeva

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Abdullaeva Zulfiya Izzatovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, PhD, dotsent.
Email: *zulfiyaabdullayeva@gmail.com*
Tel: *+998 93 351 65 37*

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xizmatlarni tasniflashning keng tarqalgan yondashuvlari, chakana savdo korxonalarida xizmatlar turlarining alohida yo‘nalishlar bo‘yicha tasnifi, xizmatlar tasnifining asosiy xususiyatlari, chakana savdo xizmatining mazmuni, chakana savdo korxonalari xizmatlarining amalga oshirish muddatiga qarab turlari va tarkibi tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish sohasi, xizmat ko‘rsatish jarayoni, xizmatlar tasnifi, chakana savdo xizmatlari, korxona, savdo tarmog‘i, iste’molchilar, chakana savdo xodimlari.*

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РОЗНИЧНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ.

Аннотация: *В данной статье исследованы распространенные подходы к классификации услуг, классификация видов услуг на предприятиях розничной торговли по отдельным направлениям, основные особенности классификации услуг, содержание услуг розничной торговли, виды и состав услуг предприятий розничной торговли в зависимости от срока их реализации.*

Ключевые слова: *сфера услуг, процесс оказания услуг, классификация услуг, услуги розничной торговли, предприятие, торговая сеть, потребители, сотрудники розничной торговли.*

MAIN DIRECTIONS OF RETAIL ENTERPRISES' ACTIVITIES IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY.

Annotatsion: *This article examines common approaches to service classification, classification of service types in retail trade enterprises by specific areas, main features of service classification, content of retail trade services, types and composition of retail trade enterprise services depending on their implementation period.*

Keywords: *service sector, service delivery process, service classification, retail trade services, enterprise, retail network, consumers, retail trade employees.*

KIRISH

Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining kengayib borishi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning yalpi ichki mahsulot tarkibini ham o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda muayyan davlatni rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shish uchun uning yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 65-70 foizdan yuqori bo‘lishi asosiy mezon hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishining bugungi kundagi bosqichida servis xizmatlari soni va sifatiga qo‘yilayotgan talablar oshib bormoqda.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida chakana savdo korxonalarida iste’molchilarning talablarini to‘liq qondirishning muhim omillaridan biri sifatida savdo xizmatlari samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Chakana savdo korxonalari iste’mol bozori infratuzilmasining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi, bir tomondan, iste’molchilarning turli xil tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini yanada to‘laroq, sifatliroq qondirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, iste’mol bozorining samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar respublikamiz iqtisodiyotini barqaror va samarali rivojlanishiga qaratilishi zarur. Bunda xizmat ko‘rsatish sohasining muhim tarmog‘i sifatida chakana savdo xizmatlarini rivojlantirish orqali iste’molchilarga ko‘rsatiladigan chakana savdo xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning turli xil tovarlarga bo‘lgan talablarini to‘liq qondirishni nazarda tutadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida chakana savdo sohasini rivojlantirish, aholini chakana xizmatlariga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning zamonaviy turlarini kengaytirish va sifatini oshirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, chakana savdo korxonalarining xizmatlar bozoridagi mavqie va raqobatbardoshligini oshirish hamda turli kategoriyalardagi aholi guruhlariga mos xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini oshirish hisobiga sohada iqtisodiy o‘sishni ta’minlash muhim omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Ilmiy adabiyotlarda servis iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatishning mohiyati mohiyati, mazmuni, chakana savdo xizmatlari sohasining rivojlanishi va aholiga ko‘rsatilayotgan chakana savdo xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning samaradorligini baholash, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etish va iste’molchilarning xizmatlarga bo‘lgan turli xil talablarini qondirishning ayrim jihatlari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

Taniqli iqtisodchi olim J.M.Keynsning mashhur asari «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asarida [7] servis iqtisodiyoti, iqtisodiy o‘sish, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi, chakana savdo xizmatlari sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlash, ishlab chiqarish omillaridan xizmat ko‘rsatish jarayonida samarali foydalanish, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mehnat unumdorligini oshirish bilan

bog‘liq muammolarning fundamental tadqiqoti amalga oshirilgan.

K.Xaksever, B.Render, R.Rassel, R.Merdiklar o‘zlarining asarida [9] xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, xizmatlar tavsifi va tasnifi, xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari, korxonalarda ishchi-xodimlar mehnatidan samarali foydalanish, xizmat ko‘rsatishning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish, chakana savdo korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini tadqiq etgan.

Rossiyalik olim A.A.Tkachenko [14] o‘z asarida xizmat ko‘rsatish sektoridagi ish o‘rinlarini kengaytirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, sohada yangi ish o‘rinlarini yaratish, ish o‘rinlarini yaratayotgan ish beruvchilarga soliq imtiyozlarini berish, mehnat samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini tadqiq etgan.

B.A.Abdukarimovning asarida [1] savdo tarmog‘ining vujudga kelishi, uning rivojlanish tamoyillari va shart-sharoitlari, chakana savdo tizimida iqtisodiy samaradorlikka erishish va mehnat unumdorligini oshirish, chakana savdo xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini ta’minlash, ishlab chiqarish omillaridan chakana savdo xizmat ko‘rsatish jarayonida samarali foydalanish yo‘llari tadqiq qilingan.

I.Sh.Dzaxmishevaning maqolasida [4] xizmat ko‘rsatishning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish, chakana savdo sohasida xizmatlar raqobatbardoshligini baholash usullari va ko‘rsatkichlari, chakana savdo korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish, chakana savdo xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini ta’minlash muammolari yoritib berilgan.

O.A.Semin, V.A.Saydasheva, V.V.Panyukovalarning asarida [12] chakana savdoda servis xizmatlarini ko‘rsatish, chakana savdo xizmatlarida sifatni boshqarish va marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, chakana savdo xizmatlarining innovatsion rivojlanishi, chakana savdo tizimida marketing konsepsiyasini qo‘llash asosida ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida chakana savdo xizmatlari rivojlanishi va ularni alohida belgilari hamda yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflashning nazariy va uslubiy asoslari bo‘yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o‘rganishga dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy baholash, solishtirma va omilli tahlil, guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tarixan muayyan xizmat turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida faoliyat sohasi sifatida tadqiq qilingan. Xizmat ko‘rsatish sohasi mazmun va mohiyatiga ko‘ra, ko‘plab faoliyat shakllari va turlarining kombinatsiyasi sifatida shakllangan hamda ro‘yxatga kiritilgan. Xizmatlarning har xil turlarini turlicha tasniflash asosida guruhlarga ajratiladi. Mazkur turlar tasniflash bo‘yicha muayyan usullarni zarurat etadi (1-rasm).

Ma’lumki, fan-texnika taraqqiyoti natijasida turli xil noodatiy xususiyat va jihatlarga ega xizmatlar yuzaga keladi. Masalan, an’anaviy xizmatlarga nisbatan axborot xizmatlari quyidagi jihatlari bo‘yicha farqlanadi: axborot xizmatlari natijasini ommaviy axborot vositalari (OAV)da saqlash, tashish imkoniyati bo‘lgan hujjatlar asosida moddiy xarakter

kasb etadi, axborot xizmatlarini ko‘rsatish iste’molchi va xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar o‘rtasidagi shaxsiy aloqaga kirishni zarurat qilmaydi.

F.Kotler tomonidan «Marketing asoslari» asarida tovar va xizmatlarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatgan:

–sof moddiy tovar, ya’ni, mahsulot hech qanday xizmatlarni taqdim etishni nazarda tutmaydi;

–mos keluvchi xizmatlarni taqdim etish bilan moddiy mahsulot, ya’ni, xaridor nazarida uning jozibadorligini oshirish uchun tovarlarni bir yoki bir nechta tegishli xizmatlar bilan taqdim etish;

–yordamchi tovarlar va xizmatlarga ega asosiy xizmat, ya’ni, taklifning asosiy qismi ba’zi qo‘shimcha xizmatlar va yordamchi tovarlar bilan xizmatlardir;

–sof xizmat, ya’ni, taklif birinchi navbatda xizmatdan iborat [5].

P.Patterson xizmatlar turlarini ikkita asosiy xususiyatga ko‘ra tahlil etgan: sezish imkoniyati darajasi va ishlab chiqaruvchi hamda xizmatlar iste’molchisi o‘rtasidagi bevosita ta’siri (yuzma-yuz) darajasiga qarab va shu asosda xizmatlarning to‘rt turini ajratadi:

– «sof xizmatlar» – «o‘zaro ta’sirning minimal darajasi»: – malakali xizmatlar: moliyaviy, sug‘urtalash, dizayn, axborot texnologiyalari;

– «mahsulot ko‘rinishidagi xizmatlar» – «o‘zaro ta’sirning past darajasi»: audio-, videomahsulot, uskunalarni sinovdan o‘tkazish, maxsus dasturiy ta’minotni ishlab chiqish;

– «sof xizmatlar» – «o‘zaro ta’sirning yuqori darajasi»: injiniring, huquqiy maslahatlar, boshqaruv maslahatlari;

– «mahsulot ko‘rinishidagi xizmatlar» – «o‘zaro ta’sirning yuqori darajasi»: mijoz hududida malaka oshirish, mehmonxona xizmati, murakkab uskunalardan foydalanish bo‘yicha maslahatlar [20].

K.Grenroos xizmatlarni taqdim etishda foydalaniladigan resurslar darajasi va nisbatiga qarab ikki asosiy guruhga ajratadi [17]:

– amalga oshirilishi xodimlarga bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;

– amalga oshirilishi texnologiyalarga bog‘liq xizmatlar.

Shu bilan birga, K.Grenroos xarid qilish davomiyligiga qarab, xizmatlarning quyidagi turlarini taklif qiladi [17]:

– doimiy ravishda sotib olinadigan xizmatlar (bank xizmatlari, tozalash, tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish va h.k.);

– vaqti vaqti bilan xarid qilinadigna (tibbiy va h.k.).

T.Klark, D.Rajataman xizmatlarning to‘rtta asosiy turini ajratib ko‘rsatadi [18]:

– xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga asoslangan xizmatlar;

– telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan xizmatlar (radio, sun’iy yo‘ldoshlar, televidenie va boshqa texnik vositalardan foydalangan holda, bevosita aloqasiz);

– xizmat ko‘rsatish operatsiyalari uchun platformani shakllantiruvchi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bilan «bog‘langan» xizmatlar;

– tovarlarda «moddiylashgan» xizmatlar.

K.Xaksever, B.Render, R.Rassel, R.Merdik xizmatlarning quyidagi turlarini ajratadi:

– odamlarga jismoniy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan;

– odamlarning ongiga qaratilgan;

– aktivlarni qayta ishlashga qaratilgan;

– ma’lumotni qayta ishlashga qaratilgan [9].

Iqtisodiy adabiyotlarnining tahlili shundan dalolat bermoqdaki, hozirgi vaqtda olimlar orasida xizmatlar turlarini tasniflashda yagona yondashuv mavjud emas va iqtisodiy adabiyotlarda bu masala bo‘yicha turli nuqtai nazarlar mavajud. Masalan, A.A.Aleksunina va boshqalar tomonidan xizmat ko‘rsatish ob’ektining xususiyatiga qarab xizmatlarning quyidagi turlarini ajratadi [10]:

– inson tanasiga qaratilgan bevosita harakatlar (sog‘liqni saqlash, yo‘lovchi tashish, sartaroshxonalar va go‘zallik salonlari, sport inshootlari, restoran va kafelar);

– jismoniy ob’ektlarga qaratilgan aniq harakatlar (yuk tashish, jihozlarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish, xavfsizlik, tozalik va tartibni saqlash, kir yuvish va kimyoviy tozalash, veterinariya xizmatlari);

– inson ongiga yo‘naltirilgan nomoddiy harakatlar (ta’lim, radio, televidenie, axborot xizmatlari, teatrlar, muzeylar);

– nomoddiy aktivlar bilan nomoddiy faoliyat (banklar, yuridik va maslahat xizmatlari, sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar).

V.D.Markova xizmatlarning quyidagi besh turini ajratgan [11]:

– ishlab chiqarish: lizing, texnik xizmat ko‘rsatish (ta’mirlash), muhandislik va boshqalar;

– taqsimot: savdo, transport, aloqa;

– professional: banklar, sug‘urta, moliyaviy, reklama va boshqalar;

– iste’mol (ommaviy): uy-ro‘zg‘or va dam olish bilan bog‘liq xizmatlar;

– jamoaviy: televidenie, radio, ta’lim, madaniyat.

Bizningcha, xizmatlarning batafsil va keng qamrovli tasnifi, V.N.Staxanov, D.V.Staxanov tomonidan taqdim etilgan [13]:

– tabiatiga ko‘ra: mutlaq va utilitar;

– tayinlash bo‘yicha: shaxsiy va jamoaviy;

– taqsimot sohasi bo‘yicha: ishlab chiqarish sohasi, noishlab chiqarish sohasi;

– tijoratlashtirish darajasi bo‘yicha: tijorat va notijorat;

– tashkil etish shakli bo‘yicha: davlat va nodavlat;

– ishlab chiqarish usuli bo‘yicha: sof va aralash;

– abstraksiya darajasi bo‘yicha: ideal va real;

– qonuniyligi bo‘yicha: qonuniy va noqonuniy;

– eksternalizmga ko‘ra: jamoat tovarlari va xususiy tovarlar;

– moddiylik darajasiga ko‘ra: moddiy va nomoddiy;

– murakkablik darajasiga ko‘ra: oddiy va murakkab.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda xizmatlar turlari tasnifi yetarlicha ishlab chiqilgan, shu bilan birga, bu jarayonni tugallangan deb hisoblash mumkin emas, chunki ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalarning rivoji, mijozlar imkoniyatlarining kengayishi, iste’molchilarning xizmat ko‘rsatish sifatiga bo‘lgan talablarining ortishi yangi xizmatlarning rivojlanishi uchun

turtki hisoblanadi. Bundan tashqari, xizmatlar turlarini tasniflashda yuqorida keltirilgan yondashuvlar tadqiqot ob'ekti sifatida chakana savdo tizimining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi, bu esa ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xizmatlar turlarini tasniflashning asosiy xususiyatlaridan biri qondiriladigan ehtiyojlarning xususiyati, bunda chakana savdo korxonalarining xizmatlari tovarlarni sotish bo'yicha asosiy hamda xaridorga xarid qilish bo'yicha ko'maklashish va ulardan foydalanish; axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatish; xaridorlarga tovarlarni xarid qilish, sotib olishda qulayliklar yaratish bo'yicha qo'shimcha xizmatlardan tashkil topadi.

1. Tovarlar realizatsiyasi bo'yicha xizmatlar:

– xaridorlarni tovarlar bilan tanishtirish;

– tovarlarni yoki tovar namunasini xaridorlarga ko'rsatish;

– xaridorlarga maslahat berish;

– xaridorlar tomonidan tovarlarni tanlash;

– tovar uchun to'lovni tashkil etish;

– xarid qilingan tovarlarni qadoqlash;

– xarid qilingan tovarlarni taqdim etish;

– xaridor buyurtmasiga ko'ra xarid qilingan tovarlarn yetkazish;

2. Xaridorlarga tovarlarni xarid qilish, ulardan foydalanishga ko'maklashish xizmatlari:

– sotuvda mavjud tovarlarga buyurtmalarni qabul qilish (bevosita ishlab chiqaruvchi korxonada yoki undan tashqarida telefon orqali buyurtmani rasmilashtirish);

– sotuvda vaqtincha mavjud bo'lmagan tovarlarga buyurtmalarni qabul qilish;

– buyurtmadagi tovarlarni saralash va qadoqlash;

– xaridorlarga tovarlarni yetkazib berishni tashkil etish;

– yangi tovarlarni ishlatishni namoyon etish;

– xarid qilingan tovarlarni sotuvdan keyingi xizmatlarini tashkil etish, ya'ni yetkazib berilgan tovarlarni yig'ib berish, o'rnatish, sinovdan o'tkazish;

– tovarlar to'g'risidagi to'liq ma'lumot beruvchi shourumlarni tashkil etish va boshqarlar.

3. Axborot-maslahat xizmatlari:

– tovarlar va ishlab chiqaruvchilar to'g'risida ma'lumot berish, ijtimoiy tarmoqlar, Internet tarqatma materiallar orqali;

– tovarlarni ishlatish va boshqa xususiyatlari bo'yicha mutaxassislar tomonidan maslahatlar berish;

– dizaynerlar, kosmetologlar, dietologlar va boshqalar maslahati;

– tovarlar taqdimotini va reklamasini amalga oshirish;

– yangi mahsulotlar degustatsiyasini tashkil etish;

– talab etilganda mutaxassislar tomonidan xaxridorlarga tovarlardan foydalanish qoidalarini o'rgatish;

– alohida mahsulot turlari bo'yicha taqdimot va yarmarkalarni tashkil etish.

4. Tovarlarni xarid qilishda qulaylikni yaratish bo'yicha qo'shimcha xizmatlari:

– xaridorlar uchun dam olish maskanlarini tashkil etish;

– onalar va bolalar uchun sharoitlarni tashkil etish;

– ma’lumot olish joylarini tashkil etish;

– xaridorlar uchun ovqatlanish joylarini tashkil etish;

– xarid qilingan tovarlarni saqlash xizmatlarini tashkil etish;

– xaridorlarga tegishli narsalarni saqlash joylarini tashkil etish;

– avtomobillar uchun turargohlar va boshqa xizmatlarni tashkil etish;

– maishiy va boshqa xizmatlarni tashkil etish.

Chakana savdo xizmatlari turlarini tasniflashning muhim xususiyati ularni amalga oshirish vaqti bo‘lib, bizning fikrimizcha, bunda xizmatlar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: sotishdan oldingi xizmatlar, sotish jarayonidagi xizmatlar, kafolatli xizmatlar va kafolatsiz xizmatlar (pullik) (2-rasm).

1-rasm. Chakana savdo korxonalari xizmatlarining amalga oshirish muddatiga qarab turlari va tarkibi

Chakana savdo korxonalarida ko‘rsatiladigan savdo xizmatlari ro‘yxati ma’muriyat tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlarning assortimentiga qarab, korxonaning ixtisoslashuvi, joylashishi, xizmat ko‘rsatilayotgan hududning o‘ziga xosligi va xizmatlarning muvofiqligini hisobga olgan holda kengaytirilishi mumkin.

Savdo do‘konlari tomonidan taqdim qilinadigan xizmatlar pullik va bepul bo‘lishi mumkin. Tovarlarni sotish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bepul xizmatlarga sotuvchilarning maslahatlari, reklama axborotlarini taqdim qilish, oziq-ovqat va ayrim turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash, xaridorning

transport vositasiga katta miqdordagi tovarlarni yuklash kabilar tegishli.

Tasdiqlangan preyskurant bo‘yicha bo‘yicha alohida to‘lovlar uchun qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladigan xizmatlar savdo do‘konlari tomonidan taqdim etiladi.

Chakana savdo xizmatlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– ijtimoiy maqsadlilik;
– funksional muvofiqlik;
– axborot bilan ta’minlanganlik;
– ergonomlik;
– xizmat ko‘rsatish madaniyati;
– xavfsizlik;
– atrof-muhit muhofazasi.

Chakana savdo xizmatlarining ijtimoiy maqsadliligining talablari qo‘yidagilarni nazarda tutadi:

– savdo xizmatlari bilan ta’minlanganlik va turli kategoriyalardagi iste’molchilar uchun ommaboplik;

– taklif etilayotgan mahsulotlar assortimenti, xizmatlar shakli va sotish usullarini o‘z ichiga oluvchi iste’molchilar kutishining savdo xizmatlariga muvofiqligi;

– xizmat qilayotgan personalning professionallik darajasi;

– ko‘rsatilayotgan xizmatlar nomenklaturasi;

– xizmat ko‘rsatish tartiblarida ustuvor kategoriyaga ega bo‘lgan iste’molchilar (bolalar, nogironlar, jismoniy imkoniyatlari chegaralangan insonlar va b.) uchun muayyan imtiyozlar va shart-sharoitlarning mavjudligi.

Savdo xizmatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligi bino va savdo ob’ekti maydonini loyihalashtirish, ish tartibini o‘rnatish, sotish usulini tanlash, tovarlar assortimentini shakllanishi kabilarda hisobga olinadi.

Chakana savdo xizmatlarining funksional muvofiqligi bo‘yicha talablar qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

– chakana savdo korxonasining o‘rnatilgan ish tartibiga rioya qilish, tovarlarning assortiment ro‘yxatiga rioya qilish, xizmat ko‘rsatish vaqti va korxonada o‘rnatilgan talablar bo‘yicha buyurtmani kutish vaqtiga muvofiqligi, kassa chekini rasmiylashtirish va hisob-kitobning aniqligi kabilarni o‘z ichiga oluvchi xizmat ko‘rsatishning aniqligi va zamonaviyligi;

– yaxshi sifatga ega tovarlarning mavjudligi;

– turli xil ko‘rinishdagi tovarlar va xizmatlar iste’molchilarini tanlash uchun shart-sharoitlarni ta’minlash;

– xizmat ko‘rsatuvchi personalning kasbiy talablarga muvofiqligi, shuningdek, personal kompetentligi va malakasi, iste’molchilar bilan muloqotga kirishish qobiliyati, bilimi va kasbiy etika xulq-atvoriga rioya qilishi.

Axborot bilan ta’minlanganlik talablari tovarlar va xizmatlar to‘g‘risida, tovarlar assortimenti va xizmatlar nomenklaturasi, xizmatlarni bajaruvchilar, xizmatlarni ko‘rsatish qoidalari va shart-sharoitlari to‘g‘risida, shuningdek, iste’molchilar huquqlari va tovarlarni sotish qoidalari to‘g‘risida ishonchli axborotlarning mavjudligini nazarda tutadi. Iste’molchilar uchun axborotlarning mazmuniga talablar O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi va alohida turdagi tovarlarni sotish qoidalari asosida aniqlanadi.

Chakana savdo xizmatlarining ergonomlik talablari qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

– tovarlarni xarid qilishda iste'molchilar uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, savdo maydonchalarida tovarlarni qulay joylashtirish va namoyish qilish, kirish, chiqish, seksiyalar, jihozlar, mebellarning joylashishi, liftlar, eskalatorlar va tervalatorlarning mavjudligi va boshqalar;

– savdo maydonchasidagi yoritish, ventilyatsiya, chang, shovqin, harorat darajasiga, xodimlarga, binolarni, ish joylarini, jihozlarni va boshqalarni saqlash uchun gigienik talablar;

– xaridorlar tomonidan qabul qilish imkoniyatlari bo'yicha axborotlarning mavjudligi;

– savdo xizmatlari etikasiga bo'lgan talab stilistik birlikni, kompozitsiyaning yaxlitligi va badiiy ifodaliligini, dizaynning uyg'unligini, shu jumladan savdo korxonasining binolari va intereri uchun arxitektura-rejalashtirish yechimlari, binoning jabhasi dizayni, belgilari, reklama materiallari, tovar nomlari va belgilari, derazalarni bezash, tovarlarni ko'rsatish, ish joylarini tashkil etish va xodimlarning tashqi ko'rinishini ro'yxatga olish.

Xizmat ko'rsatish madaniyatiga bo'lgan talab xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning kasbiy mahorati va xulq-atvor etikasini ta'minlaydi hamda xushmuomalalik, kompetensiyasi, xaridorlar uchun xodimlarning mavjudligi, yuqori mahorat darajasi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Chakana savdo xizmatlarining xavfsizligiga qo'yiladigan talablar bunday xizmatlarni ko'rsatish xaridorlarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz shart-sharoitlarni, ularning mol-mulki xavfsizligini va normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan tovarlarni sotishning amaldagi qoidalariga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan.

Xulosa va takliflar

1. Xizmatlar tasnifi – bu xizmatlarning alohida turlarga bo'linishi bo'lib, u iqtisodiy fanda ham, bozor sub'ektlarining amaliy faoliyatida ham zarurdir. Xizmat turlarini tasniflashdan maqsad ularni mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida «chakana savdo xizmati» tushunchasining o'zgargan mazmuniga muvofiq tizimlashtirishdan iborat. Chakana savdo xizmatlari korxonalarining xizmat turlarini tasniflash ularning savdo jarayonida tutgan o'rni va rolini aniqlash hamda alohida xizmat turlarining asosiy farqlovchi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

2. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda xizmatlar turlari tasnifi yetarlicha ishlab chiqilgan, shu bilan birga, bu jarayonni tugallangan deb hisoblash mumkin emas, chunki ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalarning rivoji, mijozlar imkoniyatlarining kengayishi, iste'molchilarning xizmat ko'rsatish sifatiga bo'lgan talablarining ortishi yangi xizmatlarning rivojlanishi uchun turtki hisoblanadi. Bundan tashqari, xizmatlar turlarini tasniflashda yuqorida keltirilgan yondashuvlar tadqiqot ob'ekti sifatida chakana savdo tizimining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi, bu esa ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

3. Xizmatlar turlarini tasniflashning asosiy xususiyatlaridan biri qondiriladigan ehtiyojlarning xususiyati, bunda chakana savdo korxonalarining xizmatlari tovarlarni sotish bo'yicha asosiy hamda xaridorga xarid qilish bo'yicha ko'maklashish va

ulardan foydalanish; axborot va maslahat xizmatlari ko‘rsatish; xaridorlarga tovarlarni xarid qilish, sotib olishda qulayliklar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha xizmatlardan tashkil topadi.

4. Chakana savdo xizmatlarini tasniflashda uning asosiy xususiyatlari e’tiborga olinishi lozim. Ayrim tasniflash guruhlari kesishmasida namoyon bo‘ladigan xizmat ko‘rsatish tizimining paydo bo‘lishini ta’kidlash kerak, unda bir xil xizmatlar turli guruhlarga ajratilishi mumkin. Masalan, tovarlarni chakana sotish bo‘yicha xizmatlar quyidagi mezonlarga ko‘ra bir nechta guruhlarga kiradi: muhimlik darajasi, mahsulot, tovarlar bilan o‘zaro ta’siri bo‘yicha; mijozning mavjudligiga bo‘lgan ehtiyoj darajasiga ko‘ra; sezuvchanlik darajasiga ko‘ra; tayinlash bo‘yicha va hokazo. Ushbu holat muayyan turdagi faoliyatni baholash uchun mos bo‘lgan bunday belgilarni tanlash imkonini beradi, bu esa xizmatlarni tasniflash tizimining moslashuvchan xususiyatini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iktisodiyoti fanidan maruzalar matni I kism. Samarkand. SISI, 2007-B 128.

2. Antonova N.V. Psixologiya upravleniya. - M.: Vыsshaya shkola ekonomiki, 2010. – S. 12.

3. Батраева Э. А. Изучение спроса в общественном питании: теория и практика: монография / Э. А. Батраева; Краснояр. гос. торг.-экон. ин-т. - Красноярск : КрасГУ, 2002. - 236 с.

4. Дзахмишева И.Ш. Методика отсенки конкурентоспособности услуг в розничной торговой сети / И. Ш. Дзахмишева // Маркетинг в России и за рубежом. - 2004.-№3.-С. 93-108.

5. Исследование рынка образовательных услуг высшей школы.: монография / Н: Н. Терещенко [и др;]; под общ. ред. канд.экон. наук проф. Н. Н.Терещенко; Краснояр. гос. торг.-экон: ин-т. - Красноярск, 2005. - 267 с.

6. ИСО 9004.2:1991 Общее руководство качеством. Элементы системы качества. Ч. 2. Руководящие указания по услугам [Электронный ресурс]. — Режим доступа: хттп://www.ремгост.ру.

7. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, протсента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – Москва: МИЕМП, 2010.

8. Котлер Ф. Основы маркетинга. – Литрес, 2021. – 698 с.

9. К.Хаксевер, Б.Рендер, Р.Рассел, Р.Мердик Управление и организатсия в сфере услуг, 2-е изд. / Пер. с англ. Под ред. В. В. Кулибановой. - СПб: Питер, 2002. – 752 с.: ил. - (Серия «Теория и практика менеджмента»).

10. Маркетинг. в отраслях и сферах деятелности / под ред. В. А. Алексунина. - М.: Маркетинг, 2001. - 516 с.

11. Маркова В. Д. Маркетинг в отраслях и сферах деятелности : учебник / В. Д. Маркова. – М., 2001. – 516 с.

12. Семин О. А. Сервис в торговле. Маркетинг и управление качеством торговых услуг : учеб. пособие. В 3 кн. Кн. 1 / О.А. Семин, В.А. Сайдашева, В.В. Панюкова. - 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Дело и сервис, 2006. – 216 с.

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI NAZARIY VA AMALIY JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISH UCHUN INTEGRATIV YONDASHUV.

M.I.Kamolova

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros Xalqaro universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Kamolova Mohinur Iskandarovna
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros Xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
Tel: *+99899 038 79 26*
Email: *runihon@mail.ru*

Received: 19 March 2025
Revised: 24 March 2025
Accepted: 18 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turizm xizmatlari sifatini oshirishning nazariy asoslari va amaliy usullarini qamrab oladi, shuningdek, turizm industriyasining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvning maqsadi nazariy modellarni taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan haqiqiy amaliy usullar bilan birlashtirishdir. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, turizmga ko'proq e'tibor berish iqtisodiy rivojlanishni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.*

Kalit so‘zlar. *Turizm xizmati, sifat, integrativ, turistik tashkilot, tizimli yondashuv.*

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ТЕОРЕТИЧЕСКОМУ И ПРАКТИЧЕСКОМУ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ КАЧЕСТВА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ.

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические основы и практические методы повышения качества туристических услуг, а также подчеркивается необходимость системного подхода для обеспечения устойчивого развития туристической отрасли. Целью данного подхода является объединение теоретических моделей с реальными практическими методами, направленными на повышение качества предоставляемых услуг. Это исследование показывает, что большее внимание к туризму может значительно улучшить экономическое развитие.*

Ключевые слова. *Туристическая услуга, качество, интегратив, туристическая организация, системный подход.*

INTEGRATIVE APPROACH TO THEORETICAL AND PRACTICAL IMPROVEMENT OF THE QUALITY OF TOURISM SERVICES.

Abstract. *The article examines the theoretical foundations and practical methods of improving the quality of tourism services, and emphasizes the need for a systematic approach to ensure the sustainable development of the tourism industry. The purpose of this approach is to combine theoretical models with real practical methods aimed at improving the quality of services provided. This research shows that greater attention to tourism can significantly improve economic development.*

Keywords. *Tourist service, quality, integrative, tourism organization, systematic approach.*

Kirish.

Turizm xizmatlari sohasining kengayishi turizm industriyasining ham, alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar darajasida ham rivojlanish strategiyasining ajralmas elementi sifatida sifat boshqaruvi tizimini ishlab chiqish va joriy etish zarurligini taqozo etadi. Bu vazifani amalga oshirishga amaliy yondashish chora-tadbirlar, tizimlar va boshqaruv usullarini umumiy va maqsadli qo‘llashga yo‘naltirilgan turizm xizmatlari sifati ustidan davlat nazorati va boshqaruvi mexanizmini shakllantirishdan iborat.

Xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish tizimi joriy etish va ishlab chiqish jarayonida turizm sohasidagi tashkilotlarning boshqa ijtimoiy va ishlab chiqarish tizimlari bilan birlashtirilgan. Bu, birinchi navbatda, turizm mahsulotini loyihalash, ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, texnologik tayyorgarlik, moddiy va moliyaviy resurslar, ish sifati va malakali kadrlar tayyorlashni boshqarishga tegishli. Ushbu tizimlarning umumiyligi turizm tashkiloti ishchi kuchi faoliyatining barcha jabhalarini, jumladan ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik sohalarni qamrab oladi.

Turizm tashkilotlarida xizmatlar sifatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish innovatsion yondashuvlardan foydalanmasdan, hamda turistlar va turagentlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda xizmat ko‘rsatish va boshqaruv xodimlarining faol ishtirokisiz mumkin emas[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Turistik korxonalarining rivojlanishi va faoliyatining ko'plab nazariy jihatlari xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarida o'z aksini topgan: Jumladan, xorijiy olimlardan O. Andrash [2], V. Herasimenko [3], L. Diadechko [4], T. Tkachenko [5]. Mualliflar o‘z asarlarida turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirishning asosiy omillari va xususiyatlari hamda turistik xizmatlar sifatini baholashga yetarlicha e’tibor bermaganlar. Respublikamizda tadqiqot olib borayotgan E.S.Umronov o`z tadqiqot asarida rivojlanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq holda turizm korxonalarining tadbirkorlik faoliyati samaradorligi ko'rib chiqiladi[6]. Shu bilan birga, N.N.Safarova fikricha, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizmning ta’sirini istiqbollashtirishda uning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida aholi daromadlarini va davlatlar o‘rtasida masofa va viza masalalarini yengillashtirishga e’tibor qaratilgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda nazariy umumlashtirish, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Amaldagi metodikalar turistik xizmatlar sifatini takomillashtirishni har tomonlama baholash imkonini berdi. Nazariy umumlashtirish o‘rganilayotgan turistik xizmatning asosiy jihatlarini aniqlash va umumiy qonuniyatlarni shakllantirish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil tizimning turli elementlari orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun ishlatilgan. Tizimli tahlil, o'z navbatida, tadqiqot obyektini uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda har tomonlama ko'rib chiqishni ta'minlandi. Bundan tashqari, iqtisodiy strategiyani tanlashda korxona resurslari, bozor sharoitlari va potensial xatarlarni hisobga olish zarur. Bunda, Porterning beshta kuch modeli kabi strategik tahlil

vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati iste'molchilar talabi strukturasini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va turizm sanoatida raqobatbardoshlikning asosiy elementi hisoblanadi. Shuningdek, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, ekskursiya tashkilotlari va sayyohlik agentliklarida ijobiy tajribaga ega bo‘lgan sayyohlar odatda ushbu korxonalar haqidagi ma’lumotlarni faol qo‘llab-quvvatlovchi va tarqatuvchi sifatida harakat qilishadi.

Xizmatlar sifati darajasiga turli hal qiluvchi omillar, jumladan, taklif etilayotgan xizmatlar va tovarlarning keng assortimenti, ularning ma'lum bir iste'molchi ehtiyojlariga moslashuvi, shuningdek, ularni taqdim etish tezligi va o'z vaqtida taqdim etilishi ta'sir qiladi. Ushbu omillar birgalikda iste'molchining turistik mahsulot bilan o'zaro munosabat tajribasini idrok etishi va qoniqishini belgilaydi. Xizmat sifatini yaxshilashga infratuzilma turizm sohasida barqaror raqobatdosh ustunlikka erishish uchun juda muhimdir.

Turistik xizmatlar sifatini boshqarish tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak, ya'ni turistik industriya subyektlarida turistik xizmatlar sifatini boshqarish tizimi joriy etilishi kerak. Bunday tizim - turistik mahsulot sifatini boshqarish uchun zarur bo'lgan mas'uliyat, jarayonlar va resurslarning aniq taqsimlangan tashkiliy tuzilmasi. Shuni ta`kidlash kerakki, turistik xizmatlar sifatini yaxshilash ko'p qirrali jarayon bo'lib, u infratuzilma va foydalanish imkoniyatidan tortib, xavfsizlik va atrof-muhitga qadar turli jihatlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi. Quyidagi jadvalda turistik xizmatlar sifatini oshirishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan kompleks yondashuvning asosiy komponentlari ko‘rsatilgan(1-jadval).

1-jadval

Turizm xizmatlari sifatini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish uchun kompleks yondashuv

Asosiy jihat	Nazariy yondashuv	Amaliy qo‘llanma
Xizmat ko‘rsatish sifati	Xizmat ko‘rsatish psixologiyasi, sifatli xizmat ko‘rsatish modellari (masalan, SERVQUAL).	Xodimlarni o‘qitish, xizmat ko‘rsatish standartlarini joriy etish, fikr-mulohaza tizimini yaratish.
Infratuzilma	Infratuzilma rivojlanishi modellari, xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi va mavjudligi nazariyalari.	Transportni modernizatsiya qilish, mehmonxona xizmatini yaxshilash, yangi turistik ob'ektlar yaratish.
Mavjudlik	Ma'lumot va xizmatlarning keng qatlamlar uchun foydalanishi prinsiplari.	Onlayn platformalarni rivojlantirish, bronlash va to‘lov tizimini soddalashtirish.
Tozalikka va xavfsizlikka e'tibor	Xavfsizlik prinsiplari, ekologik turizm, xavf boshqaruvi.	Xavfsizlik standartlarini o‘rnatish, ekologiyani yaxshilash, atrof-muhit sifatini nazorat qilish tizimlarini joriy etish.
Narxlar	Narx shakllanish modellari, turistik xizmatlarning qiymatini baholash usullari.	Moslashuvchan narx modelini qo‘llash, aksiyalar va chegirmalar yaratish, narx siyosatini optimallashtirish.

Shunday qilib, turistik xizmatlar sifatini oshirishga kompleks yondashuv nazariy tamoyillarni real harakatlar va strategiyalar bilan birlashtirishga asoslanadi. Nazariy modellar va yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishi yuqori sifatli turizm mahsulotini yaratishga yordam beradi, bu esa, o‘z navbatida, iste’molchilar tajribasini yaxshilaydi va butun soha rivojiga xizmat qiladi.

Turistik tashkilot o'z faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'llarini belgilashi, ma'lum ko'rsatkichlar bo'yicha maqbul iqtisodiy strategiyani tanlashi va ushbu ko'rsatkichlarning bajarilishini ifodalovchi tegishli natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu jarayon, Xalqaro turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm korxonasining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega[8].

Ta’kidlash kerakki, turistik korxona o’zining rivojlanishini asosiy yo’nalishlarini shakllantirishi va muayyan mezonlar asosida muvofiq iqtisodiy strategiyani tanlashi hamda bu mezonlarning bajarilishini tavsiflovchi mos ko’rsatkichlarga erishishga intilishi zarur. Aytish joizki, turizm xizmati sifati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiyotning holati barqaror infratuzilmani integratsiyalashuvi doirasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va innovatsiyalarni amalga oshirishga ta'sir qiladi[9]. Turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyati turistik yo‘nalishlarning jozibadorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Yangi sayyohlik mahsuloti va xizmatlarini yaratish va ilgari surish, shuningdek, mavjudlarini takomillashtirish raqobatdosh ustunliklarning shakllanishiga va tashrif buyuruvchilarni yanada ko‘proq jalb etishga xizmat qilmoqda. Barqaror infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, yashil transport tizimlari, energiya tejovchi binolar va chiqindilarni boshqarish tizimlari muhim sarmoya va innovatsion yechimlarni talab qiladi, tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratadi.

Xulosa va takliflar

1. Turizm xizmatlari sifatini doimiy oshirib borish mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish va turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Integratsiyalashgan yondashuvlarni faol amalga oshiruvchi va tizimlikka e'tibor qaratadigan turizm kompaniyalari va hududlari sayyohlar uchun yanada jozibador bo'lib, bu sayyohlar oqimining ko'payishiga, imidjning yaxshilanishiga va investitsion jozibadorlikning oshishiga olib keladi.
2. Turizm xizmatlari sifatini oshirishga kompleks yondashuv ko‘p qirrali va tizimli hisoblanadi. U xizmatlar sifati, infratuzilma, foydalanish imkoniyati, xavfsizlik, narx va ekologiya kabi turli jihatlarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi, bu esa mijozlar uchun yuqori sifatli turizm tajribasini yaratishga yordam beradi. Bunday yondashuv bozor ehtiyojlariga samarali javob berish va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.
3. Inklyuzivlikni hisobga olgan holda turizm xizmatlari uchun milliy va xalqaro sifat standartlarini ishlab chiqish. Nogironlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarning ehtiyojlariga e'tibor qaratgan holda, xizmat ko'rsatishdan tortib to foydalanish imkoniyatigacha bo'lgan sifatning barcha jihatlarini o‘z ichiga olgan standartlarni yaratish kerak.

4. Sayyohlik kompaniyalari xodimlarini muntazam ravishda o'qitish va sertifikatlash. Inklyuziv xizmat ko‘rsatish sohasida xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish, barcha toifadagi sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash bilan bog‘liq aniq muammolarni hal etishga qaratilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rafaela Correia Cardoso, Ana Paula Lisboa Sohn, Marcos Ferasso, Sinval Pereira Junior “Open innovation in the tourism field: A systematic literature review” Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, Volume 10, Issue 3, 2024.

2. Andrash, O. (2012), “Estimation of investment attractiveness of enterprises of tourism industry”, Visnyk NTU “KhPI”. Tematychnyi vypusk: “Tekhnichnyi prohres i efektyvnist vyrobnytstva”, no. 8, pp. 3–12.

3. Herasymenko, V.H., Halasiuk, S.S., Nezdoimynov, S.H. et al. (2013), Rynky turystychnykh posluh: stan i tendentsii rozvytku [Markets of tourist services: the state and trends of development] monograph, Astroprynt, Odesa, Ukraine, 304

4. Diadechko, L. (2007), Ekonomika turystychnoho biznesu [Economics of tourism], Tsentr uchbovoi literatury, Kyiv, Ukraine, 224 p.

5. Tkachenko, T. (2009), Stalyi rozvytok turyzmu: teoriia, metodolohiia, realii biznesu [Sustainable tourism development: theory, methodology, business realities], monograph, Kyiv. nats. toh.-ekon. un-t, Kyiv, Ukraine, 537 p.

6. Содирович, УЭ (2022). Совершенствование организационно-экономических механизмов развития деловой активности в туристических предприятиях. Европейский многопрофильный журнал современной науки , 9 , 73–79

7. Сафарова Н.Н. Миллий иқтисодиёт барқарор ривожланишига туризм соҳаси таъсирини прогнозлаштириш услубиятини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.Тошкент 2018 й. -19-21 б.

8. “The official site of the World Tourism Organization”, available at: www.unwto.org (access date April 20, 2019).

9. Sharma, Gagan Deep, Babak Taheri, Dariusz Cichon, Jaya Singh Parihar, и Aeshna Kharbanda. 2024. «Using innovation and entrepreneurship for creating edge in service firms: A review research of tourism and hospitality industry». Journal of Innovation & Knowledge.

RESPUBLIKADA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.

Sh.S.Sharifov, U.A.Nazarov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Shuhrat Sharifov Saidahmadovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti
Email: *shuhratsharifov@gmail.com*
Tel:*+998933360775*

Nazarov Ulmas Alisherovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi magistranti
Email: *ulmas94nazarov@gmail.com*
Tel: *+998333579494*

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim xizmatlari tizimini innovatsion rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ushbu sohada samaradorlikni oshirish bo'yicha xalqaro tajribalardan keng ko'lamda foydalanish, ta'lim xizmatlari bozorining konyunkturasi o'zgarishi hamda oliy ta'lim muassasalarining malakali ilmiy salohiyatga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, oliy ta'lim xizmatlari, ta'lim xizmatlari bozori, innovatsiyalar, innovatsion faoliyat, samaradorlik va marketing.*

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ.

Аннотация. *В данной статье рассмотрена социально-экономическая значимость инновационного развития системы услуг высшего образования, широкого использования зарубежного опыта повышения эффективности в этой сфере, изменения конъюнктуры рынка образовательных услуг, предоставления высшего образования. обсуждены учреждения с кадрами с квалифицированным научным потенциалом, разработаны предложения и рекомендации.*

Ключевые слова: *высшее образование, услуги высшего образования, инновации, инновационная деятельность, эффективность, эффективность, маркетинг.*

ANALYSIS OF THE STATE AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE REPUBLIC.

Annotation. *In this article discusses the socio-economic significance of the innovative development of the system of higher education services, the widespread use of foreign experience in improving efficiency in this area, changes in the educational services market, and the provision of higher education. institutions with personnel with qualified scientific potential were discussed, proposals and recommendations were developed.*

Keywords: *higher education, higher education services, market of educational services, innovations, innovative activity, efficiency and marketing.*

Yangi O‘zbekistonda innovasiyalar va fan sig‘imi yuqori tarmoqlarni rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlash strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim sohasida jahonda munosib o‘rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi va OTMlarining bosh vazifasi sifatida talabalarga innovasion, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni echa oladigan oliy ta'lim berishga qaratildi.

Respublikamiz iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlari hamda tizimlarida islohotlar amalga oshirilayotgan, xususan, oliy ta'lim tizimida keskin o‘zgarishlar kechayotgan hozirgi davrda ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish, fan, ta'lim, ishlab chiqarishni integrasiyalashi hamda OTMlarining xalqaro reytinglardagi o‘rnini muntazam oshirib borish masalasi birlamchi vazifalardan biri hisoblanadi.

OTM tomonidan taqdim qilingan ta'lim xizmatlari sifati davlat organlari tomonidan rasmiy akkreditasiya bo‘yicha baholash o‘tkazilishi asosida amalga oshiriladi. Ularning bitiruvchilari bilimi natijalari esa ish beruvchi (tadbirkor)lar tomonidan baholanadi. Ammo aytish kerakki, qaysi muhim omillar oliy ta'lim jarayoniga ta'sir etadi? Albatta, bizning fikrimizcha, bularga quyidagilar kiradi:

- oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish;
- qulay va zamonaviy ta'lim sharoitlarini yaratish;
- OTMlarning akademik va moliyaviy mustaqilligi va qo‘shimcha pullik ta'lim xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatlarining mavjudligi;
- xususiy oliy ta'lim muassasalarini yaratilishi va rivojlanishi;
- innovasion va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etilishi;
- kadrlar tayyorlashning ko‘p darajali tizimini joriy etilishi;
- OTMlarning yuqori rivojlangan tashkiliy-iqtisodiy tarkibining shakllanganligi;
- ta'lim jarayonining yuqori darajada texnik qurollanganlik va boshqalar.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida talabalarning bilimini yuqori darajaga ko‘taruvchi eng muhim resurs – ilmiy-pedagogik kadrlar hisoblanadi. Ilmiy-pedagogik kadrlarning malakasi, kasbiy va pedagogik mahorati, kompetensiyasi, ilm-fanni rivojlantirishdagi munosib hissasi kabi bir qator omillar kelgusida OTM bitiruvchilarining bilim va mutaxassislik darajasini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun OTM rahbariyati ilmiy-pedagogik kadrlarning rolini oshirish, motivasiya berish va samarali boshqarish usullarini joriy etishi kerak. Ushbu holat oliy o‘quv yurtlarining deyarli barcha faoliyat ko‘rinishlari va turlari bilan uzviy bog‘liqdir. Oliy ta'lim tizimida o‘quv jarayonlari sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish raqobatbardoshlikka erishishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda faoliyatni amalga oshirayotgan OTMlari soni 2016-2022 yillarda 154 taga ko‘payib, bu ko‘rsatkich mazkur yillar oralig‘ida 2,2 martaga oshgan. Tahlil qilinayotgan yillarda OTMlarida o‘iyotgan talabalar

soni OTMlar soniga muvofiq ravishda 2016/2017 o‘quv yilida 268,3 mingtadan 2021/2022 o‘quv yilida 808,0 mingtaga ko‘paygan.

Respublika OTMlarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil oladigan talabalar soni 2016/2017 o‘quv yilida 267,9 mingtani, 2021/2022 o‘quv yilida 553,4 mingtani tashkil qilgan. Ta'limning kechki bo‘limiga talabalarning qabuli 2019/2020 o‘quv yilidan boshlanib, bu ko‘rsatkich hozirgi kunda 9,0 mingtani tashkil qilmoqda. Shuningdek, oliy ta'limning sirtqi ta'lim shakli bo‘yicha o‘qiyotganlar soni 2016/2017 o‘quv yilida bor-yo‘g‘i 400 ta talaba o‘qiyotgan bo‘lsa, 2020/2022 o‘quv yilda bu ko‘rsatkich 228,0 mingtaga ko‘paygan. Respublika miqyosida har 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni 2016/2017 o‘quv yilida 84 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich muntazam o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2021/2022 o‘quv yilida 231 tani tashkil qilgan. Tahliliy ko‘rsatkchilarga nazar solsak, 2019-2022 yillarda OTMlarga qabul qilingan jami talabalar soni 2021/2022 o‘quv yilida 235,8 ming kishiga, ya'ni tahlil etilayotgan yillarda 3,8 martaga ko‘paygan. Shundan kunduzgi bo‘limga qabul qilingan talabalar soni 2,7 martaga oshgan. Mamlakatimizda har 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni 48,0 %ga o‘sgan.

1-jadval

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan universitetlar soni (o‘quv yili boshiga, birlik)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						2016-2022 y.y. o‘sish, %
		2016/2017	2017/2018	2018/2019	2019/2020	2020/2021	2021/2022	
1.	Universitetlar soni, birlikda	27	27	45	58	64	78	2,9 marta
2.	Ulardagi talabalar soni, ming kishi	126,3	140,2	192,3	244,0	328,7	461,4	3,6 marta
3.	Qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	29,2	42,5	66,5	78,5	98,1	120,9	4,1 marta
4.	Bitirgan mutaxassislar soni, ming kishi	32,5	33,7	34,7	36,3	46,8	61,1	1,9 marta

Hozirgi kunda universitetlarning asosiy vazifalari – innovasion faoliyatni rivojlantirish, istiqbolda mutaxassislarga talabni aniqlash, ta'lim hamda biznes o‘rtasidagi samarali integrasion jarayonlarni rivojlantirish hamda OTMlarda ilmiy tadqiqot va tajriba kostruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirishning tashqi manbalarini kengaytirish hamda xorijiy OTMlar bilan hamkorlikning zamonaviy usullaridan keng foydalanish kabilar hisoblanadi.

Respublikamizda faoliyatini amalga oshirayotgan OTMlari soni 2016/2017 o‘quv yilida 27 ta bo‘lan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021/2022 o‘quv yilida 78 tani tashkil qilgan. Universitetlarda tahsil olayotgan talabalar soni ham ushbu o‘quv yillari mobaynida 461,4 ming nafarga, ya'ni 3,6 martaga oshgan.

Shuningdek, mazkur yillarda universitetlarga qabul qilingan talabalar soni 4,1 marta va bitirgan mutaxassislar soni 1,9 mingtaga o‘sgan.

Oliy ta'lim faqat ijtimoiy zarurat hisoblanmasdan, balki milliy va hududiy darajada mutaxassislar taklifini ham shakllantiradi.

Respublikamizda hududlar bo‘yicha oliy ta'lim muassasalari soni 2016/2017 o‘quv yilida atiga 70 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021/2022 o‘quv yilida 154 taga oshgan. Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Navoiy va Namangandan tashqari viloyatlarning deyarli barchasida OTMlari soni bir necha martaga ko‘paygan. Xususan, Toshkent shahrida – 39 tadan 67 taga, Samarqand viloyatida – 6 tadan 14 taga, Farg‘ona viloyatida – 3 tadan 11 taga oshgan.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta'lim muassasalari talabalari soni (o‘quv yili boshiga, ming kishi)

Hududlar (viloyatlar) nomi	Yillar						2015-2020 y.y. o‘sish, %
	2016/ 2017	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	17,5	19,4	22,3	25,5	35,5	46,6	2,7 marta
viloyatlar:							
Andijon	17,6	19,2	21,7	26,0	30,9	47,7	2,7 marta
Buxoro	14,0	15,9	20,9	24,8	35,6	44,0	3,1 marta
Jizzax	10,9	12,5	14,7	18,0	23,4	30,0	2,8 marta
Qashqadaryo	14,3	15,9	18,4	22,5	27,9	44,2	3,1 marta
Navoiy	8,8	9,7	11,6	13,6	17,0	21,7	2,5 marta
Namangan	11,5	13,3	16,7	20.1	26,0	41,8	3,6 marta
Samarqand	26,8	29,1	34,9	41,1	54,8	70,8	2,6 marta
Surxondaryo	7,4	9,3	15,1	20,1	25,6	39,9	5,4 marta
Sirdaryo	3,9	4,6	6,8	9,1	9,6	16,8	4,3 marta
Toshkent	7,3	8,1	14,9	20,9	28,5	42,8	5,9 marta
Farg‘ona	18,3	21,5	27,2	35,8	48,4	62,3	3,4 marta
Xorazm	9,1	10,5	13,4	16,2	22,8	28,7	3,2 marta
Toshkent sh.	100,8	108,7	121,6	147,3	185,5	271,1	2,7 marta
Respublika bo‘yicha	**268,3**	**297,7**	**360,2**	**441,0**	**571,5**	**808,4**	**3,0 marta**

Hududlar bo‘yicha yillar kesimida oliy ta'lim muassasalari talabalari soniga nazar solsak, respublikada 2016/2017 o‘quv yilida jami 268,3 mingta talaba OTMlarda tahsil olgan bo‘lsa, 2021/2022 o‘quv yilida esa bu ko‘rsatkich 808,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan 2016/2017 o‘quv yiliga nisbatan 3,0 martaga oshgan. Mamlakatimiz OTMlarida tahsil olayotgan talabalarning 33,5 %i - Toshkent shahri, 8,8 %i - Samarqand viloyati, 7,7 %i - Farg‘ona viloyati, 5,9 %i - Andijon, 5,5 %i - Qashqadaryo, 5,4 %i – Buxoro, 5,3 %i - Toshkent, 5,2 %i - Namangan, 4,9 %i - Surxondaryo, 3,7 %i – Jizzax, 3,5 %i - Navoiy va 2,1 %i Sirdaryo viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan (2-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni (o‘quv yili boshiga, ming kishi)

Hududlar (viloyatlar) nomi	Yillar						2016-2020 y.y. o‘sish, %
	2016/ 2017	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3,8	5,5	6,9	7,2	11,4	10,4	2,7 marta
viloyatlar:							
Andijon	3,5	4,8	5,8	7,6	7,9	10,4	3,0 marta
Buxoro	3,2	4,7	6,8	6,6	11,5	12,3	3,8 marta
Jizzax	2,4	3,7	4,9	6,0	8,3	9,4	3,9 marta
Qashqadaryo	3,2	4,2	5,2	6,1	7,9	11,0	3,4 marta
Navoiy	2,1	2,8	3,5	3,7	5,5	5,6	2,7 marta
Namangan	2,6	4,0	5,9	6,3	7,6	10,5	4,0 marta
Samarqand	6,0	7,7	10,4	12,6	18,9	19,9	3,3 marta
Surxondaryo	1,6	3,0	5,6	6,3	9,8	10,4	6,5 marta
Sirdaryo	0,9	1,5	2,7	3,1	1,7	4,8	5,3 marta
Toshkent	1,6	3,1	4,8	6,7	9,7	11,7	7,3 marta
Farg‘ona	4,2	7,2	9,5	12,0	14,1	13,7	3,3 marta
Xorazm	1,9	3,0	4,5	4,6	6,9	7,3	3,8 marta
Toshkent sh.	24,0	27,5	38,0	49,3	53,7	98,5	4,1 marta
Respublika bo‘yicha	**61,2**	**82,7**	**114,5**	**138,1**	**174,9**	**235,9**	**3,9 marta**

O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni 2016/2017 o‘quv yilida 61,2 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2021/2022 o‘quv yilida 235,9 mingtaga oshgan (2.5-jadval).

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi :

- oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovasion infratuzilmasini shakllantirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;
- oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- oliy ta'lim tizimining investisiyaviy jozibadorligini oshirish,

xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimida ro‘y berayotgan tub islohotlar fan, ta'lim va biznes o‘rtasidagi integrasion jarayonlarning yangi, yanada samarali tizimini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, bunda samarali o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish muammolarni hal qilish bo‘yicha konstruktiv muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Iqtisodiyotning innovasion rivojlanishi sharoitida zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlari uchun malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab va taklif muvozanatiga erishish keskin muammolardan biri hisoblanadi. Bularning barchasi kognitiv (bilim, tafakkur, kasbiy bilim va malaka), boshqaruv (tuzilmasi va boshqaruvi, ta'lim tashkilotlarining miqyosi va soni), uslubiy (zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari asoida o‘quv jarayonini tashkil qilish), qadriyatlar (o‘qitish jarayoning mazmuni, OTMlarining roli va faoliyatini xalqaro, milliy, hududiy darajalarda qayta ko‘rib chiqish) jiddiy transformasiyalashuvni zarurat etadi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda faoliyatni amalga oshirayotgan OTMlari soni 2016-2022 yillarda 154 taga ko‘payib, bu ko‘rsatkich mazkur yillar oralig‘ida 2,2 martaga oshgan. Tahlil qilinayotgan yillarda OTMlarida o‘iyotgan talabalar soni OTMlar soniga muvofiq ravishda 2016/2017 o‘quv yilida 268,3 mingtadan 2021/2022 o‘quv yilida 808,0 mingtaga ko‘paygan. Respublika OTMlarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil oladigan talabalar soni 2016/2017 o‘quv yilida 267,9 mingtani, 2021/2022 o‘quv yilida 553,4 mingtani tashkil qilgan. Ta'limning kechki bo‘limiga talabalarning qabuli 2019/2020 o‘quv yilidan boshlanib, bu ko‘rsatkich hozirgi kunda 9,0 mingtani tashkil qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Axunova G. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari marketingi muammolari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.;

2. Баженова В.С. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы. – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000-216 с.

3. Воронин А.В. Университет как системообразующий региональный научно- инновационный комплекс // Высшее образование в России. – 2010. – №8–9. – С. 62-68.

4. Высшее образование сегодня. 2008. № 8. Издательская группа «Логос», 2008. - С. 5.

5. Гребенюк И.И., Голубцов Н.В., Кожин В.А., Чехов К.О., Чехова С.Э., Федоров О.В. Анализ инновационной деятельности высших учебных заведений России: монография. / под. ред. И.И. Гребенюк – М.: Изд-во «Академия Естествознания», 2012. – 464 с.

6. Захарова Л.В. Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. конд. экон. наук / Белград. 2002-235с.;

7. Лукашенко М.А. Высшие учебное заведение на рынке образовательных услуг: актуальные проблемы управления. – М.: Изд. Маркет ДС, 2003. -358 с.;

TA'LIM XIZMATLARI BOZORI RIVOJLANISHIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARI TADQIQOT OB'EKTI SIFATIDA.

F.K.Ismolova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi mustaqil tatqiqotchisi.
Email:
feruzakubaymurodovna@gmail.com
Tel: +99897 9154686

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Anotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish jarayonlari va u bilan bog'liq integratsiya mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Asosiy e'tibor ta'lim tizimida iqtisodiy, institutsional va hududlararo integratsiya jarayonlarining mazmun-mohiyatiga, ularning ta'lim xizmatlari bozori samaradorligiga ko'rsatadigan ta'siriga qaratilgan. Integratsiya orqali ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, resurslar almashinuvi va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlari tadqiq etiladi. Shuningdek, integratsion jarayonlar ta'lim sifatini oshirish, bozor talablariga mos kadrlar tayyorlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda qanday rol o'ynashi ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim xizmatlari, integratsiya, globallashuv, raqobat, talab, taklif, marketing, o'quv dasturlari*

ПРОЦЕССЫ ИНТЕГРАЦИИ В РАЗВИТИИ РЫНКА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Аннотация. *В статье дается глубокий анализ процессов развития рынка образовательных услуг и связанных с ним интеграционных механизмов. Основное внимание уделено сущности экономических, институциональных и межрегиональных интеграционных процессов в системе образования, их влиянию на эффективность рынка образовательных услуг. Изучаются механизмы развития сотрудничества, обмена ресурсами и инновационной деятельности между образовательными учреждениями посредством интеграции. Также будет рассмотрена роль интеграционных процессов в повышении качества образования, подготовке кадров в соответствии с требованиями рынка и повышении конкурентоспособности на научной основе.*

Ключевые слова: *образовательные услуги, интеграция, глобализация, конкуренция, спрос, предложение, маркетинг, учебные программы*

INTEGRATION PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET AS THE OBJECT OF RESEARCH.

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the development processes of the educational services market and the integration mechanisms associated with it. The main attention is paid to the essence of economic, institutional and interregional integration processes in the education system, their impact on the efficiency of the educational services market. The mechanisms of cooperation between educational institutions, resource exchange and stimulation of innovative activity through integration are studied. It also sheds light on the role of integration processes in improving the quality of education, training personnel in accordance with market requirements and strengthening competitiveness.*

Keywords: *educational services, integration, globalization, competition, demand, supply, marketing, curricula.*

Kirish

Zamonaviy bozor sharoitida respublikamiz ta’lim xizmatlari bozori o‘zining barqarorligi, moslashuvchanlik, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga bardoshliligini namoyon qildi. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha bosqichlarida insonni rivojlantirishning asosiy maqsadi-jamiyat intellektual salohiyatini, aholining turmush farovonligini oshirish, barqaror rivojlanish imkoniyatini beradigan ijtomoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik muhitni shakllantirish zarur bo‘lmoqda.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasida ta’lim xizmatlari bozori asosiy tarkibiy qism bo‘lib, jamiyatning muhim masalalarini hal etishda asosiy o‘rinni egallaydi. Ta’lim xizmatlari bozori bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy tizimning iste’mol bozoridagi murakkab bo‘lgan o‘zaro bog‘langan barcha elementlaridan tashkil topadi.

Ta’lim xizmatlari deganda ko‘pincha shaxs, jamiyat va davlatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan bilimlar, ma’lumotlar, ko‘nikmalar va ko‘nikmalar tizimi tushuniladi.[1]

Ta’lim xizmatlari, har qanday mahsulot kabi, mintaqaviy iste’mol bozorlarida sotiladi, bu mintaqadagi mavjud va potentsial xaridorlar va tovarlar va xizmatlar sotuvchilari to‘plami sifatida tushuniladi. Ta’lim xizmatlari bozori, bu holda, asosiy xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning (uy xo‘jaliklari, korxona va tashkilotlar, davlat va munitsipalitetlarning) ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabi va ularni turli ta’lim muassasalari tomonidan etkazib beradigan bozor.

Ta’lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilaridan tashqari, ushbu sohadagi bozor munosabatlari ishtirokchilari keng doiradagi vositachilarni o‘z ichiga oladi, jumladan, bandlik xizmatlari, mehnat birjalari, ta’lim muassasalarini ro‘yxatga olish, litsenziyalash va akkreditatsiya qilish organlari, ta’lim fondlari, ta’lim muassasalari va korxonalar birlashmalari, ixtisoslashtirilgan o‘quv markazlari va boshqalar. ta'lim xizmatlari va ta’limni resurslar bilan ta’minlash.

Bundan tashqari, ta’lim xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyati davlat va uning boshqaruv organlarining muhim rolidir. Xususan, ularning ta’lim sohasidagi o‘ziga xos funksiyalariga quyidagilar kiradi:

• ijobiy jamoatchilik fikrini, ta’lim muassasalarining ijobiy imidjini yaratish, qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash;

• insonparvarlik ta'limini, federal madaniy-ma’rifiy makonning birligini, ta’limning umumiy mavjudligi va moslashishini, uning dunyoviyligi, erkinligi va plyuralizmini, demokratik boshqaruv va ta’lim muassasalarining avtonomligini kafolatlash;

• ta’limni moliyalashtirish va ushbu sohaga boshqa subyektlar tomonidan uzoq muddatli investitsiyalar uchun kafolatlar berish;

• ustuvor mutaxassisliklarni, mutaxassislar tayyorlashning shakl va usullarini, umuman, ta’limni rivojlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va bozorni tartibga solishning boshqa shakllarini qo‘llash;

• xizmat turlari va sifati bo‘yicha ta’lim muassasalari va dasturlarini litsenziyalash va sertifikatlashtirish;

• ta’lim muassasalarini axborot bilan ta’minlash va boshqalar.

Oliy ta’lim sohasidagi integratsiya nisbatan yangi hodisa bo‘lib, 20-asr oxiridan boshlab G‘arb davlatlarining rivojlanishini tavsiflaydi. Bu zamonaviy

dunyo iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotini globallashuvining obyektiv, tarixiy progressiv jarayonining organik elementini tashkil etadi va birinchi navbatda, ilg‘or mamlakatlar iqtisodiyoti faoliyatining tubdan o‘zgargan shartlari: texnologik inqilob ta’sirida jahon iqtisodiyotidagi tub tarkibiy o‘zgarishlar, ilmiy faoliyatning keskin sifat jihatidan o‘sishi bilan bog‘liq. ijtimoiy taraqqiyot. Endi u, birinchi navbatda, raqobatbardoshlikning eng muhim omillari va iqtisodiy o‘sishning, eng muhimi, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbalariga aylangan nomoddiy resurslardan foydalanishga asoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ta’lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlarini ko‘plab olimlar ilmiy jihatdan tahlil qilib kelmoqdalar. Mashhur iqtisodchi olim Bela Balassa o‘zining “Iqtisodiy integratsiya nazariyasi”da (1961) ta’lim va ilm-fan sohalaridagi hamkorlikni iqtisodiy integratsiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatgan. Uning fikricha, ta’lim xizmatlari bozori ham bozordagi boshqa tarmoqlar singari erkin ta’lim hududi, umumiy ta’lim siyosati, va oxir-oqibat yagona ta’lim makoni integratsion bosqichlardan o‘tadi.[2]

M. Porter, T. Schultz va G. Becker kabi iqtisodchi-olimlar esa inson kapitali nazariyasi doirasida ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda xalqaro integratsiyaning ahamiyatini asoslaganlar. Ularning tadqiqotlarida xalqaro tajriba almashinuvi va birgalikdagi ta’lim dasturlari orqali ta’lim sifati va iqtisodiy samaradorlik oshishini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqida amalga oshirilgan Bologna jarayoni bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlardan biri — Robert Cowen, Martin Carnoy integratsiyalashgan oliy ta’lim makonining shakllanishi, diplomlarning tan olinishi va kredit tizimining uyg‘unlashuvi bo‘yicha nazariy asoslarni ishlab chiqqan.

O‘zbekistonlik olimlardan O. T. Otaxonov, Sh. S. Xolboev va M. A. Yo‘ldoshevlar ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida integratsion jarayonni o‘rganish va chet ellik talabalarni jalb qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ta’lim xizmatlari bozorida integratsion jarayonlarni o’rganish metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg’unlashtirishni talab qiladi. Bu jarayonni chuqur tahlil qilish, uning muvaffaqiyat omillarini aniqlash va natijalarini samarali boshqarish uchun kompleks tadqiqot usullari qo’llaniladi. To’g‘ri tanlangan metodologiya integratsiyaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarga bo‘lgan ta’sirini samarali o‘rganish va uning natijasidan amaliyotda foyda olishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, ta’lim xizmatlari bozori rivojlanishida integratsion jarayonlar uchun zamonaviy xususiyatlar va sharoitlar mazmunini o‘rganishda tahlil va sintez, shakl va mazmun, induksiya va deduksiya kabi usullarda foydalanib ma’lumotlar to‘planilgan va tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar

Oliy ta’lim tizimida integratsiya funksiya va rollarning taqsimlanishini ta’minlashga, yaxlit tizim sub’ektlari o‘rtasida turli aloqalarni o‘rnatishga qaratilgan va moslashuvchanligi, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvi, ushbu tizimni rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shu o‘rinda boshqaruv jarayonlarini

jamiyat va davlatning malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini, shuningdek, shaxsning o‘zini o‘zi anglash ehtiyojlarini qondirishga hissa qo‘shish inobatga olinadi.

Oliy ta’lim tizimidagi integratsiya milliy ta’lim tizimining eng muhim qismi bo‘lib, jamiyat hayotining asosiy sohalari tuzilmalarida bir qator funksiyalarni bajaradi, bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko‘ra, ikkinchi tomondan, butun ta’lim tizimini isloh qilish bilan bog‘liq.

№	Integratsiya turlari	Bajaradigan vazifalari
1	Innovatsion funksiyasi	ilmiy-texnik taraqqiyotga mos ravishda ta’lim dasturlarini yangilash, yangi bilimlar va texnologiyalarni joriy etish
2	Ilmiy-tadqiqot funksiyasi	ilmiy izlanishlar orqali jamiyatning dolzarb muammolariga yechim topish, fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish
3	Mehnat bozori bilan integratsiya funksiyasi	bozor talablariga mos kadrlar tayyorlash, ishlab chiqarish sektori bilan hamkorlikda ta’lim jarayonini tashkil etish
4	Ijtimoiy funksiyasi	fuqarolarda ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirish
5	Madaniy funksiyasi	milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish
6	Axborot-kommunikatsion funksiyasi	raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish
7	Integratsion va internatsionalizatsiya funksiyasi	xalqaro ta’lim tizimlari bilan uyg‘unlashish, akademik mobillik va hamkorlik dasturlarini rivojlantirish
8	Tarbiyaviy funksiyasi	shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, mustaqil fikrlovchi, faol va mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalash

1-jadval. Integratsiyaning asosiy funksiyalari.

Integratsiyaning asosiy funksiyalar ta’lim tizimining nafaqat bilim berish, balki keng ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etishini ko‘rsatadi.[2]

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini uning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, ta’lim xizmatlari sifatini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish nuqtai nazaridan rivojlantirish zarurati oliy ta’lim muassasalarini integratsiyalashuvining asosli shakllarini tanlashni talab qiladi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi integratsiyalashgan ta’lim tuzilmalarining turli shakllarini tahlil qilish jarayonida integratsiyaning asosiy muhim mezonlari aniqlandi:

- integratsiya jarayoni ishtirokchilari tarkibi;
- integratsiya yo’nalishlari;
- integratsiya miqyosi;
- integratsiya darajasi;
- faoliyat geografiyasi.

Integratsiya jarayoni bo‘yich o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida shuni aytish mumkinki, integratsiya jarayonlari tizim rivojlanishining tabiiy bosqichidir. Shu bilan birga, ta’lim ijobiy hodisadir, chunki ular ta’lim va ilmiy salohiyatni oshiradi va ta’lim muassasalarining o‘quv, ilmiy va boshqa xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi, resurslardan yanada samarali foydalanishga yordam beradi, hamda ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshiradi. Universitetlarning integratsiyasi har bir ishtirokchi universitet uchun ta’lim xizmatlari bozorida yanada barqarorlikni ta’minlaydi, mahsulot portfelini oshiradi va taklif etilayotgan loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Universitetlarning raqobatbardoshlik darajasi oliy o‘quv yurtlari tomonidan asosiy natijaga - bitiruvchilarning raqobatbardoshlik darajasiga, ish beruvchilar tomonidan ularga bo‘lgan qiziqish kontekstida ularning kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lish darajasiga erishish uchun raqobatdagi yutuq yoki yo‘qotishlarni tan olish asosida baholanishi kerak. Shuningdek, ta‘lim xizmatlari bozori ishtirokchilarining raqobatbardoshlik darajasini natijaviy xususiyatga ega bo‘lgan turli ko‘rsatkichlardan foydalanish asosida baholash mumkin. Masalan, ishchi o‘quv rejalarining to‘liqligi va o‘ziga xosligining qiyosiy ko‘rsatkichlari, o‘quv-uslubiy ta’minotning universalligi, metodlar, o‘qitish texnologiyalari va ta'lim faoliyati turlarini qo'llash samaradorligi, kadrlar tayyorlashning tashkiliy tuzilmalari samaradorligi, masalan, filial tarmoqlari yoki kafedra tuzilmalari. Bunday ko‘rsatkichlarga kadrlarni qayta tiklash, uzluksiz o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘zini rivojlantirish qobiliyatini baholash, innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlari, boshqaruv tizimlari samaradorligi ko‘rsatkichlari, shu jumladan sifat menejmenti, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari, ta’lim xizmatlarini sotish hajmi ko‘rsatkichlari kiradi.

Integratsiya jarayonlari va millatlararo mehnat taqsimotining keskinlashuvi ishlab chiqarish va bandlik tarkibiga, shunga mos ravishda mehnat bozori va ta’lim tizimiga bevosita ta’sir qiladi. Oliy ta’lim tizimining holati va kadrlarning malaka darajasi zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari bo‘lib, birgalikda ta’lim siyosatini amalga oshirishni va jahon bozorining tubdan o‘zgargan sharoitlariga kadrlar tayyorlash milliy tizimlarini integratsiyalashuvini talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Oliy ta’lim tizimidagi integratsiya jarayonini tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishda quyidagi qonuniyatlardan kelib chiqish zarurligi to‘g‘risida xulosa kelib chiqadi:

- tizimli integratsiyaga berilgan tizimning tarkibiy, mazmuniy va protsessual elementlarining birligi orqali erishiladi;

- integratsiyalashgan komponentlarning ekvivalent natijasiga aniq maqsadli yo‘naltirilganlik sharoitida integratsiya samaradorligi oshadi;

- integrallashgan tizim subyektlari me’yoriy-huquqiy baza bilan qo‘llab-quvvatlanadigan o‘zaro manfaatli munosabatlarni shakllantirishga tayyor bo‘lishi sharti bilan integratsiya samaradorligiga erishiladi;

– ta’lim va ishlab chiqarish integrasiyasining mahsuldorligi kasbiy standartlarni ishlab chiqish bilan belgilanadi;

- zamonaviy mutaxassis tayyorlash jarayonining yaxlitligi tegishli ta’lim dasturlari mavjudligiga bog‘liq;

Shu o‘rinda, ta’lim xizmatlari bozorining samarali rivojlanishi, uning xalqaro va mahalliy mehnat bozorlariga integratsiyalashuvi, ta’lim sifatining oshishi va iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg‘unlashuvi bevosita integratsiya jarayonlariga bog‘liqdir. Shuning uchun ta’lim tizimini modernizatsiyalashda integratsion yondashuvlar markaziy o‘rin tutishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlari ta’lim sifatini oshirish, kadrlar malakasini xalqaro me’yorlarga moslashtirish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish orqali ta’lim tizimini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning intellektual va iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдулкеримов И.З. Факторы и условия развития интеграционных процессов на рынке образовательных услуг // Региональные проблемы экономической трансформации. - 2011. - № 2 (28). 286-292.

2. Бела Баласса. Иқтисодий интеграция назарияси” (1961).

3. Геворкян Э.Н. Рынок образовательных ресурсов: аспекты модернизации. - м. ДС Базар. 2005.

4. Abulxanova Q.H., Raximova D.N., va boshqalar. Davlat xizmati personalni boshqarish. Toshkent: Akademiya, 2002.

5. EshboyevA.X. (2008). Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ta’lim tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’siri: i.f.n. dis. avtoreferati. –T.: -25 b.

6. Эсетова А.М. (2020) Современные особенности и условияя развития рынка образовательных услуг в России. УДК.ББК 65.050.11 Стр: 354 - 357

7. Сагинова, О. В. Маркетинг маркетинга образовательных услуг // Маркетинг в России и за рубежом. - 1999. - Нет. 1

8. Pardaev M.Q., Mirzaev Q.J.Pardaev O.M. Xizmat sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2014.-384 b.

9. Abulxanova Q.H., Raximova D.N., va boshqalar. Davlat xizmati personalni boshqarish. Toshkent: Akademiya, 2002.

10. Usmonova R.M. (2011) Ta’lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish (oliy ta’lim misolida): i.f.n. ...dis. avtoreferati. -T.: -25 b.

KORXONALARDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNATNI RAG'BATLANTIRISHNING RAQAMLI TENDENSIYALARI.

A.M.Amirov, D.F.Naimov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Amirov Akmal Mexrojovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti
Email: *amirovakmal@gmail.com*
Tel: *+998 91 539 35 89*

Naimov Damir Fayzulloyevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi magistranti
Email: *damirnaimov@gmail.com*
Tel: *+998 98 200 66 66*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 16 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Boshqaruv jarayonlarining faol raqamlashtirilis xodimlarning xulq-atvor strategiyalarining bosqichma-bosqich o'zgarishig tashkilot ichidagi yangi kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishiga ol kelmoqda. Xodimlarning mehnatga oid xulq-atvor modeli tashkilot qo'llanilayotgan motivatsiya va rag'batlantirish usul hamda shakllari bog'liq. Mazkur maqolada raqamlashtirish sharoitida motivatsi jarayonlarning transformatsiyasi xususiyatlari ochib berilgan, shuningde raqamli vositalarning xodimlarni motivatsiya va rag'batlantirish tizimi qo'llanilishidagi afzalliklari va mumkin bo'lgan cheklovlar aniqlanga Kompaniyalarida amaliyotga joriy etilgan xodimlarni motivatsiya rag'batlantirishga oid raqamli loyihalar misollar sifatida keltirilga ularning xodimlar va tashkilot uchun samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar. *Motivatsiya, rag'batlantirish tizimi, raqamli vosital xodimlarni boshqarish, inson markaziga yo'naltirilgan yondashu kommunikatsiyalar, mukofotlash, sadoqat, raqobatbardoshlik.*

ЦИФРОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ МОТИВАЦИИ РАБОТНИКОВ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ТРУДА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ.

Аннотация: *Активная цифровизация управленческих процессов приводит к постепенному изменению поведенческих стратегий сотрудников, развитию новых систем коммуникации внутри организации. Модель трудового поведения сотрудников зависит от методов и форм мотивации и стимулирования, используемых в организации. В данной статье раскрыты особенности трансформации мотивационных процессов в условиях цифровизации, а также выявлены преимущества и возможные ограничения использования цифровых инструментов в системе мотивации и мотивации сотрудников. В качестве примеров приведены цифровые проекты по мотивации и стимулированию сотрудников, внедренные в практику в их компаниях, обоснована их эффективность для сотрудников и организации.*

Ключевые слова. *Мотивация, система стимулирования, цифровые инструменты, управление персоналом, человекоцентричный подход, коммуникации, вознаграждение, лояльность, конкурентоспособность.*

DIGITAL TRENDS IN EMPLOYEE MOTIVATION AND LABOR STIMULATION AT ENTERPRISES.

Abstract: *The active digitalization of management processes leads to a gradual change in employee behavioral strategies and the development of new communication systems within the organization. The model of employee labor behavior depends on the methods and forms of motivation and incentives used in the organization. This article reveals the features of the transformation of motivational processes in the context of digitalization, and also identifies the advantages and possible limitations of the use of digital tools in the system of motivation and incentives for employees. Digital projects related to employee motivation and incentives, implemented in companies, are given as examples, and their effectiveness for employees and the organization is substantiated.*

Keywords. *Motivation, incentive system, digital tools, personnel management, human-centered approach, communications, rewards, loyalty, competitiveness.*

KIRISH.

Zamonaviy iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va mehnat unumdorligini oshirish bo‘yicha vazifalar sharoitida xodimlarni motivatsiya va rag‘batlantirish tizimi, mehnatga haq to‘lash tizimiga innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalarni ishlab chiqish va faol joriy etish dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Bu vositalar xodimlarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish, individual va jamoaviy mehnat natijalarini yaxshilash, shuningdek, tashkilot uchun qadrli bo‘lgan xodimlarni jalb qilish va ularni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xodimlar mehnatini motivatsiyalash boshqaruvning asosiy funksiyalaridan biri bo‘lib, zamonaviy tashkilotlarning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Har qanday tashkilot yuqori malakali va samarali ishlaydigan xodimlarga ehtiyoj sezadi, chunki tashkilotning unumdorligi, bozordagi imidji va obro‘-e’tibori aynan xodimlarga bog‘liq. O‘z navbatida, har bir xodim mehnati uchun munosib mukofot olishni istaydi va ish beruvchini tanlashda, tashkilotda qanday motivatsiya usullari qo‘llanilayotganiga e’tibor beradi.

Mehnat faoliyatini motivatsiyalash konsepsiyalarining shakllanishi A.G. Zdravomyslov, V.P. Rozhin va V.A. Yadovlarning ilmiy ishlari asosida boshlangan. Tashkilotlarda xodimlar boshqaruvi tizimida motivatsiya va mehnatni rag‘batlantirish masalalari O.S. Vixanskiy, B.M. Genkin, V.I. Gerchikov, A.Ya. Kibanov va E.A. Mitrofanova kabi mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili. Xodimlarni motivatsiyalash va rag‘batlantirish tizimi — bu xodimlarning sifatli va samarali mehnatini ta’minlash, ularning sadoqatini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish hamda motivatsion ta’sirlar majmuasidir. Tashkilot ekotizimiga raqamli vositalarning faol joriy etilishi ko‘p omilli makonlar, ko‘p o‘lchamli jarayonlar va ko‘p qirrali rivojlanish orqali innovatsion ta’sirlar yaratadi va inson resurslari bilan ishlash strategiyalarini tubdan o‘zgartiradi.

Xodimlarni motivatsiyalash va rag‘batlantirish jarayonlariga raqamlashtirishni joriy etish — bu xodimlarning mehnat va ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan, ularning kompetensiyalarini takomillashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, xizmat pog‘onalarida o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratadigan hamda xodimga motivatsion jarayonlarni boshqarish tizimini yanada osonroq tushunish va unga kirish imkonini beradigan innovatsion biznes texnologiyalarni tatbiq etish jarayonidir.

Xodimlarni motivatsiyalash va rag‘batlantirish tizimini raqamli vositalar asosida modellashtirish masalasini ko‘rib chiqish muhim bosqich hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari tahlili ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi.

I.V. Bogatyreva va L.A. Ilyuxina xodimlar mehnatini motivatsiyalash va rag‘batlantirish tizimini shakllantirish bosqichlarini ishlab chiqdilar hamda ularni tashkilot qadriyatlariga mos keluvchi motivatsion profilni qo‘llab-quvvatlashga yoki raqamli texnologiyalar asosida rag‘batlantirish tizimini optimallashtirishga yo‘naltirilgan modellar tarkibiga kiritdilar [3].

Mazkur modellar 1-rasmda tasvirlangan.

1-jadval

Xodimlarni motivatsiyalash va moddiy rag‘batlantirish tizimini shakllantirish bosqichlari [3].

Bosqich	Tavsif	Maqsad	Izoh
1-bosqich	Xodimlarning motivatsion profilini baholash (sotsiologik so‘rov asosida)	Mavjud holatni tahlil qilish	Tashkilotdagi xodimlar motivlari haqida dastlabki ma’lumot
2-bosqich	Zarur motivatsion profilni aniqlash	Tashkilot ehtiyojlariga mos yo‘nalish belgilash	Strategik maqsadlarga asoslangan rejalashtirish
3-bosqich	Motivatsion tizim modelini ishlab chiqish	Tashkilot tuzilmasiga mos tizim yaratish	Moddiy va nomoddiy omillar uyg‘unlashtiriladi
4-bosqich (yangi model)	Yangi motivatsion usullar va nomoddiy rag‘batlantirish turlarini o‘rganish	Innovatsion yechimlarni joriy qilish	Raqamli vositalar asosida imkoniyatlarni kengaytirish
4-bosqich (mavjud tizimni saqlash)	Mavjud motivatsion tizim turlarini o‘rganish	Amalga oshirilayotgan amaliyotlarni baholash	Ichki monitoring va tahlil
5-bosqich	Tizimni kompaniya motivatsion profiliga muvofiq tuzatish	Moslashtirish va samaradorlikni oshirish	Doimiy takomillashtirishga asoslangan yondashuv

Raqamlashtirish kontekstida tashkilot xodimlarining ichki motivatsiya darajasini oshirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Empirik ma’lumotlarga asoslangan holda A.V. Botsoyeva, N.G. Pyankova va boshqalar ichki motivatsiya — ya’ni bilishga, yutuqlarga erishishga va kasbiy rivojlanishga qaratilgan motivlar — samarali o‘zini boshqarishning (self-management) muhim omili ekanini asoslab berishgan. Tashqi motivatsiya esa stressga moslashish, asosiy ehtiyojlarni qondirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq regulyatsiya turlarini o‘z ichiga oladi hamda ba’zan shaxsning avtonomiya va kompetentlik ehtiyojlarini qondira olmasligi orqali frustratsiyaga olib kelishi mumkin [4].

O‘zini aniqlash (self-determination) nazariyasiga ko‘ra, insonning asosiy psixologik ehtiyojlarini — kompetentlik, avtonomiya va boshqalar bilan ijtimoiy aloqadorlik — qondirish shaxsiy motivatsiyaning shakli va darajasiga ta’sir ko‘rsatadi, optimal faoliyat yuritish va psixologik farovonlikni ta’minlaydi [5].

Tadqiqot metodolgiyasi. Maqolada mavzuga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar o‘rganilib, mushohada qilingan. Mazkur jarayonda raqamli motivatsiya tizimlari bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, standartlar va qonun hujjatlari o‘rganildi. Korxona xodimlari va HR mutaxassislari bilan so‘rov va intervyular o‘tkazish orqali ichki motivatsiya darajasi, raqamli

rag‘batlantirish vositalari samaradorligini baholash kabi sullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 2-jadvalda asosiy psixologik ehtiyojlarni qondirish asosida samarali motivatsiya darajasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha menejerlarga berilgan tavsiyalar keltirilgan. Tashkilotda inson resurslarini boshqarish jarayonida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar xodimlar uchun qulay raqamli muhit yaratishga xizmat qiladi va motivatsiya mexanizmlarining barcha jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

2-jadval

Asosiy psixologik ehtiyojlar va motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash harakatlari

Asosiy psixologik ehtiyojlar	**Motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha menejerlar harakatlari**
Kompetentlik ehtiyoji Faoliyatda samarali bo‘lish, murakkab vazifalarni bajara olish, atrof-muhit bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish	– Malakaga mos vazifalarni belgilash – Natijalarga erishish imkoniyatini yaratish – Erishilgan yutuqlarni tan olish – Xodimning salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etish
Avtonomiya ehtiyoji Mustaqil ravishda tanlov qilish, qarorlar qabul qilish va harakatlarni “o‘zligiga” muvofiq tashkil etishga intilish	– Mustaqil harakat qilishga imkon berish – Tashabbusni qo‘llab-quvvatlash – Vazifalarni kelishilgan holda aniqlash – Ichki motivatsiyani rag‘batlantiruvchi muhit yaratish
Ijtimoiy aloqaga ehtiyoj Jamoaga tegishlilikni his qilish, ishonchli va samimiy munosabatlar o‘rnatish, ijobiy fikr-mulohazalarni olish istagi	– Ijobiy jamoaviy muhit yaratish – Korporativ qadriyatlarni shakllantirish – Muloqot va o‘zaro tushunishni rag‘batlantirish – Hamkorlik va nazorat muvozanatini ta’minlash

Ko‘plab jarayonlar tezroq va sifatliroq amalga oshmoqda, bu esa ish beruvchi bilan xodim o‘rtasidagi kommunikatsiya samaradorligini oshiradi. Axborot infratuzilmasida kommunikatsion siyosat — tashkilotni boshqarish tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uning raqamli qiyofasini shakllantiradi. Kommunikatsiya jarayonidagi teskari aloqa boshqaruv darajalari o‘rtasida axborot uzluksizligini ta’minlaydi va qabul qilinayotgan qarorlar sifati oshishiga xizmat qiladi [6].

Sun’iy intellektdan foydalanish professional kompetensiyalarni rivojlantirish, xodimlarning xatti-harakatlari va faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi; bu natijalarga asoslanib, ularning motivatsiyasi va rag‘batlantirilishini boshqarish mumkin. Raqamli texnologiyalar motivatsiya bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda vositalarni kengaytirish imkonini yaratadi. Masalan, masofaviy ish formatlaridan foydalanish, mehnat faoliyatining intellektuallashtirilishi ish haqi miqdorining oshishiga olib keladi va robotlashtirish ta’sirida mehnat jarayonlari murakkabligini kamaytirishga xizmat qiladi [7]. Eng oddiy misol: hisobotlar va ko‘rsatkichlar hisobini avtomatlashtirish xodimga o‘z ish natijalarini mustaqil kuzatish va mukofot miqdorini anglash imkonini beradi.

Masalan, R.Sh. Gaynanov va hammualliflari o‘z ishlarida “SmartStaffing” kompaniyasida masofaviy jamoalar bilan ishlashda xodimlarni motivatsiyalash uchun innovatsion vosita — “TIMFORS360” raqamli minnatdorchilik tizimini taklif etganlar. Ushbu tizim xodimlarning professional fazilatlari va yutuqlari tan olinishi ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Dastur veb-versiya va mobil ilova shaklida mavjud. Har bir xodim shaxsiy kabinetga ega bo‘ladi, u yerda uning shaxsiy ma’lumotlari va ma’lum miqdorda bonuslari mavjud. Xodimlar bir-birlariga bonuslar yuborishlari, tavsiyalar yozishlari va ish yuzasidan muloqot qilishlari mumkin, bu esa jamoada gorizontal aloqalarni rivojlantirish va kommunikatsion maydonni kengaytiradi.

Dastur jamoaviy muhitdagi kayfiyatni monitoring qilish, kompaniya faoliyati natijalarini ko‘rish, shuningdek, turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha reytinglar tuzish imkonini beradi (masalan: sog‘liqni saqlash uchun sport, kitob o‘qish, rivojlantiruvchi kurslarda qatnashish va h.k. — tashkilot xodimlarining dolzarb ehtiyojlariga qarab) [8].

Xodimlarning rivojlanishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish uchun maxsus onlayn platformalar, veb-saytlar yoki mobil ilovalar qo‘llanilishi mumkin. Ular o‘quv materiallari, kurslar va treninglarga kirishni ta’minlab, xodimlarga shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini mustaqil rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa kasbga bo‘lgan qiziqishni saqlab qoladi, professional charchashning oldini oladi, motivatsiyani oshiradi va natijada xodimlarning samaradorligi va sodiqligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy O‘zbekiston tashkilotlari tashkiliy madaniyat turiga qarab elektron teskari aloqa tizimlarini qo‘llay boshlagan. Ish beruvchilar xodimlarning ishtiroki va sadoqatini baholash bo‘yicha so‘rovlar, testlar, kompetensiya darajasini aniqlashga mo‘ljallangan keýslar o‘tkazish, kompaniya rivojiga oid taklif va g‘oyalarni yig‘ish imkoniyatiga ega bo‘layapti.

Bugungi kunda mobil ilovalar orqali xodimlarni motivatsiyalash keng qo‘llanmoqda: xodimlar statsionar ish joyisiz turib ham ma’lumotlarni ko‘rishi, hisobot tuzishi, kompaniya ko‘rsatkichlarini onlayn ko‘rishi, yangiliklar, vazifalar yoki tavsiyalar haqida bildirishnomalarni olishlari mumkin. Bu esa xodimda unga ishonilayotgani va g‘amxo‘rlik qilinayotgani hissini uyg‘otadi. Bunday tizimlar xodimlar aylanishi darajasini kamaytirishga va ularning tashkilotga sodiqligini oshirishga xizmat qiladi.

Mobil ilovalar bilan bir qatorda, ish samaradorligini boshqarish bo‘yicha avtomatlashtirilgan elektron tizimlar ham qo‘llaniladi. Bunday tizimlar maqsadlarni belgilash, natijalarni monitoring qilish, xodimlar ishini baholash va teskari aloqa berish imkonini beradi. O‘zbekistondagi ayrim korxonalarda bunday tizimlar “1C”, “ERP” yoki mahalliy ishlab chiqilgan platformalar asosida ishlab chiqilgan. Ular xodimlarning mehnat natijalariga asoslangan holda motivatsiyani hisoblash algoritmlarini o‘z ichiga oladi, rejalashtirilgan va real ko‘rsatkichlarni jamlaydi, hisobotlar shakllantiradi.

Albatta, bunday tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish uchun korporativ axborot tizimlariga investitsiya kiritish talab etiladi. Ko‘plab tashkilotlar bu

jarayonni murakkab deb hisoblab, mavjud dasturiy mahsulotlar ichidan to‘g‘risini tanlash va foydalilikni baholashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shu sababli, axborot tizimini joriy etishda aniq maqsad va vazifalarni belgilash, texnik va foydalanuvchi ehtiyojlariga mos talablari ro‘yxatini tuzish muhimdir. Tanlangan tizim kompaniya maqsadlariga moslashgan va funksional bo‘lishi kerak.

Masalan, O‘zbekistondagi ayrim kompaniyalarda xodimlar faoliyatini rag‘batlantirish uchun avtomatlashtirilgan motivatsiya tizimlari joriy etilmoqda. Ular orqali xodimlarga bonuslar, ichki reytinglar, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, o‘qish va o‘zini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ballar beriladi. Bunday yondashuv xodimlarni o‘z-o‘zini baholashga undaydi, jamoaviy raqobatni kuchaytiradi va kompaniya maqsadlariga xodimlar tomonidan ongli yondashuvni shakllantiradi.

O‘zbekiston kompaniyalari raqamli texnologiyalarni xodimlar motivatsiyasini oshirishda faol qo‘llamoqda. Mobil ilovalar, raqamli o‘yinlar va onlayn platformalar orqali xodimlar va mijozlar bilan interaktiv aloqalar o‘rnatilmoqda. Bu tashabbuslar nafaqat ish unumdorligini oshirishga, balki kompaniya brendining mustahkamlanishiga ham xizmat qilmoqda.

Masalan, **“Gazprombank: sifat uchun layklar”** loyihasi [11] ko‘p funksiyali raqamli vositaning joriy etilishiga asoslangan bo‘lib, u xodimlarni ijobiy fikr-mulohazaga undaydi. Ushbu loyiha bir nechta yo‘nalishda tan olish (e’tirof) madaniyatini qo‘llab-quvvatlaydi: xodimdan xodimga, rahbardan xodimga va hatto bankdan xodimga bo‘lgan tan olish. Bu esa fikr almashish va tan olish madaniyatini kengaytirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Xodimlar “layk” olish istagi bilan o‘zaro ko‘proq va samaraliroq hamkorlik qilishga undaladi. Bu ayniqsa masofaviy yoki gibrid ish formatida alohida ahamiyatga ega. Olingan minnatdorchilik esa yuqori darajadagi empatiya (boshqalarning holatini tushunish)ni saqlashga ilhom beradi.

Xulosa

Raqamli texnologiyalardan foydalanish tashkilotlarga xodimlarni motivatsiyalash va rag‘batlantirish tizimini boshqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Xodimlarni motivatsiyalash va rag‘batlantirishda raqamli texnologiyalarning afzalliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- jarayonlarning avtomatlashtirilishi;
- ma’lumotlarga kirishni ta’minlash va soddalashtirish;
- xodimlarning jalb qilinish darajasini oshirish;
- motivatsion dasturlarni shaxsiylashtirish (individuallashtirish);
- kommunikatsiya sifati va fikr-mulohaza tizimini yaxshilash.

Shunga qaramay, raqamli motivatsiya texnologiyalarining o‘ziga xos xatarlari va cheklovlari mavjud bo‘lib, ularni hisobga olish muhim:

- maxfiylikning buzilishi xavfi;
- texnik vositalarga qaramlik;
- yetarli darajada moslashuvchanlik va shaxsiylashtirishning yetishmasligi;
- shaxsiy muloqot cheklanganligi;
- insoniy omilning yo‘qligi.

Raqamli texnologiyalarni xodimlarni motivatsiyalash va rag‘batlantirish tizimida qo‘llash mehnat unumdorligi, xodimlarning jalb etilganligi va sadoqatini oshirish orqali jarayonlar samaradorligini yuqori

darajaga olib chiqadi. Har bir tashkilot qarab o‘ziga mos raqamli vositalarni o‘z hajmi, maqsadlari va imkoniyatlariga tanlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vixanskiy O.S., Genkin B.M., Gerchikov V.I. va boshqalar. Upravlenie personalom. – Moskva: Infra-M, 2020.
2. Mitrofanova Ye.A. Motivatsiya personala v usloviyax sifrovizatsii ekonomiki. – Moskva: UNITY-DANA, 2021.
3. Bogatыreva I.V., Ilyuxina L.A. Sifrovыe texnologii v sisteme motivatsii personala. // Vestnik ekonomiki i prava, 2022, №4.
4. Bosoeva A.V., Pyankova N.G. Faktorы vnutrenney motivatsii i samomenedjmenta sotrudnikov. // Jurnal prikladnoy psixologii, 2021, №3.
5. Desi E., Rayan R. Teoriya samodeterminatsii: Motivatsiya, razvitie i blagopoluchie. – SPb: Rech, 2018.
6. Kibanov A.Ya. Motivatsiya i stimulirovanie trudovoy deyatelnosti: uchebnik / A.Ya. Kibanov, I.A. Batkaeva, Ye.A. Mitrofanova, M.V. Lovcheva; pod red. A.Ya. Kibanova. Moskva: INFRA-M, 2023. 524 s. ISBN 978-5-16-003544-4.
7. Chupina I.P. Sifrovizatsiya texnologii motivatsii v HR-deyatelnosti / I.P. Chupina, N.N. Simachkova, Ye.V. Zarubina [i dr.] // Moskovskiy ekonomi- cheskiy jurnal. 2021. № 2. doi: 10.24411/2413-046X-2021-10122.
8. Bogatыreva I.V. Sistema motivatsii i materialnogo stimulirovaniya kak istochnik trudovoy aktivnosti personala kompanii / I.V. Bogatыreva, L.A. Ilyuxina // Ekonomika truda. 2022. Tom 9. № 5. S. 955–970. doi: 10.18334/et.9.5.114737.
9. Bosoeva A.V. Vnutrennyaya motivatsiya kak prediktor effektivnogo samomenedjmenta / A.V. Bosoeva, N.G. Pyankova, O.V. Bershadskaya, T.A. Ivanenko // Vestnik Akademii znaniy. 2023. № 6 (59). S. 549-555.
10. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The «what» and «why» of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11, 227-268.
11. Kalinina Ye.V. Rol kommunikatsiy i informatsionnoy infrastrukturы v sovremennoy sisteme upravleniya organizatsiey / Ye.V. Kalinina, Ye.D. Ma-levskaya-Malevich, V.S. Kudryashov // Vestnik Akademii znaniy. 2023. № 6 (59). S. 594-599.
12. Bakirova G.X. Psixologiya razvitiya i motivatsii personala: ucheb. posobie / G.X. Bakirova. Moskva, 2017. 439 s. ISBN 978-5-238-01605-4.
13. Gaynanov R.Sh. «Sifrovaya blagodarnost» kak instrument povыsheniya motivatsii chlenov raspredelennыx komand / R.Sh. Gaynanov, R.I. Gaynanova, A.V. Ivanova, A.A. Kuzina // Liderstvo i menedjment. 2023. Tom 10. № 4. S. 1303-1322. doi: 10.18334/lim.10.4.119734.
14. Danilova T.V. Razrabotka avtomatizirovannogo resheniya po raschetu motivatsii rukovoditeley podrazdeleniy stroitelnoy organizatsii / T.V. Da- nilova, K.X. Kalugyan // Informatizatsiya v sifrovoy ekonomike. 2022. Tom 3. № 2. S. 79-90. doi: 10.18334/ide.3.2.116805.
15. Poluyanov V.P. Algoritm otsenki potrebitelskogo kachestva avtomatizirovannoy sistemы rascheta motivatsii rukovoditeley podrazdeleniy / V.P. Poluyanov // Informatizatsiya v sifrovoy ekonomike. 2022. Tom 3. № 2. S. 91-102. doi: 10.18334/ide.3.2.116806.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA KORXONA XODIMLARINING XAVFSIZLIGI BILAN BOG'LIQ XAVFLARNI BAHOLASH USULLARI.

A.Q.Abdualimov

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti, Surxondaryo, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich
Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi doktoranti
Email: *ashrafabdualimov@gmail.com*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 15 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Maqolada korxona xodimlarining xavfsizligini baholashning uslubiy yondashuvlari o'rganilgan. Inson resurslarini boshqarishda korxona hodimlarining xavfsizligini ta`minlash mexanizmi yoritilgan. Korxona iqtisodiy xavfsizligiga ishchi hodimlarning ta`siri natijasida yuzaga keladigan xavflar va risk darajalari, xodimlarni boshqarish sohasida xavfsizlikni ta'minlash uchun "HR risklari" va "xavfni baholash" tushunchalari mohiyatiga yondashuvlar yoritilgan. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta`minlashda hodimlarning ta`siri, hatti harakati va ishchi hodimlar faoliyaitini samarali tashkil etish yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *Korxona, iqtisodiy xavfsizlik, korxona iqtisodiy xavfsizligi, iqtisodiy tahdid, ishchi hodimlar, tahdid, risk, baholash, inson resurslari (HR-human resources), korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimi.*

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С БЕЗОПАСНОСТЬЮ РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЯ В УПРАВЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ.

Аннотация: *В статье исследован методологические подходи к оценке безопасности сотрудников компании. Освещен механизм обеспечения безопасности работников предприятия в управлении персоналом. Опасности и уровни риска, возникающие в результате воздействия работников на экономическую безопасность предприятия. Освещены подходи к сущности понятий «кадровые риски» и «оценка рисков» для обеспечения безопасности в сфере управления персоналом. В обеспечении экономической безопасности предприятия выделено влияние сотрудников, поведение и эффективная организация деятельности работников.*

Ключевые слова: *Предприятие, экономическая безопасность, экономическая безопасность предприятия, экономическая угроза, сотрудники, угроза, риск, оценка, человеческие ресурсы (HR), система экономической безопасности предприятия.*

METHODS FOR ASSESSING RISKS RELATED TO THE SAFETY OF ENTERPRISE EMPLOYEES IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.

Abstract: *The article examines methodological approaches to assessing the safety of company employees. The mechanism for ensuring the safety of enterprise employees in personnel management is highlighted. Hazards and risk levels arising from the impact of employees on the economic security of the enterprise. Approaches to the essence of the concepts of "personnel risks" and "risk assessment" for ensuring safety in the field of personnel management are highlighted. In ensuring the economic security of the enterprise, the influence of employees, behavior and effective organization of employees' activities are highlighted.*

Keywords: *Enterprise, economic security, economic security of the enterprise, economic threat, employees, threat, risk, assessment, human resources (HR), enterprise economic security system.*

KIRISH

Har bir korxonaning iqtisodiy xavfsizligi milliy iqtisodiy xavfsizlik tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Korxona iqtisodiy xavfsizligi shunchaki atama emas, u korxona mustaqilligining kafolati, korxona barqarorligi va muvaffaqiyatli faoliyatining asosidir. Shuning uchun ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ustuvor vazifalardan biridir. Korxonada asosiy tahdid omillaridan biri bu xodimlar hisoblanadi. Xodimlar xavfsizligini ta'minlash sohasidagi har qanday korxonaning asosiy vazifalaridan biri bu malakali va tayyorlangan kadrlarni shakllantirishdir.

Ushbu muammoni hal qilish uchun xodimlarni himoya qilishning samarali tizimini yaratish va doimiy ravishda takomillashtirish kerak. Bunday tizim xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoni, ularning faoliyatini baholash tizimini ham o'z ichiga olishi kerak.

Xodimlar bilan bog'liq xavflar xodimlar bilan o'zaro munosabatlarning har bir bosqichida mavjud bo'lib, har qanday korxonaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu xavflarni baholashning zamonaviy usullari ularning yuzaga kelish ehtimoliga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, shuningdek, mavjud xavf darajasini baholash imkonini beradi.

Xodimlarning ishdan noroziligidan kelib chiqadigan zarar miqdorini aniqlaydigan Gallup tadqiqotiga ko'ra, norozi xodimlardan yuzaga kelgan zarar o'tgan yili AQSH kompaniyalariga taxminan 1,9 trillion dollarga tushgan. Buning birinchi sababi kompaniyalarda unumdorlikni yo'qotish tufayli. Bu katta zarar pandemiyadan keyin ko'proq amerikaliklar ish beruvchilardan uzilib qolgani bilan bog'liq. Gallup so'rovlariga ko'ra, jalb qilish darajasi o'n yil davomida barqaror ravishda o'sib borgan va 2020 yilda eng yuqori cho'qqiga chiqqan. So'nggi bir necha yildagi qiyinchiliklar xodimlarning qoniqishini pasaytirdi, tobora xodimlar ish beruvchilar ulardan nima kutishayotganini to'liq tushunmayotganliklarini aytishmoqda, bu esa stressni sezilarli darajada oshiradi va ishga bo`lgan sadoqatni kamaytiradi.

Callup tadqiqoti Amerika kompaniyalari ishchi kuchining ayanchli holatini aniqlab, respondentlarning atigi uchdan bir qismi o'z ishlariga ishtiyoqli ekanliklarini aytishgan, yarmi esa minimal kuch sarflashgan, ya'ni "jimgina ishdan bo'shatish" rejasida bo`lishgan. Tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, xodimlar bilan muloqotni yaxshilash xodimlarni ushlab turishni yaxshilaydi. Gallup tadqiqot markazi kompaniyalarda yo'qolgan mahsuldorlik zararini hisoblab chiqishdi. Xodimlarning ishdan bo'shatilishining dollar hisobida ta'sirini baholab va keyin buni mehnatga layoqatli aholiga ekstrapolyatsiya qilindi. Ekspert hisob-kitoblariga ko‘ra, jahon iqtisodiyotiga yetkazilgan jami zarar qariyb 8,8 trillion dollarni tashkil etdi, deb yozadi Bloomberg.

Nazorat, bu to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazish ehtimolini bartaraf etishga qaratilgan kompleks tizimdir. Bu nuqtaga e'tibor qaratish lozim, chunki turli korxonalarda bu jarayon o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi va ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxona iqtisodiy xavfsizligiga ishchi hodimlarning ta`siri natijasida

yuzaga keladigan xavflar va risk darajalari, xodimlarni boshqarish sohasida xavfsizlikni ta'minlash uchun "HR risklari" va "xavfni baholash" tushunchalari mohiyatiga olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Quyidagi olimlarning korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda "kadrlar xavfi (HR risk)" va "xavf darajasini baholash" tushunchalariga yondashuvlarini tahlil qilsak:

Alaverdov A.R. "Kadrlar risklari" – bu tashkilot xodimlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiladigan harakatlari bilan bog'liq yo'qotishlar[1];

Badalova A.G. "Kadrlar risklari" – bu har bir shaxsning insoniy tabiatida yotadigan operatsion xavflar bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayoni bilan birlashganda ishchilar jamoasining xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi[2];

Kopeikina G.K. "Kadrlar risklari" – bu odamlardan kelib chiqadigan tahdidlarni, ya'ni antropogen tahdidlarni amalga oshirish bilan bog'liq xavflar[3];

Pelikh A.S. "Kadrlar risklari" – bu boshqaruv xodimlari va xodimlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvida namoyon bo'ladigan yo'qotishlar, malakaning yetarli emasligi, xodimlarning xatolari va firibgarliklarida namoyon bo'ladi[4];

Tsvetkova I.I. "Kadrlar risklari" – bu xodimlar va boshqaruv xodimlarining ko'zlangan maqsaddan chetga chiqishiga yoki kutilgan natijaning pasayishiga olib keladigan harakatlari yoki harakatsizligi[5];

Xavf darajasini baholashda quyidagi olimlarning ta`riflarini kurib chiqamiz. Masalan Moskva davlat Texnologik universiteti proffesori iqtisod fanlari doktori Badalova A.G. Xavfni baholash tushunchasiga quyidagicha – “bu tahliliy chora-tadbirlar majmuyi yordamida aniqlangan xavfning namoyon bo‘lishi natijasida yuzaga kelgan xodimlarning harakatlari yoki harakatsizligidan ma’lum miqdordagi zarar” deb ta`rif beradi.[2] Boshqa olim Kopeikina G.K. esa “Xavfni baholash – bu inson faoliyati bilan bog'liq xavflarni, shuningdek, miqdoriy baholashda ifodalangan xavflarning paydo bo'lishiga olib keladigan omillarni monitoring qilish bo'yicha doimiy ish” deb ta`kidlaydi.[3] Pelikh A.S. “Xavfni baholash” – xavfni sifat yoki miqdoriy aniqlash bilan bog'liq bo'lgan xavf tahlilining tarkibiy qismidir.[4] Tsvetkova I.I. “Xavfni baholash” – bu miqdoriy yoki sifat ko'rsatkichlarida ifodalangan xavflarning ma'lum darajalari yoki qiymatlari.[5]

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlardan ko'rinib turibdiki, kadrlar xavfi va riskining yagona ta'rifi mavjud emas. Turli mualliflar buni o'ziga xos tarzda talqin qilishadi: xavflar, risklar, yo'qotishlar, choralar, harakatlar va h.k.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, yirik kompaniyalarning xodimlar xavfsizligi bo'yicha amaliy maslahatchisi Alaverdov A.R. tomonidan berilgan ta'rif tadbirkorlik subyekti uchun mos keladi, chunki muallif "xavflar – bu korxonaning moliyaviy – xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yo'qotishlar", deb ta'kidlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, kadrlar xavfini ishchilar jamoasining yoki uning a'zolaridan birining harakati yoki harakatsizligi sifatida aniqlash mumkin, buning natijasida rejalashtirilgan natijaning kutilayotgan ta'siri kamayadi va rejalashtirilgan maqsadlarga erishilmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini bajarishda bilish, hujjatli tahlil qilish, iqtisodiy tahlil, sintez umumlashtirish, birlamchi va ikkilamchi tadqiqot asosida ma`lumotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish usullari qo'llaniladi. Obyektiv qonuniyatlarni aks ettiruvchi umumlashtirilgan tajriba va ijtimoiy amaliyot, shuningdek, korxonaga iqtisodiy tahdidlarni baholashni modellashtirish qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona iqtisodiy xavfsizligi tizimining eng murakkab bo'g'ini hodimlardir, chunki ko'p hollarda bu inson omili iqtisodiy subyektning muvaffaqiyatli faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda firibgarlik va xodimlar tomonidan suiiste'mollikka qarshi kurashish masalalari korxona boshqaruvi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun korxona oldida hodimlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo`lgan xavflar, tahdidlar, zararlarni va xavf darajasini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi.

Korxona o'z faoliyatining turli bosqichlarida xodimlar bilan bog'liq xavflarga duch keladi va bu xavf-xatarli vaziyatlarning paydo bo'lishiga turli xil omillar sabab bo'lishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, bu xatarlarning o'z vaqtida oldini olish, ularni samarali boshqarish va faol qarshi kurashish korxona xavfsizligini ta'minlash jarayonining mohiyatini tashkil etadi.

Shuningdek, "xavfni baholash" tushunchasini ham ko'rib chiqish muhimdir. "Baholash" atamasi ikkita ma'noga ega:

1. Biror narsani muayyan mezonlar bilan baholash, qiyoslash va taqqoslash jarayoni.
2. Ushbu jarayonning natijasi baholanayotgan ob'ektga ma'lum sifatlarni belgilaydigan yangi bilim yoki mulohazadir.

Kadrlar xavfini hisoblashda o'rtacha arifmetik vazndagi formuladan foydalanib, tortilgan summa usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Kadrlar xavfining integral (I) darajasi (Rps — ingl., risk personnel security) quyidagi formula bo'yicha aniqlangan:

$$IRps = \frac{\sum_{n=1}^{5} Z_n}{50} \quad (1)$$

bu yerda;

Zn — xo'jalik yurituvchi subyektning **n**-chi kadrlar xavfi ta'sirining ahamiyati;

n – kadrlar xavfi guruhining raqami;

50 – ta'sir kuchining maksimal qiymati, me'yoriy qiymat.

HR riskining kompaniya faoliyatiga ta'sir qilishining ahamiyati vazn koeffitsientini ta'sir kuchiga ko'paytirish orqali hisoblab chiqilgan:

$$Z_i = V_n * P_n (2)$$

bu yerda;

Vn – **n**-chi xodimlar xavfining ahamiyatini vazn koeffitsienti;

Pn - **n**-chi xodimlar xavfining faoliyatga ta'sir kuchi.

Muhimlikni baholash xavf omillarining ahamiyatini vazn koeffitsientlarini juftlik taqqoslash usulidan foydalangan holda hisoblash asosida hisoblab chiqilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun kadrlar xavfining integral darajasini talqin qilish shkalasi 2-jadvalda keltirilgan.

Mutlaq ustuvorliklar (AP) matritsaning har bir qatorini ustun vektoriga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqilgan (AP-ingl., absolute priority):

$$\boldsymbol{AP = a_{11} * \sum b_{11} + a_{12} * \sum b_{12} \dots\dots\dots + a_{ij} * \sum b_{ij}} \quad (3)$$

bu yerda;

$\boldsymbol{a_{ij}}$ – matritsa qatori vektorining qiymati;

$\boldsymbol{b_{ij}}$ — matritsa ustun vektorining

qiymati; **i** – qator raqami; **j** – ustun raqami.

(1-Jadval)

Xavf tavsifi	**Interval**	**Xavf darajasi**
Halokatli oqibatlarga olib keladigan maksimal ehtimollik	1 – 0.81	Halokatli
Vujudga kelish ehtimoli va oqibatlari yuqori	0.8 – 0.63	Ahamiyatli
O'rtacha ehtimollik, o'rtacha oqibatlarga olib keladi	0.63 – 0.37	O`rtacha
Kam oqibatlarga olib keladigan past ehtimollik	0.37 – 0.2	Kichik
Kam yo'qotishlar bilan past ehtimollik	0.2 – 0	Ahamiyatsiz

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning kadrlar xavfsizligini ta'minlash uchun kadrlar xavfining integral darajasini talqin qilish

Xodimlar xavfining korxona faoliyatiga ta'sirini baholash shkalasi 0 dan 50 gacha bo'lgan sonli seriyalar ko'rinishida 5 birlik qadam bilan taqdim etiladi. Bu shkalaga ko`ra, 0 – ta`sirning yo`qligini, 5 — juda kam ta’sirni, 10 — yengil ta’sirni, 15 — o`rtacha ta’sirni, 20 — o`rtachadan yuqori ta’sirni, 25 — sezilarli ta’sirni, 30 — ahamiyatli ta’sirni, 35 — kuchli ta’sirni, 40 — o`ta kuchli ta’sirni, 45 — jiddiy ta’sirni, 50 — halokatli ta’sirni bildiradi.

Nisbiy ustuvorliklar (RP-ingl., relative priority) quyidagi formula bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi:

$$RP = APn/(\sum rp) \quad (4)$$

bu yerda:

APn – mutlaq ustuvorliklar, nuqtalar;

∑rp – barcha omillar uchun mutlaq ustuvorliklar yig'indisi.

(2-Jadval)

Xavflar	**Xavflar**					**Miqdor, ballar**	**Ustuvorlik**	
	Rps1	**Rps2**	**Rps3**	**Rps4**	**Rps5**		**AP**	**RP**
Xodimlarni ishga olish bilan bog'liq xavflar (Rps1)	-	0.5	0.5	1.5	1	3.5	12.5	0.174
Xodimlarning firibgarligi bilan bog'liq xavflar (Rps2)	1.5	-	1	1.5	1.5	5.5	19	0.265
Xodimlar faoliyati bilan bog'liq xavflar (Rps3)	1.5	1	-	1.5	1.5	5.5	19	0.265
Xodimlarning malakasi bilan bog'liq xavflar (Rps4)	0.5	0.5	0.5	-	1.5	3	11	0.153
Xodimlarni ishdan bo'shatish bilan bog'liq xavflar (Rps5)	1	0.5	0.5	0.5	-	2.5	10.25	0.143
Mutlaq ustuvorliklarning umumiy yig'indisi (ballar)							71.75	1

Kadrlar xavfi ta'sirining ahamiyatini baholash			
Xavf turlari	**Vazn koeffitsienti**	**Ta'sir kuchi**	**Ta'sirning ahamiyati**
Xodimlarni ishga olish bilan bog'liq xavflar (Rps1)	0.174	15	2.613
Xodimlarning firibgarligi (Rps2)	0.265	25	6.620
Xodimlar faoliyati bilan bog'liq xavflar (Rps3)	0.265	25	6.620

Xodimlarning malakasi bilan bog'liq xavflar (Rps4)	0.153	15	2.300
Xodimlarni ishdan bo'shatish bilan bog'liq xavflar (Rps5)	0.143	10	1.429
Jami	1.000	-	19.582

Korxona xavfsizligiga xodimlarning xavf-xatarlarining ta'siri darajasini baholash

Yakuniy hisoblar natijalariga ko'ra, korxona uchun eng katta xavf xodimlarning firibgarligi va faoliyati bilan bog'liq xavflardan iborat degan xulosaga kelish mumkin.

Xodimlar xavfining integral darajasi quyidagilarga teng:

$$IRps = \frac{19.582}{50} = 0.4$$

IRps qiymati bilan, xodimlar bilan bog'liq bo'lgan xatarlar sohasida o'rtacha daraja mavjudligini asoslash mumkin.

Sifatli baholashning asosiy vazifalaridan biri xavfning mumkin bo'lgan turlarini va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdir. Xodimlar xavfini aniqlashda asosiy mezon bu vazn(ta`siri), ya'ni har bir omilning ahamiyatlilik darajasi va uning boshqa omillar bilan aloqasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilayotgan metodologiya asosiy mezon sifatida xodimlar bilan bog'liq xavflarni kompleks baholashdan foydalanishni taklif qiladi. Xatarlarni baholash usulini tanlash xodimlarning xavf-xatarlari bilan bog'liq bo'lgan axborot sharoitlarining noaniqlik darajasiga bog'liq. Ushbu noaniqlik darajasi axborot manbalari va uning asosiy xususiyatlarini ifodalash darajasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ushbu metodologiya korxonaning xodimlar xavfsizligini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida xodimlarning xavflarini baholashga imkon beradi.

(1-rasm)



1-rasm. Muallif xodimlarning firibgarlik va kasbiy etikaning buzilishiga qarshi kurash amaliyotida ushbu asosiy yo‘nalishlar bo`yicha quyidagi chora tadbirlarni qo'llashni taklif etadi

Ushbu jarayon inson resurslarini boshqarish tizimi bilan uzviy bog'liqdir, chunki belgilangan funktsional yo'nalishlarni amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydigan xodimlardir.

Xodimlarni boshqarishning samarali tizimini shakllantirish yuqori darajali menejerlarga xodimlarning xatti-harakatlariga ta'sir qilish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishga yordam beradi va natijada korxonaga o'z maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, korxonalar oldinda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan zararlarni kamaytirish uchun profilaktika choralarini ishlab chiqish, amalga oshirish va yuzaga keladigan vaziyatlarga tezkor javob berishi muhimdir. Xodimlar bilan bog'liq zararni minimallashtirish usullari barcha korxonalar uchun bir xil bo'lishi mumkin emas. Ular ma'lum bir tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Biroq, eng yaxshi natijaga erishish uchun ma'muriy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni birlashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alaverdov A. G. Upravlenie personalom / A. G Alaverdov. — M: Market DS, 2017. — 304 s.
2. Badalova A. G. Upravleniya kadrovimi riskami predpriyatiya / A. G. Badalov // Rossiyskoe predprinimatelstvo. —2015. — ¹ 7 (67). — C. 92–98.
3. Kopeykin G. K. Kvalifikatsiya personala i obespecheniya ekonomicheskoy bezopasnosti: organizatsionno-psixologicheskie problemi / G. K. Kopeykin // Zashita informatsii. Konfident. — 2013. — ¹ 5. — S 12–16.
4. Pelix A. S. Organizatsiya predprinimatelskoy deyatelnosti. / A. S. Pelix // Rostov-na-Donu: MarT, — 2002. —95 s.
5. Svetkova I. I. Klassifikatsiya kadrovix riskov / I. I svetkova // Ekonomika i upravlenie. — 2009. — ¹ 6. — S. 38–43.
6. Magura M. Problemi bezopasnosti pri otbore kadrov http:///db/hrm/FF5D154B805CEC4CC3256AABOO42E320/category
7. Borzunov A.A. Sovershenstvovanie mexanizmov protivodeystviya moshennichestvu i zloupotrebleniyam personala na osnove upravlenie kadrovimi riskami // Ekonomika i sovremenniy menedjment: teoriya i praktika. 2014. ¹39. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sovershenstvovanie-mehanizmov-protivodeystviya-moshennichestvu-i-zloupotrebleniyam-personala-na-osnove-upravlenie-kadrovymi-riskami
8. Andrunik A. P. Kadrovaya bezopasnost:kvalifisiruyushie definisii //Mejdunarodniy nauchno-issledovatelskiy jurnal. — 2022. — ¹ 4 (118) Chast 3. — S. 177—181. — URL: https://researchjournal.org/psycology/kadrovaya-bezopasnost-kvalificiruyushhie-definicii/;
9. Metodicheskie podxodi k otsenke riskov kadrovoy bezopasnosti xozyaystvyushego subyekta “Young Scientist” Adveev A.N., Efimova L.A. # 48 (338). November 2020 Economics and Management

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI PLATFORMALAR.

Sh.Sh.Amriyeva

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti
Email: shaxzodashuhratona@gmail.com

Received: 15 March 2025
Revised: 22 March 2025
Accepted: 14 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli platformalarning innovatsion iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning rivojlanish dinamikasi va iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor raqamli texnologiyalar orqali yaratilgan imkoniyatlar, biznes modellarning transformatsiyasi va platforma iqtisodiyotining xususiyatlariga qaratilgan hamda raqamli platformalar tushunchasi va mohiyati, qo‘llanilish yo‘nalishlari va kadrlarni ish bilan ta’minlashdagi roli haqida keltirilgan. Raqamli platformalarni qo‘llanilish sohalari batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli platforma, ijtimoiy tarmoq, elektron to‘lov, veb xizmatlar, xizmat sifatida xizmat (Servis as a Servis), Innovatsion iqtisodiyot, Raqamli platformalar, Axborot texnologiyalari, Raqamli ekotizim, Iqtisodiy raqobatbardoshlik, Sun’iy intellekt, Elektron tijorat, Startaplar va innovatsiyalar.*

ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация: *В статье анализируется роль цифровых платформ в инновационной экономике, динамика их развития и влияние на экономическую эффективность. Основное внимание уделяется возможностям, создаваемым цифровыми технологиями, трансформации бизнес-моделей и особенностям платформенной экономики, а также представлены понятие и сущность цифровых платформ, области применения и их роль в обеспечении занятости. Подробно освещены области применения цифровых платформ.*

Ключевые слова: *цифровая платформа, социальная сеть, электронный платеж, веб-сервисы, услуга как услуга, инновационная экономика, цифровые платформы, информационные технологии, цифровая экосистема, экономическая конкурентоспособность, искусственный интеллект, электронная коммерция, стартапы и инновации.*

DIGITAL PLATFORMS IN THE CONDITIONS OF INNOVATION ECONOMY

Annotation: *This article analyzes the role of digital platforms in the innovation economy, their development dynamics and impact on economic efficiency. The main focus is on the opportunities created by digital technologies, the transformation of business models and the characteristics of the platform economy, and the concept and essence of digital platforms, areas of application and their role in providing employment to personnel are presented. The areas of application of digital platforms are covered in detail.*

Keywords: *digital platform, social network, electronic payment, web services, Service as a Service, Innovation economy, Digital platforms, Information technologies, Digital ecosystem, Economic competitiveness, Artificial intelligence, E-commerce, Startups and innovations.*

KIRISH.

XXI-asr boshlaridan dunyo biznes sharoitlari tez o‘zgarib bormoqda va bu jarayon o‘z-o‘zidan raqamli o‘zgarishlarni talab qiladi. Ushbu o‘zgarishlar barcha biznes modellariga va asosiy bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarish jarayoniga ta‘sir qiladi. Shahslararo va ishbilarmonlik aloqalaring mavzusida texnologik imkoniyatlari,hizmat ko‘rsatish darajasida va talab qilinadigan xizmatlarni taqdim etish tezligiga talablarning ortib borishi biznesni tashkillashtirish yondashuvlarini tubdan o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar jismoniy shahslar, tadbirkorlik subektlari va butun jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining toboro muhim qismiga aylantirib berish. Ular yangi ishlab chiqarishni tashkel etish va mavzularini modernizatsiya qilish,jamiyat va davlat organlaring axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida shaxslararo hamkorligi darajasini oshirish,innovation biznes modellarini shakllantirish,milliy bozoring raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston Republikasi Prizidentining 2020 -yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “RAQAMLI UZBEKISTON — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘grisidagi farmoniga muvofiq bir qator vazifalari belgilab berilgan.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Innovatsion iqtisodiyot va raqamli platformalar mavzusi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar markazida turibdi. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy ishlar, tahliliy maqolalar va amaliy tadqiqotlar chop etilgan. Quyida ularning asosiylari tahlil qilinadi:

1. Tapscott, D. (2016). *Blockchain Revolution*

Bu asar raqamli platformalar va blokcheyn texnologiyasining iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qiladi. Muallif raqamli ishonch va ma’lumotlar xavfsizligi masalalarini ilgari surib, platformalarning markazlashmagan tuzilmalar orqali innovatsion iqtisodiyotga qanday xizmat qilishini ko‘rsatadi.

2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age*

Mazkur tadqiqotda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Mualliflar raqamli platformalar orqali iqtisodiy samaradorlik oshishini, biroq mehnat bozorida tafovut kuchayishini ta’kidlaydilar.

3. Evans, D. S., & Schmalensee, R. (2016). *Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms*

Ushbu kitob ko‘p tomonlama platformalar iqtisodiyoti (multisided platforms economy) asoslarini yoritadi. Uber, Airbnb va Amazon kabi misollar orqali platformalar qanday qilib innovatsion iqtisodiy ekotizim yaratishini tushuntiradi.

4. Jahon banki hisobotlari (2020–2023 yillar)

Jahon bankining “Digital Economy for Development” hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli platformalarning infratuzilma, tartibga solish va kadrlar tayyorlash borasidagi muammolari chuqur tahlil qilingan. Bu manbalar O‘zbekiston uchun muhim tajribaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

Mahalliy siyosiy-huquqiy manbalar raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha davlat yondashuvini o‘z ichiga oladi. 2020 yildan boshlab ishlab chiqilgan strategiyalar raqamli platformalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

6. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashrlari

Iqtisodiy tadqiqotlar institutining maqolalarida, ayniqsa mahalliy sharoitda raqamli texnologiyalarni tadbiq qilishdagi to‘siqlar, infratuzilmaviy kamchiliklar va innovatsion loyihalar salohiyati yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki xalqaro miqyosda raqamli platformalar iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni jadallashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Mahalliy darajada esa, O‘zbekiston raqamli transformatsiya bosqichida turibdi va bu yo‘lda mahalliylashtirilgan platformalar yaratish, huquqiy muhitni takomillashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor ahamiyatga ega.

Tahlil va natija.

Platformada vebseminar imkoniyatlari, biznes xabarlari, onlayn uchrashuvlar va va guruhli chatlarni amalga oshirishi mumkin. Raqamli platformalarni guruhlashtirish quyidagi jadvalda keltirilgan.

Raqamli platformalarni guruhlash

Taqdim etilayotgan xizmatlar	**Raqamli platforma turlari**		**Misollar**
Alohida foydalanuvchilarga xizmatlarni taqdim etish	Ijtimoiy tarmoqlar -	-	Facebook, Tik Tok, Twitter
	Elektron to‘lov platformalari	-	PayPal, Paystack, Paytm
	Kraudfanding platformalari	-	Catarse, Ketto, Kickstarter
	Boshqa raqamli xizmatlar platformalari	Yangiliklar, OAV Reklama Qidiruv va axborot platformalari Ko‘chmas mulk va maxsulotlar ijarasi Kommunikatsiya servislari Onlayn magazinlar ilovalari	Apple TV+, Netflix OLX, Kenhoo Feedly, Google search Airbnb, Makemetrip Skype, Viber, Zoom Apple App Store, Goole play store
Raqamli mehnat platformalari	Global veb platformalar (masofadan mehnat)	Frilans Mikrovazifalar Dasturlash Meditsina maslahati	99Designs, Upwork Clickworker Microworkers Topcoder, Codeforces DocOnline MDLive
	Taqdim etadigan platformalar	Taksi Yetkazib berish Uy xizmatlari	Bolt, Ola, Uber Meituan, Rappi, UberEats Doit4u,

	mahalliy yashash joyiga asoslangan xizmat (mahalliy mexnat platformalari)	Uy xizmatchilari mehnati Xizmat ko‘rsatish	Urban Company BookMyBai, SweepSouth Care24, CareLinx
Vositachilik va hamkorlik V2V Chakana va ulgurji savdo Ishlab chiqarish bozori va tahlil Qishloq xo‘jaligi bozori va taxlil Moliyaviy texnologiyalar va kreditlash Alibaba, Amazon AnyFactory, Laserhub Agri Marketplace, FarmCrowdy Ant Group, Avant, Nummo	Vositachilik va hamkorlik V2V Chakana va ulgurji savdo Ishlab chiqarish bozori va tahlil Qishloq xo‘jaligi bozori va taxlil Moliyaviy texnologiyalar va kreditlash Alibaba, Amazon AnyFactory, Laserhub Agri Marketplace, FarmCrowdy Ant Group, Avant, Nummo	Vositachilik va hamkorlik V2V Chakana va ulgurji savdo Ishlab chiqarish bozori va tahlil Qishloq xo‘jaligi bozori va taxlil Moliyaviy texnologiyalar va kreditlash Alibaba, Amazon AnyFactory, Laserhub Agri Marketplace, FarmCrowdy Ant Group, Avant, Nummo	Vositachilik va hamkorlik V2V Chakana va ulgurji savdo Ishlab chiqarish bozori va tahlil Qishloq xo‘jaligi bozori va taxlil Moliyaviy texnologiyalar va kreditlash Alibaba, Amazon AnyFactory, Laserhub Agri Marketplace, FarmCrowdy Ant Group, Avant, Nummo

Ushbu muammolarni hal qilish raqamli platformalardan faol foydalanishni o‘z ichiga oladi. Raqamli platformalar zamonaviy iqtisodiyotning raqamli rivojlanishining asosiga aylanmoqda. Raqamli platformalar biznes yuritishning an‘anaviy usullarini, jumladan bozordagi muvozanat kuchlarini o‘zgartirmoqda. Raqamli platformalar egalari narhlarni nazorat qilish orqali o‘z ta’sirini kuchaytirdi, natijada an’anaviy biznes egalariga qarshi kurashadi. Raqamli platformalarning tadqiq etishning xorijiy tajribalari, platforma yechimlaridan faol foydalanadigan kompaniyalar bozor kapitallashuvi bo‘yicha dunyodagi eng yirik kompaniyalar misolida ko‘rib chiqildi. Mutaxasislarning takidlashicha, 10-ta eng yirik global platforma kompaniyalarining umumiy bozor kapitallashuvi 4,8 trillion dollardan ortiq(1-rasm). Rossiya Federatsiyasi misolida ko‘rsak raqamli platformalar, asosan Internet foydalanuvchilarining ko‘pligi tufayli keng tarqaldi. «Ijtimoiy fikr »jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra: Oylik internet auditoriyasi -84 million kishi,bu Rossiya aholisining 72-foizini tashkel qiladi,haftalik Internet auditoriyasi-82-million(72-foiz), kunlik internet auditoriyasi -75 million(64 foiz). Shu bilan birga , tavarlarni xarid qilish uchun internetdan foydalanayotgan aholi ulushi 2017 yildagi 15,3 foizdan 2021-yilda 29,1 foizga oshgani kuzatilmoqda. Davlat va kommunal xizmatlarni olish uchun internetdan foydalanadigan aholi ulushi 2017-yildagi 10,7 foizdan 2021-yildagi 42,3 foizgacha o‘sdi.



1-rasmda Rossiya platformasi kompaniyalarining bozor kapitallashuvi ko‘rsatilgan.

Bugungi kunda Rossiya raqamli platformalar bozorida bir qator rus (yandex, mail.ru, Ozon va boshqalar) mavjud bo‘lib, ular o‘rtasida qizg‘in raqobat muhiti mavjud. Milliy platformalar har qanday davlatlarda asosan tavar va xizmatlarni yetkazib berish platformalari asosida ifodalanadi, jumladan quydagi turlar: tovarlar savdosi (Ozon, Lamoda), transport xizmatlari (Yandex.Taxi), sayohat xizmatlari (tatu.ru), moliyaviy xizmatlar (bank.ru), ko‘ngil ochar (Afisha.ru), reklama xizmatlari (Yandex. Drect, Vkontakte Adversting, My target), veb qidiruv (Yandex, Mail.ru), ilovalar (Yandex. Store) va boshqalar. Misol tariqasida, ijtimoiy tarmoqlar tezkor xabarchilar va qidiruv tizimlarining Rossiya bozorlarida xorijiy va rus platformalari o‘rtasidagi raqobat ko‘rsatilgan. Jahon bo‘yicha raqamli platformalardan foydalangan kompaniyalarning hududiy taqsimoti 4-rasmda ko‘rsatilgan.Ularning ayrimlari Shimoliy Amerika va Osiyoda joylashgan bo‘lsa,Yevropa kompaniyalarining ulushi juda past.



2-rasm.Dunyodagi eng yirik raqamli platformali kompaniyalarning bozor kapitallashuvi(2022 yil aprel holatida),milliard dollar.



3-rasm. Dunyo bo‘yicha raqamli platforma kompaniyalarining davlatlar kesimida taqsimlanishi (foizda).

Dunyo davlatlari bo‘yicha raqamli platforma kompaniyalar taqsimlanishi O‘zbekiston Respublikasida ham xorijiy davlatlar tajribalari va ulardan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqarishimiz zarur va shu asosida o‘zimizning milliy raqamli platforamalarimizni ishlab chiqarib iqtisodiyotning zarur tarmoqlariga qo‘llashimiz kerak. Muhokama Raqamli platformalarni rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi kerak.

Mahalliy platforma yechimlarini ishlab chiqishda bir qator tendetsiyalar mavjud:

-Yirik va barqaror istimolchiga ega katta hajmli raqamli platformalar tomonidan onlayn xizmatlar ko‘lamini kengaytirish zarurdir.Shu bilan birga, hozirgi paytda yetakchi mavqiyga ega rivojlaniyotgan yangi xizmat bozorlarini egallash imkoniyati yuqori.

-Sanoat va qishloq xo‘jaligi kabi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari,shuningdek ijtimoiy soha, qurilish,davlat boshqaruvi va davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun O‘zbekistonda ham raqamli platformalar yechimlarini yaratish;

-Platformalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha resurslarni jalb etish va ulardan foydalanish ,muayyan maqsadli yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun o‘zimiz va uchinchi tamon raqamli platformalarni integratsiya qilish.Shu bilan birga ,yangi biznes modellari imkon qadar samarali amalga oshirish,qayta foydalanish mumkun bo‘lgan tizimlar, elementlar va shablonlar hisobiga vakolatlar darajasi oshiriladi;

-Kichik va o‘rta korxonalar platformasiga integratsiya qilish,biznes jarayonlarini qo‘llab quvvatlovchi platformaga-statistik tahlil,bugalteriya hisobi,kadrlar,soliq hisobini o‘tkazish imkoniyati bilan. Bu ushbu korxonalar biznesini rivojlantirish va axborotga kirish uchun resurslarni bo‘shatishni ta’minlaydi.

Xulosa.

O‘rganish natijalari asosida shuni takidlash imkonini beradiki, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari maqsadga muvofiq bo'lishi kerakligini unutmaslik kerak, mahalliy mahsulotlar, xizmatlarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun raqamli platformalar, bu ularning qo'llanilishini kengaytiradi va milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Asosiy yo'nalishlar orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Raqamli iqtisodiyotda platformalarning xususiyati va dolzardbligini aniqlash maqsadida raqamli platformalarning rivojlanishini monitoring qilish.

2. Jahon tajribasidan foydalangan holda raqamli platformalarni yaratishni rag‘batlantirish va ishtirokchilar uchun yagona ish qoidalarini shakllantirish.

3. Oliy ta‘lim muassalarida shu soha bo‘yicha mutaxasislarni tayyorlashni tashkel etish.

4.Istemolchilarni raqamli platformaga ishonchini oshirish.

5. Raqamli platformalar yangi biznes modellarini ochishga imkon beradi,unda ko‘plab manbalar va amalga oshirilmagan salohiyat mavjuddir.

6. Raqamli platformalardan foydalanish biz uchun talab va taklif tomonlarning iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish jarayoni moddiy,nomoddiy,insoniy va boshqa resurslar jarayonida kam foydalanilgan faoliyat turidir.

7. Bunday platformalar natijada yangi turdagi o‘zaro aloqalar,bozorlar va tarmoqlar paydo bo‘lishi uchun sharoit va imkoniyat shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.-T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – B. 13-14.

2. Vaxabov A.V., Raxmonov N.R. Oliy ta’lim sifatini oshirishning xorij tajribasidan o‘zbekiston oliy ta’lim tizimini isloh etishda foydalanish imkoniyatlari “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. № 4, avgust, 2020-yil.

3. Агеев А.И. Управление цифровым будущим // Мир новой экономи ки. 2018. № 3. С. 6–23.

4. Агеев А.И., Аверьянов М. Цифровое общество: архитектура, принципы, видение // Мир новой экономики. 2021. С. 114–125. 5.

5. Гелисханов И.З., Юдина Т.Н., Бабкин А.В. Цифровые платформы в экономике: сущность, модели, тенденции развития // Научно-технические ведомости СПбГПУ.

6. Евтушенко С.Н., Аверьянов М.А., Кочетова Е.Ю. Цифровая экономика. Трансформация промышленности // Экономическая стратегия. 2021. № 8. С. 52–54.

7. Еферин Я.Ю., Россотто К.М., Хохлов Ю.Е. Цифровые платформы в России: конкуренция между национальными и зарубежными многосторонними платформами стимулирует экономический рост и инновации // Информационное общество. 2019. №1-2.С. 16–34.

8. Месропян В. Цифровые платформы – новая рыночная сила. URL: https://www.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=46781&p=attachment/

9. Pakhomova Yu.V., Narolina T.S., Boeva A.A Enterprise development management based on digital economy methods. В сборнике: Advances in Economics, Business and Management Research Proceedings of the International Scientific and Practical Conference on Digital Economy (ISCDE 2019). electronic edition. 2019. С. 227–23

10. Eisenmann, T., Parker, G., and Alstyne, M. W. Van. 2006. “Strategies for TwoSided Markets,” Harvard Business Review (84:10), pp. 1–12.

FOREIGN EXPERIENCES IN DEVELOPING MEDICAL TOURISM.

A.Sultonov

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros Xalqaro universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Sultonov Akobir
Independent researcher of “Silk Road” International university of tourism and cultural heritage
Email: *akobrsultonov@mail.ru*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 15 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Work has begun on the establishment of 5 tourist villages. These tourist villages will provide a number of services, including family guest houses, catering establishments serving national dishes, pottery, and embroidery. 400 jobs will be created through the implementation of the projects. In Samarkand district, 100 tourism facilities and more than 500 new jobs will be created within the framework of the 2nd stage of the Konigil tourist village. This project will be linked to the Samarkand tourism center.

In the field of extreme tourism or safari tourism, 5 new routes have been established in the region today, including the Samarkand-Taragay route to the Amir Temur Cave with a total distance of 22 km, the Samarkand-Omonkotan-Kitab-Ayakchisoy route with a distance of 80 km, the Samarkand-Chonkaymish (the throne of Jesus Christ) route with a distance of 34 km, the Samarkand-Ohalik-Kengkotan route with an altitude of 2,239 meters above sea level with a distance of 14 km, and the Samarkand-Sharshara route with a distance of 12 km.

Extreme tourism routes such as mountaineering, mountain hiking, cycling, and speleology have been established on these routes.

Also, a cable car is being built in the area adjacent to the Hazrati Davud shrine, the project cost of which is 10 million US dollars. A tourism complex will also be created on the 8 hectares of this project.

The region also has great potential for medical tourism. In particular, in dentistry, the relatively low prices compared to other countries of the world create a basis for organizing work in this area. Large-scale work is being carried out to increase the flow of tourists from neighboring countries by uniting

sanatoriums specializing in radon water treatment in Nurabad district, and further expanding the activities of the Ergash Ota sanatorium in Kattakurgan district. The Intramed sanatorium under construction in Samarkand district is also being adapted to foreign tourists. Recently, the Samarkand Tourism Center, which reflects the business potential of the region, has been established, consisting of 8 4-5 star hotels with 1,300 rooms, a 3-story international congress center and exhibition complexes, thematic alleys, and the "Eternal City" historical complex. More than 10 tourism destinations (eco, water, medical, ethno, may, etc.) will be launched in this center. In particular, 4 hotels will specialize in medical tourism. One of them will offer full enotherapy-wine treatment procedures.

Conclusions and suggestions.

On March 18, 2022, the new terminal of Samarkand International Airport was solemnly opened. The new terminal will allow to increase the number of regular flights from 40 to 120 per week, and as a result of the modernization of the apron, the airfield will be expanded to accommodate up to 24 aircraft. The plan to expand the airport's route network is aimed at increasing the number of routes to 30 by 2030. For example, in 2019, flights were operated from Samarkand Airport on 5 routes. Independent studies conducted by the international analytical organization Lufthansa Consulting show that the passenger flow through this airport will increase from 480,000 to 2 million people per year.

Reconstruction work is underway at the Imam al-Bukhari complex in the Payariq district to organize the visit of pilgrims from the Islamic world. A pilgrimage tourism complex is being built here, consisting of a mosque with a capacity of 10,000 people, a thematic alley reflecting the religious heritage and tangible cultural heritage of our great ancestors on an area of 21 hectares, 3 hotels and 24 family guest houses, as well as catering establishments with the Halal standard serving 3,000 pilgrims.

In order to develop ecotourism in the area of the Koratepa reservoir in the Urgut district, large beaches and swimming pools are being created, in the area of the Kattakurgan reservoir, 5 business entities are providing recreation facilities and beach services, as well as 21 additional swimming and bathing pools for tourists in the region. This indicates that tourism opportunities in Samarkand are expanding, becoming an even more promising industry.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Sh. Safarov, N.E. Ibadullaev, M.I. Daminov, A.A. Karimov. Tourism and transport services. -T .: "Science and technology", 2019, 92 p.

2. M.M.Rabbimov, Z.T.Bakayev, B.Sh.Safarov. "The Impact of Cultural Heritage on Economic Growth in the Example of Museum Development in Uzbekistan" https://doi.org/10.1007/978-3-031-65343-8_25

3. M.M.Rabbimov, D.K.Usmonova "Artificial Intelligence Powered Strategies to Enhance the Competitiveness of Healthcare Institutions in Uzbekistan" ICONSTEM 2024 https://doi.org/10.1109/iconstem60960.2024.10568608

4. www.lex.uz

5. www.researchgate.net

6. www.samstat.uz

O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASIDA OILAVIY KORXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI.

D.A.Togayeva

Toshkent axborot va texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Togayeva Dilnoza Azamatovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot va texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti v.b PhD
Email: *bunyodxon701@gmail.com*
Tel: *+998995904242*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 26 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasidagi oilaviy korxonalarning rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilishga bag‘ishlangan. Maqolada oilaviy biznesning xizmatlar sohasidagi joriy holati, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni, rivojlanish istiqbollari va ularga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda statistik ma’lumotlar, sanoat tahlillari va ekspert baholash usullari asosida ishlab chiqilgan prognoz modellari taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy korxonalar, xizmatlar sohasi, rivojlanish prognozi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, O‘zbekiston iqtisodiyoti, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash.*

ПРОГНОЗНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В СФЕРЕ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация: *Данная исследовательская работа посвящена прогнозированию тенденций развития семейных предприятий в сфере услуг в Республике Узбекистан. В статье анализируется текущее состояние семейного бизнеса в сфере услуг, их роль в экономике, перспективы развития и влияющие на них макроэкономические факторы. В исследовании представлены прогнозные модели, разработанные на основе статистических данных, методов промышленного анализа и экспертных оценок.*

Ключевые слова: *семейные предприятия, сфера услуг, прогноз развития, макроэкономические показатели, экономика Узбекистана, поддержка малого бизнеса.*

FORECAST INDICATORS FOR THE DEVELOPMENT OF SERVICES OF FAMILY ENTERPRISES IN THE SERVICE SECTOR IN UZBEKISTAN.

Abstract: *This research work is devoted to forecasting the development trends of family businesses in the service sector in the Republic of Uzbekistan. The article analyzes the current state of family businesses in the service sector, their role in the economy, development prospects, and macroeconomic factors influencing them. The study presents forecast models developed on the basis of statistical data, industrial analysis, and expert assessment methods.*

Keywords: *family enterprises, service sector, development forecast, macroeconomic indicators, economy of Uzbekistan, small business support.*

Kirish.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning murakkablashuvi va bozorni tovarlar bilan to‘yinishi natijasida xizmatlarga bo‘lgan talab o‘sa boshlaydi.

2019-yilda rivojlangan davlatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining YaIMdagi ulushi AQShda – 77 foizni, Buyuk Britaniyada - 71 foizni, Fransiya va Niderlandiyada – 70 foizni, Yaponiyada – 69 foizni, Kanada va Avstraliyada – 67 foizni, Italiyada – 66 foizni, Braziliyada – 63 foizni va Germaniyada esa – 62 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Rossiyada – 54 foizni tashkil etgan.Shu bois ham dunyo mamlakatlari miqyosida xizmat ko‘rsatish sohasi muttasil rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimizda ushbu sohaning 2023-yilda YaIMdagi ulushi bor yo‘g‘i – 46,5 foizga etgan. Agar ushbu ko‘rsatkichlarni rivojlangan davlatlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirsak O‘zbekiston AQShdan – 2,2 martaga, Buyuk Britaniyadan – 2,0 martaga, Yaponiyadan – 1,9 martaga va Rossiyadan esa – 1,5 martaga kamligini ko‘rish mumkin. Shu sababli O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida **xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish** ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish darajasini yanada oshirish, aholiga yangi zamonaviy va sifatli xizmat turlari ko‘rsatish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi, birinchi navbatda, qishloq joylarda bandlik masalasini hal etishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2017-yil 7-fevralda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” nomli uchinchi yo‘nalishida xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish eng muhim vazifalar sifatida belgilangan.

O‘zbekistonda Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi, respublikaning barcha hududlarida xizmatlar sohasidagi mavjud muammolarning o‘rganilishi va ularni hal etilishi o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Jumladan, mamlakatda 2020 yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 218853,5 mlrd.co‘mni tashkil etib, 2019 yilga nisbatan 102,3 foizga oshdi. Bugungi kunda xizmatlar tarkibida eng katta salmoqqa ega bo‘lgan xizmat turi bu - oilaviy korxona xizmatlari hisoblanadi.

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev “...xizmat va oilaviy madaniyatini oshirish − eng dolzarb masaladir”, deb ta’kidlab o‘tgan edi. Bu fikr milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va taraqqiy etishida xizmat ko‘rsatish va oilaviy sohasi hamda oilaviy xizmatlarining naqadar muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 25 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida aholi farovonligini

oshirish hamda iqtisodiy islohatlarning mustahkam poydevori sifatida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida “Umuman, xalqimiz xotirjam bo‘lishi kerak: sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bu borada kafolatlangan zaxirani yaratish va ularni bozorga uzluksiz etkazib berish hamda narx-navo barqarorligini ta’minlashishlariga ustuvor darajada e’tibor qaratilishini hamda ushbu masala Prezidentning domiy nazoratida bo‘lishini” ta’kidlab o‘tdi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda oilaviy korxonalari muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Buni oilaviy korxonasi bajaradigan quyidagi funksiyalari bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilardan iste’molchilarga sifatli va yo‘qotishlarsiz etkazib beradi.

Ikkinchidan, tovarlarni saqlash orqali tovarlar zahirasini yaratib, tovarlarni iste’molchilarga uzluksiz etkazib beradi.

Uchinchidan, tovarlarga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganish orqali tovarlarning bahosini shakllantirib, narx-navoning barqarorligini ta’minlaydi. Yuqorida keltirilgan oilaviy korxonasi tomonidan bajariladigan barcha funksiyalarining pirovard maqsadi oilaviy jarayonini amalga oshirishda iste’molchilarga sifatli oilaviy xizmatlarini ko‘rsatishdan iboratdir. Keltirilgan ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, oilaviy korxonalari xaridorlarga oilaviy xizmatlarini ko‘rsatish orqali aholi farovonligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oilaviy xizmatlarini rivojlantirish uchun esa avvalo ushbu xizmatlarni kelajakda rivojlanish ko‘rsatkichlarini, ya’ni prognozini ishlab chiqishni taqoza etadi.

Oilaviy korxona xizmatlari hajmini prognozlashtirish juda murakkab iqtisodiy jarayon bo‘lib, u hayotdagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq, aholining tovarlarga bo‘lgan talabini qondirish jarayonini anglatuvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida oilaviy korxonalar xizmatlar hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari

Yillar	Oilaviy korxonalar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, *(mlrd. so‘m)* (Y)	Aholining soni, (*mln.kishi*) (x_1)	Aholini xonodonlar bilan ta’minlanishi, (*birlikda)* (x_2)	Aholining umumiy daromadlar hajmi, *(ming so‘m)* (x_3)	Aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar xajmi, *(mlrd.so‘m)* (x_4)	Tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi *(mlrd.so‘m)* (x_5)
2013	368,8	29,9	5512030	50436,5	27126,8	15214,1
2014	409,5	30,4	5571042	66670,5	35196,3	19556,5
2015	465,4	31,1	5629349	82153,6	44386,0	24841,8
2016	590,1	31,5	5718187	101661,2	55872,8	31409,1
2017	729,1	32,1	5804059	117888,9	68032,1	40187,9
2018	890,6	32,6	5796860	158699,8	78530,4	47269,6
2019	1808,7	33,2	5940490	185036,5	97050,0	61346,2

2020	3649,6	33,9	5924275	220811,8	118811,0	69212,7
2021	4673,3	34,6	6074552	282762,5	150889,8	84433,4
2022	5933,6	35,2	6337713	346461,5	193697,8	103106,6
2023	6457,9	36,0	6528816	401501,5	218853,5	112743,5
2024 (prog)	6731,5	36,8	6732427	445234,2	234554,6	126521,4
2025 (prog)	6924,7	38,6	6945623	476843,2	258724,2	134892,2
2026 (prog)	7352,6	39,2	7052317	507553,3	276921,4	142561,4
2027 (prog)	7686,2	40,1	7196231	546523,7	295324,3	155235,2

Oilaviy korxona tomonidan yaratiladigan xizmatlar hajmi natijaviy omilni boshqa omillarga bog‘liq bo‘lgan ekonometrik modelni qurish uchun modeldagi $a_0, a_1, ..., a_n$ parametrlar qiymatlarini aniqlash uchun yeng kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz.

$$Y = -3987{,}42 + 1{,}33988 \cdot X_1 + 0{,}000248 \cdot X_7 + 0{,}00073 \cdot X_8 - 7{,}46 \cdot X_{10} \quad (2.15)$$

Tuzilgan modelning o‘rtacha taxminiy xatoligi (approksimasiya A):

$$A = \frac{\sum |\varepsilon : ЖСМ|}{n} \cdot 100\% = 15{,}6\%$$

Model ko‘rsatkichlari bo‘yicha t-statistika koyeffisiyentlari:

$$t_1 = -2.172;\ t_2 = 9.806;\ t_3 = 1.249;\ t_4 = 0.073;\ t_5 = -0.083$$

$$t_i < t_{жад} = 2{,}969$$

$$p_1 = 0.061;\ p_2 = 0.00098;\ p_3 = 0.040;\ p_4 = 0.023;\ p_4 = 0.8174$$

Determinasiya koyeffisiyenti:

$$R^2 = \frac{\sum_{i=1}^{n} \left(\overline{\overline{ЖСМ}}_i - \overline{ЖСМ} \right)^2}{\sum_{i=1}^{n} \left(ЖСМ_i - \overline{ЖСМ} \right)^2} = 0{,}9946$$

Fisher mezoni ko‘rsatkichi:

$$F = \frac{R^2}{1 - R^2} \cdot \frac{n - m - 1}{m} = 373{,}508$$

Darbin-Uoson mezoni ko‘rsatkichi:

$$DW = \frac{\sum \left(e_i - e_{i-1} \right)^2}{\sum e_i^2} = 1.46$$

$$1{,}5 \le DW \le 2{,}5$$

T-statistika mezoni bo‘yicha ko‘rsatkichlar baholanganda x_{10} omil ($p=0.81>0.05$) statistik jihatdan ahamiyasiz yekanligini ko‘rsatdi va approksimasiya xatoligi 10 foizdan ko‘pligini ko’rishimiz mumkin. Shu bois izohlovchi omillar sifatida X_1, X_7 va X_8 lar modelda qoldirildi.

$$Y = -4125{,}88 + 1{,}3505 \cdot X_1 + 0{,}000239 \cdot X_7 + 0{,}000669 \cdot X_8 \quad (2.16)$$

Modelni baholash mezonlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari:

Approksimasiya xatoligi: $MAPE = 7{,}47\%$

O’rtacha kvadratik standart chetlanish: $S = 5715{,}984$

t-statistika: $t_1 = -5{,}675$; $t_2 = 29{,}70$; $t_3 = 1{,}503$; $t_4 = 1.087$

$$p_i < 0.05$$

Determinasiya koyeffisiyenti: $R^2 = 0{,}9946$

Fisher mezoni: $F = 559{,}89$

Darbin-Uoson mezoni: $DW = 1{,}46$

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini ekonometrik tahlil qilishda biz quyidagi gipotezalarga asoslandik:

H_0: tanlangan omillar koyeffisiyentlarining kamida bittasi noldan farqli;

H_1: tanlangan omillar koyeffisiyentlarining barchasi nolga teng.

Yuqoridagi omillar o‘rtasida korrelasion bog‘anishni baholash maqsadida biz quyidagi korrelyasiya matrisasini oldik.

Ekonometrik tahlil natijasiga ko‘ra erksiz o‘zgaruvchiga tanlangan omillardan faqat bitta erkli o‘zgaruvchining ta’siri statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi jadvaldan quyidagi tenglama kelib chiqadi:

y=669,04*t -1540,9 (1)

Y- oilaviy korxonalar xizmatlar hajmi, t esa vaqt.

Ushbu bashorat ko‘rsatkichi oilaviy korxonalar xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyatini samarali faoliyat ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Xususan, davlat ahamiyatiga molik dasturlarni amalga oshirishda, Prezidentimiz tamonida qabul qilingan Qaror, Farmonlarda keltirilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, arzon va qulay xizmatlarni yetkazib berishda shuningdek, xizmatlarni ishlab chiqaruvchi subektlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-fevraldagi “2016-2020-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 55-sonliQarori.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik − har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

3. Togaeva D.A. Issues of classification, marking and increasing competitiveness of family enterprises in the service sector. international multidisciplinary journal for research & development eissn 2394-6334 Volume11, issue 01(2024) 17-24 betlar.

4. Togaeva D.A. Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy korxonalarni raqobatbardoshligini oshirish yo‘llar. Международный научный журнал № 6(100), chast 1 «Научный фокус» октября, 2023-yil 271-273-betlar.

5. Togaeva D.A. Possibilities of Recreation Development in International Tourism Networks. Journal of Marketing and Emerging Economics 2023-yil.

TURIZM SOHASIDA HUDUDIY KLASTERLAR VA ULARNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDAGI ROLI

O.N.Xaitov

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali dotsenti

Email: *xaitovoxunjon@samdukf.uz*
Tel: *+99899-337-59-95*

Received: 17 March 2025
Revised: 21 March 2025
Accepted: 26 April 2025
Published: 30 April 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur ishda, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida turizm sohasida hududiy klasterlarning shakllanishi va ularning milliy iqtisodiyotga ta’siri o‘rganiladi. Klasterlar, ayniqsa turistik klasterlar, mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va xo‘jalik sub'ektlari faoliyatining intensivligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada, turizm sohasidagi klasterlash siyosatining mohiyati va samaradorligi, turistik klasterlarning yaratilishi va rivojlanishidagi qiyinchiliklar, shuningdek, turizm sohasida innovatsion yondashuvlar haqida fikrlar taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *turizm, klasterlash, hududiy klasterlar, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, turoperatorlar, turistik mahsulotlar, klaster siyosati, iqtisodiy samaradorlik, turizm sohasida integratsiya.*

РЕГИОНАЛЬНЫЕ КЛАСТЕРЫ В СФЕРЕ ТУРИЗМА И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ИННОВАЦИЙ.

Аннотация: *В работе исследуется формирование региональных кластеров в сфере туризма и их влияние на национальную экономику в контексте инновационного развития экономики. Кластеры, особенно туристические, являются важным фактором повышения конкурентоспособности экономики нашей страны и обеспечения интенсивности деятельности хозяйствующих субъектов. В статье изложены идеи о сути и эффективности политики кластеризации в сфере туризма, трудностях создания и развития туристических кластеров, а также инновационных подходах в сфере туризма.*

Ключевые слова: *туризм, кластеризация, региональные кластеры, инновационное развитие, конкурентоспособность, туроператоры, туристский продукт, кластерная политика, экономическая эффективность, интеграция в сфере туризма.*

REGIONAL CLUSTERS IN TOURISM AND THEIR ROLE IN INNOVATIVE DEVELOPMENT.

Annotatsion: *This work studies the formation of regional clusters in the tourism sector in the context of innovative development of the economy and their impact on the national economy. Clusters, especially tourist clusters, serve as an important factor in increasing the competitiveness of our country's economy and ensuring the intensity of the activities of economic entities. This article presents ideas on the essence and effectiveness of clustering policy in the tourism sector, the difficulties in the creation and development of tourist clusters, as well as innovative approaches in the tourism sector.*

Keywords: *tourism, clustering, regional clusters, innovative development, competitiveness, tour operators, tourist products, cluster policy, economic efficiency, integration in the tourism sector.*

Kirish.

Bugungi kunda global iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash har bir davlat uchun muhim masalaga aylangan. Ayniqsa, turizm sohasida klasterlashning o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizm, o‘zining dinamik va tez rivojlanayotgan xususiyatlari bilan, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishning ham muhim omili hisoblanadi. Respublikamizda hududiy klasterlar yaratish, nafaqat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, balki turizm xizmatlarining global bozorlarida yuqori o‘rin egallashga yordam beradi.

Klasterlashtirish yondashuvi, xususan turistik klasterlar, resurslarning samarali taqsimlanishi, xususiy va davlat sektori o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ammo, turizm sohasidagi klasterlashtirish jarayonlari hali ham ko‘plab muammolarni o‘zida aks ettiradi. Klasterlar o‘rtasida faol hamkorlikning past darajasi, innovatsion faoliyatning sustligi va turistik xizmatlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar bu jarayonni samarali amalga oshirishda to‘siqlar yaratadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Turizm sohasida klasterlash va uning innovatsion rivojlanishi so‘nggi yillarda turli ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar mavzusiga aylangan. Mamlakatimiz olimlari ham ushbu sohada o‘z izlanishlarini olib borib, turizmning hududiy rivojlanishi va klasterlashtirish mexanizmlarining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etganlar. Bu bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar, klasterlashning iqtisodiy va ijtimoiy samarasini yaxshilash, innovatsiyalarni tatbiq etish hamda turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

A.Yu.Aleksandrova va V.A.Krujalinning ilmiy ishlarida, turistik klasterlarning iqtisodiy jihatlari va ular orqali mamlakatimiz turizm sohasida raqobatbardoshlikni qanday oshirish mumkinligi to‘g‘risida batafsil tahlillar keltirilgan. Ular turizmni rivojlantirishda hududiy klasterlar yaratishning iqtisodiy samaralari haqida so‘z yuritib, klasterlarni muvaffaqiyatli shakllantirishning iqtisodiy asoslarini va boshqaruv mexanizmlarini o‘rganadilar. Shuningdek, ularning tadqiqotlarida davlatning roli, xususan, turizm sohasini tartibga solish va klasterlarni qo‘llab-quvvatlashdagi siyosiy ahamiyati ham alohida ta’kidlanadi.

B.Sh. Safarov va M.Alimova turistik klasterlar sohasida o‘z tadqiqotlarini olib borganlar. Ular klasterlashtirishning innovatsion jihatlarini tahlil qilib, turizm sohasida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishning ahamiyatini ko‘rsatdilar. Klasterlar nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi, balki turizmning raqobatbardoshligini oshirishi uchun ilmiy va texnologik innovatsiyalarni tatbiq etish zaruriyatini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, innovatsion rivojlanish uchun ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash zarur.

I.S. Tuxliyevning tadqiqotlari, shuningdek, turizm klasterlarining innovatsion rivojlanishiga qaratilgan. Tuxliyev klasterlar o‘rtasida tarmoq hamkorligini rivojlantirish, shuningdek, turistik mahsulotlarni yuqori sifatga

keltirish va yangi xizmatlarni ishlab chiqish orqali, turizm sohasida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda turizm sohasidagi klasterlashning innovatsion rivojlanishini o‘rganish uchun bir nechta metodlar birlashtirilgan. Tadqiqot metodologiyasi, klasterlash nazariyasi, empirik tahlil, solishtirma tahlil, kazuslar (case-study), va ekspert baholashlari kabi usullarga asoslanadi. Bu metodlar orqali mamlakatimizda turizm sohasida klasterlashning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, shuningdek, uning innovatsion rivojlanishga ta’siri chuqur o‘rganiladi.

Tahlil va natijalar.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida respublikamizda hududiy klasterlarning rivojlanishi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va xo‘jalik sub’ektlari faoliyatining intensivligini ta’minlashning muhim omili va shart-sharoiti bo‘lib hisoblanadi.

Iqtisodiyot va menejment fanlarida, xususan, turizmda «klaster» atamasi ko‘p qo‘llaniladigan tushuncha hisoblanib, uning mohiyati so‘nggi o‘n yilliklarda juda tez va oldindan aytib bo‘lmaydigan tarzda o‘zgardi. Klasterlar, xususan, turistik klasterlar yaxlit holda mamlakatimiz iqtisodiyotini, shuningdek, milliy va xalqaro bozorlarda turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini berishni asosiy maqsad qilishni nazarda tutuvchi ushbu sohani innovatsion rivojlanishi uchun o‘ziga xos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga aylandi. Biroq, hozirgi vaqtda turizm sohasida klaster yondashuvni amalga oshirish jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, bu esa, o‘z navbatida, ushbu sohada amalga oshirilayotgan klaster siyosatini realizatsiya qilish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishni zarurat qilmoqda.

Bu jarayonda ta’kidlash kerakki, iqtisodiyot fanlarida klaster, iqtisodiyot soha va tarmoqlarining klaster rivojlanishini mohiyati va mazmuni atroflicha yoritib berishni talab etadi. Shuning uchun klaster nazariyasini iqtisodiyotning turli sohalri va tarmoqlarida qo‘llash bo‘yicha metodologik yondashuvlarni to‘g‘ri anglash, klasterlashtirish bo‘yicha samaradorlikka hamda yuqori ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish natijalariga erishishning yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Turizm sohasida «klaster siyosati», «turistik klaster» tushunchalari hozirgi vaqtda turizmga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ko‘p qo‘llanilayotgan tushunchalar hisoblanadi. Klaster shakllanishining asosiy jihatlarini aniqlovchi asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

– geografik jihatdan cheklangan hududda joylashgan korxona va tashkilotlarni (klaster a’zolarini) birlashtirish;

– klaster a’zolarini birlashtiruvchi motivatsion (iqtisodiy, ilmiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy va boshqalar), faoliyatni muvofiqlashtirish va tarmoqlararo hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mexanizmining mavjudligi;

– har bir ishtirokchining o‘zaro hamkorligi sababli iqtisodiy ko‘rsatkichlarining real istiqbollari.

Klasterlarning mavjud belgilari va ta’riflari munozarali bo‘lib, ko‘plab tanqidlarni keltirib chiqaradi, ulardan eng muhimi quyidagilardir:

1. Internet va boshqa global tarmoqlar hamda axborotga

yo‘naltirilgan jamiyat rivojlanishi davrida hududiy yaqinlikning mavjudligi xizmat ko‘rsatish sohasida klasterlarning paydo bo‘lishi uchun zarur shart bo‘la olmaydi.

2. «Klaster» tushunchasining mavjud ta’riflarida klaster tuzilmalarining shakllanishi va rivojlanishida davlatning hal qiluvchi rolini aks ettirilmaydi. M.Porterning fikricha, davlat uning ma’muriy organlari va institutlari bilan ifodalangan klasterning faqat bir elementi bo‘lib, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga zid keladi.

3. Ta’kidlash kerakki, vujudga kelayotgan klaster sub’ektlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanibgina qolmay, balki o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro ta’sir darajasi klaster bozoridagi o‘zaro ta’sir darajasi va munosabati bilan belgilanadi.

Tadqiqot jarayonida turistik klasterlashning quyidagi holatlari va muhim xususiyatlariga e’tibor qaratamiz. Har qanday turistik klasterning markazida har doim insonparvarlik komponenti mavjud, chunki barcha turistik xizmatlar doimo iste’molchi va uning manfaatlariga qaratilgan bo‘lib, turizm sohasini tartibga solish nuqtai nazaridan davlat va alohida hududlar siyosatiga zaif bog‘liqdir. Sanoat klasteridan farqli o‘laroq, turistik klaster har doim faqat to‘rt birlikdan iborat kompleks ketma-ketlik bo‘lganda mavjud bo‘ladi: “resurs – iste’molchi – ishlab chiqaruvchi – turistik mahsulot va xizmatlarni sotuvchi”. Bunda bironta elementning tushib qolishi klaster va boshqa hududiy tashkilotlar samaradorligi va raqobatbardoshligi darajasini pasaytiradi.

Agar sanoat klasterlari mohiyati bo‘yicha hududiy bo‘lsa va ularning samaradorligi korxonalarning o‘zaro yaqinligi bilan belgilansa, turistik klasterlar ko‘pincha ma’lum bir ixtisoslashuv, hududning resurs imkoniyatlari, shuningdek, turistlarning mavjud ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ekstraterritorial tuzilmalar sifatida shakllanadi. Turistik klasterlarning yaratilishi «resurslar» va «ehtiyojlar» yondashuvi bo‘yicha ajralib turadi.

Turistik klasterning o‘ziga xosligi, u ishlab chiqaradigan va realizatsiya qiladigan turistik mahsulotning kompleks tavsifga ega ekanligidir. Agar sanoat klasteri korxonalari faoliyatida aksariyat hollarda yakuniy mahsulot yaratilsa, turistik klaster sharoitida yakuniy mahsulot faqat turistik korxonalarning maxsus guruhi – turoperatorlar tomonidan loyihalashtriladi va ishlab chiqiladi, keyinchalik esa yakuniy iste’molchilarga – turagentliklar orqali realizatsiya qilinadi. Bunda alohida hududlarning turizm imkoniyatlari va tashkilotlari hamda aniq turistik klasterlarning turistik imkoniyatlari va o‘rnini aniqlash, marketing metodologiyasini hisobga olgan holda turistik klasterlarni loyihalashtirish va shakllantirishga maxsus yondashuvlar talab etiladi.

Turistik klasterlashtirishning eng muhim muammolaridan biri klaster tuzilmalarining boshlang‘ich va yakuniy innovatsion faolligining pastligidir, chunki: a) klaster ichidagi innovatsiyalar faqat ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib, faqat iste’molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun turizm mahsulotlari va xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan; b) to‘g‘ridan-to‘g‘ri klaster shakllanishi hududida joylashgan kam sonli ilmiy-tadqiqot va ta’lim

muassasalari; v) ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining turoperatorlar, turagentlar va pudratchilar faoliyatiga jalb etilishining past darajasi;

Klasterlar shakllanishining quyidagi uchta xususiyatini ajratib ko‘rsatadi:

– odatda fan va ta’lim muassasalari bilan bog‘liq bo‘lgan ichki yaqin tarmoq sektorlarining iqtisodiy faoliligining hududiy cheklangan shakllari va yo‘nalishlari;

– vertikal ishlab chiqarish-iqtisodiy zanjirlar; ishlab chiqarish jarayonining yaqin bosqichlari klasterning o‘zagini tashkil etuvchi tor doiradagi tarmoqlar sektori;

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqotda, turizm sohasida hududiy klasterlarning shakllanishi va ularning innovatsion rivojlanishga ta'siri o‘rganilgan. Turizmning innovatsion rivojlanish sharoitida hududiy klasterlar nafaqat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi, balki xizmatlar sifatini yaxshilash, resurslarni samarali taqsimlash, va xususiy va davlat sektori o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatimizda klasterlash jarayoni hali ham bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda, masalan, innovatsion faoliyatning sustligi va tarmoqlararo hamkorlikning past darajasi.

Biroq, klasterlashtirishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish, global bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini yaratadi. Turistik klasterlarning samarali faoliyati uchun ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining roli, turoperatorlar va turagentlarning innovatsion yondashuvlari muhim ahamiyatga ega.

Turizm sohasida klasterlashning innovatsion rivojlanishi jarayonida davlatning roli, klaster siyosatini qo‘llab-quvvatlash, va ilmiy-texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish zaruriyati bor. Tadqiqotda turistik klasterlarning shakllanishi va ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi masalalari yanada chuqurroq o‘rganilgan bo‘lib, bu yondashuv mamlakatimizda turizmni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

20. Aleksandrova A.Yu., va Krujalin V.A. Turistik klasterlarning iqtisodiy jihatlari va raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli. Tashkent, Uzbekistan: TDTU Nashriyoti, 2016-y.

21. Safarov B.Sh., va Alimova M. Turistik klasterlarning innovatsion jihatlari va yuqori texnologiyalarni tatbiq etish. Tashkent, Uzbekistan: Innovatsiya va iqtisodiy taraqqiyot nashriyoti, 2019-y.

22. Tuxliyev I.S. Turizm klasterlarining innovatsion rivojlanishi: tarmoq hamkorligi va yangi xizmatlar yaratish. Tashkent, Uzbekistan: O‘zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti, 2018-y.

23. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.

CONTENTS

1	**XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.**	
	Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna	**4-9**
2	**HUDUDIY MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARIGA MOS KELUVCHI KADRLARGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.**	
	Xamidova Aziza Abdufattoyevna	**10-17**
3	**ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ.**	
	Усманова Дилафруз Каршиевна, Бозорова Фарангиз Шерзод кизи	**18-25**
4	**СУЩНОСТЬ, ЗНАЧЕНИЯ, РОЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПОВЕДЕНЧЕСКОЙ ЭКОНОМИКИ.**	
	Джумаев Аскар Хайдарович	**26-30**
5	**HUDUDIY TURIZM KLASTERLARIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA DAVLAT BOSHQARUVI INTEGRATSIYASI.**	
	O‘sarov Abdulla Davronqulovich	**31-37**
6	**O‘ZBEKISTONDA TURIZM BOZORINI RIVOJLANISHNING, TURIZM INDUSTRIYASINING IMKONIYATLARI VA AHAMYATI.**	
	Daminov Olimjon Nurmamat o‘g‘li	**38-44**
7	**O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARNING O‘RNI.**	
	Nasimov Ikrom Xusanovich, Axadov Sardor Sherzod o‘g‘li	**45-48**
8	**ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI.**	
	Xo‘jaqulov Bobur Rustam o‘g‘li	**49-55**
9	**XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA RAQOBAT STRATEGIYALARINI QO‘LLASH.**	
	Shuhrat Sharifov Saidahmadovich, Ravshanov Musojon Ravshan o‘g‘li	**56-62**
10	**YANGI O‘ZBEKISTONDA AHOLI O‘SISH STATISTIKASINING AHAMIYATI VA PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI.**	
	Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li, Sanakulova Iroda Abrorovna	**63-68**
11	**ISTE'MOLCHILARNI ELEKTRON TIJORATDAN FOYDALANISH TAJRIBASINI YAXSHILASH YO‘LLARI.**	
	Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li	**69-78**
12	**ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOS KADRLAR TAYYORLASHNING TIZIMLI YONDASHUVI.**	
	Qurbonov Sirojiddin Qurbonovich, Pardakulov Dalerjon Erkinovich	**79-85**
13	**O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA RAQAMLI MARKETING-TOVAR-XIZMATLARNI INTERNET ORQALI TARG‘IB QILISH**	
	Pazilidinov Muxiddin Maxammadin o‘g‘li	**86-94**
14	**FARG‘ONA VODIYSIDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIKDAN CHIQARISHDA EKOTURIZM IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHDA AVTOMOBIL YO‘LLARI TARMOG‘INI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI.**	
	R.M.Axmedov	**95-99**
15	**AGROTURIZMNING SALOHIYATINI BAHOLASH USULLARI.**	
	Jurakulova Sarvinoz Baxtiyor qizi	**100-104**
16	**EFFICIENCY OF DRUG PRODUCTION OF HUPERICUM PERFORATUM LEDEB IN THE PHARMACEUTICAL INDUSTRY.**	
	Ernazarov Ortik Eshnazarovich, Musinov Zokir Rahmonovich	**105-109**
17	**SAMARQAND VILOYATI KORXONALARINING MOLIYAVIY FAOLIYATI NATIJALARINI BAHOLASH.**	
	Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	**110-118**
18	**«YASHIL» IQTISODIY O`SISHNI TA`MIRLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.**	
	Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich, Boliyeva Baxora Farxodovna	**119-125**
19	**SAMARQAND VILOYATIDA INTERAKTIV TIBBIY XARITA JORIY QILISHNING IMKONIYATLARI.**	
	Axrorova Munavvar Farxod qizi	**126-131**

20	**O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI.**	
	Shuhrat Sharifov Saidahmadovich, Soxibov Farrux Ortikovich	**132-139**
21	**THE ROLE OF TRANSPORT LOGISTICS IN CIRCULAR ECONOMY.**	
	Urazov Komil Baxramovich, Orzukulova Zumrad Abdukholik kizi	**140-146**
22	**MINTAQADA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING TARGETLASH MEXANIZIMLARI.**	
	Baratov Javlon Norjigitovich	**147-153**
23	**KICHIK VA O‘RTA TURISTIK KOMPANIYALAR UCHUN BRENDNI YARATISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.**	
	Bunyod BakhodirovBaxtiyorovich, Nuriddinov Tohir Salohiddin o‘g‘li	**154-158**
24	**O‘ZBEKISTONDA INDUSTRIAL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNI AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TA’MINLASHGA TA’SIRI.**	
	Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li, Rashidov Shoxrux Zohid o‘g‘li	**159-164**
25	**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISHDA ISTIQBOLLI LOYIHALARNING O‘RNI.**	
	Ikramova Dilnoza Abduraxmanovna	**165-169**
26	**XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH STRATEGIYALARI.**	
	A’zamova Feruza Abduholiq qizi	**170-176**
27	**TURISTLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING MEYORIY-HUQUQIY VA TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI.**	
	Pardayev Botir Raxmatullayevich	**177-182**
28	**MODERN THEORETICAL CONCEPTS OF DEFINITION OF POVERTY.**	
	Nasimov Ikrom Khusanovich	**183-188**
29	**IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHI SHAROITIDA CHAKANA SAVDO KORXONALARI FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI.**	
	Abdullaeva Zulfiya Izzatovna	**189-198**
30	**TURIZM XIZMATLARI SIFATINI NAZARIY VA AMALIY JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISH UCHUN INTEGRATIV YONDASHUV.**	
	Kamolova Mohinur Iskandarovna	**199-203**
31	**RESPUBLIKADA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.**	
	Shuhrat Sharifov Saidahmadovich, Nazarov Ulmas Alisherovich	**204-209**
32	**TA’LIM XIZMATLARI BOZORI RIVOJLANISHIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARI TADQIQOT OB‘EKTI SIFATIDA.**	
	Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	**210-215**
33	**KORXONALARDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNATNI RAG’BATLANTIRISHNING RAQAMLI TENDENSIYALARI.**	
	Amirov Akmal Mexrojovich, Naimov Damir	**216-222**
34	**INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA KORXONA XODIMLARINING XAVFSIZLIGI BILAN BOG'LIQ XAVFLARNI BAHOLASH USULLARI.**	
	Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich	**223-229**
35	**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI PLATFORMALAR.**	
	Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	**230-236**
36	**FOREIGN EXPERIENCES IN DEVELOPING MEDICAL TOURISM.**	
	Sultonov Akobir	**237-243**
37	**MAMLAKATIMIZDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ENOTURIZM RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI.**	
	Tursunov Xasan Xolmuminovich	**243-248**
38	**DEVELOPING THE TOURISM SECTOR THROUGH THE EFFECTIVE USE OF NATURAL TOURISM RESOURCES.**	
	Rabbimov Muxriddin Musoqul o‘g’li	**249-253**
39	**O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASIDA OILAVIY KORXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI.**	
	Togayeva Dilnoza Azamatovna	**254-258**
40	**TURIZM SOHASIDA HUDUDIY KLASTERLAR VA ULARNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDAGI ROLI**	
	Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li	**259-263**